



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

5/2024

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



5/2024

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**  
**2024, № 5, aprel**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Xolliyev Askar Ergashovich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Artikova Hafiza To'ymurodovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Hayitov Shavkat Ahmadovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbonova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna**, kimyo fanlari doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich**, texnika fanlari doktori, dotsent

**Esanov Husniddin Qurbonovich**, biologiya fanlari doktori, dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, professor

**Jumayev Jura**, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Klichev Oybek Abdurasulovich**, tarix fanlari doktori, dotsent

**G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

<b>MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS</b>		
<b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b>		
<b>Қувватова Д.Х., Сафарова Х.О.</b>	Самандар Воҳидовнинг дostonчиликдаги ижодий изланишлари	3
<b>Davronova Sh.G‘.</b>	Isajon Sulton hikoyalarida ma’naviy qadriyatlar talqini	8
<b>Ражабов Д.З., Ражабова Р.З.</b>	Халқ кўшиқларининг пайдо бўлиш асослари ва табиатига хос хусусиятлар	13
<b>Qodirova M.A.</b>	Ahmad A’zam badiiy tasvir mahorati	19
<b>Xamdamova S.B., Gaybulloyeva V.Sh.</b>	Emili Dickinson she’riyatida romantizm xususiyatlari in’ikosi	25
<b>Inoyatova D.I.</b>	The comparison of the concept of ugliness in english and uzbek proverbs	29
<b>Israilov G‘.B.</b>	Sakkokiy devoni xususida	33
<b>Jabborova M.V.</b>	Zamonaviy o‘zbek she’riyatida samoviy timsollarning lirik qahramon ruhiyatini ifodalashdagi badiiy-estetik talqini	
<b>Sharopova Sh.Sh., Kilicheva M.R.</b>	Identifying the “story telling” element of self-help genre on the work of “How to win friends and influence people” by Dale Carnegie	41
<b>Mulloqulova Z.Sh.</b>	O‘zbek adabiyotida adabiy topishmoqlarning badiiyati	45
<b>Xolnazarova M.X.</b>	Buxoriy hadislarida odob-axloq tushunchalari	49
<b>Ziyodulloeva A.A.</b>	Psycho-emotional features of color interpretation in english literary works	55
<b>Исаева Г.А.</b>	Дихотомия образа врага в военной литературе Шухрата и Ю.Бондарева	60
<b>Кенджаева Г.Ф.</b>	Способи передачи паремиологических единиц в русских и английских переводах романа Абдулла Кадыри «Минувшие дни»	67
<b>Розикова Н.Н.</b>	Метажанровые трансформации и экспериментальное переопределение жанров в современной литературе	71
<b>Nazarova G.P., Davronova R.A.</b>	Laila’s attitude towards gender discrimination in Khaled Hosseini’s “A thousand splendid suns”	78
<b>Каримова И.Д.</b>	Вера в бога как механизм выживания в романе "Робинзон Крузо" Даниэля Дефо	82
<b>Murtazayev E.N.</b>	XX asr jahon adabiyotida ekspressionistik qarashlar	87
<b>Махмудова С.Х.</b>	Erkin Vohidovning “O‘zbekiston” she’rida vatan talqinlari	91
<b>JURNALISTIKA *** JOURNALISM *** ЖУРНАЛИСТИКА</b>		
<b>Berdiyeva S.A.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni tarkibida matbuot kotibining roli	95
<b>Primov Sh.M.</b>	“Mushtum” jurnalining tarixiga bir nazar	101
<b>Berdiyeva S.A.</b>	O‘zbekistonda matbuot xizmatlari	105
<b>“NAVOIY GULSHANI”</b>		
<b>Hikmet K., Sayliyeva M.R.</b>	Ey, nubuvvat xaylig’a xotam bani Odam aro	112

<b>FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ</b>		
<b>Mansurova N.D.</b>	O'zbekistonda gender tenglik siyosati	117
<b>Bekdurdiyeva G.A.</b>	Markaziy Osiyoda ekologik siyosatning konseptual asoslari	122
<b>Eshbekov D.Sh.</b>	O'zbekistonda parlament bikameralizmi davlat rivojining demokratik asosi sifatida	127
<b>Murtazayev D.B.</b>	O'zbekistonda zamonaviy adliya tizimining tarixiy rivojlanish tendensiyalari	132
<b>Qolqanatov A.N., Samiyev B.N.</b>	Moliyaviy munosabatlarda xalqaro kapital migratsiyasi	140
<b>Абдирасулов М.Х.</b>	Марказий Осиё давлатларида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишдаги муаммоларнинг таҳлили	144
<b>Boymirzayeva M.Sh.</b>	Radikalizmning mohiyati, asosiy shakllari va ilmiy talqinlari	150
<b>TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ</b>		
<b>Xaitov Sh.A., Ahmadov A.A.</b>	XX asr boshida Buxoro amirligidagi turk va afg'on fuqarolari, ular bilan mahalliy aholining munosabati xususida (O'zbekiston milliy arxivi ma'lumotlari asosida)	156
<b>Boltayev B.B.</b>	Buxoro elektr tarmoqlari tarixi muzeyi	160
<b>Naimov I.N.</b>	Buxoro amirligida jazo va ijro amaliyoti	164
<b>Эргашев Ж.Ю.</b>	Турк хоқонлиги ҳокимиятининг кўчманчи киданлар устида юритган сиёса	169
<b>Шодиева Ш.С.</b>	Бухоро амирлигида маъмурий-ҳуқуқий масалалар	176
<b>Очиллов А.Т.</b>	Бухоро воҳасида антропоген ландшафт ривожланишини ўрганишга доир олиб борилган археологик тадқиқотлар	180
<b>Murodova D.Sh.</b>	Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tarixiga oid arxiv hujjatlari	186
<b>Qurbonov O'R.</b>	Amir Temur tashqi siyosatida xalqaro savdo aloqalari omili	191
<b>Boltayev B.B.</b>	Buxoro viloyati muzeylari faoliyatini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvlar	195
<b>Bafoyeva S.U.</b>	Buxoro vohasidagi Romitan qo'rg'onining antik va ilk o'rta asrlar davri tarixi	199
<b>IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА</b>		
<b>Meylikov F.A.</b>	Hududlarni iqtisodiy rivojlantirish (Qashqadaryo viloyati misolida)	203
<b>Isayeva G.</b>	Western Azerbaijan: tourism opportunities of gagan region	207
<b>PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА</b>		
<b>Bozorova V.M.</b>	The importance of modern innovative technologies and their role in improving the quality of independent learning	212
<b>Maqsudova M.U.</b>	Teaching speaking of english as a foreign language	218

## САМАНДАР ВОҲИДОВНИНГ ДОСТОНЧИЛИКДАГИ ИЖОДИЙ ИЗЛАНИШЛАРИ

**Қувватова Дилрабо Ҳабибовна,**

Бухоро Давлат университети профессори, ф.ф.д.

[d.h.quvvatova@buxdu.uz](mailto:d.h.quvvatova@buxdu.uz)

**Сафарова Ҳилола Охунжоновна,**

Бухоро Давлат университети доценти, ф.ф.н.

[h.o.safarova@buxdu.uz](mailto:h.o.safarova@buxdu.uz)

**Аннотация.** Истиқлол йиллари Бухоро адабий ҳаракатчилигида дoston жанрининг яхши намуналари яратилган. Лиро-эпик характердаги бу асарлар сюжет тизими, образлар олами, бадиий тили нуқтаи назарида янги ўзбек адабиёти яратилган шу жанр намуналарига бўйлаша олади. Шу жиҳатдан мақолада таниқли шоир С.Воҳидовнинг “Андух” ва “Сунбула” дostonлари таҳлил этилган.

**Калим сўзлар:** адабий ҳаракатчилик, дoston, лиро-эпик дoston, ечим, воқеалар ривожси, раҳбар аёл образи, истиқлол мавзуси, кечинма, эпик талқин.

## ТВОРЧЕСКИЕ ИЗЫСКАНИЯ САМАНДАРА ВОХИДОВА В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

**Аннотация.** В годы независимости литературное движение Бухары создало хорошие образцы эпического жанра. Эти произведения лирико-эпического характера можно считать образцами нового жанра узбекской литературы по сюжетной системе, миру образов, художественному языку. По этому поводу известный поэт С. Анализируются былины Вахидова «Андух» и «Сунбула».

**Ключевые слова:** литературная мобильность, эпос, лиро-эпическая эпопея, развязка, развитие событий, образ Ведущей женщины, тема независимости, мольба, эпическая интерпретация.

## CREATIVE RESEARCH OF SAMANDAR VOHIDOV IN FICTION

**Annotation.** In the years of independence, Bukhara's literary movement created good examples of the epic genre. These works of a lyrical-epic character can be considered examples of the new Uzbek literature genre in terms of the plot system, the world of images, and the artistic language. In this regard, the well-known poet S. Vahidov's epics "Anduh" and "Sunbula" are analyzed.

**Key words:** literary mobility, Epic, liro-epic epic epic, solution, development of events, image of a Leading Woman, theme of independence, supplication, epic interpretation.

**Кириш.** Истиқлол йилларида Бухоро адабий муҳитида ҳам ўзига хос янгиланишлар жараёни кечди. Адабий турнинг деярли барча жанрларида асарлар яратилди. Жумладан, бу йилларда дoston жанри ривожланди. С.Воҳидов, Т.Аҳмад, О.Сафаров сингари адабий ҳаракатчиликнинг фаол намунадалари ижоди бундан гувоҳлик беради. Тарихий ўтмиш (Т.Аҳмад “Зафарон нидолар”, О.Сафаров “Бухорийлар ёхуд ўн икки юлдуз ҳақида кўшик”), замонавий мавзулар (С.Воҳидов “Андух”) кабилар мулоҳазаларимизни тасдиқлаб туради.

**Асосий қисм.** С.Воҳидовнинг «Андух» дostonида қисса ва романлардаги каби воқеалар муаллиф тилидан баён этилади. Бироқ асар анъанавий дostonлардан фарқли равишда ечимдан бошланади. Яъни ижрокўм раисасининг онаси вафот этади. Шундан сўнг унинг ҳаётида ўзгаришлар вужудга келади. Раиса ўз-ўзини тафтиш қилиш орқали ўз кечмишини кўз ўнгидан ўтказди.

Шоир бир қатор ҳаётий эпизодлар орқали ёлғиз аёлнинг андух тўла ҳаётини, унинг қалб тебранишларини, фожиавий жиҳатларини қаламга олишга интилади. Дастлабки воқеа Кесканчинорда бир келинчакнинг ўзини ёқиши билан алоқадор. Раиса бу хабарни эшитгач, далда бўлиш истагида фожа юз берган хонадонга боради. Бироқ унинг дарди, ғамлари янада ортади. Сабаби, келинчакнинг онасига юпанч тилаб турганда, у раисанинг ёлғизлигини юзига солади:

–Ўзганинг дардига қозилик осон,

Сен фарзанд доғини билмайсан, раис.

Билардинг бирорта туғиб ўстирсанг,

Ғўра бўлмай боланг, бўлганда майиз...[123,213]

Раиса учун бундан ортиқ дашном бўлиши мумкинми? Ана шунда у ёлғизликни янада чуқурроқ хис этади ва умри бесамар ўтаётганлигини англайди.

Иккинчи воқеа онаси томонидан Қиммат буви ҳақида айтиб берилган мунгли ҳикоядир. Қиммат буви эндигина уч кунлик келин вақтида эрини 37-йил қатағони ўз қомига тортади. Шундан бошлаб унинг умри «кутиш бекатлари»да кечади:

Жангга кетганлар келди,  
Жондан кечганлар келди.  
Келмагандан, лоақал,  
«Ўлди»деб хабар келди.  
Ундан ҳеч бир садо йўқ,  
«Бор», «Йўқ» деган нидо йўқ [123,217].

Қиммат бувининг оху афғони янглиғ янграган юқоридаги сатрларда нафақат бир жабрдийда аёлнинг, балки миллатнинг қайғуси акс этган. Зеро, қатағон йилларида олиб кетилган ватандошларимизга ўз юртига қайтиш насиб этмаган. Кутиш ҳаёти мазмунига айланган аёл ҳатто бошқа турмуш қилишни ҳаёлига келтирмаган. У сўнгги лаҳзагача шу илинжда яшаган:

Келинликда атиги уч кун  
Сирдош бўлган сатин чимилдиқ  
Бош остидан топилди шу кун,  
Тобутига бўлди ёпинчиқ... [123,218]

Бу сатрларда ўзбек аёлининг матонати, садоқати ёлқинланиб турибди. Раисанинг онаси бу мунгли ҳикояни сўзлаб берар экан, қизини бағрига босиб «қолмасинда бекас бандаси», – дейди. Ҳаётда «на дўст, на ҳамроҳ, на ҳамроз» топган раиса шу воқеани ёдга олар экан, аччиқ такдиридан унсиз йиғлайди.

Учинчи воқеа Адол дугонасининг раисани тўйга чорлагани билан боғлиқ. У тўйда элнинг раҳбари сифатида ёшларга никоҳ қоғозини топширмоқчи бўлганида, кайвони хола изн бермайди: аёлманд киши бундай шарафга лойиқлигини айтади. Бу сўзлар раиса қалбига ханжар янглиғ санчилади.

Раиса ҳам шахсий ҳаётда бахтга эришиши мумкин эди:

Кўксимда тош эмас, қиз қалби эди,  
Унда ҳам яшарди гард қўнмаган сир.  
Мансаб андишаси барини еди,  
Хувиллаб қолди у саҳродай тақир.

Бинобарин, барча қизлар каби унинг ҳам ўз муҳаббати – «гард қўнмаган сири» бор эди. Ҳатто яқин дугонаси орқали бу сирини ошкор ҳам қилган эди. Унинг раҳбарликка, мансабга муккасидан кетганлиги бу тўйғуни емира бошлайди. Кўнглидаги йигит унинг мансабдорлигига ишора қилиб, «бошга урамани тафти йўқ ойни» деган жавоби раисани ерпарчин айлайди. Шундан сўнг у бутун ҳаётини ишга бағишлайди.

Шоир раисанинг дардли кечмишини бири иккинчисини тақозо этадиган воқеалар занжирига усталик билан тизади. Бу воқеалар орқали раиса қалбида андуҳга айланган инсоний кечинмалар силсиласи намоён бўлади. Энг муҳими, ёлғизлик моҳиятини, ёлғиз аёл қисматининг ғам- қайғуга тўла онларини акс эттиради. Эпик талқин асосидан кечинмалар суратлари бўй кўрсатади.

Шоирнинг “Сунбула” достони истиклолимизнинг Бухоро тимсолидаги тасвиридир. Биламизки, 1920 йил 2-сентябрида Бухоро қизиллар томонидан ишғол қилинган. 1991 йил 1-сентябрида эса мустақиллик эълон қилинди. Орада нақ 71 йил. Сентябрдан сентябргача Сунбула ойи! Нима бу– тасодифми ёки Аллоҳнинг инояти?! “Сунбула”–ана шу ҳақидаги мушоҳада”.

Достон муқаддима, асосий қисм ва умидбахш Сунбула” кўшиғига стилизация шаклида яратилган бадиа бўлиб, достон экспозициясини ташкил этади. Оддий фолклоризм намунаси бўлган бу кўшиқнинг дастлабки қисмида шўро салтанати даврида халқимизнинг эркисизликда кечган оғир ва армонли ҳаёти тасвирланади:

“Сунбула, эй сунбула,  
Ўраб олай гул билан”.  
Халқим кўшиқ куйларди,  
Кўздан оққан сел билан.  
Боғларингда тўкинлик,  
Тонгларингда сокинлик.  
Етмас фақат эркинлик,  
Фарқсиз эдик кул билан. [5,5]

Чиндан-да, халқимизнинг ҳамма нарсаси бор эди гўё. Аммо ҳаммаси ёлғон асосида қурилган эди:  
Тинглаб, ўсганим–ёлғон,  
Ўқиб ёзганим–ёлғон,  
Уқиб, сезганим–ёлғон,  
Юрдим ёлғон йўл билан.[5, 7]

“Эркинг ўзингда” дейиларди, лекин ўша эркининг ўзи йўқ эди, “бойликларинг ўзингники” дейиларди, лекин ўша Ватан ўзгалар мустамлакаси эди. Шоир унинг озод бўлишини “ярим аср” орзу тўла дил билан кутганини изҳор этаркан, яна “Сунбула” кўшиғига мурожаат қилади ва ҳақиқий эрк шодиёнасидан хурсанд бўлиб, Истиқлол васфидан дoston битишга киришади.

Шу залда достоннинг асосий қисмига киришилади. Асосий қисм эса 1991 йилнинг 1 сентябрдан 1920 йилнинг 2 сентябригача кечган 71 йиллик тарихни ўз ичига олади. Асосий қисм 15 фаслдан иборат бўлиб, “1 сентябр, 1991 йил” манзумаси билан бошланади. Унда XX асрнинг 91 йили Сунбула – Сентябрьда дунёни ҳаяжонга солган ҳодиса – “қадим Туронда истибдод жон узиб”, “зулмат салтанати зер-забар бўлгани” ва бу оламшумул ҳодиса жаҳон аҳлини, жумладан, Ўзбекистон ва унинг халқи қувончини кўкларга етказгани, қолаверса, мустақилликни эълон қилган Юртбоши жасоратини ва унинг халққа мурожаати воқеалари поэтик тасвирланган. Шоир Юртбошининг босиқ ва вазмин нутқи орқали ёрқин қиёфасини чизади:

Сен ҳам халқсан!  
Халқлигинга қайт энди!  
Бу жаҳонга кимлигинга айт энди!  
Гулхан эдинг, сув сепиб кул қилдилар,  
Гулшан эдинг, ўт унмас чўл қилдилар.  
Кул остида қақнус бўлиб қанот ёз,  
Кўк токига бургут бўлиб ёз парвоз.  
Етар энди кун кўрганинг қулдаин,  
Ўз юртингда ўзингдайсан хўжайин.  
Ўзбекдирсан, ўз беклигинг англаб ол,  
Ўзлигинга дил кўзи-ла назар сол!  
Асли наслинг кимлигини яхши бил.  
Мустақилсан!  
Мустақилсан!!  
Мустақил!!! [5, 22]

Бу нутқдаги поэтик даъваткор руҳни кучайтиришда шоир фойдаланган риторик мурожаатлар, тазодлар, руҳий ва кўчимлар, истиора ва қўшқофия, тўқ ва оч қофиялар, такрорлар ҳамда радифлар ўзига хос вазифани бажарган. Юртбошининг мардона хитоби халқимиз учун “тақдир китоби”га айлангани, қолаверса, “сўнги умид нур”га дўниб, халқнинг асрий орзуси ушалгани шукронаси қалбларга хузурбахш сурур бахшида эта бошлади.

Шоир мустақиллик эълон қилинган кунни таърифлашда энг эзгу сўзларни, энг латиф ўхшатишлар жонлантиришларни, тароватли эпитетларни қўллайди:

Саҳарнинг ёғдуси бугун ўзгача,  
Гулларнинг кулгуси бугун ўзгача,  
Анор оқимида ўзгача туғён,  
Қишлоқ ҳар кунгидан минг қарра хушхон.

Шоир ҳаракатдаги манзарани яратаркан, жонлантириш ва муболағадан, ҳаракатга мос оҳанг жозибасини таъминлашда “ёғдуси-кулгуси”, “туғён-хушхон” каби ёндош қофиялару “бугун ўзгача” каби мураккаб радифдан фойдаланади. Шу асосда банд хотимасида келган хулосаловчи иккиликнинг мантикий жозибасига замин ҳозирлайди:

Истибдод тахтида жон берган Кун бу,  
Қарғалар ҳумога жой берган Кун бу.

Қарғалар–истибдод тузуми тимсоли, ҳумо–истиқлол рамзи, шоир шу икки образни қарама-қарши қўйиб, гўзал тазод яратаркан, истибдод салтанати кулаб, ўрнига мамлакат мустақиллиги ва халқимиз эркини барқарор этган миллий истиқлол ғалабасидан нечоғли мамнунлигини алоҳида таъкидлайди. Бундай кўтаринки кайфият кейинги икки банд яқунламаларида ҳам:

Армонлар орзуга эришган Кун бу,  
Ёғий ўз ёғига қоврилган Кун бу.  
Ва яна:

Хуллас, халқим қайта туғилган Кун бу,  
Хуррият юрт узра туғилган Кун бу,  
–тарзида қайта-қайта таъкидланади.

Шоир “Куз эди...” фаслида “Ўша кун”даги кўтаринки кайфият тараннумини давом эттирди. Бу шеърда сарлавҳа ўтган замонга дахлдор маънони англатса-да, аслида бу Кунга айланган воқелик – Истиклол воқелигини, ўтмишда таъқиқланган иймону эътиқодимиз, қадриятларимиз, онгу шууримизнинг қайтгани, гурур ва ифтихоримизни тиклангани сурурини ифодалайди.

“Сабр туби олтин” деганларидек, ниҳоят “бекорга ўлмаган Фитратлар оҳи” шўро салтанатини чок-чокидан титиб, шўрини қуритди. Тасодифни қаранги, бу кун ҳам Сунбула – Сентябрнинг 1-кунига тўғри келибди. Аммо 71 йилдан кейинги – 1991 йилнинг 1 сентябри – бу Кун! Шу тарика Сунбула–Сентябр шоир учун рамзий моҳият касб этган. Шу куни “Машъум кунлар маломатин этиб тарк, бир энтиқди регистонда мажруҳ Арк” хўрлик тимсоли бўлган қизил байроқни итқитди. Сўнгра:

Хурриятнинг насимини туйиб Арк,  
Ҳар ғиштида битта юлдуз уриб барқ,

–дея эрк завқидан суюнди. Шоир нафақат Аркни балки Минораи Калонни ҳам шу хилда жонлантириб, эрк сурурини кўтаринкилик билан тасвирлашга хизмат қилдирган. Шу ниятини ифодалаш мақсадида “дилхун минора” ва “Дилхуш минора”фасллариини ёзиб, биринчисида “етмиш йилки зор-интизор” бу кунни кутган Миноранинг “тутунга дўнган оҳ”ларини ифодалаб ёзади:

Карвонларга маёқ эди, хор бўлди,  
Сарсонларга чирок эди, кўр бўлди.  
Ўша машъум йигирманчи... Сунбула,  
Таг-тубидан кўпоргудек зилзила,  
Босқинчининг тўпларига тутилди,  
Илдизи бут экан, омон қутилди.  
Кулатолмай ёвлар бўлгач оввора,  
Ном қўйдилар унга “Ажал Минора”. [5,34]

Шоир дастлабки байтда зулавофиъ–кўп қофиялиликдан, яъни дастлабки сатрдаги “карвонларга” сўзига кейинги сатрдаги “сарсонларга” сўзини, яна шу тартибда “маёқ эди-чирок эди” ва “хор бўлди-кўр бўлди” қофиялари тизимини тузиб, фақат оҳанг ўйноқилигини таъминлаш билан чекланиб қолмай, тазод ва радифлар воситасида поэтик фикрнинг жозибали ифодалаган.

“Истиклол, истиклол”, “Истиклол кунлари Фитрат боғида” каби фаслларда шу курашларда жасорат кўрсатганларни алқаркан, истиклол сўзини шунчаки эзгу сўз сифатидамас, балки инсоннинг ўз эрки, фикри ва эзгу сўзи учун курашларда эришган яшаш ҳуқуқини ифодаловчи ижтимоий моҳиятга эга ходиса сифатида таърифлайди:

Истиклол,  
Истиклол,  
Не буюк сўзсан?  
Инсон толеида не суюк сўзсан?  
Нечук йўлларингга аз рўзи азал  
Одамзод жонидан пояндоз ёзар? [5,56]

Шоир дастлабки сатрни поэтик такрор асосидаги ҳаяжонбахшлигини кучайтириш мақсадида уч сатрга бўлса, кейинги сатрларда риторик сўроқ воситасида шундай натижага эришган. Аслида шу риторик сўроқлар эрк учун курашган халқнинг жасорати эди. “Широку Тўмариси”, Таробийси, Нажмиддин Кубродек соҳиб сиймони, Амир Темур соҳибкирони борлигини талмеҳ санъати воситасида эслатиб ўтади:

Бу халқни бир умр кул қилиб бўлмас,  
Эркини ёкса ҳам кул қилиб бўлмас.  
Кулидан тирилар самандар янглиғ,  
Қанотин ҳар пати таратар яллиғ.

Уларга издош бўлиб, Абдулла Қодирий, Чўлпон, Фитрат, Усмон Носир, Файзулла Хўжалар эрк учун кураш майдонида чақнадилар. Натижада эрк тантанасидан иборат истиклол қарор топди. Унинг қувончини Фитрат боғида пилдираб ўйнаётган болакай чехрасида, шу боғ хиёбонида қўлма-қўл ушлаб кетаётган ошиқлар севгисида “хассасини нарига суриб” коматини адл тутиб бораётган нуронийлар шиддатида кўриш мумкин.

Достондаги ҳар бир фасл мустақил воқеа ёки воқелик тафсилоти ёхуд тасвирига бағишланган бўлса-да, ўша воқеа ёки воқеликнинг ҳар бири ўзидан олдинги воқеа ёки воқеликнинг изчил мантиқий

давоми сифатида ўзаро боғланиб, бутун дoston давомида яхлит лиро-эпик сюжетнинг шаклланишига хизмат қилган.

Истиклолнинг саккиз йиллиги тантанасида кутилмаган мўжиза содир бўлади: осмон узра парвоз қилаётган турналар қарвони хушнудлик кайфиятидаги одамлар боши узра бир чарх уриб, жануб томон парвозини давом эттиради.

Турналарнинг бундай қилиши ҳамма нарсадан ҳам яхшилик излаб ўрганган шоир юрагини жизиллатади, унинг кўнгил торлари чертилиб, қалами қоғоз узра сайр этади:

Тўлиндай қалқиди бирдан издиҳом,

Самога қадалди минг-минглаб нигоҳ.

Қарсақлар янгради,

Қолиш бардавом,

Тўйга тўёнами юбординг Оллоҳ?! (Ўша манба, 30-31 бет.)

Турналарнинг эркин парвози Истиклол барқарор этган эрка мувозий келтирилганлиги туфайли уларнинг қолиши самимий рамзий маъно касб этган. Шу сабабли шоир турналар парвозидан зўр хаяжонга тушади. Уларга оқ йўл тилаб:

Нурга нур талпинса, осмон нурланар,

Гулга гул талпинса, бўстон турланар,

Дилга дил талпинса, кувонч жўрланар,

Завққа завқ кўшдингиз, меҳмон турналар,

– дея таръсе санъатиға мурожаат этса, бошқа ўринда:

Йўлингиз оқ бўлсин, руҳингиз тетик,

Сафингиз бузмасин хавотир, ҳадик,

Баҳор қотиллари ҳали ҳам тирик,

Шундан юрагимда армон, турналар,

– дея алқаб туриб, кўнглидаги хавотирдан огоҳлантиради. “Баҳор қотиллари” – шунчаки турналар парвозига халал етказувчиларгина эмас, балки мажозан истиклол ва эрк душманларини ҳам англатиб туриши билан эътиборга лойиқ поэтик образдир. Шоир бу образга яна янги поэтик маъно юклашни унутмайди:

Хайрият, баҳорни отиб бўлмайди,

Увада виждондай сотиб бўлмайди.

Баҳорга нобакор соҳиб бўлмайди,

Чекинманг, дуч келса тўфон, турналар.

**Хулоса.** Шоир поэтик талқинида баҳор рамзий маънода эрк тантанасини англатувчи моҳият касб этган, шу йўсинда дoston “Умидбахш якун” фасли билан ниҳоясига етган. Дарҳақиқат, шоир истиклол мавзусини Бухородаги тарихий воқелик фонида ифодалаб, Р.Воҳидов тўғри таъкидлаганидек, “ўзининг чиройли истиклол номасини ярата олган”.

Шундай қилиб, Самандар Воҳидовнинг “Андуҳ”, “Сунбула” каби дostonлари нафақат шоир ижодида, балки миллий истиклол даври Бухоро адабий ҳаракатчилигида ўзига хос ўринга эга.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси. Филол.фан.д-ри дисс... – Т., 2004.
2. Воҳидов С. Бухором бор, Бухором бор... (Болалар учун шеърлар, дostonлар, ривоятлар).– Бухоро: Бухоро, 1997.
3. Воҳидов С. Сунбула (Дoston, шеърлар, газаллар).– Бухоро: Бухоро, 2002.

## ISAJON SULTON HIKOYALARIDA MA'NAVY QADRIYATLAR TALQINI

*Davronova Shohsanam G'aybulloevna,*

*Buxoro davlat universiteti*

*o'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori v.b.,*

*filologiya fanlari doktori (DSc)*

*[sh.g.davronova@buxdu.uz](mailto:sh.g.davronova@buxdu.uz)*

**Annotatsiya.** Maqolada taniqli o'zbek adibi Isajon Sulton hikoyalarida milliy va ma'naviy qadriyatlar talqini masalasi tadqiq etilgan. Yozuvchi hikoyalarida milliy xarakterlar, ularning ruhiyati, kechinmalari tasviriga e'tibor qaratilgan. Hikoyalarda insoniy munosabatlardagi murakkab jihatlarining badiiy talqin etilishi va yozuvchining g'oyaviy qarashlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** hikoya, istiqloq davri hikoyachiligi, milliylik ifodasi, ma'naviy qadriyatlar talqini, Isajon Sulton hikoyalari, badiiy obraz, badiiy g'oya, badiiy mahorat.

### INTERPRETATION OF SPIRITUAL VALUES IN THE STORIES OF ISAJAN SULTAN

**Abstract.** The article examines the interpretation of national and spiritual values in the stories of the famous Uzbek writer Isajon Sultan. In the writer's stories, attention is paid to the depiction of national characters, their mentality, and experiences. In the stories, the artistic interpretation of complex aspects of human relations and the writer's ideological views are highlighted.

**Keywords:** story, storytelling of the independence period, expression of nationality, interpretation of spiritual values, stories of Isajon Sultan, artistic image, artistic idea, artistic skill.

### ТОЛКОВАНИЕ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАССКАЗАХ ИСАДЖАНА СУЛТАНА

**Аннотация.** В статье рассматривается трактовка национальных и духовных ценностей в рассказах известного узбекского писателя Исаджона Султана. В рассказах писателя уделяется внимание изображению национальных характеров, их менталитета, переживаний. В рассказах освещены художественная интерпретация сложных сторон человеческих отношений и идеологических взглядов писателя.

**Ключевые слова:** история, повествование периода независимости, выражение национальности, интерпретация духовных ценностей, истории Исахона Султана, художественный образ, художественная идея, художественное мастерство.

**Kirish.** Istiqloq davri adabiyotida milliy ruh va ma'naviy qadriyatlar keng yoritilganligi kuzatiladi. Milliylik, o'zlikni anglash, teran ildizlarga ega bo'lgan qadriyatlarimizning nechog'li hayotiy va insonparvarlik omiliga asoslanganligi badiiy asarlarda rang-barang mavzular doirasida va xilma-xil muammolar bilan bog'liq holatda aks ettirildi. Yozuvchi Isajon Sulton ijodida, xususan, hikoyachiligi misolida ushbu masalaning ayrim xarakterli jihatlarini kuzatishimiz mumkin.

Ma'lumki, yangi zamon o'zgarishlari, ilmiy-texnik va texnologik taraqqiyot insonlardan tezkorlik, hozirjavoblik, hushyorlik, ogohlik va ayni paytda, aql-idrok, mushohada kuchini talab etadi. Bunday sharoitdagi inson intellektual salohiyatli, keng dunyoqarash sohibi bo'lishi kerak. Jahon iqtisodiyoti, siyosati, axborot yangiliklari ta'siri kishilar turmush tarzining muhim va uzviy qismiga aylangan. Hayot voqeligini badiiy aks ettiruvchi adabiyotda ushbu faol jarayonlarni tahlil va talqin etishga urinishni tabiiy zarurat sifatida anglash mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jahon sivilizatsiyasining faol aralashuvi bir tomondan kishilarning intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tarafdin millatning ma'naviy qadriyatlari, masalan, o'zaro munosabatlardagi ayrim nozik jihatlar, shuningdek, birlik, hamjihatlik, urf-odat va an'analarni davom ettirish, asor-u atiqalarni asrab-avaylash kabi masalalar doirasida ayrim salbiy oqibatlarining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqidagi qarash yozuvchi Isajon Sulton asarlarida badiiy asoslanadi. Adibning "Boqiy darbadar", "Ozod", "Genetik" romanlarida, "Onaizorim", "Hazrati Xizr izidan", "Avvalgilarga o'xshamas" qissalarida milliy kolorit, ma'naviy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, "Boqiy darbadar" romanidagi ushbu parcha fikrimizga asos bo'la oladi: "... Yana bir qancha vaqt o'tgach, dunyoda na vatan, na

millat va na til tushunchasi qoladi, – deb o‘yladi Professor. – Bu jarayon balki allaqachon boshlanib ulgurandir? Yana qanchadir vaqt o‘tib ro‘y beradigan iqtisodiy va axborot xurujlridan keyin mamlakatlarning chegaralari yo‘qolib ketsa, boshqarish iplari to‘g‘ridan to‘g‘ri kapital qo‘liga o‘tsa, ya‘ni yer yuzini qit‘alararo shirkatlar boshqarsa-chi? Haqiqiy globallashuv ana shunda avj olsa, qayerda iqtisod gullab-yashnasa, odamlar o‘sha yerga to‘plana boshlasa... va vaqt-soati kelib, qadriyatlar yemirilib-tamom bo‘lsa-chi?...” [8.43]. Bunday mushohadalarga chorlash borasida adibning hikoyalari ham alohida e‘tiborni tortadi. Adib hikoyalari mutolaa qilgan inson ona yurt, muqaddas zamin va mard, tanti, mehnatsevar, samimiy el, do‘st-birodar, yaqin insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat masalalari to‘g‘risida o‘yga toladi. “Bayroq”, “Oydinbuloq”, “Avazboylik tantilar”, “Bibi Salima”, “Ota raqsi”, “Ona yurt sog‘inchi”, “Otamga nimadir bo‘ldi”, “Ota qasidasi” kabi hikoyalari aks etgan masalalar kitobxonni mulohaza qilishga undaydi. Zero, “Odamlarning yashashi va rivojlanishi uchun moddiy noz-ne‘matlar qanchalik zarur bo‘lsa, ma‘naviy qadriyatlar ham juda muhimdir” [11.286].

**Natijalar va uning muhokamasi.** Isajon Sulton yaratgan milliy xarakterlar “bir mayizni qirq bo‘lib” yeydigan o‘zbek xalqining umumlashma timsollaridir. Ular – yaqinlariga ezgulik ulashish, yaxshilikni faqat o‘ziga emas, barchaga ravo ko‘rishga odatlangan duogo‘y, oqko‘ngil kishilar toifasidan. Ular faqat o‘zlariga kelgan boyluk, shon-shuhrat, muvaffaqiyatdan chinakamiga shodlana olmaydilar, moddiy qimmatga ega narsalarini o‘zgaralar bilan baham ko‘ribgina taskin topadilar. Ular o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini umum manfaatining tarkibiy qismi sifatida anglaydilar. Ma‘naviy asoslar, ya‘ni yaxshi muomala, ko‘ngil so‘rash, taskin berish kabi jihatlari ham ularda samimiyatga asoslangan. Xudbinlik, shaxsiyatni ustun qo‘yish, o‘zgaralarga zulm-zo‘ravonlik, o‘zgaralar mehnatiga sherik bo‘lish ularning tasavvurlari uchun yot tushunchalardir. Adibning “Bibi Salima”, “Men, onam va O‘rta Yer dengizi” kabi hikoyalari tasvir etilgan voqealik, qahramonlarning o‘y-kechinmalari ifodasida ana shunday jihatlarni kuzatish mumkin.

“Men, onam va O‘rta Yer dengizi” hikoyasida insonlardagi el-yurtga, yaqinlarga bo‘lgan mehr-oqibat tushunchasi badiiy talqin etiladi. Inson uchun odatga, ko‘nikmaga, zaruratga, ehtiyojga aylangan narsalar, tushunchalar bo‘ladiki, ular uning hayoti mazmunini tashkil etib boradi. Har qancha go‘zal, qimmatli, hayratlanarli bo‘lmasin, ma‘naviy asoslar bilan bog‘lanmas ekan, qadrli sanalmaydi. Onasini O‘rta Yer dengiziga sayohat qildirish uchun olib borgan o‘g‘il undagi o‘zgarishlarni ko‘radi va uning nigohi bilan kuzatgan kitobxon ham onaning holatlarini his qila boshlaydi. Ona o‘zga yurtlarda ko‘k choynig topilmasligidan ham, shunaqangi katta dengiz bor joylarda ichishga yaroqli suv yo‘qligidan ham, u yerdagi tartib-qoidalardan ham hayratga tushadi. Ayol yuklarini ko‘tarish uchun yordam taklif qilgan xizmatchining taklifini qabul qilmaydi, uning muomalasini xizmat vazifasi deb emas, balki samimiy deb biladi, uni o‘z o‘rnida alqab ham qo‘yadi. Chunki u hayot kechiradigan maskanlarda o‘zaro hurmat, munosabat, ko‘mak degan tushunchalar moddiy asosga qurilmagan, aksincha ma‘naviy asoslar bilan bog‘langan edi. O‘g‘il uning kayfiyati chinakamiga ko‘tarilmaganligini sezib turardi. Hatto bu haqida u onasidan so‘rashga ham jazm qiladi. “Tavba, kimdir shunaqa joylarga kelib mahliyo bo‘lib, maza qilib dam olib ketsa. Meni o‘ylaganlarimni qara, – deb xushhol kuladi. – Endi, shunaqaman-da, bolam. El-yurtsiz dengiziyam, tog‘iyam tatirmidi?”

– Mana, shuncha kun yurdig-u yeganim ichimga tushmadi. Xudo yaratib qo‘ygan shu mo‘jizalarni bir o‘zim ko‘rayotganimdan iymandim. Singillaring, amma-xolalaring, tog‘a-yu amakilaring, tumonat xalq turibdi u yoqda. Qo‘shni to‘y boshlab qo‘yuvdi, tog‘ang qiz chiqarmoqchiydi...” [9.13]. Ona bunday go‘zal maskanlarni bir o‘zi ko‘rib turgani uchun ham haqiqiy zavqni tuyib bilmaydi, balki bu joylarni yaqinlari bilan birga ko‘rishni, ularning ham shunday ajoyibotlardan bahramand bo‘lishlarini istaydi.

Ko‘rinib turibdiki, ayol yaqinlarining tashvishi, muammolari xayoli bilan yashaydi, faqat o‘zi bahramand bo‘lgan ajoyibotlarni o‘zgaralarga ham ilinadi. Uning uchun farzandlari, el-yurti, yaqinlari qadrli va suyuq. Ona yurti va uning quvonch-u tashvishlariga sherik bo‘lishdan qoniqish hissini tuyadi. Ayolning qalbidagi bari muqaddas deb bilgan qadriyatlari yurti va vatandoshlari bilan uzviy bog‘langan. Hikoya oqko‘ngil, mehribon, fidoyi o‘zbek onalarini tasavvurimizda jonlantiradi.

Isajon Sulton hikoyalari vatanparvarlik, yurtsevarlik, fidoyilik, mardlik ulug‘lanadi. Adibning qahramonlari vatandoshlarining og‘irini yengil qilish, ularni kerak paytida, qiyin sharoitlarda qo‘llab-quvvatlashni o‘zining muqaddas burchi deb biladi va kerak o‘rinda mas‘uliyatli vazifasini ado etmasdan keta olmaydi.

Yozuvchining “Bayroq” nomli hikoyasida insoniylik, fidoyilik masalasi yoritiladi. Hikoya qilinishicha, jangarilarning o‘qidan yaralangan do‘stiga yordam qo‘lini cho‘zgan feldsher yigit o‘zining hayotini xavf ostiga qo‘yib bo‘lsa-da, vazifasini oxiriga yetkazadi. Asarda dushman kuchlarining chegaradan o‘tishga urinishi, xavfning bartaraf etilishi, askar yigitning qahramonlik ko‘rsatib xalok bo‘lishi hamda bir guruh harbiy yigitlarning qahramon jangchining ota-onasi holidan xabar olish uchun borishi bilan bog‘liq voqealar aks etgan. Asar muqaddimasida yurt bayrog‘i haqida so‘z ketar ekan, jumladan, shunday fikrlar qayd etiladi:

“Bayroq shunaqa narsa-da: bir qarasang, oddiy mato deysan, biroq yurt timsoliga aylanganidan keyin o‘zida olam-jahon ma‘nolarni mujassam qilib oladi” [9.15]. Yozuvchi bayroq ramzida muqaddas qadriyatlar, el-yurt, do‘st-birodar, insoniy burch tushunchalarining mohiyatini jamlashni maqsad qilgan. Kishilarning bir-birlari uchun mas‘ullik, fidoyilik hissini anglashlari va uni amalga oshirish uchun kuch topa bilishlari ularning odamiyligini namoyon etadi. Xavf-xatar borligini ko‘rib tursa-da, insoniy burchini tark eta olmagan yigit do‘stiga yordamga otlanadi. Hikoyada el-yurt uchun muqaddas qadriyat sanaluvchi tushunchalar bayroq ramzi mohiyatida jamlanadi. Yurtini muqaddas qadriyat sanagan insonlar uning bayrog‘i yuksakda hilpirashi uchun harakat qiladilar va bundan g‘urur tuyadilar. O‘g‘lining safdoshlari oldida o‘zini vazmin tutib turgan bo‘lsa-da, ota yelkasiga bayroq yopilganidan keyin chidab tura olmaydi: “Yigitni mahkam quchoqlab, baland yelkasiga tirish yuzini bosib ho‘ngrab yubordi. Uyalmay-netmay yig‘lar, ko‘z yoshlari askarning ko‘ylagiga, bayroqqa tomardi” [9.23]. U bayroq mohiyatida aks etgan o‘g‘lining muqaddas xotirasi, tinchlikda hayot kechirayotgan, omonlik istagan elning olqishi mujassamligini anglab turar edi. Ana shunday muqaddas qadriyatlarni o‘zida jamlagan bayroq otaning qalbini to‘lqinlantirib yubordi, endi u ko‘z yoshlarini tiyib tura olmadi.

Hikoyada insoniy burch, vatan, el oldidagi mas‘uliyat, fidoyilik kabi insoniy qadriyatlar badiiy talqin etib berilgan.

Isajon Sulton hikoyalarida oilaga, ota-ona, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni, yaqinlarga hurmat, fidoyilik kabi tuyg‘ular tasviriga ham keng o‘rin beriladi. Oilada otaning o‘rni, uning mas‘uliyati masalasini yana bir o‘zbek xonadonining badiiy aks ettirilgan “Ota raqsi” hikoyasida ham kuzatish mumkin. Oilasining iqtisodiy ahvoli tiklanganidan quvongan ota bolalari oldida raqs tusha boshlaydi. “Shu manzara yodimga o‘yilib qolgan. Otam o‘ynayapti-yu onam ko‘zidan yoshi duv oqib qarab turibdi. Bir yoqda ota raqsi, bir yoqda ona ko‘z yoshlari, dasturxon boshida esa to‘qqiz jujuq...” [10.360]. Ulg‘aygan o‘g‘ilning xotiralari tarzida hikoya qilingan ushbu asarda oilani muqaddas deb bilgan, unda o‘zining mas‘ulligini chinakamiga anglagan va burchini ado etgan otaning holati o‘quvchini insoniy burch, samimiy munosabatlar bilan bog‘liq mushohadaga chorlaydi.

“Otamga nimadir bo‘ldi” hikoyasi esa bola tilidan bayon etilgan va ayrim o‘rinlarda voqealarga muallif tomonidan ham munosabat bildirilgan. Hikoyada turmush sharoitini yaxshilash uchun o‘zga yurtga ishga otlangan otasi bilan bog‘liq holatda bolaning o‘y-xayollari keltiriladi. Asarda ota obrazi kitobxon ko‘z o‘ngida asosan bolaning tasavvurlari orqali jonlanadi. “Otam juda quvvatli, kaftlari ulkan-ulkan” [7.338]. U samimiy, bag‘rikeng, bolajon, mehnatkash o‘zbek otasining badiiy timsoli sifatida gavdalaniriladi. “Otam borligida haroratli bo‘lardi. To‘niga o‘ranib choy ichib, televizor ko‘rib o‘tirar, goh tizzasiga urib, baqirib-baqirib kular ham edi. Men bag‘riga kirib olardim. Goho turib pechkadagi olovga qarab qo‘yardi. Qutidagi nonlarni pechka ustiga qo‘yib isitsa, issiq non isi hamma yoqni tutib ketardi” [7.338]. Otasiga mehr, sog‘inch kabi samimiy tuyg‘ular bilan bog‘langan bolaning ichki olamida kechayotgan holatlar, kechinmalar hikoyaning umumiy mazmunini tashkil etadi. Otasining olis o‘lkalarga ketganidan ta’sirlangan bola u sovuq o‘lkalarni o‘zicha tasavvur qilishga harakat qiladi, otasining sog‘-salomat qaytishidan umidvor bo‘ladi. Uydagi holat, narsa-buyumlar, o‘simliklar, jonivorlar – barchasi go‘yo unga otasining ahvolidan xabar berib turardi. Kichkina yuragi ushbu hodisalarga dosh bera olmagan bola taxminlarini akasiga aytaveradi. “Otamga nimadir bo‘ldi”, deydi u. Kosadagi suv aynib qolgani; itlari Bo‘ynoqning yer timdalab g‘ingshiyverгани; daraxtlarning hosil bermayotgani, qurib qolayotgani; opasining siniq oynaga qaray boshlagani; qo‘shnining suvni o‘zi tomonga burib olgani; onasi pishirgan taomlardan maza ketib borayotgani – bularning barisi bolaga otasi bilan bog‘liq noxush holatdan darak berayotgandek tuyulaveradi. Asarning davomida esa sovuq o‘lkalarda kasal bo‘lib yotgan ota va uning uyga qaytishga qaror qilgani bilan bog‘liq holat tasviri beriladi. Ammo ayni paytlarda Bo‘ynoq bilan otasini izlab yo‘lga tushgan bola haqida so‘z borar ekan, uning keyingi holatlari, otasi bilan uchrashgan yoki yo‘qligi to‘g‘risidagi xabar yakunlanmaydi, asarning natijasi kitobxonga havola etiladi. Asarda bolaning otasini uzoq o‘lkalarga ketmasligini istashi, uni sog‘inishi, u uyda bo‘lgan paytlardagi fayz, baraka, iliqlikni qo‘msashi tasvirlari orqali kitobxonda o‘zbek xonadonlarida otaning o‘rni, uning farzandlar oldidagi mas‘uliyati, insoniy tuyg‘ular, ma‘naviy qadriyatlarning ana yana bir qirrasini yoritiladi. Chindan ham yozuvchi “Turmushni boricha tasvirlaydi, qoramaydi ham, alqamaydi ham. Yakuniy xulosa chiqarmaydi. Shunchaki, o‘quvchini asarida sertashvish hayot sari yetaklaydi. Qahramon bilan yonib yashash dardini kitobxonga yuqtiradi” [4.157]. Ya‘ni hikoyada oila har bir inson uchun muqaddas ekanligi, oilaviy munosabatlardagi tartib, o‘zaro munosabatlar, odatlarni bolalar yoshliklaridan o‘zlariga singdirib borishlari, bularning bari oilaning har bir a‘zosi uchun zaruriyatga aylanib borishi kabi masalalar badiiy aks ettirib berilgan.

“Sog‘inch” hikoyasi ota tilidan bayon etilgan. Asar voqealari bilan qahramonning o‘y-xayollari, kechinmalari orqali tanishib boramiz. Otaning xotirlashicha, yoshligida iqtidori bo‘lsa-da, turli sabablar bilan

o'qishga imkoni bo'lmagan va ayni paytda esa u uyidan ancha uzoq joylarda, bir tadbirkorning dalasida mehnat qilayotgan edi. Bunda ijodkor otaning ruhiyati, holatlarini yanada teran tasvirlash maqsadida o'ziga xos yo'l tutadi. Yozuvchi parallel tasvirlash usulidan unumli foydalangan holda hikoyaning g'oyaviy ta'sir kuchini oshirishga erishadi. Vaqtincha istiqmat qilayotgan kulbasida pechka bilan devor oralig'idagi kichkina tirqishda har xil xas-cho'plardan qurilgan inda musichaning bolalari turganini ko'rgan qahramon ularni onasi tashlab ketgan deb o'ylaydi va yodiga o'zining farzandlari keladi. Ularni sog'inganligini yanada kuchliroq his qiladi, ularning bolaligi, sho'xliklari, uylaridagi fayz, xotirjamlikni yodga oladi. "Bu dala-dashtda sizlarni deb yuribman-ku, o'zimga qolsa kelarmidim issiq uy-joyimni tashlab?.." [7.145], deya xayolan farzandlari bilan suhbatlashadi u. Ota qarovsiz qolgan polaponlarni parvarish qila boshlaydi, mushukning hujumidan asrashga harakat qiladi. Nihoyat uyiga qaytadigan kuni polaponlarning uchib ketganligini, onasi bilan birga ekanligini ko'rib, o'zi uyda yo'qligida polaponlarning onasi bolalarini boqib turgan va ayni paytda ularni uchirma qilganligini anglaydi. Ota ko'ngli xotirjam bo'lgan holda uyiga, manziliga o'tlanadi. Hikoyada insonning qalbida e'zozlab kelgan eng qimmatli tushunchalari – oilasi, farzandlariga nisbatan sog'inch hissi, fidoyiligi madh etilgan.

Isajon Sulton hikoyalarida ilmiy-texnik va iqtisodiy rivojlanish sharoiti ta'sirida milliy va ma'naviy qadriyatlarga e'tiborning o'zgarib borayotganligi masalasiga ham jiddiy diqqat qaratiladi. Adibning "Mega intellekt", "Atomlar muzeyida", "XXI asrning sakkiz yashar bolasi" asarlari bu borada misol bo'la oladi. Ushbu asarlarida adib insonlar uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy asoslar yonma-yon keltiradi va bunda qay birining qimmatini balandroq, taroziga tortilganda qay birining og'irroq kelishi haqida kitobxonni o'ylatib beradi. Kontrast tasvirlash usuli yozuvchining mahoratidan dalolat beradi. Masalan, "XXI asrning sakkiz yashar bolasi" hikoyasida oynai jahondan dunyo yangiliklarni tomosha qilib turgan bola tasviri keltiriladi. Navbat bilan dastur almashtirib televizor tomosha qilayotgan bolakayning tasavvuriga sig'ishi qiyin bo'lgan hodisotlar – g'aroyib sakkizoyoq haqidagi shov-shuvlar; suv toshqini; Afrikaning qulg'oqchil o'lkalaridan birida sakkiz yashar bolakayning oziq-ovqat tarqatish markazi tomon emaklab borayotgani tasviri uchun mukofot berilgani haqidagi xabar; o'zining sakkiz yashar o'g'li bilan yaponlarning an'anasini ado etmoqchi bo'lgan professorning qarorini ovoza qilish; butun insoniyatni Buddha ta'limotini bajarishga chaqirayotgan kishi; qo'rqinchli film namoyishi; olti oydirki zirhli fazo kemasining ichida Yer atrofida vaznsizlik sharoitida yashayotgan fazogirlar; TV-qimorxonasi; bolalar o'rtasidagi boks musobaqasi; Amerika sohillarida halok bo'lgan yuzlab delfinlar; qalinligi bir mikron bo'lgan zirhning kashf etilganligi kabilar namoyishi tugagach, "Bola yana dastur almashtirdi.

Halok bo'lgan madaniyatlar va tamaddunlar haqida edi bu dastur. Butun boshli xalqlar va madaniyatlar kuchli shamol, zilzila, chaqmoq, bo'ron va hokazo balolar tufayli yer yuzidan tamomila supurilib ketgani haqida hikoya qilinar..." [7.111] va "Keyingisida esa insonning mutlaq ozodligi haqida gapirilmogda edi" [7.112]. Voqealar oqimi hikoyaning so'nggi qismida bolaning oila a'zolari davrasidagi holatlari tasviriga ko'chiriladi. Endi otasining ishdan qaytishi, kundalik hayotning davom etishi bilan bolaning oiladagi umumiy tartib-qoidalar, odatlarga o'z-o'zidan rioya qilib, aralashib ketishi haqida so'z boradi. Intizomlilik bilan otasidan olqish eshitgan bolaning xatti-harakatlarini kuzatgan o'quvchining samimiyat va yuksak axloqqa asoslangan o'zbek oilalaridagi muhit haqidagi tasavvurlari yanada kengayadi. Zamonlar, odamzodning dunyoqarashi o'zgarishi mumkin, ammo inson uchun aziz bo'lgan ota-onaga hurmat, el-yurtni e'zozlash, vatanni sevish, sog'inch, sadoqat kabi tushunchalar eskirmasligini va bular insonning orzu-umidlari, hayot tashvishlari, intilish va harakatlarining mehvarida turadigan tushunchalar, ma'naviy qadriyatlar ekanligini anglash mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton hikoyalarida moddiy qiymatlardan ustun turadigan ma'naviy qadriyatlar ulug'lanadi, Ma'naviy qadriyatlarni e'zozlagan o'zbek xalqining badiiy timsoli yaratiladi.

### ADABIYOTLAR:

1. *Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.*
2. *Davronova, S. (2022). КОНТРАСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕТОДА В ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА ИСАДЖАНА СУЛТАНА "ОЛИСДАГИ УРУШНИНГ АКС-САДОСИ") («ЭХО ВОЙНЫ ВДАЛЕКЕ»). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 9(9).*
3. *Davronova Shohsanam G'aybulloevna. (2022). The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajon Sultan (On The Example Of "The Missing Motherland"). Indonesian Journal of Innovation Studies, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.617>*

## LITERARY CRITICISM

---

4. Адизова И. Инжа тасвирлар. / Исажон Султон насри бадиияти. – Тошкент: Турон замин зйу, 2017. – Б. 154-157.
5. Ezoz Qobilova. (2024). *THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES*. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(02), 44–49. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue02-08>
6. Sul-ton I. *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 272 b.
7. Султон И. Асарлар. Биринчи жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашириёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 392 б.
8. Султон И. Асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашириёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 384 б.
9. Султон И. *Ҳазрати Хизр изидан*. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги наширит-матбаа ижодий уйи, 2018. – 384 б.
10. Султон И. *Ота рақси*. / Султон И. *Генетик*. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. – 357-361 б.
11. Туленов Ж., Фафуров З. *Фалсафа*. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 384 б.

## ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШ АСОСЛАРИ ВА ТАБИАТИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАР

*Ражабов Дилшод Зарипович,*

*Бухоро давлат университети профессори, филология фанлари доктори(DSc)*

*Ражабова Раъно Зариповна,*

*Бухоро давлат университети доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)*

**Аннотация.** Мақолада, ўзбек халқ қўшиғи ва шеърининг ўзига хос кўринишлари қўшиқ истилоҳининг луғавий ва истилоҳий маънолари, қўшиқ импровизация воситаси, қўшиқ ижрочилиги хусусиятлари ва ижрочилар таркибий хусусиятлари ҳақида илмий назарий қарашлар кўрсатилган.

**Калит сўзлар:** қўшиқ атамаси, халқ шеъри, ижро, образ, тимсол, ашула, халқ қўшиқлари.

## ОСНОВЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ОСОБЕННОСТИ ПРИРОДЫ НАРОДНЫХ ПЕСЕН

**Аннотация.** В статье показаны научно-теоретические взгляды на особенности узбекской народной песни и поэзии, лексические и идиоматические значения песенного стиля, средства песенной импровизации, особенности песенного исполнения и структурные характеристики исполнителей.

**Ключевые слова:** песенный термин, народная поэма, исполнение, образ, символ, напев, народные песни.

## FUNDAMENTALS OF EMERGENCE AND CHARACTERISTICS OF THE NATURE OF FOLK SONGS

**Abstract.** The article shows scientific and theoretical views on the features of Uzbek folk song and poetry, lexical and idiomatic meanings of song style, means of song improvisation, features of song performance and structural characteristics of performers.

**Keywords:** song term, folk poem, performance, image, symbol, tune, folk songs.

**Кириш.** Маълумки, санъат уч таркибий қисмдан иборат ЯРАТУВЧИ – ИЖРО ЭТУВЧИ – ТИНГЛОВЧИ. Ушбу учликка хос хусусият Санъатнинг “инсон имкониятлари ва маҳоратининг олий даражадаги намоиши” [1.4] даражасига кўтарилганлигидир. Шунинг учун ҳам фольклор бадииятида сунъий шакллардан мутлоқо узок, унда табиий негизга эга бўлмаган бадиий структуралар учрамайди. Худди шундай халқ қўшиғида ҳам ҳеч қандай ортиқча ифодавийлик, ўта сайқалланган, тарошланган бир нарсани кўрмаймиз. Тўғри халқ оғзаки ижоди намуналарида, айниқса, эпик жанрларга мансуб асарларда сеҳр-жоду, фантастика ва хаёлий уйдирма асосига қурилган мотивлар кўп учрайди. Шундай бўлса-да, инсон доимо ўзлигига қайтиб содда, тўғри самимий фикрини бойитишга қодир. У қанчалик либосга бурканмасин, барибир унда бағрикенглик, меҳр-муҳаббат, садоқат, раҳм-шафқат каби эзгу хислатлар баробарида тажовузкорлик, ғазабкорлик ҳам кўзга чалиниб туради. М.Қошғарийнинг кўз сўзи теранидаги фикрлари унинг бунда азалдан мавжуд бўлганлигини тасдиқлайди. Қолаверса, “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да “ашула – якка хонанда, гуруҳ ёки хор ижро этадиган куй басталанган асар, қўшиқ” - дейилган[2.122]. Агар ушбу фикрга таянилса, “ашула” ва “қўшиқ” истилоҳлари бир синонимик қаторда турадиган атамалар эканлиги аёнлашади. Бироқ ашула ва қўшиқ сўзлари гарчи бир синонимик қаторда турса-да, уларнинг маъно ва мазмунида иккита алоҳида ҳодиса ётади.

**Асосий қисм.** “Қўшиқ” атамасининг илмий истилоҳ ҳолатига келтирилганлигига жуда кўп асрлар бўлган. Зеро, у кенг маънода халқ поэзиясини англатса, тор маънода халқ лирикаси шаклини-жанрини ифодалайди. Бу ҳолатни қорақалпоқ, озарбайжон ва уйғур фольклорида бўлганидек, тожик фольклорида ҳам кузатиш мумкин. Чунончи, тожикча “Суруд”, қорақалпоқча “Қўсик”, озарбайжонча “Қўшма” ва уйғурча “Қўшоқ” истилоҳлари шундай эстетик моҳиятга эга. М.Қошғарийнинг “ДЛТ” асарида шундай тўртлик бор.

Туркан катин кутёга,  
Тергур мендин қўшиғ  
Ажгул сизни табуғчи,

**Мазмуни:** Туркон хотин қошиға,  
Мендан еткур шеър.  
Хизматда ходимингиз,

Отнур жағи табуғ.

Рост, деб паём бер [3.357].

Бу академик А.Қаюмовнинг шеърий табдили. Чиндан-да, “Қўшиғ” сўзи дастлаб “мақтов, алдов” маъносида қўлланган. Шуниси эътиборлики, бу истилоҳ Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” (“Саодатга элтувчи билим”) асарида фонетик ўзгаришга учраган ҳолда “Қўшиғ” шаклини олган бўлса, Хоразмийда “Қўш” шаклини олган. Чунончи, Юсуф Хос Ҳожибда:

Бу туркче қўшиқлар тузетгим сеге,

Мазмуни: Бу туркча қўшиқларни сен учун туздим(ёздим),

Ўқиганигда унутмай дуо қил мени [4.58].

Хоразмийда:

Кел, эй ой юзли дилбар, тут бир қўш,

Бирор қўш бирла, қилгил бизни мадхуш [5.170].

Бу байтда “Қўш” сўзи шеър битиш, яратиш маъносидадир.

XII аср тилшуноси Махмуд Умар Замахшарий “Муқаддимат ул-адаб” арабча-форсча-туркча-муғулча тўрт тилли луғатида арабча “шеър” истилоҳи туркийда “Қўшиқ” дейилишини изоҳлаб, унга “-чи” қўшимчасини қўшиб ясалган “қўшиқчи” сўзи моҳиятан “шоир” атамасига эквивалент эканлигини шундай таъкидлайди: “Шеър кўтоҳ гуфт шоир-қиска қўшиқ айтди қўшиқчи” [6.5]. (Алишер Навоий ҳам “Мезон ул-авзон” асарида “Қўшиқ” истилоҳини “поэзия” маъносида қўллаб, яна унинг аёлғу, лаҳн, турки деб ҳам юритилишини, айни чоғда булар халқ поэзиясининг ички шакллари сифатида учрашини таъкидлайди.

Алишер Навоий “Қўшиқ”нинг тор маънода жанр тушунчасига эгаллигига алоҳида диққат қилиб ёзади: “Яна қўшиқдурким, орғуштак усулида шойидир ва баъзи адвор кутубида ул усул бўлбтур ва ул суруд аъробнинг тева сурур худилари вазни била мадиди мусаммани солимда воқе бўлур, анинг асли бу наъвдурким, байт:

Ваҳки ул ой ҳасрати дарди доғи фирқати,

Ҳам эрур жонимга ўт ҳам ҳаётим офати”[7.92].

А.Навоий бунда куй басталанган, вале арузда битилган халқ қўшиғини кўзда тутадикки, ҳозир бундай ҳодиса, “ашула” истилоҳи остида қўшиқдан фарқ қилинади ва қўшиқнинг ички бир хили сифатида тушинилади.

Бобур ҳам “Рисолаи арузда” бу фикрни тасдиқлаб ёзади: “Султон Ҳусайн Мирза замонида яна бир суруд чикти ким “Туркий”га ўқ мавсум бўлди. Алишер Навоий ва Бобурлар замонидан эътиборан қўшиқнинг ички жанрларини фарқлаш тамойилга айлана борган.

Умуман, қўшиқ атамаси туркий “Қўшмоқ” феъли ўзагидан ясалган бўлиб, сатрга сатрни қўшиб айтиш ва куйлаш маъноларин англатади. Зеро, халқ қўшиғи куй билан бирга туғилади ва шу хусусияти билан ёзма адабиётдаги шеъриятдан фарқ этади. Қолаверса, халқ қўшиқлари тарихан рақслар билан ҳам яхлитлашган ва албатта, куйланишга мувофиқлашгани билан ажралиб туради. А.Мусақулов шу хусусиятни назарга олиб, халқ қўшиқларининг “тарихий асосларига қадим тасаввурлар, урф-одатлар билан, айниқса, ҳосилдорлик культлари билан узвий боғланган, куй ва рақс билан бирга пайдо бўлиб, куй билан муносабатини барқарор сақлаб қолган шеърий санъат тури”(15-бет) санайди. Умуман, сайқалга, сире сеҳрга муҳтож бўлмаган халқ қўшиқларида ҳам ишонч-эътиқодларнинг излари муҳим аҳамият касб этади. Шунинг учун ҳам халқ ижодиётининг санъат билан боғлиқ турларини махсус ўрганган олимлар ишонч-эътиқодлар, маросимлар халқ ижоди асарларининг яратилиши ва тараккиётида муҳим ўрин тутган деган фикрга келишганлиги маълум. М.Қодировнинг эътирофига кўра, рақс санъати меҳнат жараёни, маросим ва қадимги эътиқодлар билан боғлиқ рамзий ҳаракатлар асосида келиб чиққанлигини «катта ўйин», «мақом ўйин», «рақс ўйин» каби анъанавий халқ рақси тараккиёти мисолида исботлаган. Аммо ана шу рақс намуналарининг асосида ҳам инсон ва табиат муштараклиги муҳим омил бўлиб хизмат қилган. “Беш қарсақ” ўйинидаги рақс унсурлари оч бўри ва қишлоқ итларига тақлид асосидаги қадимги ритуаллардан ўсиб чиққан. Халқ рақслари тарихига оид шундай қарашлар йирик фольклоршунос олимлар томонидан ҳам илгари сурилган. Чунончи, Ҳоди Зариф ўзининг «Фольклор ва археология материалларини қиёсий ўрганиш масаласига доир» номли мақоласида, «Қарсақ ўйин»ни аждоқларимизнинг овчилик маросимлари билан боғлиқ ҳолда пайдо бўлиб, кейинроқ тотемистик эътиқод билан қўшилиб кетган кўҳна рақсларнинг қолдиқлари эканлигини далиллайди. У бу рақсни ўйнаётган раққосларнинг ўртадагиси бўри, айланадагилари-бўрига топинувчи қабиллага мансуб одамлар тимсоли эканлигини таъкидлайди. “...Чунки бўри образи баъзи туркий халқларда, жумладан, ўзбек уруғларининг бир қанчасида ижобий, ҳатто муқаддас саналганки, бу тушунча уларнинг бир замонлар бўрига эътиқод қилганликлари уни тотем сифатида муқаддас билганликлари билан боғлиқ”[8.29-30] - деб ёзади. Шу мулоҳазаларга асосланиб айтиш

мумкинки, инсон ҳис-туйғуларини, ўй-орзуларини, қувонч ва ғамларини, хуллас, ранг-баранг кечинмаларини тугал ҳолатда кўпинча тўртлик ва маълум ҳолатларда иккилик, учлик, бешлик, олтилик шаклларида куй, оҳанг ва рақс омухталигида ифодалаб, оғиздан-оғизга ўтиш асосида хилма-хил вариантларда эл орасида кенг тарқалган халқ шеъри кўшиқ ҳисобланади. ”Қарсақ одатда эркаклар, кўпинча ўспирин йигитлар томонидан ижро этилганлиги туфайли рақс ўйинларида кузатиладиган ижрочилик услуби ҳам маълум туйғуларнинг эркакча рақсий ҳаракатлар воситасида ифодаланиши билан боғлиқ хусусиятларга эгадир”[9.18]. Равшанлашаётирки, “қарсақ” жўрлигида ижро этилган кўшиқ асосан йигитлар томонидан ижро этилиб, ўзига хос мазмун ва маъно уйғунлигини пайдо қилган. Кўшиқ халқ шеъри сифатида ҳам бармоқ, ҳам аруз вазнларида яратилса-да, якка ва жамоа(коллектив), созли(куйли) ва созсиз (куйсиз) ижроларга мўлжалланганлиги билан ўзаро фарқ қилади. Масалан: Жарчилар, наврўз кўшиқларининг айрим турлари, келгин ёр ўйнайлик, ўроқчилар кўшиғи, мотам маросимларида ижро этиладиган кўшиқлар якка ва жамоа томонидан куйланган. Ёр-ёрлар, мавсумий-маросим кўшиқларининг аксарияти, нонвой кўшиғи, уфў-жақала, оилавий – маросим кўшиқлари созли(куйли) ижро этилган бўлса, меҳнат кўшиқларидан ёрғичок, бўзчи, каштачилик, хўп майда ва ҳоказолар созсиз (куйсиз) ижро этилган. Бироқ халқ кўшиқлари қайси жанрда ёки яккаҳон, жамоа, созли, созсиз куйланишидан қатъий назар маълум бир мусикий оҳангни талаб қилади. Кўшиқнинг асосий хусусиятларидан яна бир шундадир. Зеро, маълум бир оҳангга солинмаган хушоҳанглик касб эта олмаган, ритмик маромнинг узвий яхлитлиги таъминланмаган ҳар қандай матн кўшиқ бўла олмайди. Ўзбек миллий ашулчилигининг шартли хусусиятларидан бири шундаки, унинг шакл ва навлари, тоифа ва услубий кўринишлари хилма-хилдир. Ашуланинг энг оддий, халқчил мисоллари кўшиқ жанрига бироз яқин дейиш мумкин. Аммо кўшиққа нисбатан ашуланинг соф мусикий кўлами анча кенг. Шу боис ашулада мусикий матннинг ривожланиши ҳам давомлироқ бўлиб, баланд авжи борлиги билан орасида сезиларли даражада фарқланади. Бундай тоифадаги асл намуналар кўпроқ “халқ ашула”си деб юритилади. “Фольклор ижрочилиги – кўшиқ, рақс, мусиқа сахнавий ҳаракатлар сингари таркибий қисмларни ўз ичига мужассамлаштирган жанр эканлиги маълум”[10.6]. Халқ кўшиқларининг ижрочилиги ўзига хос эътиборга эга. Масалан Жарчилар кўшиғи куйланганда куйидагича ҳолат кўзга ташланади. Одатда тўрт ёки беш эркак, турли маросимларда одамларни жарчилар чақириғи билан чорлаганлар. Одатда чақириқлар доира усули билан бошланган. Доира жўрлигида куйланган жарчилар кўшиғи халқни қайсидир маросимга чорлашни бир қадар осонлаштиради. Шунингдек, жарчиларнинг ижро жараёнига мос келувчи ҳатти-ҳаракатлари ҳатто либослари ҳам уйғунлик касб этади. Яратгандан ёмғир сўраб ижро этиладиган кўшиқ ҳисобланувчи “Суст хотин” кўшиғи қадимий аждодларимиз кутилган пайтда ёғингарчилик бўлмаса ёки қурғоқчилик узоқ давом этса, яратгандан турли усуллар билан ёмғир сўраганлар. Кўшиқ яратилган объект табиат, булут сифатида тасаввур қилингани билан асосий мақсад биттадир – у ҳам бўлса яратганнинг ҳамма нарсага қодирлигини яна бир бора тан олиш ва фақат унга илтижо қилиш орқали ёғингарчилик сўраш. Ушбу кўшиқ най чолғусида ижро этилган куй бўлагидан сўнг кўшиқ мусиқа жўрлигисиз давом эттирилади. Гоҳ яккаҳон ёлғиз ҳолда гоҳ ҳамма билан биргаликда куйланадиган кўшиқ товуш кучининг ортиб бориши билан гўё ҳамма томонни булут қамраб олгандай тасаввур ҳосил қилиши лозим. Меҳнат кўшиқларининг жуда кам тарқалган тури ҳисобланадиган ошпаз кўшиғининг ижро жараёни ҳам эътиборни тортади. Маълумки, меҳнат жараёнида тушлик узоқ чўзилиб кетмаслиги учун қадимда ҳам, ҳозир ҳам таом далага келтирилган. Ошпаз кўшиғида ошпаз аёл ва дехқонларнинг ҳазил – мутойибаси тасвирланади. Кўшиқ яккаҳон (ошпаз аёл) ва эркаклар гуруҳи яъни дехқонлар айтишуви тарзида созсиз ижро этилган. Ҳазил айтишув кўшиқларидан яъна бири Янгажон кўшиғидир. Янгажон кўшиғи ҳам созсиз ижро этилган.

Халқ орасида кўшиқ ижрочилари кўшиқчи, халфа, сатанг, гўянда (наҳвагар), ашулакаш (ашулачи), лапарчи, ўланчи тарзида фарқланади. Кўшиқчи кўпинча тўртликларни ижро этса-да, аслида нисбатан кенгроқ маънода, умуман, кўшиқ ижрочиси ва ижодкори бўлса, гўянда (наҳвагар) асосан йиғи-йўқловларни куйлашга ихтисослашган кўшиқчидир. Ашулакаш ёки ашулачи кўпинча мақом таркибидаги кўшиқларни ёки катта ашула дейилгучи жўрсиз ижро этиладиган кўшиқни куйлай оладиганлардир. Лапарчи рақсга тушган ҳолда кўшиқ айтгучи бўлса, ўланчи тўй маросими кўшиқларини ижро этувчидир. Халфа Хоразмда кенг тарқалган аёл кўшиқчилиги бўлиб, улар ҳам тўй, ҳам аза кўшиқларини бараваар ижро этаверадилар. Сатанг Наманганда халқ кўшиқларини доира жўрлигида ижро этувчи аёллардир.

Шуни ҳам айтиш керакки, халқ кўшиқлари турли жойларда, турлича ижро этилади. Чунончи, Фарғона водийсидаги ёр-ёр ижроси Бухородагидан ва ўз навбатида, Хоразмдаги ёр-ёр буларнинг ҳар иккаласидан фарқ қилади. Бу фарқ ёр-ёр оҳангидагина эмас, ҳатто нақаротда ҳам сезилади. Фарғонада

ва Тошкент воҳасида “ёр-ёр” нақароти (радифи) оммавийроқдир. Катта кўшиқ дейилгувчи жўрсиз ижро этиладиган кўшиқ, асосан Фарғона водийси ва Тошкент атрофларида учраса-да, Ўзбекистоннинг бошқа жойлари учун хос эмас. Фарғона кўшиқ ижрочилигида дутор ва доира жўрлиги нисбатан фаол бўлса, Бухорода танбур ва доира, Хоразмда эса тор, гармон ҳамда доира шундай мавқега эга.

Миллий мусиқа меросимизни ташкил этувчи касбий жанрлар таркиби асосан куйидагилардан иборат: ашула, ялла(шаклан ривожланган, бастакорлик ижодига оид намуналари), катта ашула, сувора, куй, маком, достон. Ашула сўзини “Арши Аъло”ни (Р.Қурбонов) мадҳ этиш маъноси борлиги ҳақида ҳам қарашлар мавжуд. Ашула сўзининг маъноси ҳақида сўз юритган Комил Аваз ва Абдулла Аҳмедовлар куйидагиларни таъкидлайдилар. “Ашула” кўшиқнинг бир тури бўлиб, асосан қадимда, ислом дунёсида Али ибн Абу Толибнинг ўғли, Пайғамбаримиз Муҳаммад саллоллоҳу алайҳи вассаламнинг набиралари Имом Ҳусайн шаҳид бўлган куни йиғлашиб, “Ашура” – мотам марсияси куйланган. Шу санадан бошлаб мотам кунлари “ашура” айтиш расмга айланган, уни ашураҳонлик дейилган. Бу форсларда ҳозир сакланиб қолган. “Ашура” сўзи кейинчалик фонетик ўзгаришга учраб, “ашула шаклини олган”. Бу фикрларга мутлақо кўшилиб бўлмайди. Фольклоршунос Ш.Турдимов “Ашула ашура эмас” номли мақоласида эътиборли фикрларни илгари сурган. Зеро, А.Жумаев этногафлар, А.Л.Троицкая ва О.А.Сухареваларнинг фикрларини келтирар экан куйидагиларни таъкидлайди. “Хасан ва Хусанларнинг хотирасига бағишлаб Бухоро ва Фарғона водийси аёллари Мухаррам ойининг биринчи ўн кунлигида “ашр оши” маросимини ўтказишган [11.114]. Атоқли хонанда ва созанда Р.Қурбонов “Ашула мусиқаннинг бир жанри бўлиб, туркларда-шарқия, қирғизларда-жир, туркманларда-айдим, озарбайжонларда-маъхни, русларда песня, ўзбекларда эса ашула дейилади”[1.34] дейди. Бу ўринда Р.Қурбоновнинг ашула туркларда шарқия дейилади деган фикрига кўшилиб бўлмайди. Зеро, “шарқия” “...юриб-туриб, нақарот билан айтиладиган кўшиқ Марш кўшиғи”дир. Маълумки марш кўшиқлари қадимда куйланган сарбоз кўшиқларини ёки ҳозиргача куйланиб келаётган саф яъни аскар кўшиқларини эслатади. Шунинг учун шарқияларни фақатгина алоҳида бир жанр дейиш мумкин. Уни кенг маънода истеъфода этилаётган ашула билан бир хил маънода қўллаб бўлмайди. Шарқия ашуланинг эмас, кенг маънода халқ кўшиғининг бир жанри халос. Рус этнограф олими Л.Н.Гумилев “Қадимги турклар” китобида қайд этилишича “Тобалар Шимолий Хитойни қўлга киритган палладаги қавм ва қабилалар орасида “Ашинанинг беш юз хонадони” ҳам бор эди. Бу беш юз хонадон турли-туман уруғларнинг чатишиб кетишидан пайдо бўлган... “Ашина” сўзининг маъноси эса “бўри”дир. Туркчасига *қашқир* ва *бўри* сўзлари берилади, муғул тилида эса, *шоно* \ *чинодир*”. “А” хитой тилидаги ҳурмат ифодаси бўлган олд кўшимчаси. Демак, “Ашина” дегани “олижаноб бўри” деганидир”. Ушбу фикрлардаги бир ҳолат бизни қизиқтирди. Яъни фольклоршунос Ш.Турдимов “ла” сўзининг қадимий маъноси куйланувчи, муқаддас айтим, ҳамду сано дуо олқиш, кўшиққа уйғун бўлган,” – деган қарашни илгари суради. Агар Ашинахон туркий қавмларни бирлаштирган ва Хитой ҳамда Муғуллар билан ихтилофларга бориб янги турклар давлатини барпо қилган бўлса, табиийки, халқ турли маросимларда уни олқишлаб, кўшиқлар куйлаган ва шундай кўшиқларга нисбатан “*ашина-ла*” тарзида яъни олижаноб бўрига нисбатан муқаддас айтимлар, ҳамду санолар айтишган ва ниҳоят фараз қилаётганимиз ашина+ла кейинчалик фонетик ўзгаришларга учраб ашула тарзида шаклланиб қолган дейиш бир қадар ҳақиқатга яқин. Зеро, қадимги туркийлар “хун шахзодаси ва урғочи бўрини насаббоши ҳисоблардилар”. Кейинги изланишлар масаланинг туб моҳиятини янада теранлашишига имконият ҳосил қилади. Аммо ашула айнан Ашинахонга нисбат берилиши бугунги кунда бир қадар ишонли деб ўйлаймиз. Хитой, муғул ва туркийларнинг бирнеча қавмларидан ташкил топган “Ашинанинг беш юзхонадони”да худди шундай истилоҳнинг пайдо бўлганлигига шубҳа йўқ.

Халқ кўшиқлари учун асосий аломат уларнинг ритмик оҳангдорлигини аниқлашни тақозо қилади. Ритмик оҳангдорлик эса кўшиқдаги яхлит композицион қурилишнинг асосий устунидир. Фольклоршунос А.Мусакулов “...кўшиқ ва кўш сўзларининг омор, кўшаноқ, икки, жуфт, вақтинчалик қароргоҳ маънолари қайд этилган. Бундан ташқари у тўда, тўпни англатади [12]”, - дейди. Англашилмоқдаки, халқ кўшиқлари фақат жуфт шаклдаги мисраларга эга бўлиши лозим, акс ҳолда, уларни кўшиқ дейиш у қадар тўғри эмас. Бироқ халқ кўшиқларидан поэтик айтимлардан, яъни халқ шеърдан (юқорида кўшиқ, ашула атамаларининг истилоҳий маъноси келтириб ўтилган эди. - Д.Р.) ўз жанр табиати ҳамда композицион белгисига кўра фарқланади. Улар яъни поэтик айтимлар уч, беш, етти мисрали ҳам бўлиши мумкин. Бундай ҳолда оҳангдорликни келтириб чиқарувчи вазн кўрсаткичининг таркибий тузилиши фақатгина ўша жанрнинг ўзигагина хосдир. Ритмик оҳангдорлик халқ кўшиқларининг ўзига хослигини кўрсатувчи асосий хусусиятидир. Чунки, маросим, меҳнат ва сўз магияси асосида пайдо бўлувчи кўшиқларда кофия ва ритм оҳангдорликни талаб қилади. Ўз навбатида ритмик оҳангдорлик куйидагича намоён бўлади.

1)оҳангдорлик ва мусиқийликни ташкил этувчи ритм: 2)маром, меъёр ва ритмик майдонни пайдо қилувчи ритм: 3)зарбли ритм, бунда урғу етакчи роль ўйнайди: 4)товушдошлик ва фоник ритм, бунда аллитерация ва ассонанас ҳал қилувчи омилдир, 5)бадий ғоя, мантик ва рамз ҳосил қилувчи ритм: 6)бўгин (хижо), банд, қофия, туроқ ва вазн ҳосил қилувчи ритм: 7) образлилик ритми.

Ритмик-интонацион бирлик ритмик майдон ва ритмик меъёр орасидаги бирликни ифодалаши зарур. Агар ритмик оҳангдорлик шеър тузилишида одатдаги гап тартибини инкор қилса, дейлик, инверсия рўй берса, у ҳолда кўшиқ, ашула ёки шеърдаги ритм, мелодия ўзгаради. Умумий савиядаги симфониянинг ҳаракатида биргина етакчи образ зарбни пайдо қилади, ҳамда оҳангдорликнинг меъёрийлигини таъминлайди. Натижада ана шу поэтик образда жамланган маъно ўша туркумдаги бошқа тўртликларга ҳам дахлдор бўла олади.

Майда-майда мой босар, 4+3

От ўрнини той босар. 4+3

Отадин ўғил қолса, 3+4

Ўлмаса ўрнин босар, 3+4

Юқоридаги шеърий парчада қўлланилган “босар” сўзи икки вазифада, яъни ҳам қофия, сифатида ҳам радиф сифатида қўлланилган. Шунингдек, шеърнинг биринчи ва иккинчи мисралари 4+3 шаклида кейинги икки мисра 3+4 тарзида туроқланган. Хўш, бу ҳодисанинг шеърнинг умумий мазмун ёки шаклига нечоғлик таъсири бор, деган савол туғилади. Бизнингча, бундай таъсирни қуйидагиларда кўриш мумкин:

а) кўшиқ тўртлик шаклида бўлса-да, икки хил туроқланиш тизимига эга:

б) икки хил туроқланиш кўшиқдаги ритмик-оҳангдорликни ўзгартирган

в) биринчи ва иккинчи мисраларда аслида “мой” ҳамда “той” сўзлари қофияни ташкил этгандай кўринса-да, биринчи, иккинчи, тўртинчи мисралардаги “босар” сўзи радиф сифатида қўлланилиб композицион яхлитликни таъминлаган:

г) туркий шеър қонуниятларига кўра кўпинча феъл туркумига оид сўзлар қофия вазифасида келади:

д) бу ҳолат, яъни феъл қофиянинг қўлланилиши ўзига хос бадий анъана сифатида бевосита ёзма адабиётга ҳам кўчган:

Бундай хулосаларни баён қилишимизга сабаб, “босар” омонимининг қуйидаги маъноларни ифода этиши орқали ҳам асосланади:

Босар  $\left\{ \begin{array}{l} 1\text{-мисрада}=\text{йиғар маъносида} \\ 2\text{-мисрада}=\text{бажаради маъносида} \\ 4\text{-мисрада}=\text{эгаллайди маъносида} \end{array} \right.$

Яна шуни ҳам алоҳида қайд этиш жоизки, келтирилган кўшиқ соддалиги, халқоналиги ва миллийлиги нуқтаи назаридан туркий тил талаб ва қоидаларини ўзида мужассам этган. Халқ кўшиқлари тузилишини ўрганиш, унинг тизимий белгилари, асосан, матннинг композицион хусусиятлари, таркибини ташкил этувчи банд тузилиши, вазн, ритми, ифодавийлиги, бадий санъатлари, қофия ижро ёки айтим усули билан ҳам алоқадордир. Аристотелнинг «Поэтика» асарида ёзилишича, «Ўхшатиш гармония ва ритм сингари қадимданок одамларнинг табиатига хос хусусиятдир (вазвлар-ритмнинг махсус тури эканлиги сир эмас), одамлар қадимданок табиатан ўхшашига қобилиятлидирларки, улар буни оз-оздан тараққиёт эттира бориб, бадиҳа шеърлар (импровизация)дан ҳақиқий поэзияни юзага келтирганлар» [13.13]. Аёнлашмоқдаки, шеър дастлаб импровизация характерига эга бўлиб, халқнинг донишмандлиги ёхуд донолиги асосида юзага келган. Табиатнинг ўзи ҳар бир шахсни ижодкор қилиб тарбиялайди. Унга оҳангга мос ритмик ҳаракат ато этади. Ритм эса, ўз навбатида, ҳаракат ифодаси сифатида маромни асослайди. Шу тарих буюк аллома Аристотелнинг қарашларига таяниб, вазвлар - ритмнинг махсус тури, деган хулосага келамиз. «Санъаткор муайян шахсларни тасвирлайдиган, улар эса яхши ёки ёмон бўлишлари мумкин... Хилма-хил предметларнинг тасвири ҳам ҳар хил бўлади. Чунки шунга ўхшаш гарчи хусусиятлар рақса ҳам, атлетикада, сурнай, кифора чалишда, насл ва мусикасиз шеърда ҳам бўлиши мумкин... аргант ёки тимофей ва Филоксен «Киклоплар»да қандай қаҳрамон яратган бўлса, дифиромб ва комларда шундай яратиш мумкин» Ана шу фикрлар бадий – эстетик тафаккур ривожидан ҳамон у ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган.

**Хулоса.** Албатта, инсоният томонидан кашф қилинган санъат турлари муайян шакл ва мазмунга эга бўлса-да, улар моҳиятан ягона ўқ нуқтада туташади. Кўшиқ ҳақида сўз кетганида, айниқса, маълум бир ижрога ёки миллий анъанадаги мусикага дахлдорлик ҳақида гапирилганда, унинг табиатга тақлид асосида такомиллашганига амин бўламиз. Ҳаттоки унинг архитектоникаси ҳам табиат унсурларига асосланиши шубҳасиз. Бу ҳодиса нафақат туркий, балки бутун жаҳон халқлари кўшиқчилигининг

ибтидосига хос муштарак хусусият саналади. Ахир инсоннинг қалб тугёнлари, дил нолалари, имон-эътиқоди бари-бариси ўзининг санъат намунаси сифатидаги ибтидосини тақлиддан, яъни табиатга тақлиддан олганлиги маълум. Демак, бошқача қилиб айтганда, қайсидир маънода инсон туйғулари ва табиат ҳодисалари ўзаро параллеллик хусусиятига эга. Уларнинг ҳар иккаласи ҳам доимий ўзгарувчанлик хоссасини намойиш қилади. Зотан, коинотдаги барча нарса-ҳодисалар яхлит тизим сифатида мавжудлиги учун ҳам руҳоният, инсоният, наботот, табиат сўзлари олам тушунчаси билан бирикиб келади. Олам тизимидаги барча структуралар бири-иккинчисиз мавжуд бўлиши мумкин эмас. Табиат ва инсон, ҳаётининг бир-бирига чамбарчас боғлиқлиги, шунингдек, Табиат→Инсон→Санъат муштараклигининг боиси ҳам ана шунда. Санъатнинг барча турлари хусусан, фольклор ўз моҳиятига кўра инсон руҳиятини шаклан табиий образлар асосида очиб беришнинг энг халқона шакли ҳисобланади.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Қурбонов Р. Санъатнинг сирли олами. Санъатнома. – Т.: Фафур Фулом. 2011. -Б.4.
2. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилд. 1 жилд. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: 2006, – Б. 122.
3. Қаюмов А. Қадимият обидалари. 1972, 71б.
4. Ҳожиб Ю Х. Қутадғу билиг. – Т.: “Фан”. 1971, 58-б
5. Ўзбек адабиёти, 1-том, (170-бет)
6. Маҳмуд Умар Замахшарий “Муқаддимат ул-адаб”. ЎЗРФА А.Навоий номидаги Тил ва Адабиёт институти музей фонди. Инв N-202.5-бет)
7. Навоий А. Мезон ул – авзон. МАТ.20-томлик, 16-том. – Т.: 2000. 92-бет
8. Ҳоди Зариф. Фольклор ва археология материалларни қиёсий ўрганиши масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1958, №1, 29-30-бетлар
9. Кароматов Ф. Ўзбек халқ музыка мероси. – Т.: ҒАҲН.1985.-Б.18.
10. Тошматов Ў. Фольклор қўшиқлари. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – Б.6.
11. Джумаев А. Традиция ашура у иранцев Бухары: источники историко-культурной контекст. Мир Ислама. Москва. N-2(5).2010. – Б.114-137.
12. Мусоқулов А. Ўзбек халқ лирикаси тарихий асослари, бадиияти. – Тошкент, Фан 1995.
13. Аристотел. Поэтика. – Тошкент. Ўқитувчи, 194-бет.

## AHMAD A'ZAM BADIY TASVIR MAHORATI

*Qodirova Ma'rifat Abdullayevna,*  
SamDU mustaqil tadqiqotchisi  
[qodirovamarifat@gmail.com](mailto:qodirovamarifat@gmail.com).

**Annotatsiya.** Maqolada yozuvchi Ahmad A'zamning o'zbek tili boyliklaridan unumli foydalanganligini, badiiy nutq, tilning tasviriy vositalaridan jozibali usulda, shirali bir tilda yoza olish xususiyati hamda badiiy mahoratini keltiritgan. Maqolada yozuvchi mahorati adabiyotshunos olimlarning fikrlari bilan dalillangan. Yozuvchining ijodida bu o'rindagi roman va qissalari misollari o'rinlarida asoslab keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** uslub, badiiy obraz, tugun, mozaika, pryom, mikrokompozitsiya, yombi, personaj.

## ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ СПОСОБНОСТИ АХМЕДА АЗАМА

**Аннотация.** В статье писатель Ахмад Азам использовал богатство узбекского языка, художественную речь, умение сочно и привлекательно писать, свои художественные способности. В статье мастерство писателя подтверждается мнениями литературоведов. На основе мест взяты примеры романов и рассказов этого места в творчестве писателя.

**Ключевые слова:** Метод, художественный образ, мозаика, узел, микрокомпозиция, приём, оба, персонаж.

## AKHMED A'ZAMS ARTISTIC SKILLS

**Abstract.** In the article, the writer Ahmad Azam has used the riches of the Uzbek language, artistic speech, the characteristic of being able to write in a juicy language in an attractive way, and his artistic skills. In the article, the writers' skill is proved by the opinions of literary scholars. Examples of novels and short stories of this place in the writers are based on the places.

**Keywords:** Style, artistic, image, mosaic, node, microcomposition, pryom, both, composition, character.

**Kirish.** Yozuvchi ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlarini, borliq dunyodagi hukm va xulosalarini til orqali o'quvchiga yetkazadi. So'z va jumalarga, gaplarga joziba bag'ishlab, inson tuyg'ularini ijobiy xislatlarga moyilligini oshiradi. So'z sehri kitobxon qarashlariga ta'sir etib uning dunyoqarashi, ruhiy olamini harakatga keltiradi. So'z san'atkorlari xalq tilining qudrati, sehr-u jozibasi, nafosati, imkoniyatidan maksimal darajada foydalana olgandagina yaratgan kashfiyotlari davrlarga tatigulik bo'ladi.

Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov badiiy asar tili haqida shunday yozadi: "Adibning yozuvchilik nigohi qancha o'tkir bo'lmasin, tafakkur quvvati qancha baquvvat bo'lmasin, inson tabiatining siru asroridan har qancha boxabar bo'lmasin, qalami o'tmas, uslubi to'mtoq, tili g'aliz bo'lsa, uning olijanob niyatlari qog'ozda qolib ketaveradi". [1]

Haqiqatda ham shunday. Yozuvchiga biror bir dolzarb mavzuni, g'oyani boshqa yozuvchi bo'lmagan kishilar ham berishi mumkin. O'sha g'oyani badiiy asar qilib o'quvchiga yetkazish uchun yozuvchidan qanchalik iqtidor talab qilinadi. Adabiyotning birinchi elementi til, deganlar. Yozuvchi badiiy nutq, tilning tasviriy vositalaridan jozibali usulda, shirali bir tilda yoza olgandagina maqsadiga erishadi. Bu borada yozuvchidan yuqori darajadagi badiiy mahorat talab qilinadi.

Yozuvchi, adabiyotshunos Pirmqul Qodirov badiiy asarlardagi tasvir mahoratini shunday tushunadi: "Har bir asar yozuvchining hayot tajribasidan, adabiy iste'dodidan, zamonning talabidan, davrning ruhidan kelib chiqadi. Ayni chog'da har bir asarning, o'ziga xos janri, syujeti, kompozitsiyasi, konflikti va hokazolari bo'ladiki, badiiy til bo'yoqlari ham shularga mos ravishda xilma-xil rang kashf etadi. Yozuvchi hech vaqt "palon hikoyaning palon sahifasiga palon til bo'yoqlarni ishlataman" deb o'ylamaydi. U ma'lum hayotiy matirdan haqqoniy obraz, yorqin bir xarakter, yaxshi bir asar yaratishni o'ylaydi, maqsadini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan so'zni va iborani qidirib topadi. O'rniga keltirib qo'yadi". [2] Darhaqiqat, o'ziga ma'qul iborani, so'zni topa bilgan yozuvchi haqiqiy so'z san'atkori nomiga musharraf bo'ladi.

Zoir Tohirov "Badiiy nutq" monografiyasida yozuvchining tildan foydalanishdagi o'ziga xosliklarini shunday ta'riflaydi: "Badiiy nutqni boshqa nutq turlaridan sezilarli farqini ta'minlovchi nutqiy vositalardan yana biri tasvirdir. Mualliflarning tasvirdan foydalanishdan maqsad – o'quvchi ko'z o'ngida faqat voqea,

hodisa va narsa (kishi) obrazini yaratishgina emas, balki asar personajlarining kayfiyati, ichki kechinma – his-hayajonlarini ham ifoda etishdir. Shu yo‘l bilan badiiy ijod sohiblari nutqiy go‘zallik, individual uslub, o‘ziga xos obrazlilikka erishishga muvaffaq bo‘ladilar”. [3]

**Asosiy qism.** Yozuvchining quroli so‘z. So‘z bilan inson va uning ichki dunyosi, ruhiyatini tasvirlash yozuvchilik mahoratiga bog‘liq. Shuni uddalagan adib maqsadiga erishadi. Ahmad A‘zamning o‘zbek tili boylıklaridan unumli foydalanganligini asarlari misolida ko‘rish mumkin.

“Adabiyot – so‘z orqali o‘zlikni ifodalash san‘ati. Shunday ekan, yozuvchi so‘zni charxlash mehnatidan qochmasin. Agar odam so‘z nafosatidan hayratlanmas ekan, demak u yozuvchi uchun zarur bo‘lgan asosiy fazilatga ega emas” (Akatagava Ryunoske). Mazkur fikrda yozuvchining mashaqqatli mehnati asosi qalamga olingan. Demak, umr bo‘yi so‘zni charxlash mehnatidan qochmaslik kerak. Abdulla Qahhor kundaliklari orasida shunday bir qaydni o‘qish mumkin: “Mening rohat va farog‘atda o‘tkazgan minutlarim yozgan, o‘chirgan, yana o‘chirgan minutlarimdir”. [4] Ahmad A‘zam ham bu borada Abdulla Qahhordan o‘rnak olgan yozuvchilardandir. Badiiy tildan foydalanish mahoratida, hikoyalarining syujet va kompozitsiyasida Abdulla Qahhorga o‘xshash jihatlar, ya‘ni buyuk yozuvchining ta‘siri borligini oldingi fasllarda yozganmiz.

Ahmad A‘zamning bir muncha shov-shuvlarga sabab bo‘lgan “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasidagi badiiy nutq ko‘rinishlarini, ya‘ni yozuvchining tasvir mahoratini ko‘rib chiqamiz. E‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Ahmad A‘zam nasrida muallif nutqi, personajlar nutqi, dialoglar kabi an‘anaviy badiiy til elementlari har doim ham ketma-ketlikda ishlatilavermaydi. Yozuvchining noan‘anaviy ramziy-metoforik hikoyalari tili ko‘proq monologik nutqqa, uning “ichki nutq” shakliga yaqin keladi. “Ichki nutq moddiy lashmagan faqat kishi botinidagina kechgan nutq (o‘ylov)ni anglatadi. Odatda, bunday holda personajning xayolan kim bilandir bahsmunozarasini yo ruhiyatidagi ikkiga ajralish – o‘z-o‘zi bilan kurashini tasvirlash orqali holat dramatiklashtiriladi”. [5]

Asar birinchi shaxs – asar qahramoni – hikoyachi tilidan bayon qilinadi. Yozuvchi boshidan o‘tkazgan voqealarni kitobxonga emas, o‘z-o‘ziga gapirib berayotgandek taassurot uyg‘otadi. Muallif so‘zlayotgan nutq o‘rni, joyi tilga olinmaydi. U o‘z boshidan kechirgan g‘ayri odatiy voqea-hodisalarni anglab-anglamay, huzurhalavatini yo‘qotib, o‘zini, o‘zligini sarson izlaydi. Nimani, qanday ifodalashni aqli-shuuriga sig‘dira olmaydi. Asar qahramonini bunday tushkun kayfiyatini so‘zda ifodalab berish yozuvchiga oson emas.

Hikoyada dastlab annotatsiyaga o‘xshash tasvir beriladi. Bu hikoyaning tuguni vazifasini ham o‘tab beradi.

“O‘shanda menga nima bo‘lganini o‘zim ham bilmayman, buni hozir ham tushuntirib bera olmayman. Hech narsa bo‘lmagandek yuribman. Lekin bunga ko‘nikkumimcha ko‘p narsalar bo‘lib o‘tdi”. [6] Tasvir odatiy, an‘anaviy ko‘rinishda. Voqea qandaydir o‘tgan zamonda bo‘lib o‘tgan. Oradan ma‘lum bir vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, muallif o‘ziga nima bo‘lganini bilmaydi. Tushuntirib ham bera olmaydi. Undagi bezovtalik, g‘ashlik shundan. Shuncha voqealar bo‘lib o‘tgan, ammo hech narsa bo‘lmagandek yuraverganidan o‘zi ham hayronligini yashira olmaydi. Bu mavhum voqea nima ekan deb kitobxonning qiziqishi ortadi.

“Xonamga kelib o‘zimni oynaga soldim, ko‘rinishim yaxshi, rangi ro‘yim joyida faqat uyqu bosyapti. Karavotga cho‘zilganim zahoti tubsiz quduqqa quladim”.

Soyasini yo‘qotgan asar qahramoni ishdan ijara uyiga qaytib, o‘z holatini ifodalamoqda. U o‘zidan nimadir chiqib ketganini sezib, oyoq-qo‘li bo‘shashib, boshi bo‘m-bo‘sh bo‘lib, ichi huvullab ketgach qattiq ruhiy iztirobga tushadi. Qo‘li ishga bormaydi. Hayot tashvishlarini ortga suradi. Uyiga kelib birinchi qilgan ishi oynaga qaraydi. Rangi ro‘yi joyida o‘zgarish yo‘q. Insonning yuzida o‘zgarish bo‘lish uchun uning jismi jonida og‘riqlar bo‘lishi kerak. Shunda ichdagi tashda namoyon bo‘ladi. U sog‘lom. Shuning uchun “karavotga cho‘zilganida tubsiz quduqqa tushib ketadi”. “Tubsiz quduq” qattiq uyqu holati o‘xshatishlar bilan emas, metaforik ko‘rinishda yasalgan. Bu yashirin o‘xshatish “o‘zimni bilmaydigan darajada, o‘likdek uxlabman”, degan ma‘noni kuchaytirib kelmoqda.

“Ijarada bir o‘zim turganimdan emas, ana shu xayollar chulg‘ab olgani, bu xayollar iskanjasida yakka ekanim va yonimda hatto hamxona do‘stim yashaganda ham unga bu ahvolimni aytganim bilan, nafaqat u, do‘st, balki umuman hech kim tushunmasligi, hech birovga tushuntirib berolmasligim uchun ham mahkum yolg‘iz edim. O‘zimni odamlar o‘rtasiga urgim keldi, lekin bu to‘da ichida meni hech kim tanimasligi, begona ekanligimni ko‘nglim sezib xonamdan chiqqim kelmay turardi”. Yozuvchi asar qahramoni ruhiy holatini o‘z uslubida tasvirlayapti. U o‘z ichki iztiroblariga yolg‘izligini sabab qilib ko‘rsatayotgani yo‘q. Uning uchun yolg‘izlik qaytanga yaxshi. Ijod qiladi. U o‘z ahvolini, soyasini yo‘qolib qolganini hech kimga ayta olmasligidan, birov bilan dardlasha olmasligidan ruhiy talvasaga tushib turibdi. Aytgan bilan uni borov tushunmaydi yoki tushunishni xohlamaydi. SHuning uchun ham u mazmunsizlikka mahkum. “Odamlar to‘dasiga urgim keladi” deb yozadi. “To‘da” bu olomonga yaqin so‘z. Uni tushunmagan odamlar muallif nazarida odam emas. “To‘da” ham odam bo‘lishsa uni tushunishlari kerak, unga yordam berishlari kerak. Axir

nima bo'lganda ham, u ham inson-ku! Ba'zan esa o'zida kechayotgan holatni o'zi tushunmay turganligini eslab, boshqalar qanday tushunishini o'ylab ketadi. Yozuvchi tushkunlikka tushgan obraz tasvirini shunday noodatiy rang tasvir bilan chizadi.

Yozuvchi ko'chaga chiqib ishga otlanayotganida oldidan bir qiz chiqib qoladi. Odatiga ko'ra uni batafsil tasvirlaydi. Yozuvchida xotin-qizlar qiyofasini tasvirlashda alohida ishtiyoqni ham aytib o'tish kerak. Zamonaviylashgan qiyofa tasviri muallifda turli qarama-qarshi fikr uyg'otadi. Ongi-shuurida nimadir uyg'onadi. Shunday metaforik fikrlarga boradi.

“U menga bir qarab qo'ydi-da, bir qadam chetlanib o'tdi. Xuddi men uni eb qo'yadigan bir maxluqdek. Shunda hamma kiyimi qora bo'lganigami, xayolimga bu qiz shu qiz emas, biron qizning guldor soyasi, degan bir qiyos keldi”.

Qizning qarashlari yurish-turishiga mos emas, salom alik yo'q yoki erga qarab uyalgansimon nozik harakatlar yo'q. Yurishda ham, o'zini tutishida ham qandaydir dag'allik bor. Yovvoyi maxluqqa duch kelgandek, sachrab qochishga tushishi o'zbekona urf-odatlariga, ma'sumalikka zid ko'rinishlar hosil qiladi. Shuning uchun asar qahramoni uni “biror qizning guldor soyasi” deb ataydi. Hikoyachi ong oqimida “soyasini yo'qolib qolishi” tez-tez aylanib turibdi. Yozuvchi mahorati shu holatni qiz xatti-harakati misolida mohirlik bilan ko'rsatmoqda. Zero, mazmun-mohiyat yo'qolgan joyda, odam soyaga, quruq salobatga aylanishi mumkin, deb xulosa chiqariladi.

“Birdan bo'lsa-da, odamning xayoliga ko'p narsa kelar ekan: hamma boshqa, men boshqa bo'lib qoldim, odamlar orasidan chiqib, boshqa dunyoga o'tib ketdim. Lekin shu dunyoda yashayman, shu dunyoda odamga o'xshab yuribman, lekin odamlarga o'xshamayman, hamma rasmana odam, men esa...”

O'zligini yo'qotib qo'ygan odam tasviri ramziy metoforik ko'rinish olgan. O'zlikdan ajralish odamiylikdan ajralish degani. Meni endi odam hisoblashmaydi. Odamlik siyoqim yo'q. “Odamlar ichida yuribman, lekin odamlarga o'xshamayman”. Tasviri jismi jonim, savlatim binoyiday, mazmun – odamiylik yo'q. Odam bo'lish uchun qiyofa kasb etish kerak. U o'sha tuzumga xos yuzsizlik qiyofasini – soyasini yo'qotib qo'ygan.

“Soyam yo'qligi ancha vaqt kabinetlarda, xonalarda, dolonlarda, tushliklarda, o'zim borimda ham, yo'g'imda ham ko'p muhokama, tortishuv- bahslarga sabab bo'lib yurdi. Ishxonamizga jon kirdi, masala bitta va buning chorasi yo'qligi, chora topish hech kimning qo'ldan kelmayotgani uchun boshi qovushdi, umumiy chorasizlik hamkasblarni ahil, bir-biriga qandaydir mehribon ham qilib qo'ygan edi. Ilgari ishga qatnashim ertalab kelganlarga eshik oldida “temir taftar”ga qo'l qo'ydirib, keyin xonalarga bir-bir bosh suqib chiqadigan, kechqurun ketayotganlarga, endi xonasida qo'l qo'ydirib qoladigan Zuhra opamizni qiziqtirgan bo'lsa, endi kelishim bilan hamma meni ko'rgani kiradi, chin ko'ngildan sog'lig'imni so'raydi, ketayotganimda jo'r bo'lib yaxshi tilaklar bildirishib xayrlashadi”.

Avvalo shuni alohida ta'kidlash kerakki, Ahmad A'zam tili juda sodda, har kuni, barcha odamlar bir xil ishlatadigan so'zlar. U tasvir yaratishda jimjimador forscha, arabcha so'zlardan deyarli foydalanmaydi. “Ilgari”, “qo'l qo'ydirish”, “kelishim bilan” kabi so'z va so'z birikmalarini boshqa jimjimador ma'nodoshlarini yozish mumkin. Biz uchun notanish, ko'p qo'llanmaydigan turkcha, shivaga xos so'zlarni ham badiiy matnlarida ishlatadi.

Asar qahramoni boshiga tushgan tashvish fojia emas, xursandchilik ham emas. Qandaydir ko'ngilsiz holat. Adib asarlarida voqealar, hodisalar muhimlik kasb etmaydi. Ularning badiiy nutqda ahamiyati ham yo'q. Shu voqea-hodisa ortidagi kutilayotgan jarayon, mohiyat muhimlik kasb etadi. Yuqoridagi tasvir umummatnidan ramziylik – soyasini yo'qotgan odam holati oydinlashadi. Nazarimizda, uning bu holatidan hech kim tashvishga tushmaydi, balki boshi qovushadi. Nazar Eshonqulning “Bahovuddinining iti” hikoyasida rijessyor o'zligini anglaydi. Shuning uchun olomondan uzoqlashadi. Uzoqlashish jarayonida ham barcha uni yomon ko'rib, ko'rarga ko'zi bo'lmaydi. Ahmad A'zamning “Hali hayot bor” qissasida ham A'lam fikrsiz, qoloq, mute bir to'dadan qochib qutiladi. Uni ham barcha yomon ko'radi. “Soyasini yo'qotgan odam” hikoyasi qahramoniga esa barcha yaqinlashadi, yaxshi ko'rib qoladi. Soyasini yo'qotgan odam xorij adabiyotlarini ko'p o'qigani bois, yolg'on tuzumning hiyla-nayranglarini qalban-aqlan his etadi. Inson erkinligi, shaxslik tushunchasi, ozod inson g'oyasi, demokratik tamoyillar, inson va hurlik g'oyalari bilan o'zi yashayotgan jamiyatdagi boshboshdoqlik, haq-huquqsizlik, adolatsizlik, inson sha'ning oyoqosti qilinishi, mutelik, olomonchilik, qiyofasizlik o'rtasida zidlik mavjudligini anglagach, barcha narsadan voz kechadi. Befarq, loqayd kimsaga aylanadi. ba'zida qilgan isyonlaridan voz kechadi. Telbadek bo'lib, odamlar orasida yurib, odamligini, shaxsligini yo'qotadi. Shuning uchun atrofdegilar uning holatini kasallik deb qabul qilishadi. Unga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishning sababi – shu.

Ahmad A'zamning “Tugmachagul” novellasi 2010-yilda yozilgan. Novella 35 sahifani tashkil qiladi. “Kichik hajmdagi hikoya – novella” deguvchilar bir yana o'ylab ko'rishlari maqsadga muvofiqdir. Biz ham

bu haqda dissertatsiyamiz boshida fikr bildirganmiz. Asar nisbatan keyingi yillar mahsuli bo'lganligi uchunmi, negadir Ahmad A'zam novellada an'anaviy usul tanlagan. Garchi novella birinchi shaxs tilidan hikoya qilinsada, undagi keng epik plandagi tabiat tasvirlari, manzaralar yaratish, qiyofalar chizgilari bir oz yangilikday tuyuladi.

“Kuz. Xazonlar yakkam-dukkam erinchoq tukilyapti, erda yotganlari o'tgan katta yuk mashinalari epkiniga to's-to'palon ko'tarib ergashadi. Havo burqib turibdi-yu uncha sovuq emas, izg'irini yo'q, ammo do'kon ichi izg'irroq shekilli, u katta-katta angor gulli, qalin jun kamzul kiyib, ustidan beliga tivit rumol ham boylab, hurpayib olgan, xuddi polvonlarga o'xshab. O'zi ham polvondek xotin bo'lib ketibdi. Ha, endi shuncha yil qizligicha turmaydi-ku. Lekin uning oldida yoshligimni tuydim: elkam hali cho'kmagan, egnimda shinam kostyum, mashinada shuncha yo'l bosib kelayotganimga qaramay, dazmoli o'lmagan, hozirgina do'kondan olib keyingandek, albatta, chiroyli galustuk. Sal olifaligim ham bor, tanlab kiyaman. O'rtasidan katta yo'l kesgan bir qishloq, hurpayib turgan bu ayol oldida yoshimga nisbatan ancha yosh ko'rinaman. Uning qizligidan o'sha eski qosh, ha, keyin, odamga qaramay kuydiradigan ko'zi qolibdi. Tavba, ka-atta xotin-ey, o'ziga sal-pal qaramagan ekan-da, a?”[9]

Mazkur tasvir tabiat tasviri bilan qiyofa tasvirining uyg'unlashib ketishidan hosil bo'lgan. Birgina tugun vazifasini o'tab beruvchi novella boshlamasi butun asar ruhini o'ziga singdirganday tassurot uyg'otadi. “Kuz” umrning keksalik fasliga ishora qiladi. “Xazonlarning yakkam-dukkam erinchoq to'kilishi” muallif nazarida, zerikarli hayot tasviri. Qishloq, bir hayotning, nursiz kechmishning takrori ayolni ezib qo'yan. “barglarning tus-to'polon ko'tarishi, mashinalar ortidan yugurishi” qandaydir qalb bezovtaligini, u ham shunday yashashga rozi emasligini uqtirayotganday tuyuladi. Kuzning yoqimsiz, etni junjiktiradigan sovug'i uni qalin kiyinishga majbur qilgan. Bunday ko'rinisdagi semiz, bo'ychan odamlarni qishloqda polvonga qiyoslashadi. “Xuddi”, “-dek” yuklamalari polvon so'zini ikki marta qiyoslaydi, o'xshatadi. Bu bilan muallif nutqida unga nisbatan g'araz, ko'rolmaslik, yoshlikdagi muhabbatning rad etilishi orqasidagi alamzadalik sezilib turadi. Haddan ortiq semirish ham xunuklik, beo'xshovlik ramziga aylanib ketgan. Muallif shu “beo'xshov” so'zini “polvondek xotin bo'libdi” jumlasini bilan ifodalaydi. Undan tashqari xalqda semiz ayollarga nisbatan “so'qimday xotin” jumlasini ham ishlatiladi. “Polvondek xotin” birikmasida yuqoridagi salbiy ottenkali so'z ma'nosi ham yo'q emas. o'zini kiyinishini maqtashi, kiyimlarni bejirimligini alohida qayd etishi kabi sipogarchiliklar tasviri, uning oldida o'zini katta chog'lash, menga tekkaningda bunday abgor yurmasding qabilidagi noixtiyoriy kekkayishlar ham yo'q emas. Ayolga nisbatan “Hurpayib” so'zining ikki marta ishlatilishi yuqoridagi fikrlarni dalillash bilan birga, unga nisbatan rad etilgan muhabbat alami – hurmatsizlikni keltirib chiqaradi. “Hurpayib” so'zi odamga nisbatan aytilmaydi. E'tibor bersangiz, “qizligidan qolgan eski qoshi” degan jumla ishlatiladi. “qayrilma qoshi”, “burama qoshi” desa matn ma'nosiga putir etmasdi. “Eski qosh” so'z birikmasi bir-biri bilan ma'no jihatdan bog'lanmaydi. Bu atayin salbiy bo'yoqdor so'zlarni bo'rttirish uchun ishlatilgan joyiga tushmagan jumladir. “Tavba ka-atta xotin-ey”, kap-katta xotin bunday o'ziga qarab yursa bo'lmaydimi, demoqchi qahramon. U qishloqda yashasa, hamma qatori yashayotgan bo'lsa, ulardan ajralib ketib bo'lmaydi. Issiq uy yo'q, har kuni hammom yo'q. U bechora nima qilsin. Qisqasi yozuvchi birgina tasvir orqali asar qahramonining o'ta salbiy munosabatini ifodalay olgan.

“Misol uchun Saodatni olsam juda kelishgan, uylansang, uyingni gullatadi, bemalol sevish mumkin. Lekin Habiba shunaqa xayol surgani ham qo'ymaydi. O'rtada turib olib kunchilik qilib chimirilaveradi, qizlarimizdan birortasiga yaqinlashtirmaydi, birga kinoga tushsak, o'rtada o'tirib oladi, qo'lini ushlashga tusqinlik qiladi, unisi bilan ko'z urishtirsam qoshining o'rtasiga kindor tuguncha tushadi, xullaski, kun bermaydi menga. Oldiga umid bilan o'tlanib boraman, it g'ajigan suyakdek ezilib qaytaman. O'zi emas, itga ham bermas, deb achchiq ham qilaman ichimda, juda o'tib ketgan vaqtlari”.

Asar qahramoni o'y-xayollarini yozuvchi mahorat bilan tasvirlaydi. “Saodatga uylansam uyimni gullatadi” kabi yashirin o'xshatish orqali Saodat ham kelishgan o'zbek qizi, u ham uy ishlarini joy-joyiga qo'ya oladi. O'zini ham hurmatini qiladi. Lekin Habibaning qaddi-qomati, jon oluvchi ko'zlari, noz-firog'i, xayol surishga ham izn bermaydi. Yo'q joyda paydo bo'lib, yuragiga nayza uradi. “Kunchilik” so'zi adabiy tilda tez-tez ishlatilmaydi. Bu so'z sof turkcha so'z bo'lib badiiy asarlarda ishlatiladi. Bu so'zning o'rniga forsha-tojikcha “hasad”, “rashk” so'zlari nisbatan ko'proq ishlatiladi. Men qizlarga yaqinlashganimda, u meni qizg'anadi, qizlarga esa hasad qiladi, degan bir-biridan farq qiluvchi so'zlar birgina shu – kunchilik so'zida mujassam. “Qoshining o'rtasiga kindor tuguncha tushadi” deydi. Bu orqali hasad yoki rashk qilayotgan inson qiyofasini shunday nozik tasvirlaydi. Undan achchiqlanish, ko'ra olmaslik tuyg'usini suratini chizib ko'rsatadi. Bu yozuvchi tasvir mahoratining yuqori darajasidir. Tasvirdagi ikkita maqolning biri o'rinsiz, biri o'rinli ishlatilgan. U qizning qizg'anishlarini eslab, ne-ne umidlar uning oldiga boradi. “It g'ajigan suyakdek” ezilib qaytadi. Shu o'rinda o'xshatish biroz g'alizroq. G'ajib tashlangan suyak odamning ruhan ezilishini, umidsizlikka tushishini ko'rsata olmaydi. Uning o'rniga “it talagandek” deyish to'g'riroq, nazarimizda.

Ikkinchi maqol esa mohiyatan to'g'ri ishlatilgan. "O'zi yemas, itga ham bermas". Sevgiga moyillik ham bildirmaydi. Birovlarni sevgudek bo'lsa, bezovtalanib hol-joniga qo'ymaydi, degan ishora haqqoniy berilgan.

Ahmad A'zamning "Asqartog' tomonlarda" qissasida ham uning tildan foydalanish mahorati o'zgacha, noan'anaviy ko'rinish hosil qila oladi.

"Tilda biror narsani boshqa narsadan ajratib ko'rsatadigan o'ziga xos xususiyatlarni ta'kidlash uchun uning maxsus belgisini ko'rsatib turuvchi so'zlardan foydalanish yoki shu narsa belgisini uzundan uzoq gaplar vositasida izohlab o'tirmasdan, uni boshqa bir narsaga o'xshatib tasvirlash orqali ayonlikka, aniqlikka erishiladi. Ba'zan turmushda ayrim narsalarning salbiy tomonlarini to'g'ridan to'g'ri ko'rsatishdan ko'ra kinoya, istehzolarga murojaat etiladi. Bunday vositalar tilshunoslikda tasviriy vositalar termini bilan yuritiladi" .[7] deb yozadi R.Qo'ng'urov.

Tilshunos olim badiiy nutqning tayanch nuqtalari haqida fikr yuritadi. Ijodkor tipik qahramon xarakterini yaratishda tesha tegmagan so'zlar topishi, o'sha so'zlar ishtirokida, tasviriy vositalar yordamida favqulodda keskin ruhiy kechinmalar tasvirini berishi kerak bo'ladi. O'xshatish qo'shimchalari yordamida fikr-mulohazani xulosalay olishni ham uddalashni eplash kerak bo'ladi.

Asqartog' muallifning ko'ngil tog'i, tinimsiz shu toqqa intilish payida yurgan roviy faqat o'zi bilan o'zi gaplashadi. Ichki nutq, o'ylov unga tinchlik bermaydi. O'ylagan sari o'z o'ylovlari so'nggi uzoqlashib ketaveradi. Xayoliy cho'qqilarining biriga etishsa, unisi tomon intilishda davom etadi. Uni g'oyibdan baland cho'qqilar imlab chaqirib turadi. shuning uchun uning ko'ngil tog'lari cheksiz, chegarasiz, uning oxirgi manzili yo'q. Turmushi har tugil yomon emas, lekin u ko'ngildan, o'z ruhiyatidan Asqartog'ini izlab yashashga mahkum. Yuqoriga intilish vosita, aslida yashashning mazmuniga sabab izlaydi. Jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishga, ruh ozodligiga erishishda, erkin ko'ngil bilan yashashga bir umr yo'l izlab yashadi. Ana shu intilish, harakatchanlik, bedorlikdan halavat topadi. Shuning uchun ham uning qahramonlari o'ychan. Ruhiyatidagi o'ziga qarshi kuch bilan tortishib yashaydi. Tasvirda mahsunlik kuchli. Tasvirdan tasvir yaratiladi. Bu kitobxonni faollikka chorlaydi. Nasr ruhi o'quvchini tafakkur qilishga chorlaydi. "Yakshanba kunlari ertalabdan o'zimni zerikishga majburlayman, bugun o'tirishga qatnashmayman, deb ahdlar qilaman, ammo vaqt peshindan og'ishi bilan ko'kragimda to'palon ko'tarib, tamog'imni qitiqlayotgan lablarimni kechqurun aytar gaplarimga shaylantirayotgan tuyg'ularga bas kelolmay qolaman...

U paytlari mustaqillikdan ko'ra, hammaga o'xshashga, hamma qatori fikrlashga intilib o'zimizni to'daga urar, yangi hayotga yangi narsalarga tashna bo'lsa ham, yangilik izlamay, yo'lga chiqmay, g'uj yashashni yaxshi ko'rar, dunyoni bir-birimizsiz fikr qilolmas, shu chaqur-chug'urning ichida Haqberdi ikkilamiz ham yarmi qizil, yarmi ko'kka bo'yalgan koptokday, chirmashib, kelajakka dumalab ketayotgan edik". Ushbu tasvirni o'qigan kitobxon yozuvchi ichki kechinmalari ta'siriga tushadi. Muallifning hayot qonunlariga, mantiqlariga zid fikr-o'ylari oqimi diqqatini yanada jamlashga undaydi. Yakshanba dam olish kuni. Shu kuni odamlar kunini zerikarli o'tkazmay, dala-dashtga saylgohlarga, do'stlar davrasiga oshiqadi. Yozuvchi tasviridagi "o'zini zerikishga majburlash" jumlasini biroz g'alatiroq tuyuladi. "O'tirishga qatnashmaslikka" ahd qiladi. Ammo vaqt peshindan o'tgach o'z tuyg'ulariga bas kelolmaydi. Muallif, asar qahramoni ijod kishisi, ijod yolg'izlikda yaratiladi. Ilhom ana shunday mahzunlikdan yanada kuch yig'adi. Zerikishga majburlash – ijod qilish, ko'ngil bilan, qalb bilan yolg'izlikda orzusidagi tog'lariga sayr qilishni bildiradi. Davr ruhi mustaqillikni, yolg'izlikda bahodir bo'lishni yoqtirmasdi. Shuning uchun asar qahramoni Haqberdi bilan nimaiki o'ylasa, harakat qilsa birgalikda bajarardi. O'zlari ham, ruhiyati ham yangi narsalarga tashna edi. Yangi hayotdan yangilik izlashni istardi, ammo xohlamasdi. Olomon ichida kemadek suzib yurishni xush kurardi. Haqberdi ikkalasining yarmi qizil, yarmi ko'kka bo'yalgan koptokka o'xshatilishi yer sharining turli tuman joylarida mafkuralarning allatavur qonun-qoidalari, yo'l-yo'riqlari, millatparastlar va sotqinlar haqidagi yolg'onlar timsoli sifatida qaralishi kerak.

**Xullas**, Ahmad A'zam nasri, o'z iborasi bilan aytganda, tilsimli nasrini har bir tadqiqotchi o'z saviyasidan kelib chiqib tahlil qiladi. Qaysi jihatlarin yoritadi, qaysi jihatlarini ko'zdan qochiradi. Gap bunda ham emas, uning asarlarida, jumladan "Asqartog' tomonlarda" qissasida bosh qahramon o'y-xayollari ta'sirida uning ichki olamida, nimadir o'zgarsa, katarsis hodisasi ro'y bersa, asar o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Sharafiddinov O. Haqiqatga sadoqat. T. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1989.164-b.
2. Қодиров П. Ўйлар. Т. F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат науриёти 1971. 148-б.
3. Тоҳуров З. Бадий нутқ. Т. Fan va texnologiya. 1017. 11-б.
4. Qahhor A. Yoshlar bilan suhbat. T. Akadernashr. 2017. 12-b.

## LITERARY CRITICISM

---

5. *Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.Navoiy universiteti. 2018. 238-b.*
6. *Аъзам А. Ҳали ҳаём бор....156-б.*
7. *Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. T. Fan. 1977. 5-b.*
8. *Qodirov P. O'ylar. T. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti 1971. 148-b.*
9. *A'zam A. Hali hayot bor....85-b.*
10. *Tohirov Z. Badiiy nutq. T. Fan va texnologiya. 1017. 11-b.*

## EMILI DIKINSON SHE'RIYATIDA ROMANTIZM XUSUSIYATLARI IN'IKOSI

*Xamdamova Sitora Baxshilloyevna,*  
Buxoro davlat universiteti, Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik  
kafedrası dotsenti

[s.b.khamdamova@buxdu.uz](mailto:s.b.khamdamova@buxdu.uz)

*Gaybulloyeva Vazirabonu Shokir qizi,*  
Buxoro davlat universiteti, Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik  
kafedrası magistranti  
v.sh. g'aybullayeva@buxdu.uz

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz adabiyoti namoyondasi Emili Dikinsonning she'riyati tahliliga qaratilgan bo'lib, tadqiqotning asosiy maqsadi shoiraning ijodida romantizm oqimi xarakter-xususiyligi qay tarzda aks ettirilganiga qaratilgan. Bundan tashqari tadqiqot jarayonida erishilgan natijalar adabiyotshunoslik sohasining rivojlanishiga qisman hissa qo'shadi. Romantizm she'riyatida o'ziga xos uslubi bilan iz qoldirgan shoira Emili Dikinson ushbu yo'nalishda yaratilgan ijodiy namunalari bilan realizm ruhini ham integrallashtirgan vakillardan biri hisoblanadi. Uning she'riyati mavzulari reallikka asoslangan bo'lib, undagi romantik ruh alohida she'r qatorlarida barq urib turadi.

**Kalit so'zlar:** romantizm, realizm, realizm va romantizm integratsiyasi, romantizm xususiyligi, hissiy ifodalar, individualizm, simbolizm.

## ROMANTICISM IN EMILY DICKINSON'S POETRY DESCRIPTION OF CHARACTERISTICS

**Abstract.** This article focuses on the analysis of the poetry of Emily Dickinson, a representative of English literature. In addition, the results achieved during the research will partially contribute to the development of the field of literary studies. The poetess Emily Dickinson, who improved in romantic poetry with her unique style, is one of the representatives who integrated the spirit of realism into her examples created during this movement. The themes of her poetry are based on reality, and the romantic spirit appears through the lines of the poem.

**Keywords:** romanticism, realism, integration of realism and romanticism, characteristics of romanticism, emotional expressions, individualism, symbolism.

## РОМАНТИЗМ В ПОЭЗИИ ЭМИЛИ ДИКНСОН ОПИСАНИЕ ХАРАКТЕРИСТИК

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу поэзии Эмили Дикинсон, представительницы английской литературы. Кроме того, результаты, достигнутые в ходе исследования, частично будут способствовать развитию области литературоведения. Поэтесса Эмили Дикинсон, которая усовершенствовалась в романтической поэзии благодаря своему уникальному стилю, является одной из представительниц, которые интегрировали дух реализма в свои образцы, созданные в ходе этого движения. Тематика ее поэзии основана на реальности, а романтический дух проявляется через строки стихотворения.

**Ключевые слова:** романтизм, реализм, интеграция реализма и романтизма, характеристики романтизма, эмоциональные проявления, индивидуализм, символизм.

**Kirish.** Romantizm oqimi XVIII asrning 1-yarmi XIX asrda Yevropada, shuningdek, Amerika adabiyoti va san'atida paydo bo'lgan hamda jahon bo'ylab keng tarqalgan oqim hisoblanadi. Romantizm- ispancha "romans" so'zidan olingan bo'lib, bu so'z dastlab lirik va qahramonlik mazmunidagi qo'shiqlarni, keyinchalik esa ritmlar haqidagi epik asarlarni anglatgan.

Romantizm davrida ingliz adabiyotida yangicha hissiy tuyg'ularni qo'zg'atuvchi xususiylar namoyon bo'la boshladi. Bu davrda:

1) xayolot dunyosi;

2) individuallik;

3) tabiatdan bahra olish;

4) donishmandlikka intilish;

5) oddiy insonlarni ideallashtirishga asoslangan harakatlar tufayli romantizm she'riyatda namoyon bo'la boshladi. [9; 38]

Burjua jamiyatidagi ijtimoiy turmush tarziga, jamiyat aholisidagi xudbinlik va axloqsizlik ko'rinishlariga qarshi noroziliklar, sanoat, siyosat va ilm-fan sohalaridagi taraqqiyot natijasida yuzaga keladigan qiyinchiliklar tufayli romantizm vakillari o'zlarining idellarini yaratish va unga intilish hissini uyg'otdi. Ular hayotni qisman rivojlantirishni emas, balki undagi barcha ziddiyatlardan butunlay xalos bo'lishga intildilar. Romantizm jamiyat vakillari va adabiyot ahli orasida yangicha tuyg'ularni paydo bo'lishiga olib keldi. Ma'rifatparvarlarning dinga kirishi bilan odamlar tasavvufga bo'lgan ehtiyojni tushuna boshladilar. Emili Dikinson bu adabiy davrning eng mashhur ayol shoiridir. Romantik shaxs sifatida u transsendentalizm va romantizm xususiyatlarini o'z she'riyatida aks ettirdi.

**Adabiyotlar sharhi.** Maqolaning asosiy mazmunini yoritishda va tahlil jarayonida Emili Dikinsonning ijodini yorituvchi manbalardan foydalanildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Dikinson sirli aurali shoira bo'lgan. U hayotining asosiy qismini uyida o'tkazganligi tufayli u haqida ma'lumotlar izlashda ilmiy manbalarga ko'p marotaba yuzlandik. Emma Baldwinning Dikinson she'rlari bo'yicha yozilgan maqolasi asosiy manba sifatida foydalanildi. "Hope" she'ri tahlili bo'yicha Lavelle Porterning maqolasidan foydalandik. [3; 56]

### **Olingan natijalar va ularning tahlili.**

**Emili Elizabet Dikinson** (1830-yil 10-dekabr – 1886-yil 15-may) - amerikalik shoir. Dikinson hayotida deyarli noma'lum bo'lsa-da, Uolt Uitman bilan birga XIX asrning ikkita buyuk amerikalik shoirlaridan biri sifatida qaraldi. Uitman yovvoyi yovvoyi Amerikani ifodalasa, Amerika energiyasi va amerikalik umid bilan to'lgan chegaralar va fabrikalar Amerikasi, Dikinson, inoyat bilan, aniqlik bilan, o'z zamonasining boshqa amerikalik shoirlari bilan teng bo'lmagan aql bilan Amerika vijdonini ifodalaydi. Ko'pchilik, yigirmanchi asr va uning ofatlaridan so'ng, Dikinson va uning qayg'uli aqlini eski do'stidek bilishadi.

Emili Dikinson hayotligida bir ming sakkiz yuz she'ridan sakkiztaginasini e'lon qilgan. Ularni ham o'sha davr she'riy me'yorlariga solish uchun qattiq tahrir etishgan. Emili Dikinsonning she'rlari zamonasi qoliplariga sig'magan-da. Satrlari qisqa, aksariyati nomsiz, tinish belgilari noodatiy, aksar so'zlar bosh harflarda yozilgan, har qadamda tire belgisi qo'yilgan. Aksar she'rlar hayot, mamot va abadiyat mavzusida edi. Shoira ota uyida, yolg'izlikda yashab o'tdi. Ilk kitobi vafotidan so'ng bosilib chiqdi.

Bugun Emili Dikinson Amerika va Jahon she'riyatining buyuk vakili sanaladi. U vatanida va jahonda eng ko'p o'qiladigan shoirlardan biri. Amerika adabiyotining malikasi va faxri, bir umr kafan sanab "oq kiyingan ayol" — Emili Dikinson she'riyati Yaratganni ko'kda va zaminda, har giyoh va gulda, bulut va chumolida, asalari va insonda kashf etishdan iboratdir.

Emili Dikinson "Amherst Belle" sifatida tanilgan va hurmatli shoirlardan biri edi. U 1830-yil dekabr oyida Massachusetts shtatidagi Amherst kichik fermer shaharchasida yashovchi taniqli oilada tug'ilgan. Yosh ayol sifatida u qiziquvchan va juda aqlli edi.

Dikinsonning ko'plab she'rlari ushbu romantik ruhiyatni aks ettirgan. Bundan tashqari, Dikinson "umid" tuyg'usiga jismoniy fazilatlarini belgilaydigan metaforalardan va juda chuqurroq va muhimroq bo'lgan mutlaqo boshqa ma'noni ifodalash uchun ramzlardan (yoki ob'ektlardan) foydalangan. Quyidagi parchada shoira "**hope**" ya'ni "**umid**" tuyg'usini "qush patlari" bilan bog'laydi.

*"Hope" is the thing with feathers –*

*That perches in the soul –*

*And sings the tune without the words –*

*And never stops - at all -*

Dikinson o'zining "**Hope" is the thing with feathers**" she'rida romantizmdan o'z dunyosidagi muammolardan qochish uchun ruhan taskin topish uchun foydalanadi. U, shuningdek, "ruh" ni bizning ichki borligimizning ramzi sifatida ishlatadi, u ruhiyatda bizning umidimiz paydo bo'ladi va yashaydi deb tasvirlaydi. Bundan tashqari, Dikinson "**umid**" tuyg'usi yaratish uchun ongimizdagi "feathers"dan foydalanadi. Shu patlar bizga yangicha "**umid**" tuyg'usiga intilishga yordam beradi deb hisoblaydi. She'rda ko'pgina metafora ya'ni o'xshatishlardan foydalanish ham romantizmning xususiyatidan biridir.

Emili Dikinson o'z ijodida tasvirlagan romantizmning asosiy elementi hisoblangan tabiatning romantiklar uchun ahamiyatini ta'kidlashdir. Uning ko'pgina she'rlarida tabiatda mavjud bo'lgan narsalarni eslatish yoki taqqoslash mavjud.

## LITERARY CRITICISM

U umrining ko'p qismini o'z uyida o'tkazganligi tufayli uning she'rlari vafotidan keyin topilib, nashr qilingan. Dikinson she'rlarini nashr etish jarayonida ishtirok etmadi. Bu shuni anglatadiki, bugungi kunda chop etilgan har bir she'rning mazmuni taxminlar asosida tahlil qilingan. Aynan muallif o'zining ijodi orqali nimani yetkazmoqchi ekanligi adabiyotshunoslarning taxminiy farazlaridir. Buning natijasida esa Dikinson yozuvchi sifatida sirli aurani saqlab qolgan yozuvchi sifatida tanildi. Muallif she'rlaridagi mazmunni bir jumla yoki iborani bilan aniq tasvirlab bo'lmaydigan murakkab ayol edi. Uning she'rlari o'ziga xos va juda qiziqarli tuzilgan. Dikinsonni tushunish she'rlarni yaxshiroq talqin qilishga, uning hayotiy ishlarini yaxshiroq baholashga olib kelishi mumkin.

Dastlabki nashrlarning matnlari keyingi o'quvchilar tomonidan tan olinishi qiyin edi, chunki ularni keng qamrovli tahrir qilish Dikinson qo'lyozmalaridagi matnlarni sezilarli darajada o'zgartirib yubordi. Tomas X. Jonsonning Dikinson she'riyatining yangi va to'liq nashri, *Emili Dikinsonning she'rlari*, 1955 yilda uch jildda nashr etilgan. Bu nashr keyinchalik Dikinson stipendiyalarining asosini tashkil etdi va keyinchalik o'quvchilarga ma'lum bo'lgan Dikinsonni taqdim etdi: she'rlar sarlavhasiz, faqat taxminiy xronologik tartibda raqamlangan, chiziqlar bilan o'ralgan va tartibsiz bosh harflar bilan yozilgan, va ko'pincha o'z tillarida juda elliptik edi. Ular birinchi marta Dikinson qoldirib ketganidek, o'z qo'lyozmalaridagi matnga yaqin versiyalarda bosilgan. Variorumning keyingi nashri ko'plab muqobil so'zlarni taqdim etdi, ulardan Jonson tahririyatning cheklangan aralashuvi tufayli o'qilishi uchun tanlashga majbur bo'ldi.

Dikinson sevgi munosabatlari yoki hatto yaqin munosabatlarga ega bo'lmagan yolg'iz odam sifatida eslanadi. Biroq, uning yolg'izligi XIX asrning eng ta'sirli sevgi she'rlarini yozishiga to'sqinlik qilmadi. Dikinson insonning hayotida sevgining kuchini yaxshi bilgan va uni **"Wild nights - Wild nights!"** she'rida namoyish etgan:

*Wild nights - Wild nights!  
Where I with thee  
Wild nights should be  
Our luxury!*

She'r yozuvchining **"Wild nights"** ya'ni **"Yovvoyi tunlar"**ni o'tkazganini aytishi bilan boshlanadi. Matnda tunlar aynan qanday mazmunda kelganligi aniq emas. Ular uning Xudo bilan o'tkazgan ruhiy lahzalaridan iborat bo'lishi mumkin yoki bu muallif va inson o'rtasidagi muhabbatga ishora qilishi mumkin. **"Wild nights should be our luxury!"** misralari orqali o'zining hamrohi bilan bunday tunlardan katta umidlar kutayotganini bilib olishimiz mumkin.

*Futile – the winds –  
To a Heart in port –  
Done with the Compass –  
Done with the Chart!*

Yuqorida keltirilgan band orqali shoira o'zining sevimli insoniga va muhabbatiga qanday borishini tasvirlash uchun dengiz bilan bog'liq metaforalardan foydalangan. Metafora **"Wild nights!"**da qo'llaniladigan eng muhim she'riy uslublardan biri bo'lib, uning natijasida paydo bo'lgan obrazlar she'r davomida eng ko'zga ko'ringan ifodalar orqali namoyon bo'ladi. Birinchi bandda o'quvchi ikki marta takrorlangan **"Yovvoyi tunlar"** (*Wild nights, wild nights!*) iborasini uchratadi. Ammo iborani takrorlash orqali unga qo'shimcha ma'no yuklanganligi yaqqol sezilib turibdi.

*"Rowing in Eden –  
Ah – the Sea!  
Might I but moor – tonight –  
In thee!"*

"Wild nights!" ning uchinchi to'rtligida u dengiz tasvirlari davom ettiriladi. Shoira shu tunni suyuklisi bilan birga o'tkazishini dengizda xuddi kemada sokin suzishga qiyoslaydi. Bu misralar orqali muallif ikki juftlik muhabbatini dengiz va qayiqqa qiyoslayapti. Ya'ni "dengiz va qayiq" qanchalik bir-biriga yaqin bo'lsa, u ha shunchalik yaqinligiga ishora qilganini ko'rishimiz mumkin.

Emili Dikinson quyida keltirilgan she'rlarida ham romantizm davri o'ziga xos xususiyatlari aks ettirgan: **"If I can stop one heart from breaking"** (**"Bitta yurakning sinishini to'xtata olsam"**)

Ushbu go'zal, juda qisqa she'rda Dikinsonning qahramoni barcha insonlarga o'z muhabbatini namoyon qilishni va qo'ldan kelganicha yordam berish istagini ifodalaydi. Agar u boshqalarga o'z hayotida yordam berish yo'lini topa olsa, deydi muallif, u hayotidagi maqsadiga erishgan bo'ladi. Qahramonning butun hayoti shu istak atrofida joylashgan. Uning so'zlariga ko'ra, agar u **"bir yurakni sindirishini"** to'xtata olsa, umri behuda ketmaganligidan dalolat beradi.

**"I gave myself to him"** (**"Men o'zimni unga berdim"**).

## LITERARY CRITICISM

*"I gave myself to him"* - bu atipik sevgi she'ri bo'lib, unda muallif o'z his-tuyg'ularini g'ayrioddiy tilda ifodalaydi. Unda aks etishicha, agar ikki o'rtadagi munosabat haqiqiy muhabbat bo'lmasa, atrof-muhitga bo'lga tasvirning o'zgarishini ifodalab beradi. Bundan kelib chiqadiki, muhabbatli va muhabbatsiz olamning tasviri desak ham bo'ladi.

### ***"I am "wife"-I've finished that" (Men "ayol"man - men buni tugatdim)***

Ushbu she'rda Dikinson shaxsiy mavzularni, jumladan, mustaqillik, jamiyat va ayollik mavzularini o'rganadi. Matnda u ayolning hayoti va turmush o'rtog'iga aylangan ayolning hayoti o'rtasidagi farqlar haqida gapiradi. U birinchi satrlarda xotiniga aylanganini e'lon qiladi. U ko'rfazning narigi tomonida turib, turmush qurish nimani anglatishini bilib oladi. Boshqa tarafda turgan turmush qurmaganlarning hayotini turmush qurganlarniki bilan taqqoslaydi.

**Xulosa.** Shoira ijodida yolg'izlik, tushkunlik, hayot qiyinchiliklari va o'lim mavzularining tabiati, badiiy-estetik taraqqiyot qonuniyatlari, psixologik hamda nutqiy jihatlari, tarbiyaviy g'oyalarning alohida ta'kidlanishi bilan belgilanganligi aniqlandi.

Emili Dikinson ijodining serqirra va murakkabligi, uning mualliflik uslubi rivojining asosiy bosqichlarini aniqlashda shoira asarlarini kompleks tahlil qilish orqali muallifning individual o'ziga xos uslubi va mahorati, ularda romantizm va transendentalizm uyg'unligi shoira ijodida namoyon bo'ladigan bir necha adabiy oqimlar almashinuvi zaylida o'zgarib turishi asoslangan.

Yuqorida keltirilgan she'rlar Dikinsonning mashhur she'rlaridan hisoblanadi. U ehtiros va istakni tasvirlash uchun metafora sifatida ishlatiladigan dengiz tasvirlariga qaratilgan. Ushbu she'rlarda romantik tuyg'ular haqida metaforik ifodalar ko'p ishlatilgan. Aksariyat tahlilchilar bu she'r jismoniy emas, balki diniy ekstaz haqida degan xulosaga ham kelishgan. Emili Dikinsonning ko'pgina she'rlari romantik ruhiyatni aks ettiruvchi metaforik ifodalardan tashkil topgan. Tabiiyki, his-tuyg'ularni ifodalash uchun oddiy jumalardan foydalanish she'rning mazmunini zerikarli qilib qo'yadi. Unda uslubiy vositalarning ko'proq qo'llanilishi uning ta'sirchanligi oshiradi va o'quvchining yuragidan joy oladi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. "Emily Dickinson". *Poets.org. Academy of American Poets. Web. 2 Dec. 2015.*
2. "Emily Dickinson's Life". *Emily Dickinson's Life. American Council of Learned Societies. Web. 30 Nov. 2015.*
3. Baldwin, Emma. "Wild nights - Wild nights! by Emily Dickinson". *Poem Analysis, <https://poemanalysis.com/emily-dickinson/wild-nights-wild-nights/>. Accessed 8 September 2023.*
4. Emily Dickinson – *Hope Is the Thing with Feathers (254)*. "Genius. Genius Media Group Inc. Web. 2 Dec. 2015.
5. Bakhshilloyevna, K. S. (2021). *Formation of modern english poetry in the late xix and early xx centuries. Euro-Asia Conferences, 1 (1), 459–461.*
6. Khamdamova Sitora Bakhshilloyevna. (2021). *Critical review of literature on symbolism in william butler yeats' poetry. Euro-Asia Conferences, 3(1), 68–69.*
7. Khamdamova, Sitora Bakhshilloyevna. "Mythological Themes and Motives in William Butler Yeats' Poetry." *Spanish Journal of Innovation and Integrity 6 (2022): 147-150.*
8. Khamdamova Sitora Bakhshilloyevna. *William butler yeats' myth-making features. «филологические исследования: проблема и решение» материалы международной научной конференции (доктор филологических наук, профессор Хамид Гуломович Негматов посвящается к 80-летию со дня рождения). 2022-06-25.*
9. Khojiev, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). *Language and speech expression of personal descriptions. TJE- Tematics journal of Education ISSN, 2249-9822.*
10. Porter, Lavelle. "Hope" *Is the Thing with Feathers - (314)*. "Poetry Foundation. Poetry Foundation." *Web. 30 Nov. 2015.*

## THE COMPARISON OF THE CONCEPT OF UGLINESS IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS

*Inoyatova Dilnoza Ilkhomovna,*  
Independent researcher of the Department of  
English Linguistics of Bukhara State University  
[inoyatovadilnoza97@gmail.com](mailto:inoyatovadilnoza97@gmail.com)

**Abstract.** In folklore, the genre of proverbs is a part of the folk creativity, as it is directed to wisdom, is very concise and figurative. However, the genre of the proverb is not recognized as a separate literary genre until today, and it is seen as a small genre abstractly in the composition of folk prose and folk poetry. Proverb is one of the genres of oral creativity with a concise and deep meaning, which was created on the basis of the experiences and observations accumulated by the people in the socio-economic, political and cultural life over many centuries.

**Keywords:** concept, proverb, ugliness, frame, paremiology, subjective, objective.

### INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDAGI XUNUKLIK TUSHUNCHASINING QO'YILISHI

**Annotatsiya.** Xalq og'zaki ijodida maqol janri hikmatga yo'naltirilganligi uchun xalq ijodining bir bo'lagi bo'lib, juda ixcham va obrazli bo'ladi. Biroq maqol janri bugungi kungacha alohida adabiy janr sifatida e'tirof etilmagan, xalq nasri va xalq she'riyati tarkibida mavhum tarzda kichik janr sifatida ko'riladi.[3] Maqol xalqning ko'p asrlar davomida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida to'plagan kechinmalari, kuzatuvlari asosida yaratilgan ixcham va teran mazmunli og'zaki ijod janrlaridan biridir.

**Kalit so'zlar:** tushuncha, maqol, xunuklik, ramka, paremiologiya, subyektiv, obyektiv.

### СРАВНЕНИЕ ПОНЯТИЯ «УЖЕСТЬ» В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЯХ

**Аннотация.** В фольклоре жанр пословиц является частью народного творчества, так как направлен на мудрость, очень лаконичен и образен. Однако жанр пословицы до сих пор не признан отдельным литературным жанром и рассматривается как небольшой жанр абстрактно в композиции народной прозы и народной поэзии.[3] Пословица – один из жанров устного творчества, обладающий лаконичным и глубоким смыслом, который создан на основе опыта и наблюдений, накопленных народом в социально-экономической, политической и культурной жизни на протяжении многих веков.

**Ключевые слова:** понятие, пословица, уродство, рамка, паремология, субъективное, объективное.

**Research object:** English and Uzbek proverbs

**Used methods.** The article used comparative-comparative, cross-cultural, conceptual-cognitive, and classification methods.

**Results.** In English literatures, we can give the concept of a proverb through the words: adages, dictums, maxims, mottoes, precepts, saws, truisms. Like Uzbek proverbs, English proverbs are one of the most widespread genres of English folklore. It often shows common aspects similar to Uzbek proverbs in terms of structure, study in folklore, and other aspects. Conditioned by changes in social life, the content of proverbs changes at various levels - narrowing or expanding. This fact itself shows that the proverb is directly connected with the life of the society and the life of the people. So, proverbs play a key role in studying people's life, their past economic, political and cultural level of living

Language is the most important factor in expressing the culture, values, and beliefs of each nation, as well as the unique aspects of the nation as a whole. Nida, a linguist, says that it is important to study the culture of a nation when studying its language. He said that language and culture are similar systems developed in dependence on each other.[4]

The concept of ugliness in English proverbs can be divided into 4:

1. Reviving total ugliness, the assessment given to it: Beauty is only skin deep, but ugly goes straight to the bone, Neither handsome enough to kill, nor ugly enough to frighten. English and Uzbeks believe that

## LITERARY CRITICISM

---

ugliness is not permanent in the worldview. This feature is the universality of the linguistic consciousness of the two nations: *It's those ugly caterpillars that turn into beautiful butterflies after seasons, Desire beautifies what is ugly*. So, it can be concluded that any ugliness can become the most beautiful thing one day.

2. Ugliness is subjective, different for everyone: *A mother never thinks her baby is ugly*.

*It's the tortoise's shell, ugly and hard that protects its life long journey on earth*. There is a sense in the above English proverb that things that are ugly and not beautiful can sometimes have a positive color.

3. It is impossible to hide the ugly characteristics and actions of a person:

a) a leopard can't change its spots - just as a leopard can't change its black spots, it's hard for a person to hide unattractive flaws.

b) even if a monkey wears a golden ring, it is and remains an ugly thing. That is, no matter how many ugly vices a person has, no matter how much he tries to look beautiful, the ugly aspects of his inner world do not make him look beautiful.

c) poverty and ugliness are difficult to hide. The idea that it is impossible to hide ugly, ugly places in nature and human vices has been put forward.

d) You can't unscramble a scrambled egg - You can't unscramble a scrambled egg. If we pay attention to the figurative meaning of this proverb, the idea that ugliness cannot be fixed that hidden in it.

4. Ugly traits cause unattractive actions:

a) a fool and his money are soon parted. There is a hidden meaning that an ugly defect in human character creates another ugly state.

b) an empty vessel makes much noise - an empty vessel makes a lot of noise. If we analyze the basic meaning of this proverb, it is meant that the behavior of an ugly person is not beautiful.

c) Cowards die many times before their deaths - Cowards die many times. We know that being coward is a bad and not beautiful human trait. Because of this bad vice of cowards, it is meant that their actions will be ugly.

If we talk about common inter-religious concepts, no matter what religion it is, all of them have such concepts as heaven, hell, devil, and angel. In Islam, words such as Satan or hell are considered negative words and are used by the people in a negative sense. During the analysis of English proverbs, it was found that the English people also believe that these concepts exist in religion, and based on the meaning of the proverbs, they are all used in a negative sense. If we focus on the places of use of proverbs in both languages and the essence of meaning, proverbs with these words embody negative images in both languages. [5]

For example: a) Hell has no fury like a woman scorned.

b) The Devil can cite Scripture for his purpose.

c) The Devil finds work for the idle hands to do.

d) He must have a long spoon that sups with the Devil.

So, in Uzbek and English proverbs using the words devil and hell in many cases have a negative meaning, and in this respect, some concepts in the religious views of the Uzbek and English people are understood and used in the same language. Another proverb often used by the English people is two blacks do not make a white. Hence, all bad things and persons are always represented under black color. All good and beautiful things are represented by white color, and there are meanings that no matter how many bad and ugly things there are, they can never replace one good thing. If we get acquainted with the Uzbek version of the proverb, its meaning is closer to the customs of the Uzbek people. By the proverb "The shame of a black dog touches a white dog", the people say that one ugly person or thing can harm many.

So, while the knowledge and news studied by many scientists theoretically substantiated the proof of our opinions, some English and Uzbek proverbs studied linguistically and culturally above show the unique aspects of the English and Uzbek people will give. The important thing is that the same proverbs, which exist in both languages, are sometimes used by two peoples with the same expression, and sometimes with completely different expressions. The reason for this is that what a nation has is expressed in its language. If the same thing or situation exists in both languages, the proverb often means the same thing. If it is the other way around, proverbs may have completely different meanings, or an alternative version of the same proverb may not exist at all in the language being compared.

In this place, English and Uzbek proverbs reflect all national traditions from the past to the present day, and proverbs, as rare examples of folk oral creativity, take the lead in fulfilling this task. When studying the specific aspects of the mentality of the Uzbek and English people, Uzbek and English proverbs can show the similarities and differences between these two peoples. In the process of analysis of proverbs, there are also ideas in the English mentality to call for the correction of non-beautiful qualities of a person, as well as the fact that ugly qualities make the inner world of a person ugly.

## LITERARY CRITICISM

---

For example: 1. *Speak less but do more*. In this proverb, it is suggested that talking too much is an ugly act, and it is better to be engaged in a useful act.

2. *Back is spent under his belly, What is got over the devil's. He goes from the unclean to the gathered unclean*. In this proverb, it is said that things that are impure, i.e. found in a good way, will never lead to good, and any item found in an ugly way will be spent in an ugly, unbeautiful way.

3. *Ill gotten, ill spent*. In the essence of this proverb, there is the meaning put forward in the proverb analyzed above, that is, what is found with good leads to good, and what is found with evil leads to bad.

4. *A bad excuse is better than none*. A person can harm and hurt others with his ugly actions and vices. In such cases, it is said that it is acceptable to apologize when one realizes the ugly deed done, and it is not permissible if it is the other way around.

5. *Give him an inch and hell take an ell*. This quoted proverb also talks about the unattractive actions of people with ugly vices.

6. *The higher up, the greater the fall*. Arrogance is considered an ugly trait not only in the Uzbek mentality, but also in the English culture. That is why folk proverbs have been created that urge the people to walk away from such evils. There is also a call to this in the above proverb.

7. *A liar is not believed when he speaks the truth*. Another one of the ugly vices in man is lying. The fact that people with this vice do not have a place in society and cause harm to themselves is also reflected in English folk proverbs. Therefore, the call to correct such vices and stay away from them is one of the main themes of folk proverbs.

Another one of the ugly vices in man is lying. The fact that people with this vice do not have a place in society and cause harm to themselves is also reflected in English folk proverbs. Therefore, the call to correct such vices and stay away from them is one of the main themes of folk proverbs.

One aspect characteristic of the English is that their love for pets is more important than children. We can see that the images of "dog" and especially "cat" are used more often than the image of "child" in proverbs. For example:

1. Dog does not eat dog. - A crow does not peck a crow's eye.
2. Barking dogs rarely bite. - A dog that barks a lot doesn't bite.
3. When the cat is away, the mice will play.
4. A cat in gloves catches no mice. - A cat in gloves can't catch a mouse.

However, in some Uzbek proverbs, the images "dog" and "cat" are used in a negative sense. For example:

1. The dog barks and the caravan passes. - The dogs bark, but the caravan goes on.
2. He lays down with dogs. - Down with dogs must rise up with fleas, He that lies.
3. If you hit the dog with a bone, it will not go away. - A dog will not howl if you beat him with a bone.
4. Don't wipe a bone from a dog, a gland from a cat. - Two dogs over one bone rarely agree.
5. Scornful dogs will eat dirty puddings. [2] In these proverbs, the image of "dog" is more focused on angry, bad, dirty, bribe-taking, greedy, ambitious people. That is, in the proverbs mentioned above, the image of a dog is used to express the ugly defects of human behavior. It is clear from this that, based on the mentality of the people, if some images represent ugliness within the framework of one nation, they do not have a negative meaning for another nation.

The definition of ugly is used not only in relation to the external and internal world of a person, in relation to the appearance of things and animals, but also his actions and situations can express ugliness and ugliness, as can be seen in the following folk proverbs:

1. My horse jumped, saw the mud and lay down. - this folk proverb has the meaning of not being beautiful in relation to the actions of the horse. If we pay attention to the figurative meaning of the proverb, it can be understood that vices such as apathy and laziness, which are considered ugly in a person, are meant;

2. The hand is tired from idleness, the person is discouraged from words - this proverb also describes the ugly state of a person, such as nausea and emaciation;

3. Curse the good. Get through your bones, hit the bad guy, get through his skin - in the Uzbek mentality, cursing, bad words, and hitting are not considered nice. Uzbek folk proverbs reflect not only actions and situations, but also the ugliness of sounds or sounds made by humans or animals. For example:

1. A lazy donkey is unfit for the road.
2. If the dog barks, hit him in the mouth.
3. A cow that screams without milk.
4. An angry dog does not bite. [3]

## LITERARY CRITICISM

---

In the examples given above, it is possible to understand the ugliness and unpleasantness of the voice through adjective words such as *kharakash*, *baqirak*, and verb words such as *akilmaq*. In the explanatory dictionary of the Uzbek language, the words expressing the ugliness of the voice mainly belong to the adjective and verb word groups.

Ugliness in landscape images can also be seen in some folk proverbs:

1. If you look - I'm a gardener, If you don't look - I'm a dogman.
2. Crooked poplar, Why do you need it?
3. If there is no snow, winter is ugly, if there is no light - the girl is ugly. [1]

The antonym of garden-spot in the first proverb has expressed beauty and ugliness in relation to the scenery. In the next example, it is not beautiful, but rather ugly, crooked tree, and a person with ugly characteristics is meant at the root of it. . It can be seen in the proverb "If there is no snow, winter is ugly" about the fact that everything is special and pleasant with its own beautiful state, and on the contrary, it loses its beauty and acquires an ugly landscape.

Not only in English folk proverbs, but also in aphorisms, there is an invitation to people to live in a beautiful world free from ugly vices, actions and situations. "I think the world honestly would be a much healthier place if instead of trying to find rationalizations for our bad behavior we would just say, "I was an asshole. Sure, there were reasons behind it, but it doesn't matter (Collin Quinn) .[5]

Q. Colleen says that the world would be a better place if we could get rid of our ugly vices. In fact, if a person corrects his defects, the world we live in would be beautiful and free of defects. So, ugly vices can turn the world in which humanity lives into a flawed place that is not beautiful, and the universe is considered a paradise for those with beautiful hearts who are free from bad and ugly vices. [5]

**Conclusion.** In short, proverbs are the cultural heritage of this nation. They reflect all the thoughts, worldview, lifestyle, character and beliefs of that people. As each nation has its own characteristics, this does not affect their proverbs. Even though the topics in the proverbs are similar, they are distinguished by the fact that the images in them are not repeated. It is these images that provide national coloring in proverbs. In the analysis of proverbs in English paremiology, it can be noticed that even in the western culture, the examples of folk oral creativity encourage a person to have only good behavior. Ugly vices, a call to correct actions is the root meaning of every proverb. Even in Western culture, the national image of the world depends on the behavior, actions and language of the people in it.

As a result of the analyzes of English proverbs, it was found that the image of ugliness is reflected in relation to the external and internal world of a person, objects, environment, movement and situation, even in relation to voice. When the linguistic aspects of the concept of ugliness in proverbs are compared, it can be concluded that in English proverbs and aphorisms, the concept of ugliness is mainly expressed by adjectives, nouns and adjectives. While in Uzbek proverbs, the concept of ugliness reflects both the inner and outer world of people, their environment, behavior, and state, and to express this, mainly nouns, adjectives and verbs, sometimes metaphors, and adjectives are used.

### REFERENCES:

1. Berdiyev H., Rasulov R., *Uzbek tilining paremiologik lug'ati*, T., 1984.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. *O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990. - 303b.*
3. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. *O'zbek xalq maqollari . – T.: Sharq, 2005. –508 b.*
4. Teliya V. Bragina N. Oparina E. Sandomirskaya I. *Phraseology as a language of culture: its role in the representation of a collective mentality in Cowie (ed.) 1998. –203p.*
5. Khojiev, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). *Language and speech expression of personal descriptions. TJE-Tematics journal of Education ISSN, 2249-9822.*
6. *The World Book Encyclopedia. Volumes 24. - USA: World Book, Inc., 1994, V.13. - P.392.*

## SAKKOKIY DEVONI XUSUSIDA

*Israilov G'ayrat Boyzoq o'g'li,*  
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi  
[isroilov19920760@gmail.com](mailto:isroilov19920760@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqola Sakkokiy devoni janriy tarkibi, mavzu qamrovi hamda shoir adabiy merosi manbalari va badiiy ko'lami masalasini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada N.Mallayev, Q.Munirov, M.Hasanova kabi olimlarning fikrlariga tayanildi. Shoirning ikki devoni orasidagi farqli jihatlariga e'tibor qaratildi. Shuningdek, XV asrning I yarmi turkiy she'riyat taraqqiyoti davrida Sakkokiyning tutgan o'rni haqida mulohazalar berilgan. Natijada mumtoz adabiyotimiz tarixining adabiy jarayonida turkiygo'y shoir Mavlono Sakkokiy va uning devonini alohida o'rni bor ekanligi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** Sakkokiy, E.Bertels, Q.Munirov, Sharqshunoslik instituti, qasida, M.Hasanova, Kemal Eraslan, "Hayot vasfi", Shoislom kotib.

## О ДЕВОНЕ САККОКИ

**Аннотация.** Статья посвящена изучению жанрового состава, тематического охвата, источников и художественного размаха литературного наследия поэта. В статье использованы мнения таких ученых, как Н. Маллаев, Г. Муниров, М. Гасанова. Обращено внимание на различия между двумя диванами поэта. Также даются комментарии о роли Саккоки в развитии турецкой поэзии первой половины XV века. В результате определено, что тюркский поэт Мавлано Саккоки и его диван занимают особое место в литературном процессе истории нашей классической литературы.

**Ключевые слова:** Саккоки, Э. Бертельс, К. Муниров, Институт востоковедения, касыда, М. Гасанова, Кемаль Ераслан, «Хаят Васфи», Шаислам Катиб.

## IN PARTICULAR OF SAKKOKI'S DEVON

**Abstract.** The article is devoted to the study of the genre composition, subject coverage, sources and artistic scope of the poet's literary heritage. The article relied on the opinions of scientists such as N. Mallayev, Q. Munirov, M. Hasanova. Attention was drawn to the differences between the poet's two divans. Also, comments are given about Sakkoki's role in the development of Turkish poetry in the first half of the 15th century. As a result, it was determined that the Turkic poet Mavlano Sakkoki and his divan have a special place in the literary process of the history of our classical literature.

**Keywords:** Sakkoki, E. Bertels, Q. Munirov, Institute of Oriental Studies, qasida, M. Hasanova, Kemal Eraslan, "Hayat Wasfi", Shaislam Katib.

**Kirish.** Mumtoz adabiyotimizning tamal toshlari hisoblanmish eng go'zal va salmoqli adabiyot namunalari yaratilgan davr temuriylar davri bo'lgan XV asr deb hisoblanib, bu davrda ilm-fan, madaniyat, shu jumladan, san'at va adabiyot yuksak darajada rivojlanganligi ko'plab ilmiy manbalarda yoritilgan. Buning asosiy omillaridan biri hukmdor tabaqaning bu sohaga alohida e'tibor bilan qaraganligidir. Davlatshoh Samarqandiy Amir Temur atrofidagi ilmiy-adabiy muhit haqida ma'lumot berib, uning eng yaqin kishilari sifatida Bisotiy Samarqandiy, Ismat Buxoriy, Lutfulloh Nishopuriy, Haydar Xorazmiy kabi shoirlarni ham tilga oladi[2].

XV asrning I yarmi turkiy she'riyat taraqqiyotini monografik planda tadqiq etgan olim E.Rustamov bu davr adabiyoti vakillari Sa'diy Sheroziy, Hofiz, Xusrav Dehlaviy kabi fors-tojik adabiyotining yirik vakillari bilan bir qatorda "xalq og'zaki ijodiga yuksak ixlos bilan qarashgan"ligini alohida qayd etsa[3], adabiyotshunos olim N.Mallayev "XV asrning birinchi yarmida Sakkokiy, Otoy, Yaqiniy va nihoyat Lutfiy kabi zabardast g'azalchilarni yetishtirdi. Ularning har biri g'azalchilikda o'ziga xos xususiyat va mavqega ega edi"[1]deya e'tirof etadi. Darhaqiqat, mumtoz adabiyotimiz tarixida bu davr adabiy jarayonida turkiygo'y shoir Mavlono Sakkokiy va uning devonini ham alohida o'rni bor.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Avvalo, devon tuzish qonun qoidalari haqida qisqacha to'xtab o'tish joiz. Adabiyotshunoslikka yaxshi ma'umki, devon tuzish, asosan, X-XI asrlardan boshlangan.

Y.E.Bertels “История персидско-таджикской литературы” asarida XI asr shoirlari Unsuriy, Farruxiy, Manuchehriy, Mas’ud Sa’di Salmon, Sanoiyarning to’liq yohud noto’liq nusxada bizgacha yetib kelgan devonlari haqida atroflicha ma’lumot beradi. Bu davrdagi devonlarda asosiy o’rinni qasida janri egallagan bo’lib, g’azalga esa kam e’tibor berilgan. Avtor faqat XI asrning ikkiichi yarmi va XII asr boshlarida yashab ijod etgan Sanoiy ijodida g’azal alohida poetik janr sifatida rivojlana boshlaganligini ta’kidlaydi[4]. I.S.Braginskiy ham XI asr shoiri Hasan G’aznaviy devoni yaratilishi bilan g’azal janri devonlarda alohida bo’lim sifatida o’rin egallay boshlaganligini uqtirib o’tadi[5].

Sakkokiyning ijodiy merosi hajm tomondan kichik bo’lsa ham, ammo mohiyati jihatidan kattadir. U o’z salaflarining, qolaversa, Navoiyning ta’rifiga sazovor bo’lganidan ham uning ijod ahli o’rtasidagi yuksak mavqei baholash mumkin. Shoir qasidalar va g’azallaridan iborat 2 ta noto’liq devon: Britaniya Muzeyida (tahminan XVI asr o’rtalarida ko’chirilgan nusxa) 2079, O’zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida (1937- yil Shoislom kotib tomonidan ko’chirilgan nusxa) 7685[6] raqami ostida saqlanayotgan nusxalar mavjud. Ularda shoirning Xodja Muhammad Porso, Arslon Xodja Tarxon, Xalil Sulton, Mirzo Ulug’bek kabi temuriylarga yozgan qasidasi (vv. 1b–14a) hamda 54 ta g’azali (vv. 14a–27a) o’rin olgan[7].

1958-yilda Q.Munirov tomonidan nashrga tayyorlangan shoirning “Tanlangan asarlari”[8] da 56 ta g’azal, “O’zbek adabiyoti bo’stoni” seriyasida nashr etilgan “Hayot vasfi”[9] kitobida 55 g’azal, har ikki nashrda ham “Keldi” radifli qasidasi kiritilgan. Toshkent qo’lyozma nusxasida ham Britaniya Muzeyi qo’lyozma nusxasida ham 57 tadan g’azal mavjud (“Mevlana Sakkaki divani”da Toshkent qo’lyozma nusxasining 41-42 betlari nima uchundir berilmay, 52 ta g’azal sanalgan[10].

Devonlarda g’azallar “Kunilarmen” radifli biror sabab bilan matla’si tushib qolgan g’azal bilan boshlanib, “Ey labung eqlik ko’ngullarning davou marhami” misrasi bilan boshlanuvchi g’azal bilan tugaydi. Devonda jami 2 ta “nun”, 15 ta “hoi havvaz”, 40 ta “yoy” harflari bilan tugallanuvchi, jami 57 g’azal mavjud. Toshkent qo’lyozma nusxasida Britaniya nusxasidan farqli ravishda “Sochingdin nofadoim kin ichinda” deb boshlanuvchi g’azalning so’nggi 2 bayti, “Ey bodi sabo, bizdin ayit yor qoshinda” deb boshlanuvchi g’azalning so’nggi to’rt bayti yo’q. Toshkent qo’lyozma nusxasi chiroyli va tushunarli xatda yozilgan. Ammo qo’lyozmaning o’zida xatolar mavjud. Shuning uchun juda ko’p ko’chirilgan nusxaga o’xshaydi. Ba’zi o’rinlarda so’zlarni faqat ma’nosidagina anglash mumkin.

Shuningdek, devondagi she’rlardan tashqari, bir qator boshqa manbalarda Mavlono Sakkokiya nisbat berilgan g’azallar, baytlar mavjud. Jumladan, “Mevlana Sakkaki divani”da Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi tomonidan Sakkokiya nisbat berilgan Sulaymoniya kutubxonasi, Ayosofiya bo’limida 4757 raqam ostida saqlanuvchi bir majmuadagi 3 g’azal matni keltirilgan. Ular “Ey zulfi zanjirim biror devonalarni yod qil...”, “Ey mening ko’nglumni zulfitek parishon aylagan...”, “Ey orizi bargi gulu vey qomati sarvi suman...” matla’lari bilan boshlanadi.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da Sakkokiya nisbat qilinadigan quyidagi matla’ni keltiradi:

*Ne nozu bu ne shevadur, ey jodu ko’z luk sho’x-shang,*

*Kabki dariy, tovsuda yo’q, albatta, bu raftoru rang.*

Bu matla’, shuningdek, “gof” harfi bilan yakunlanuvchi g’azal ham har ikki nusxada mavjud emas. Yaqiniyning “O’q va yoy” munozarasida keltirilgan “Yana Sakkokiyykim, turk shoirlarining mujtahididir, mening munosibi holimga aytur. Nazm:

*“Jonim fido bo’lsun sening g’amzang o’qina nechakim,*

*Har necha qoshing egmasi o’qtek bo’yumni “yo(y)” qilur”[11]*

baytini ham “yel olgan” deyish mumkin. Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog’a” asarida Sakkokiya nisbat berilgan baytlar va bir ruboiy keltirilgan. Shayx Ahmad Taroziy keltirgan shoirning faqatgina “Sarv ne had birla sarkashlik qilur qadding bila, Bilgurur maydon ichinda har kishining poyasi”bayti bor g’azal qo’lyozmalarda mavjud. Shayx Ahmad Taroziyning ushbu ma’lumotlari orqali biz Mavlono Sakkokiyning nafaqat g’azal va qasida janrlarida ijod qilganligidan, balki, ruboiylari ham bor ekanligidan xabardor bo’lamiz.

**Muhokama va natijalar.** Sakkokiy devonida 1 hamd, 1 na’t va 11 madh qasida mavjud. Madh qasidalarining Itasi Xoja Muhammad Porsoga, Itasi Xalil sultonga, 5tasi Ulug’bek Mirzoga (ushbu qasidalarining 1 tasi Shohrux sultonga bag’ishlangan degan fikrlar ham mavjud), 4tasi Arslon Xoja Tarxonga bag’ishlangan. Sakkokiy devoni davr an’anasiga binoan hamd va na’t bilan boshlanadi. Avval qasidalar keyin g’azallar tartiblangan[12]ligi haqidagi dalillangan ma’lumotlarni M.Hasanova tadqiqotlarida kuzatish mumkin.

Sakkokiy devonining Britaniya Turkiy qo’lyozmalar katalogida Or.2079 raqami bilan qayd etilgan ta’rifda “Sakkokiyning devonida Xalil Sultonga bag’ishlangan qasida, Shayx Xoja Muhammad Porsoga

qasida, Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlangan 5 ta qasida, to‘rtta Arslon Xoja Tarxonga bitilgan qasida”[13] borligi aytilsa, ikkinchi nusxasi O‘zRFAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 1937-yil Shoislom kotib tomonidan ko‘chirilgan qandaydir manba asosida ko‘chirilgan nusxasi deb, e‘tirof etgan, adabiyotshunos olimlar R.Vohidov va H.Eshonqulovlar “O‘zbek mumtoz adabiyoti” kitobida: “Bu nusxalar bir–biridan u qadar katta farq qilmaydi. Biroq ulardan birortasi ham Sakkokiy devonining to‘la va mukammal nusxasi emas. Ularda Sakkokiy g‘azallarining faqat bir qismigina berilgan, xolos. Sakkokiy devoni hamd va na‘t bilan boshlanadi. Keyin 10 qasida beriladi: bir qasida – Naqshbandiy shayxlaridan Xoja Muhammad Porsoga, bir qasida – Xalil Sultonga, to‘rt qasida Mirzo Ulug‘bekka va to‘rt qasida – Arslonxo‘ja Tarxonga bag‘ishlanadi”[14] desa adabiyotshunos olim M.Hasanov Sakkokiy devonida 1 hamd, 1 na‘t va 11 madh qasida mavjud. Madh qasidalarining bittasi Xoja Muhammad Porsoga, bittasi Xalil Sultonga, to‘rttasi Ulug‘bek Mirzoga, 1 tasi Shohrux Sultonga (ammo, bu qasida devonda “Ulug‘bek mirzo madhi” sarlavhasi bilan berilgan), to‘rttasi Arslon Xoja Tarxonga bag‘ishlangan. Jami qasidalar 407 bayt yoki 814 misrani tashkil etadi[15], degan har xillikka ya‘ni shoir devonida 10–qasida, 11–qasidava 13–qasida (N.Mallayev, R.Vohidov va H.Eshonqulovda 10ta, M.Hasanovada 11ta, Kemal Eraslan va M.Ergasho‘jayevlarda 13–qasida) bor degan ma‘lumotlarga duch kelamiz. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bu yana ancha izlanishlar olib borilishi lozimligini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda, yana shunga e‘tibor qaratmoq kerakki, Shohrux Sultonga bag‘ishlangan qasida “ammo, bu qasida devonda “Ulug‘bek mirzo madhi” sarlavhasi bilan berilgan” degan M. Hasanovning fikrga qo‘shilamiz. Balki, Sakkokiy va uning devonlarini ancha keng o‘rgangan N.Mallayev, R.Vohidov va H.Eshonqulovda *Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlangan 5 ta qasidani biri ekanliga qo‘shilmaymiz*. Quyida biz bu qasidaga batafsil to‘xtalamiz.

Endi ikkala devoni haqidagi M.Ergashxo‘jayev fikrlariga to‘xtalamiz: “Britaniya Turkiy qo‘lyozmalar katalogida yozilishicha, devon 33 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada o‘n beshdadan satr bor, biroq uning ba‘zi sahifalarida ko‘plab bo‘sh joylar qoldirilgan. Devon matni ikki ustunda qora siyoq bilan nasta‘liq xatida bitilgan. Qasidalar devonning 3–15 varaqlaridan o‘rin olgan. Keyingi varaqlarda g‘azallar bitilgan bo‘lib, “nun”, “he” va “yo” harflari bilan tugagan baytlardan iborat. Devonning mazkur nusxasi 13 qasida va 57 g‘azalni o‘z ichiga olgan. Kemal Eraslaning ma‘lumotiga ko‘ra, devon matnining so‘ngida kata jadval ichiga forscha bayt bitilgan. Undan keyin forscha olti baytlik bir nazm parchasi yozilgan”[10].

O‘zRFAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 1937-yil Shoislom kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxa 27 varaqdan iborat bo‘lib, taliq xati bitilgan. Satrlar soni o‘n ettita. Matn juft ustun shaklida yozilgan, biroq jadval ichiga olinmagan. Mazkur nusxada Britaniya Muzeyi nusxasidagi besh g‘azal (21 b–22 a sahifalar orasidagi) etishmaydi. 13 ta g‘azal va 52 ta g‘azalni o‘z ichiga olgan”[16], degan fikrlarni bildirgan olim ikki devonda ham 11 qasida emas 13 qasida degan ekan, 2 qasida kimga bag‘shlanganligi haqida nimagadir lom-lim demaydi. Demak, ulardan birortasi ham Sakkokiy devonining to‘la va mukammal nusxasi emas. Ularda Sakkokiy g‘azallarining faqat bir qismigina berilgan ekan bu mavzu o‘z tadqiqotchisini kutmoqda.

Xulosa. Sakkokiy g‘azallarida sharq she‘riyatining o‘lmas insoniy g‘oyalari, ezgulik va yomonlik, ma‘rifat va johillik, olam va odam kabi mavzular yetakchilik qiladi. Sakkokiy lirikasining mavzu mundarijasi va g‘oyaviy olami rang-barang. Ishq-muhabbat g‘oyasi shoir g‘azallarining asosiy mazmun mohiyatini tashkil etadi. Shoir lirikasini shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Hamd, na‘t va munojot;
2. Oshiqona g‘azallar;
3. Orifona she‘riyati;
4. Axloqiy-ma‘rifiy ruhdagi she‘riyati;
5. Qasida.

Demak, Sharq xalqlari adabiyotida alifbo asosida devon tartib berish shundan so‘ng qat‘iy bir qoidaga aylangan. Ayni paytda Sa‘diyqacha bo‘lgan shoirlarning devonlari ham shu asosda qayta tuzila boshlagan. O‘zbek adabiyotida Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy kabi shoirlar fors-tojik shoirlari ijodidagi an‘analarni davom ettirganlari holda o‘zbek g‘azalchiligini muhim yutuqlar bilan boyitdilar. Ular o‘z asarlarining keng xalq ommasiga tezroq yetib borishini istar edilar. Shu istak faqat til tanlashdagina emas, adabiy janr tanlashda ham ahamiyatli bo‘ldi. Bu shoirlar o‘z she‘riy devonlarini tuzdilar va bu devonlarda, asosan, xalq ommasiga yaqin bo‘lgan g‘azal janri yetakchi o‘rin egallagan ekanlar, biz Sakkokiy devoni va o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rniga e‘tiborni qaratamiz.

### ADABIYOTLAR:

## LITERARY CRITICISM

---

1. Mallayev N. "O'zbek adabiyotida g'azal va uning rivojida Navoining roli haqida" O'zbek adabiyotshunosligi mumtoz antologiyasi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2016. –B.96
2. Jo'rayev O. Mahmud Zamaxshariy. – T.: Tafakkur, 2011. - B.68
3. Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половины XV века. – Москва: Изд. Восточной литературы, 1963. Стр-145.
4. Бертелс Е.Э. Избранные труды. История персидско-таджикской литературы. – М.: ИВЛ, 1960.-B.455
5. Брагинский И.С. Из истории персидско-таджикской литературы. Избранные работы. – М.: Изд. Наука, 1972. – Стр. 169.
6. Devoni Mavlono Sakkokiy. O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, 7685 inv.
7. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. Литература (диваны). / Подготовка к изданию: к.и.н. Х.М. Лутфиллаев, к.филол.н. С.Н. Файзиева и О.Р. Мадалиева. Т. I. Ташкент: Навруз, 2017.С. 119.
8. Sakkokiy, Tanlangan asarlar, Nashrga tayyorlovchi Munirov Q., -T.: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958
9. Hayot vasfi. O'zbek adabiyoti bo'stoni. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. -B.227-285.
10. Mevlana Sekkaki Divani. Hazirlayan K.Eraslan. -Ankara, 1999.
11. Navoiyning nigohi tushgan. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. -B.18
12. Xasanova M. XV asr turkiy she'riyatida qasida janri: Fil.f.f. (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2018.-B.59-61-betlar
13. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum by Charlas Rien, Ph. D. London, 1888.284; M.Ergasho'jayev. Sakkokiy va uning devoni haqida. // O'zbek tili va adabiyoti, O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2005 №8.-B. 111-bet
14. R.Vohidov va H.Eshonqulov. O'zbek mumtoz adabiyoti.-T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 –yil.-B.181
15. M.Hasanova. Sakkokiy (Sayroniyi? Sabroniy?) //Sharq yulduzi, 2011, №6, 102-bet
16. M.Ergasho'jayev. Sakkokiy va uning devoni haqida. // O'zbek tili va adabiyoti, O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2005 №8, 111–bet

## ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA SAMOVIY TIMSOLLARNING LIRIK QAHRAMON RUHIYATINI IFODALASHDAGI BADIY-ESTETIK TALQINI

*Jabborova Malohat Valijon qizi,  
BuxDPI O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi,  
BuxDU mustaqil izlanuvchisi  
[jabborovamalohat@buxdpi.uz](mailto:jabborovamalohat@buxdpi.uz)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Usmon Azim, Zebo Mirzo, Xurshid Davron, Rauf Parfi, Abdulla Sher kabi bir qator shoirlar she'rlarini tahlillash asosida oy, yulduz timsollarning inson ruhiyatini aks ettirishdagi badiiy salmog'i ko'rsatildi.

Zamonaviy she'riyatda uchraydigan samoviy timsollar vositasida ishq mayi bilan sug'orilgan oshiq ko'ngil, shirin xotira, ruhning mudrab qolishi, yig'i, mahzunlik, hur qiz, taqdirning qo'nimsizligi kabi ramziy holatlar ochib berildi.

Koinot va ruhning uyg'ungini ko'satuvchi poetik vositalar, mahorat qirralari ramziy topilmalar inson va tabiat munosabati nuqtayi nazaridan o'rganildi, tahlilga tortildi.

**Kalit so'zlar:** lirik qahramon, poetik obraz, turg'un ramz, vaziyat ramzi, yulduz uchishi, poetonim, astrapoetonim, motiv.

## НЕБЕСНЫЕ СИМВОЛЫ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ТРАКТОВКА ВЫРАЖЕНИЯ ПСИХИКИ ЛИРИЧЕСКОГО ГЕРОЯ

**Аннотация.** В данной статье на основе анализа стихотворений ряда поэтов, таких как Усман Азим, Зебо Мирза, Хуршид Даврон, Рауф Парфи, Абдулла Шер, показан художественный вес символов луны и звезды в отражении человеческой психики.

Такие символические ситуации, как любящее сердце, орошаемое любовью, сладкая память, дремота души, плач, печаль, распутная девушка, нетерпение судьбы, раскрывались посредством небесных символов, встречающихся в современной поэзии.

Поэтические средства, показывающие гармонию мироздания и души, символические находки искусных аспектов изучались и анализировались с точки зрения взаимоотношений человека и природы.

**Ключевые слова:** Лирический герой, поэтический образ, статический символ, ситуативный символ, летящая звезда, поетоним, астрапоетоним, мотив.

## HEAVENLY SYMBOLS IN MODERN UZBEK POETRY ARTISTIC-AESTHETIC INTERPRETATION IN EXPRESSING THE SPIRIT OF THE LYRICAL HERO

**Abstract.** In this article, based on the analysis of the poems of a number of poets such as Usman Azim, Zebo Mirza, Khurshid Davron, Rauf Parfi, Abdulla Sher, the artistic weight of the moon and star symbols in reflecting the human psyche was shown.

Symbolic situations such as a loving heart watered with love, a sweet memory, a slumber of the soul, crying, sadness, a loose girl, and the impatience of fate were revealed by means of heavenly symbols found in modern poetry.

Poetic tools showing the harmony of the universe and the soul, the symbolic findings of skillful aspects were studied and analyzed from the point of view of the relationship between man and nature.

**Keywords:** Lyrical hero, poetic image, static symbol, situational symbol, flying star, poetonym, astrapoetonym, motif.

**Kirish.** Insonlarning osmon va yer, tabiat va jamiyat, olam va odam haqidagi qarashlarini adabiyot, she'riyat qonunlari asosida obrazlantirishdan kelib chiqqan samo jismlarining ramziy hamda timsoliy talqinlari ayriqcha diqqatga sozovor. Ular yangi o'zbek she'riyatida obrazlantirilishi orqali alohida mavqe egallagani, bunda an'anaviy poetik obraz, ba'zan turg'un yoki vaziyat ramzi sifatida keltirilishi, poetonim darajasida kuzatilishi, inson obrazini berishda, shaxs sifatlarini poetik ifodalash va baholashda keng qo'llanishi bevosita e'tiborga molik jihatlardan biridir. Bu davr she'riyatining bir qator vakillari: Usmon Azim, Zebo Mirzo,

Xurshid Davron, Abdulla Sher kabi ijodkorlarning ijodiga murojaat qilar ekanmiz, ularda samo yoritqichlarning shaxs ichki kechinmalari, xarakter-xususiyatlarini shakllantirishdagi yuksak badiiy mahorati ko'zga tashlanadi. Shu davrning sohirnafas shoirlaridan biri "Qalbingizga daryo bo'lib kiraman bir kun, She'r yurtidan sado bo'lib kiraman bir kun", deya baralla kuylagan rost tuyg'ular kuychisi Usmon Azimdir.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Tadqiqot obyekti sifatida Usmon Azim, Zebo Mirzo, Xurshid Davron, Abdulla Sher, Mamatqul Jo'rayevlarning badiiy, ilmiy risolalaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodi sifatida kuzatish, mantiqiylik, xulosalash, komparativistik va psixologik tahlil kabi adabiy tamoyillaridan foydalanildi.

Tadqiqot pretmeti sifatida zamonaviy o'zbek she'riyatida samoviy timsollarning lirik qahramon ruhiyatini ifodalashdagi badiiy-estetik talqinlari o'rganildi, tadqiq etildi.

Tadqiqotning maqsadi. She'riyatimizda samoviy timsollarning lirik qahramon ruhiyatini ochib berishdagi keng badiiy mahorat qirralarini mushohadaga tortish, o'rganishdan iborat.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Usmon Azim 1970-yillar she'riyatimizga o'zining dadil qadamlari, yoniq qalbin ila kirib keldi va daryo misol to'lib toshdi. Shoir ijodida oy, quyosh, yulduz bilan bog'liq samoviy timsollarning turfa manzaralari ko'zga tashlanadi

Sen uxlayapsan,  
Derazadan tushgan oy nuri  
Sudralib-sudralib ko'rpangga yetar.  
Dunyodagi Eng Go'zal Ayol,  
Oyning nurlariga o'ranib uxla.  
Oyning nurlarini quchoqlab uxla[1,1995.-B.117].

Bu misralarda inson va samoviyotning uyg'unlashuvdagi nozik xilqat - ayol tanasini ko'rpa misol yopgan oyning hazin nurlarida aks etadi. Bunda "Oy"-istiora, aslida u oshiq. Ishq yo'lida chekkan uqubatlari, bosib o'tgan yo'llari uning sudralib yurishida namoyon bo'ladi. Oyning nurlari oshiqning ishq mayi ila sug'orilgan ko'ngil daryosidir.

Abdulla Sher boshqa o'nlab shoirlar kabi o'zining yoniq ovozi va yuqori poetik badiiy salohiyatiga ega bo'lgan shoirdir. Abdulla Sher ijodida koinot tasviri bilan bog'liq ajoyib poetik topilmalar uchraydi. U "Kuz hiloli" kitobidan olingan quyidagi misralarda ham samoviy motivlarning keng badiiy tasviriga yo'l ochqanligini ko'rishimiz mumkin.

Daryoda-xira oy, ko'kda-xira oy,  
Xayolga baxsh etar sovuq bir chiroy.  
Bir boqsang: to'lqinlar maydalar uni,  
Bir boqsang: bulutlar haydarlar uni.  
Bir boqib, xiralik tuyasan undan,  
Bir boqib, achinib kuyasan Sukunat...  
Daryoda- xira oy, ko'kda- xira oy,  
Bu-sen xotiramda qoldirgan chiroy[2,1983.-B.31].

Bunda lirik qahramon o'zining ko'ngil olamiga sayohat qiladi va unda armon bo'lib qolgan muhabbatini xotirlaydi. Vaqt- oliy hakam, u barcha narsaga davodir, -deydi ulug'lar. Endi oshiqning ko'nglida armon bo'lib qolgan mahbubasining xotirasi ham to'lqinlar maydalaydigan, bulutlar haydagan oy singari xira va kuchsizdir. erksiz, o'z qobig'iga o'ralib qolgan insonlar ramzi. Sohirnafas shoir bu misralarda xira oy timsolida vaqtning omonatligi, dunyoning omonatligi, omonat tuyg'ularni borida e'zozlashga, qadrlashga chorlaydi.

Abdulla Sherning bu she'rida esa insonga xos hissiy sifatlarni bevosita oyga ko'chganligini ko'rishimiz mumkin.

To'lin oy boqadi ko'kdan angrayib,  
Hayratdan yulduzlar eti jimirlar.  
Oydinda goh ko'kish, goho qorayib  
Sukunat saksovul bo'lib qimirlar,  
Sukutni uyg'otib, baxt tilab tundan  
Karvon yo'l bosadi Chinimochindan.

Shoir bunda bevosita oy timsolida zolim shoh qiyofasini, uning angrayib boqishi undagi naxs hisining, xudbinlikning eng sovuq qirralarini namoyon etadi. Mahmud Toirning "Iltijo" she'rida ham insonga xos xarakter- xususiyatni samoviy jimga ko'chganligini ko'rishimiz mumkin.

Oy osmonga osilib yig'lar,

Motamsaro ona misoli,  
Yulduzlar ham bagʻrini tigʻlar,  
Har birining yerda xayoli.

Dunyoda eng ogʻir, zalvorli yoʻl soʻzning yoʻlidir. Ijod mashaqqatlarini mardonavor oʻz zimmasiga olgan, sheʻriyatni “vositayi joh” emas, balki “vositayi dil” deya uni taqdir goʻshasiga aylantirgan chin qalb sohiblaridan biri Rauf Parfidir. Rauf Parfi sheʻriyatimizga oʻtgan asrning 60-yillarida yomgʻir ohanglari ila kirib keldi. Asqad Muxtor 1984-yilda yozgan “Sheʻr- shoirning ijtimoiy vijdoni” sarlavhali maqolasida Rauf Parfi ijodini kengqamrovda tahlil qiladi va unda “Rauf Parfi hissiyot vositasida tafakkur qiluvchi kuchli, bexalovat shoir”, deya taʻkidlaydi[3, 1984]. Uning sheʻriyatida mavzular olami rang-barang boʻlib, ularda osmon jismlari bilan bogʻliq badiiy oʻxshatmalarga ham koʻzimiz tushadi.

Mudrab yotar bunda daraxtzor,  
Uxlar yupqa muz ostida suv...  
Quyosh oyni topolmasdan zor  
Botib ketdi, bulut- oq parquv[4, 1989.-B. 33].

Bunda tabiat goʻzalliklarini oʻtkir nigohi ila anglagan shoir inson botinidagi ruhiy kechinmalarni tabiiy bir qudrat bilan tabiat neʻmatlariga bexato koʻchiradi. “Daraxtning mudrashi”, “suvning uxlashi” kabi epik birliklarda inson ruhiyatidagi murakkab nozik kechinmalarni rangin boʻyoqlarda suratlaydi. Quyoshning qancha sarson tentiramasin oyni topolmasligi mehrning gʻanimatligi va inson bir-biri uchun aziz va mukarram ekanligiga ishoradir.

Zamonaviy adabiyotimizning koʻzga koʻringan porlox yulduzlaridan yana biri Zebo Mirzodir. Shoiraning “Nur kukunlari” kitobidan olingan “Layloga...” sheʻrida ham yulduz bilan bogʻliq goʻzal badiiy ifoda mavjud.

Parchagina osmonida parcha bulut,  
Yulduzchalar yigʻlab kelib, yigʻlab botar..  
Kipriklari yuzlariga soya solib  
Laylogina yer tagida uxlab yotar[5, 2004.- B.35].

Maʼlumki, qadim ajdodlarimizning mifologik tasavvurlarida “yulduz-odamning joni”, degan qarashlar boʻlgan. “Navbahor tumanida yashovchi Lola Jumayevaning aytishicha, koʻkda yulduz uchsa keksalarimiz yuzlariga fotiha tortib, “Essiz chala taqdir boʻldi-da”,- deya yuzlariga fotiha tortishgan. Chunki “yulduz uchishi” yoki “yulduz botishi” kishining oʻlimi, taqdiri chala boʻlganidan nishona[6,1996.-B. 39].

Yaʼni bunda Layloning aʼzasiga yulduzlarning yigʻlashi, olamning inson botiniga hamohang ekanligida bilinadi. “Kipriklari yuzlariga soya solgan qiz”, deya taʼriflanishida uning naqadar goʻzal, sohibjamol va hur qiz ekanligidan darak beradi.

Uning yana bir sheʻrida:  
Oy sinadi asta xoʻrsinib,  
Oq terakka suyanib behol.  
Namozshomgul yumdi koʻzini,  
Ketyapman,  
toʻyib qarab qol...[7, 2004.- B.47].

Zebo Mirzo sheʻriyatini oʻqir ekanmiz, uning har bir misrasi hayrat mevasi, muhabbat shevasi ila yoʻgʻrilgan boʻgʻizni kuydiradigan olov, xayoliy ohang hosilasi ekanligiga guvoh boʻlamiz. U yuqoridagi misralarda tabiatda sodir boʻladigan tabiiy hodisalarga inson ruhiyati ila zeb bera olgan. Undagi xoʻrsinish, mahzunlik holatlari oyga koʻchganligini koʻrishimiz mumkin. Namozshomgulning koʻz yumushi sababli hijron gʻami sindirgan oyning beholgina terakka suyanish holatini tasvirlash orqali inson zoti bir-biriga gʻanimatligi, borida bir-birini qadrlashi, aziz va mukarram tutishiga ishora mavjud.Uning yana bir sheʻrida yulduzlar koʻksiga bosh qoʻygan jannat malagi, koʻksi goʻzallik, mehr-shafqatga hur qiz timsoli gavdalanadi.

Sen hali hech kimsa koʻrmagan bir tush,  
Jannat eshigidan tikilgan malak.  
Yulduzlar koʻksiga boshingni qoʻyib,  
Tunlari oʻzingga aytasan ertak...

Osmonning har yerda moviy ekanligini anglamoq uchun butun dunyoni kezib chiqish shart emas, biroq shoirning qandayligini bilmoq uchun uning har bir sheʻrini hijjalab oʻqimoq lozimdir. Har bir

she'ri bilan ko'nlimizdan joy olgan o'tkir qalam sohiblaridan yana biri Xurshid Davrondir. Xurshid Davron ijodiyotida ham samoviyot bilan bog'liq tasvirlar keltiriladi.

Oy nurlari mudraydi  
Qoratog' toshlarida,  
Ba'zan balqib titraydi  
Ko'zdagi yoshlarimday[8, 1997.-B.127].

Bunda insondagi mudrash holati bevosita oyga ko'chadi. Oy nuridagi xiralik mudragan insonning ko'zlariga o'xshatiladi.

Shoirning yana bir she'rida yulduz, oy timsollari sokinlik saltanatining sohiblariga mengzaladi.  
Charaqlarkan yulduzlar ko'kda,  
Suzarkan oy – husnda tensiz,  
Yig'larmikan yulduzlar, deya  
Ko'kda uzoq boqadi dengiz.

Har so'zida olov, ohangida muhabbat chaqnagan sohirnafas ijodkorlarimizdan yana biri Marhabo Karimovadir. Shoiraning "Dunyoning bir qavati" kitobida keltirilgan "Armon" she'rida ham samo yoritqichlari bilan bog'liq go'zal lavhalar ko'zga tashlanadi.

Sevib olma otgandim,  
Osmonga borib yetdi,  
Oyni mo'ljallagandim,  
Yulduzga tegib ketdi.  
Men mo'ljalda adashdim,  
Oh, yonaman pushmonda,  
Yulduz "uchib" kuydirar,  
Oy haliyam osmonda[9, 2008.-B.80].

Bu she'rda "olma otish", "yulduz uchishi" bilan bog'liq xalqona qarashlarning lirik ifodasini aks ettirish orqali bejirim evfonik tasvir simfoniyasi yuzaga keladi. Aslida olma sevimli dildorga nisbatan ushatilgan. Oy bu yerda go'zal yor timsoli, olmaning oyga emas, yulduzga tegishida esa taqdirini taqbil qila olmaslik, azal hukmi oliy haqiqat ekanligini anglash haqidagi g'oya yotadi. Adibimiz bu misralarda husni talilni mahorat bilan qo'llash orqali "yulduzning uchishi" bilan bog'liq hodisotning sabablarini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Zamonaviy o'zbek she'riyatida astro-poetonimlarning o'rni, ularning semantikasi nafaqat ruhiy-ramziy tasvirlar, shuningdek bugungi ijtimoiy hayot bilan bog'liq mohiyat kasb etishi biz she'riy topilmalar asnosida tadqiq etdik. Bunday samoviy satrlarda lirik qahramon ruhiyatini aks ettiruvchi osmon yoritqichlari inson botinining koinot bilan uyg'unlashuvdagi rango-rang nafis manzaralarini ko'rsatdi. Bu quyuq uyg'unlashuv asnosida shakllangan yangi obrazlar silsilasi esa insonning naqadar oliy xilqat ekanligi va ruhining musaffoligi namoyon etdi.

### ADABIYOTLAR:

1. Усмон Азим. Сайланма. Ше'рлар. Тошкент: "Шарқ" нашриёти. 1995.-Б.117.
2. Абдулла Шер. Куз ҳилоли. Тошкент: Г'афур Г'улом номидаги Адабиёт ва сан'ат нашриёти. 1983.-Б.31.
3. "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 1984, 20-январ.
4. Рауф Парфи. Сукунат. Тошкент: "Юлдузча" нашриёти. 1989.-Б. 33.
5. Зебо Мирзо. Нур кукунлари. Тошкент: "Янги аср авлоди" нашриёти. 2004.- Б.35.
6. Жўраев.М. "Юлдуз учуши билан бог'лиқ мифологик қарашлар" мақола. О'збекистон сан'ати ва адабиёти газетаси. Тошкент: 2-сон,1996.-Б. 39.
7. Зебо Мирзо. Нур кукунлари. Тошкент: "Янги аср авлоди" нашриёти. 2004.- Б.47.
8. Хуршид Даврон. Баҳордан бир кун олдин. Тошкент: "Шарқ" нашриёти, 1997.-Б.127.
9. Marhabo Karimova. Dunyoning bir qavati. "Farg'ona" nashriyoti. 2008.-B.80.

### IDENTIFYING THE “STORY TELLING” ELEMENT OF SELF-HELP GENRE ON THE WORK OF “HOW TO WIN FRIENDS AND INFLUENCE PEOPLE” BY DALE CARNEGIE

*Sharopova Shakhnoza Shavkatovna,*

*2<sup>nd</sup> year master student of English literature, BSU  
sh.sh.sharopova@buxdu.uz*

*Kilicheva Mekhriniso Rajabovna,*

*Doctor of philosophy in philological sciences, associate professor*

**Abstract.** *This article examines the history and a significant role of “self-help” genre in modern community, as well as the impact on its readers. The article draws attention to the work of “How to win Friends and Influence People” by Dale Carnegie and analyzes the literary elements which catches the readers’ attention. Greater usage story telling or narration have been studied thoroughly. The analysis of author’s advice and experience carried out in the article helps to understand the literary features of the self-help genre.*

**Keywords:** *self-help, story telling, genre, popular style, literary elements.*

### ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭЛЕМЕНТА «РАЗВЕЩЕНИЯ» ЖАНРА САМОПОМОЩИ В РАБОТЕ «КАК ЗАВОЕВАТЬ ДРУЗЕЙ И ВЛИЯТЬ НА ЛЮДЕЙ» ДЕЙЛА КАРНЕГИ

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается история и значительная роль жанра «селф-хелп» в современном обществе, а также влияние на его читателей. В статье обращается внимание на произведение Дэйла Карнеги «Как завоевывать друзей и влиять на людей» и анализируются литературные элементы, привлекающие внимание читателей. Более широкое использование рассказ и повествование изучено. Проведенный в статье анализ совет и опыт автора помогает понять литературные особенности жанра «селф-хелп»*

**Ключевые слова:** *«селф-хелп», рассказ, жанр, популярный стиль, литературные элементы.*

### DEYL KARNEGINING “QANDAY QILIB DO‘ST ORTTIRISH VA ODAMLARGA TA‘SIR O‘TKAZISH” ASARIDAGI “O‘Z-O‘Z-O‘ZIGA YORDAM OLISH” JANRINING “HIKOYA” ELEMENTINI ANIQLASH

**Annotatsiya.** *Maqolada “self-help” janrining tarixi, uning zamonaviy jamiyatda tutgan o‘rni hamda kitobxonlarga ko‘rsatadigan ta‘siri tadqiq qilingan. Maqoladagi asosiy e‘tibor Deyl Karnegining “Qanday qilib do‘st orttirish va insonlarga ta‘sir o‘tkazish” asariga va undagi o‘quvchilarning e‘tiborini jalb qiladigan badiiy elementlarga qaratilgan. Asarda hikoya qilish uslubidan foydalanish usullari o‘rganilgan. Asar muallifining boshidan kechirganlarini tahlil qilish pirovardida self-help janrining badiiy xususiyatlari yoritilgan*

**Kalit so‘zlar:** *self-help, hikoya, janr, ommabop uslub, badiiy vositalar.*

**Introduction.** A self-help book is one that is written with the intention to instruct its readers on solving personal issues which take their name from *Self-Help*, an 1859 best-seller by Samuel Smiles, but are also known and classified under "self-improvement", a term that is a modernized version of self-help. Mostly they focus on psychology such as romantic, personal or social relationships, how to make development in health or business. They belong to the category of non-fiction books, since they obtain some unique features such as the absence of protagonists and antagonists or pure figment of imagination.

According to Harvard professor Beth Blum the history of the genre goes back to the literature of radical self-improvement societies and the collective do-it-yourself efforts of 19th century British anarchists and socialists. They urged readers to acquire new skills so that they might be of better service to others. Self-help books of that period played a role of “instructional manual” for the working class people who were searching for the cooperative movement. Still, the contemporary industry of self-help books is still booming by adopting “new jargon of well-being, self-optimization, and self-actualization”. It means that they cover wider topics such as public speaking, etiquette, leadership skills, decision making, time management and etc

## LITERARY CRITICISM

---

Despite the stunning popularity of self-help literature there is some hesitations among scientists whether these books are beneficial or not. For Blum, however, the genre's history also reminds people of a different mode of reading and she wryly notes that "Self-help has no such qualms about its utility." [5;14]

**Research methods.** Literary, typological and psychological analyses of the self-help genre are the main methods used in this research.

Koay Dong Liang collected an interview data and found out the different characteristics of self-help books according to the people's preferences. Some of the readers called them self-help books whereas the others called them motivational books, inspirational books, personal development books and positive thinking books. [5;96] These books are written mostly from the 1<sup>st</sup> person, in some cases from the 3<sup>rd</sup> person point of view.

Self-help books along with creative writing manuals, textbooks, therapeutic writing manuals and writing memoirs belong to the "writing advice industry" which is one of the most enigmatic and, until recently, most overlooked areas of literature. Writing workshops are spreading across the globe, both inside and outside universities, and magazines about writing, both for amateurs and professionals, are widely available.

What truly boosted the advice industry is the Internet. The correspondence courses and manuscript advice services of the early days have moved online, as have the self-publishing venues. Amazon's Kindle Worlds, for example, can offer possibilities to publish on Kindle, in print and audio formats, leading to the emergence of what Nick Levey calls a "post-press literature".

At the far end of the academic institution of creative writing, the industry is associated with a commercial genre circuit outside the confines of "Literature," with the formulas of Hollywood storytelling gurus, and with its big brother, the self-help or self-improvement industry.

Advice authors are said to encourage amateurs who lack genuine talent to churn out memoirs, genre fictions, or fan fiction, in the hope of writing the next bestseller, of achieving stardom in a limited niche of the world wide web, or just some peace of mind by unloading their thoughts on paper or a blog. [1;1-2]

**Results and discussions.** While doing a research Ad Bergsma identifies precisely the sort of self-help books which are sold in greater amount and tries to distinguish this genre from others. He groups mostly sold books into 4 categories:

- 1) Growth
- 2) Relationships
- 3) Coping
- 4) Identity

Furthermore he divided these two groups into two dimensions such as: problem-oriented and personal growth. [2;54-59]

Starker in his research tries to identify the unique features of self-help books by finding similarities and differences between the benefits of psychotherapy and self-help literature. He claims that these books purport to drive the directions for personal well being like a traditional psychotherapy. Hence, they boast easy access, anonymity, are relatively inexpensive and time-saving. [8;63-69]

Self-help books are usually non-fiction books and as these their authors use different techniques to attract and hold their readers' attention. In his book called "Minds made for Stories" Thomas Newkirk gives a description about how authors of nonfiction establish an 'ethos' or a 'persona' that "a reader will stay with". He suggests that not only fiction writing, but all writing, is mediated through the "lense of a narrator, a teller" and that authors have to "shape the reading so that the key ideas are remembered". For this reason, a major aspect that nonfiction writers should focus on in their work is to catch the attention of the reader. In order to achieve this goal, the material should involve "patterning of change". Readers likely pay more attention to the three following aspects in books. First, incidents, facts, language and statements that are surprising and unexpected. Second, outcomes of situations they are particularly interested in, e.g. human consequences of scientific events. Third, variation and everything that is surprising and new. [7; 76-79]

According to Kraus while writing the narration plays an important role both for the individual and society. He asserts that narratives are rarely written down but rather produced verbally when interacting with others or through self-reflection. Narrative researchers usually write the stories out based on interviews. He views narration as an important tool of building social bonds through the affirmation and rejection of collective identities and others. Narration thus becomes a means to manage relations to others by producing an image for oneself as well as for others. [6; 103-111]

Koay Dong Liang in his PhD dissertation claims that stories could be a feature of self-help genre. While doing a research he analyzed the moves in body chapters and admits that he came across quite a number of accounts of sequences of events that could be construed as stories. And in his study he used the term "story"

---

## LITERARY CRITICISM

---

as an umbrella term to various types of stories such as “anecdotes”, “recounts”. He considers that “a story” should minimally involve the sequence of 2 events. [5; 76]

Taking Koay, Newkirk and Kraus’s opinions into account it should be admitted that while writing a self-help book an author should have the ability to attract, surprise and make a significant influence on the readers in order to achieve their purposes.

One of the bestsellers of its time “How to win friends and influence people” by Dale Carnegie belongs to the books of self-help genre. According to the categorization of Koay Dong Liang the work belongs to the dimension of Personal growth or growth oriented self-help books. It consist of advice for building and improving positive and successful relationships with people in all areas of life. It is not a book only for making friends, but also as a guidebook which promotes good communication, kindness, and the social skills to foster healthy and productive working relationships.

If the occurrence and history of the book is studied it became popular because of its pivotal role in society. People in the period of fast urbanization needed a good job offers, communication, public-speaking and leadership skills to grab the employers’ attention. And Carnegie was able to navigate the community with his collection of advice.

As Starker mentioned about the uniqueness of self-help books being anonymous, inexpensive and time saving this work was considered having all these features by the society at that period. Because it experienced mass consumption by being sold in vast numbers.

It is written from the first person-narration or from the perspective of the author. The tone and mood of the book is as optimistic, uplifting and psychologically motivational as he mentioned about the frequent usage of anecdotes. As it belongs to the group of non-fiction genre, there is not a precise protagonist or antagonist. But the ideas such as optimistic benevolent self-interest and pessimistic negative selfishness might be considered two opposing views fighting against each other. Furthermore major conflict, climax, foreshadowing can be involved through the abstract notions or opinions, not between the characters as in the fictional works.

Although this book belongs to non-fiction genre one of its important feature as Koay mentioned is the usage of stories that attracts readers’ attention. By analyzing the stories one may come across different kinds of literary devices, such as metaphor, hyperbole, allusion or personification throughout reading the book.

For example, in the following passage metaphor is used artistically *"Beginning with praise is like the dentist who begins his work with Novocain. The patient still gets a drilling, but the Novocain is pain-killing."* The author wants to indicate that the conversation among people which starts with calling a person name and giving him a praise is similar to the situation where one may come across during a visit to the doctor.

*"Do you ever stop to think that a dog is the only animal that doesn't have to work for a living? A hen has to lay eggs, a cow has to give milk, and a canary has to sing. But a dog makes his living by giving you nothing but love."* In this example personification is used by the author to add colour to his speech.

Although many historical and fictional names and events are mentioned in the text, they are always explicated fully rather than existing unexplained as mere allusion.

*"Jim applied this lesson, and his customer was so happy he named his first-born son after him!"* *"Rebecca impressed her boss so much that he wrote her a check for one million dollars on the spot!"* *"Frank did such a good job at the meeting that one of his clients bought him a Ferrari, and another one offered him his daughter in marriage!"* -in these conclusions (a slight exaggeration) a hyperbole is used to impress the readers with great results. The reader may find stunning and unexpected events like these examples as Newkirk mentioned in his book about incidents, facts and consequences.

Due to Koays findings the sequences of several events could be faced while reading “How to win Fiends and Influence People”. The author mainly focuses the readers attention only one theme (not getting your way versus getting your way), but by giving several stories, events from the life of various people as an example. He tries to illustrate his point.

Thus, we should consider story telling as crucial factor in the self-help books according to Koay’s idea. To persuade readers that the solutions they recommend are effective, they construct their message as being popular and include stories of people who are “successful” as a result of following the authors’ advice. Like children’s literature, self-improvement authors tell stories for pedagogical purposes. In self-improvement books, stories illustrate the message that readers can improve their lives. Although self-improvement authors have a different message from preachers, both use stories for illustrative purposes.

Constructing themselves as experts, authors of self-improvement books present their advice in the body chapters. [5;81-86]

So does Carnegie. In the very first chapter, just a few pages in, after first explicating through example, Carnegie writes: “Criticism is futile” and “Criticism is dangerous.” This observation or assertion foreshadows

## LITERARY CRITICISM

---

the fundamental principle that underlies all the specific advice to come: in order to successfully influence another, one must above all else make that other person happy about being influenced.

Furthermore he gives some advice according to Bernard Shaw's remark, "If you teach a man anything, he will never learn." by claiming that Shaw was right. Learning is an active process. In order to master the principles studying in this book, one should do something about them. Rules should be applied at every opportunity. Otherwise they will be forgotten quickly. Only knowledge that is used sticks in one's mind.

As it was mentioned above the illustration of the author's purpose is given through "a successful person's" story, Bernard Shaw.

**Conclusion.** Overall, it should be noted that, by narrating stories, claims and quotes of many well-known people, by displaying several similar events, or sequence of incidents self-help authors intend to write reader-oriented books. They tend to have much impact on readers by making their writing or speech colourful and help them achieve their targets. They need to convince the readers about their advice and provide them with the "right" worldview. To achieve the goals the authors should have the ability of an "impressive storyteller".

### REFERENCES:

1. Anneleen Masschelein and D. de Geest. *Writing Manuals for the Masses, New Directions in Book History*// University of Leuven, Leuven, Belgium.- 2021.- №1-2
2. Bergsma, Ad. "Do Self-Help Books Help?" *Journal of Happiness Studies*, vol. 9, no. 3, 2007, pp. 341-360.
3. Dale Carnegie. "How to win friends and influence people"// New York.-1981.-p-11-49
4. Jennifer Wilson "Useful books.The past and present of self-help literature" // *Books and the arts*. -November 17,2020.- p16-20
5. Koay, Dong Liang. *Self-Improvement Books: A Genre Analysis*. //2015.-University of Wellington.- PhD dissertation.-p12-312
6. Kraus, W. (2006). *The narrative negotiation of identity and belonging*. *Narrative Inquiry*.//16(1), 103-111.
7. Newkirk, Thomas. *Minds Made for Stories: How We Really Read and Write Informational and Persuasive Texts*.// Heinemann.- 2014.-p-76-79
8. Starker, S. *Oracle at the supermarket; The American preoccupation with self-help books*.// New Brunswick: Transaction Publishers.-1989/2002.
9. Amonova D. et al. XXI asr amerika bolalar adabiyotida janrlar tizimi //Uzbek Scholar Journal. – 2023. – T. 17. – C. 10-15.
10. Kilicheva M. *Postmodern narratology in "time" s arrow" by martin amis* //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2024. – T. 45. – №. 45.
11. Saidova D., Kilicheva M. *Stylistic analysis of "a haunted house" by virginia woolf* //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 20.
12. Yokubova, S. Y. (2023). *PROVERB AS THE REALITY OF SPEECH CULTURE AND LINGUISTIC POSSIBILITY. Solution of social problems in management and economy*, 2(11), 158-161.

## O'ZBEK ADABIYOTIDA ADABIY TOPISHMOQLARNING BADIYATI

*Mulloqulova Zebiniso Shavkat qizi,*  
Buxoro davlat universiteti,  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida xodimi  
[zebinisomulloqulova@gmail.com](mailto:zebinisomulloqulova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida adabiy topishmoqlarning takomili, badiiyati, xalq topishmoqlari bilan o'xshash va farqli jihatlari, adabiy topishmoqlarning xarakter-xususiyatlari, topishmoqlarning mavzular olami haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Adabiy topishmoqlarda tasvir etilgan ifodalar va belgi-xususiyatlarining serqirraligi, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan bog'liqligi, bolalar adabiyotidagi o'rni, falsafiy, tarixiy, etnografik belgilar, hodisalarning mohiyati, topishmoqlarning yuzaga kelish tarixi haqida tushunchalar aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** topishmoq, adabiy topishmoq, folklor, janr, xalq topishmoqlari, tafakkur, vazn, qofiya.

## ИСКУССТВО ЛИТЕРАТУРНЫХ ЗАГАДОК В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается развитие литературных загадок в узбекской литературе, их искусство, сходства и различия с народными загадками, особенности литературных загадок, мир загадок. Отражены представления о разнообразии выражений и знаков, описанных в литературных загадках, их связи с общественной жизнью и явлениями природы, их месте в детской литературе, философских, исторических, этнографических символах, сущности событий, истории возникновения загадок.

**Ключевые слова:** Загадка, литературная загадка, фольклор, жанр, народные загадки, мышление, вес, рифма.

## THE ART OF LITERARY RIDDLES IN UZBEK LITERATURE

**Abstract.** In this article, the development of literary riddles in Uzbek literature, their art, similarities and differences with folk riddles, the characteristics of literary riddles, and the world of riddles are discussed. Concepts about the variety of expressions and signs described in literary riddles, their connection with social life and natural phenomena, their place in children's literature, philosophical, historical, ethnographic symbols, the essence of events, and the history of the emergence of riddles are reflected.

**Keywords:** Riddle, literary riddle, folklore, genre, folk riddles, thinking, weight, rhyme.

**Kirish** .Topishmoqlar dunyo xalqlari folkloridagi eng qadimiy kichik janrlardan biri hisoblanadi. Bu o'zbek topishmoqlariga ham xos xususiyatdir. Biroq "kichik" atamasini nisbiy ma'noda qabul qilish zarur. Zero, xalq og'zaki ijodida shunday topishmoqlar borki, ularning mazmunini butun boshli ertak yoxud dostonga teng deb qarashimiz mumkin. Ayni shu holatni adabiy topishmoqlarda ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, G'. G'ulom "O'ylashni o'rganamiz", "Buni toping, qizlarim" asarlarida topishmoq janrini yuksak qadrlaganini ko'ramiz. Topishmoqlar, odatda, xalqning urf-odatlarini, ruhiyati, o'y-fikrlari hamda axloqiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Bu janr yer yuzidagi deyarli barcha millat va elatlarning folklorida tarixan mavjud bo'lgan va hamon barhayot.

**Asosiy qism.** Topishmoqlarning turli ko'rinishlari mavjud. XX asrga kelib barmoq vaznida sodda tilda, ixcham shaklda og'zaki topishmoqqa yaqin turadigan she'riy ko'rinishdagi adabiy topishmoqlar yaratish keng tus oldi. Bu jihatdan G'.G'ulom, Q.Muhammadiy, Sh.Sa'dulla, S.G'afurov, P.Mo'min, K.Turdiyeva, A.Akbar, N.Ermat, D.Rajab, Z.Hasanova, F.Hasanova, M.Sayfiddinova, M.Hamidova kabi shoirlar yaratgan topishmoqlar bolalar adabiyoti xazinasini boyitdi. Topishmoqlar yetishib kelayotgan navqiron avlodga hayotda yuz beradigan voqea-hodisalar, yangiliklarni sinchkovlik bilan kuzatish, xotirani mustahkamlash va xayolot ufqini kengaytirish imkonini beradi. Masalan, yosh kitobxonlar uchun juda yaxshi tanish bo'lgan Nabijon Ermatov ijodida ham ko'plab qayd etilgan fikrlarning isboti bo'lgan adabiy topishmoqlarni uchratamiz:

Manzildan manzilgacha,  
Oyog'imga ilashar.

Hatto to‘qay,soylik ham,  
Tuflim bilan tillashar [ 8,5]

Ushbu topishmoqda ham o‘quvchi uchun yengillik bor, ammo bir o‘qishda javobni topish oson emas, ifoda ravon, tasvir go‘zal va rang-barang, shunday bo‘lsa ham she‘rxon ikkilanib qoladi. Belgilarning ifodasida to‘liq aniqlik kuzatilmasada, topishmoqni o‘qigan o‘quvchi yashirilgan nomni topish uchun turli variantlar o‘ylaydi, fikr yuritadi. Zukko va aqlli she‘rxon olam va odam bilan bog‘liq turli munosabatlar haqida fikrlab, ularning orasidan “yo‘l” degan javobni tanlab olishi kerak.

Xalq topishmoqlari singari adabiy topishmoqlarda ham ifodalar metaforik tarzda bayon etiladi:

Oppoq yerga qora don,  
Sochdim, terib olmayman.  
Ko‘zim bilan kuzatib,  
Mag‘zin chaqib tolmayman [8,5]

Ushbu topishmoqda narsa belgilari aniq, ixcham, tushunarli va metaforik tasvir berilgan. Bo‘sh qog‘oz - oppoq yerga, qog‘ozga xat tushirilishi - qora donga, yozish-sochish tarzida ifodalaniib, she‘rxonga narsaning belgilarini go‘zal metaforik obrazlar bilan tasvirlash orqali tushuntirilgan. Yana bir shunday usuldagi topishmoq tasvirida:

Ko‘k choyshabga dur sepdim,  
Tunda nurlandi qarang!  
Yog‘dulanib benazir,  
Tonggacha yetdi arang [8,7]

osmon-ko‘k choyshabga, yulduzlar-durga o‘xshatilyapti. Berilgan tasvirlar vositasida she‘rxon mantiqiy tafakkur qirralarini charxlaydi. Shu o‘rinda Z.Husainovanning quyidagi fikrlari juda o‘rinlidir: “Topishmoqlar inson, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan bog‘langan bo‘lib, hamma vaqt real zaminga asoslanadi. Unda atrofimizni o‘rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Har bir topishmoq o‘ziga xos shakl va mazmunga ega bo‘lgan mustaqil bir asardir. Unda falsafiy, tarixiy, etnografik belgilar, tushunchalar, hodisalarning mohiyati nihoyatda go‘zal obrazli ifodalar bilan aks ettiriladi.” [1,3] Ushbu topishmoqda ham inson va uni o‘rab olgan olam ko‘chimlar, o‘xshatishlar, taqqoslashlar, qiyoslar, solishtirishlar, xitoblar o‘ziga xos poetik tarzda aks etgan.

Topishmoqlar borki, ular aytilishi bilan darhol javobi topiladi. Ammo topishmoqlar ichida shunday turlari borki, javobi topilishi ancha qiyin, hatto hayotda juda katta ilm egalari bo‘lgan kishilarni ham o‘ylantirib, ikkilanishlar va javob variantlarining xilma-xilligini keltirib chiqaradi.

O‘zbek topishmoqlarini ilk bor ilmiy jihatdan o‘rgangan Z.Husainova topishmoqlarning stilistik tuzilishiga ham e‘tibor qaratadi va unda bir necha topishmoqlarning oxirgi satri: “Nima buning javobi?”, “Bu nima?”, “Javob ber”, “Qani toping”, “Toping nima ekan?”, “Aytchi”, “Bilasizmi?”, “Top”, “Uning nomi” kabi so‘zlar bilan tuzilganligini aytadi.

Bir narsa bor xo‘p qiziq,  
Nur sochsa bo‘lar issiq.  
Na pilik bor, na moyi,  
Uyning o‘rtasi – joyi.  
Yonsa yo‘qdir tutuni,  
Hamma sevadi uni.  
U egadir zo‘r kuchga,  
Uning nomi... [9,373b]

Po‘lat Mo‘min yaratgan topishmoqlarda o‘quvchi uchun yengillik bor. Oxirgi misradan oldingi satr qofiyasi topishmoq javobini aytish imkoniyatini beradi. Yuqoridagi adabiy topishmoq javobi-lampochka. O‘quvchi adabiy topishmoqning so‘ngi satriga javobni qo‘yib aytsa, vazn buzilmaydi. Chunki shoir oxirgi satr vaznini topishmoq javobi bilan moslay olgan. Shu moslikning o‘zi ham o‘quvchiga topishmoq javobini topishda ko‘maklashadi. Topishmoqlar qadimda muayyan ishonch-e‘tiqodlarni tashish vazifasini bajargan va jumboq aytish diniy qarashlarning sir-asrorlarini yoritish yoki mifik tasavvurlarni ifodalash vositasi bo‘lgan, davr o‘tishi bilan topishmoqlar turli maqsadlarni ifodalash vazifasini bajargan.

Ozarbayjon olimi Ramazon Kafarlining fikricha, “topishmoq folklorning qadimiy janrlaridan biri bo‘lib, odamlar o‘rtasidagi shaxsiy va ijtimoiy munosabatlar shakllana boshlagan davrlarda yuzaga kela boshlagan. Topishmoq janri shakllana boshlagan davrlarda mifologiya, ayniqsa, animistik tasavvurlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Topishmoqlarda jonivorlar va jonsiz predmetlarning “insonlashtirib” talqin qilinishi fikrimiz dalilidir [6,34]

Hozirda topishmoq janri oldingilaridan farqli ravishda faqat kattalar uchun emas, balki yoshlar, bolalar uchun, ularning zehni, fikriy qobiliyatini o'zlashtirish maqsadida yaratila boshlandi. Topishmoq yoshlarning aql-idrokini, kuzatuvchanligini tarbiyalashdi va fantaziyasini o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega ekanligi, pedagogik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etganligi sababli boshlang'ich maktab darsliklaridan mustahkam o'rin egalladi. Bolalar matbuotida, darsliklarida bosilib chiqqan topishmoqlar xalq orasida tarqaldi, og'izdan-og'izga qo'chib, aytuvchilar nazdida muallifi ma'lum bo'lmay qoldi. Ilgari topishmoqlar og'zaki yaratilib, og'zaki tarqalib kelgan bo'lsa, endilikda asosan yozma ravishda yaratilib, birinchi navbatda matbuot orqali tarqatiladi. Ularning og'izdan-og'izga o'tishi avvalgidek birinchi jarayon bo'lmay, asosan kitob va matbuot vositasi bilan o'rganildi. Hozirgi davr topishmoqlarning xalqqa tarqalishining ikkinchi yo'li sifatida radio va televideniya tanlandi.

XX asr topishmoqlari xarakter, maxmun va shakl jihatidan ungacha yaratilgan topishmoqlardan ancha farq qiladi. Qadimgi topishmoqlarda ko'pincha kosmologiya, tabiat hodisalari, hayvonot dunyosi, o'simliklar, mehnat qurollari, zamonasining uy-ro'zg'or buyumlari haqida bo'lsa, XX asr o'rtalarida yangi nomini olgan topishmoqlar: mashina, radio, televizor, yer yo'ldoshlari va boshqa ilm-fan doirasidagi tushunchalar bilan yaratildi. Qadimda "Yer tagida oy yurar" deganda yer haydash quroli omochni tushuntirgan. "Ikki tortar, bir yirtar" degan topishmoqda, ikki ho'kiz qo'shib, yer haydash nazarda tutilgan. XX asr davrida yangi texnika rivojlana boshlagandan keyin eng kichik janr bo'lgan topishmoq ham shunga qarab o'zgardi. Endi omoch emas, uning o'rniga traktor haqida topishmoqlar yaratildi. Adabiy topishmoqlarning badiiy, ayni damda, topishmoqlik xususiyatlari hamisha ham xalq topishmoqlari darajasiga yetavermaydi. O'zbek xalq topishmoqlari bilan bellashadigan o'zbek adabiy topishmoqlari anchagina ekani shoirlarimizning yutug'idir. G'afur G'ulom, Po'lat Mo'min, E.Vohidov, Anvar Obidjon singari shoirlarning topishmoqlari adabiy topishmoqlar sifatida ham, belgi-xususiyatni yashirish mahorati, badiiyati jihatidan ham e'tirofga loyiq.

Yaratilish davri va mazmuniga ko'ra topishmoqlarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1. An'anaviy topishmoqlar. Xalqning uzoq o'tmishiga daxldor topishmoqlar silsilasi. Ularda ajdodlarimizning butun moziy davomidagi turmush tarzi, ijtimoiy-estetik qarashlarini ifodalovchi narsa va hodisalar jumboqlangan. Aytaylik, qachonlardir topishmoqlar kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarni aniqlashda vositachilik vazifasini bajargan. O'shanda topishmoqlar hozirgidek ma'naviy o'yin xarakterida bo'lmagan, balki aqlni, kuch-g'ayratni sinovdan o'tkazish sharti sifatida xizmat qilgan. Topishmoqlar yordamida elu yurtga boshliq (podshoh) tanlangan, jangu jadallarda urishuvchi tomonlar lashkarboshlarining topishmoqqa bergan javobining to'g'ri yo noto'g'riligiga qarab, g'olib belgilangan va ortiqcha qon to'kishlar oldi olingan. O'shanda topishmoq javobini topolmagan tomon «shahar berdim» deb yengilganini tan olgan va g'olib istagan shahar yo qishloqni o'z mamlakatiga qo'shib olgan. Hozirgacha topishmoq shartini topolmay yutqizganda «shahar berdim» deyishlari shundan qolgan. Qolaversa, hatto yigit-qizlarning bir-birlariga munosib umr yo'ldoshi tanlashlarida ham topishmoqlar bo'lajak kuyov uchun aql sinovi shartiga aylangan. Bu mulohazalarni xalq og'zaki ijodidagi ayrim afsona va ertaklar ham tasdiqlaydi. Chunonchi, yunonlarning Sfinks haqidagi afsonasida aytishilicha, dono Edip maxluq bergan topishmoqqa to'g'ri javob topgani tufayli nafaqat omon qoladi, balki boy va g'oyat go'zal Fiva shahriga hukmdor etib tayinlanadi. Yoxud, o'zbek xalqining «Dono qiz» ertagida podsho o'zi uylanmoqchi bo'lgan qizning aql-u zakovatini topishmoq orqali sinagach, so'ngra, unga uylanishga azm etganligi ifodalansa, qator sehrli ertaklarda bosh qahramon yovuz devlarni, jodugar kampirlarni topishmoq orqali mag'lub etib, o'z niyatiga erishganligi aksini topgan. Xullas, an'anaviy topishmoqlar qadimiy qadriyatlarimizning betakror badiiy namunalari hisoblanadi, ulardan o'tmishdagi ajdodlarimizning ijtimoiy hayotdan orttirgan asriy tajribalari, tevarak-atrof va borliqqa doir fikr-mulohazalari, mushohadalarini bilib olish mumkin.

2. Yangi topishmoqlar. Bular bevosita an'anaviy topishmoqlar ta'sirida yaratilgan bo'lib, ularga xos an'anaviy shakl, badiiy usullar va jumboqlanish uslubini, asosan, saqlab qolgan. Ularda hamisha zamonaviy mavzuga murojaat yetakchilik qiladi. Bu esa topishmoq janri qismatida davomiylikni ta'minlagan omil hisoblanadi.

Ularni aytishga xalq muayyan tartib-qoidaga, taqvimga rioya qilgan, chunki topishmoqlarni magik so'z hosilasi deb tushungan. Chunonchi, ruslar xristianlik e'tiqodiga ko'ra, Iso tug'ilgan kunga bag'ishlab 25 dekabrda 5-6 yanvargacha o'tkazadigan ikki haftalik «svyatki» bayrami davomida topishmoq aytishsa, o'zbeklar va tojiklarda dehqonlar kuzgi yig'im-terimni tugatgach, qishning uzun kechalarida aytishgan. Kunduzgi ishga halal bermaslik uchun topishmoqni kunduz kuni aytish taqiqlangan. Ajdodlarimiz bug'doy ko'karib unib-o'sayotganda, daraxtlar gullab meva tugayotganda, hayvonlar qishki uyqudan uyg'onganda ular haqida topishmoq aytilsa, topishmoqlarda ta'riflansa, ularga yovuz kuchlar hasad qiladi va zarar etkazadi deb irim qilishgan. Qishda esa yovuz kuchlar ham tirik tabiatni o'lgan gumon qilib, uyquga ketgan deb hisoblashgan. Shunday tasavvur va qarashlar topishmoq aytish taqvimini yuzaga keltirgan.

**Xulosa.** Topishmoqlar yozma badiiy adabiyotga ham samarali ta'sir ko'rsatib, mumtoz she'riyatda lug'z, chiston, muammo, ta'rix va muvashshah singari janrlarning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, XX asrda o'zbek bolalar she'riyatida adabiy topishmoqlar yozishning an'anaviy tus olishini ta'minladi. Bu sohada Jahon otin Uvaysiy, G'afur G'ulom singari zabardast shoirlar boshlagan an'anani Shukur Sa'dulla, Ilyos Muslim, Adham Rahmat, Po'lat Mo'min, Safar Barnoyev, Tursunboy Adashboyev, Rauf Tolib va S.G'afurov singari bolalar adabiyotining turli avlodiga mansub ijodkorlar davom ettirmoqdalar. Ayniqsa, ulkan bolalar shoiri Quddus Muhammadiyning she'riy adabiy topishmoq janridagi ijodiy izlanishlari g'oyat samaradorligi bilan e'tiborga loyiq. Shoir «Toping-chi?», «Viz-viz», «O'ylab top», «Buni toping bolalar, aytib bermang onalar» singari she'riy adabiy topishmoqlarida xalq topishmoqlariga xos an'anaviy unsurlarni istifoda etish bilan cheklangan va shu zaylda u topishmoq janri kompozitsion tuzilishidan ijodiy foydalanib, she'riy adabiy topishmoqning yangi ichki namunalarni yaratishga muvaffaq bo'ldi. Binobarin, xalq topishmoqlari qatorida bu xildagi adabiy topishmoqlardan ham yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda, didaktik va axloqiy maqsadlarda keng va samarali foydalanilmoqda. Topishmoq endilikda tom ma'noda bolalar ma'naviy mulkiga aylandi va ularni hozirjavoblikka, topqirlikka, narsa va hodisalar mohiyatini teran anglashga, sezgirlik va sinchkovlik bilan kuzatishga o'rgatishda xizmat qilmoqda.

### ADABIYOTLAR:

1. Husainova Z. So'zboshi // O'ylab top. Toshkent: Fan, 1993. 3-bet.
2. Хусаинова З. Топишмоқлар / Ўзбек фольклори очерклари. 1-том. – Тошкент, 1988. – Б.98–127.
3. Хусаинова З. Ўзбек топишмоқлари. – Тошкент, 1966. – 116 б.
4. Хусаинова З. Основные особенности и источники узбекских народных загадок: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967. – 26 с.
5. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 304 б.
6. Жўраев М. Ўзбек фольклорида топишмоқ. – Т.: Фан, 2011. – 112 б.
7. Жўраева М.Ю. Ўзбек халқ топишмоқларининг генезиси. Филол. фан. фал. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017.
8. Nabijon Ermatov. 99 topishmoq va tez aytishlar. Toshkent.: Kamalak, 2018- 80 b (IV kitob, II nashr)
9. .Пўлат Мўмин. Одоб ва офтоб. Ш еърлар. Кўшиқлар. Достон ва балладалар. Эртақлар. Топишмоқлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1972. – Б.373
10. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiq, 2010. – 370 b.

## BUXORIY HADISLARIDA ODOB-AXLOQ TUSHUNCHALARI

*Xolnazarova Matluba Xolbutayevna,  
Guliston davlat universiteti professori*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Imom Al-Buxoriy hadislarining bugungi kundagi hayotimizda tarbiyaviy ahamiyati, har bir hadisning o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviyati yetuk, komil inson bo'lib voyaga yetishida o'ziga xos o'rni borligi haqida atroflicha fikr-mulohazlar yuritilgan. Shuningdek, maqolada Imom Buxoriyning hadislar to'plamidagi ilmiy qarashlar falsafiy tahlil qilingan. Xususan, buyuk muhaddis ma'naviy merosining falsafiy dunyoqarashiga axloqiy qarashlarning ta'siri ochib berilgan. Muhaddis asarlarida sof Islomiy g'oyalarning inson ilmiy tafakkuriga ta'siri ta'kidlangan. Shu bilan birga, bugungi kunda muhaddislarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati boshqa muhaddislarning asarlari bilan taqqoslanadi. Maqolada Buxoriy hadislarining hayotimizdagi tarbiyaviy ahamiyati, yoshlarni ma'naviyati yetuk, komil inson bo'lib yetishishidagi o'rni haqida atroflicha fikr-mulohazlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** muhaddis, tarbiya, odob, ilm, ta'limot, faylasuf, tariqat, rivoj, hadis, ma'naviyat.

## ЭТИЧЕСКИЕ КОНЦЕПЦИИ В ХАДИСТАХ БУХАРИ

**Аннотация.** В этой статье Имам Аль-Бухари подробно прокомментировал образовательное значение хадисов в нашей сегодняшней жизни и то, что каждый хадис имеет свою роль в духовном росте молодого поколения как зрелого и совершенного человека. Также в статье философски анализируются научные взгляды в сборнике хадисов имама Бухари. В частности, выявляется влияние нравственных взглядов на философское мировоззрение духовного наследия великого мухадди. Влияние чистых исламских идей на научное мышление человека подчеркивается в трудах Мухаддиса. При этом значимость социальных и философских воззрений мухадди сегодня сопоставляется с произведениями других мухадди. В статье содержатся подробные комментарии о воспитательном значении хадисов Бухари в нашей жизни, их роли в становлении молодежи духовно зрелыми и совершенными людьми.

**Ключевые слова:** мухаддисы, образование, нравы, знания, учение, философ, тариқат, развитие, хадисы, духовность.

## ETHICAL CONCEPTS IN BUKHARY'S HADITHS

**Abstract.** In this article, Imam Al-Bukhari has made detailed comments about the educational significance of the hadiths in our lives today, and that each hadith has its own role in the spiritual growth of the young generation as a mature and perfect person. Also, in the article, the scientific views in the collection of hadiths of Imam Bukhari are analyzed philosophically. In particular, the influence of moral views on the philosophical outlook of the spiritual heritage of the great muhaddi is revealed. The influence of pure Islamic ideas on human scientific thinking is emphasized in the works of Muhaddith. At the same time, the importance of social and philosophical views of muhaddis today is compared with the works of other muhaddis. The article contains detailed comments about the educational significance of Bukhari's hadiths in our lives, their role in the development of young people to become spiritually mature and perfect people.

**Keywords:** muhaddis, education, manners, knowledge, teaching, philosopher, tariqat, development, hadith, spirituality.

**Kirish.** Yurtimizda yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning bebaho ilmiy ma'naviy merosini tadqiq qilish, ular qoldirgan asarlarni ilmiy-izohli tarjima qilib, ommalashtirish hamda xorijiy davlatlardagi kutubxonalar, arxiv fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalarining elektron nusxalarini to'plab, xalqimizga yetkazish dolzarb masalalarga aylanmoqda. Bu borada prezidentimizning quyidagi fikrlarini eslab o'tish joizdir: "Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida "muhaddislar sultoni" deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz". Bu mo'tabar zot merosining gulto'ji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami – "Al-Jome as-Sahih" kitobi islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Mana, o'n ikki asrdirki, bu kitob

В романе "Робинзон Крузо" Даниэля Дефо можно увидеть, что вера в Бога играет важную роль как механизм выживания для главного героя. Когда Робинзон оказывается один на необитаемом острове, он обращается к вере в Бога как источнику надежды, силы и утешения в трудные моменты. Вера помогает ему сохранить надежду на спасение, дает ему моральную поддержку и помогает принимать трудные решения. Робинзон молится, благодарит Бога за спасение и помощь, и верит, что все происходящее имеет свой смысл и цель. Таким образом, вера в Бога в романе "Робинзон Крузо" является не только религиозным аспектом, но и важным психологическим механизмом выживания, который помогает герою преодолевать трудности и сохранять надежду на лучшее.

**Анализ.** Я отложил книгу, и подняв руки к небу, вне себя от радости, громко закричал: «Иисус, Ты Сын Давидов, Иисус, Ты превознесенный Начальник и Спаситель, дай мне покаяние!» Это был первый случай в моей жизни, о котором я могу сказать, что молился в истинном смысле этого слова, ведь я молился в полном осознании своего положения перед Богом... Я оглянулся на свою прошлую жизнь с таким ужасом, и мои грехи показались такими страшными, что моя душа не желала получить от Бога ничего, кроме избавления от угнетавшей меня тяжести вины». Горячие молитвы следовали

одна за другой, и после этого Крузо почувствовал внутри великое утешение, зная, что Бог простил его. Переживания Крузо в точности описывали то, что пережил сам Дефо. Он испытал и почувствовал близость Спасителя, Который отвечал на его молитвы, он также пережил великую перемену своего внутреннего характера. Все его вкусы и наклонности изменились, когда Бог вошел в его жизнь. Так что во всех отношениях он стал новой личностью. В обращении Крузо к Богу Дефо изобразил не только свой личный опыт, но также опыт миллионов людей, которые на протяжении человеческой истории пережили истинное обращение ко Христу.

Дефо стал с помощью пера свидетельствовать и объяснять ту перемену, которая произошла в его жизни. Разговоры на духовные темы между Робинзоном Крузо и Пятницей дают нам яркую картину, как выглядело личное свидетельство Дефо о Христе другим людям: «Я сказал ему, что великий Творец всего сущего живет на небесах и правит миром тою же властью и тем же провидением, каким Он создал его, что Он всемогущ, может сделать с нами все, что захочет, все дать и все отнять...»

«Я горячо просил Бога дать мне силы и способность воспитать этого бедного дикаря, одухотворить его сердце и приготовить к познанию Бога во Христе, примирить его с Ним. Я просил Всевышнего руководить мною в проповеди слова Божьего, чтобы убедить дикаря, открыть ему глаза и спасти его душу. По возвращении Пятницы я возобновил с ним беседу. Я говорил ему об искуплении грехов наших Спасителем мира, об учении Святого Евангелия, о покаянии перед Богом и вере в Иисуса Христа... Теперь мой дикарь стал добрым христианином, гораздо лучше, чем я; надеюсь, впрочем, и благодарю за это Создателя, что если я был и грешнее этого дитяти природы, однако мы оба одинаково были в покаянном настроении и уповали на милосердие Божие. Мы могли читать Слово Божие, я любил это чтение и толковал его Пятнице согласно своему пониманию, а он возбуждал мой ум вопросами, которые заставляли меня глубже, чем раньше, вдумываться в характер и смысл учения. Но учение о познании Бога и учение Иисуса Христа так ясно и просто изложены в Ветхом и Новом Заветах, что одно чтение их доставляло мне бесконечное счастье и наслаждение. Одно чтение породило во мне чувство долга и влекло меня к чистосердечному покаянию; оно заставило меня всеми силами души полюбить Спасителя, этот Источник жизни и избавления; оно преобразовало мою нравственную жизнь, подчинив ее заповедям Божиим».

Так обратился к Богу Даниэль Дефо в образе Робинзона Крузо. Так обращались к Богу раньше и так обращаются к Богу в наши дни. Дорогие читатели, может быть, и вам знакомы переживания Робинзона, а может, вам это еще предстоит.

**Обсуждение.** Многие просветители понимали образ буржуа как воплощение идеального человека по отношению к другим слоям населения. В современной понимании буржуа и человек цивилизации находятся в отношении части и целого и вместе противопоставляются Природе. Поэтому, рассматривая образ Робинзона, необходимо учитывать, что он буржуа, а значит, порождение цивилизации. Долговременная жизнь «на лоне природы» создаёт условия для формирования связи Робинзона с естественным человеком и, как следствие, утрате связи с цивилизацией. Отсюда возникает вопрос, насколько Робинзон близок к образу естественного человека. Изучая этот вопрос, следует рассмотреть взаимоотношение Робинзона-буржуа, Робинзона – человека цивилизации в противовес естественному человеку. Робинзон Крузо, будучи буржуа, попадает на необитаемый остров, где господствуют законы природы. С первых дней герой не столько борется за существование, сколько достаточно легко адаптируется к условиям жизни, руководствуясь разумом и опытом. Подходя к решению любой проблемы с помощью разума, Робинзон приходит к выводу: «...**as reason is the substance and origin of the mathematics, so ... every man may be, in time, master of every mechanic art**» [1]. Соответственно, в герое происходит борьба «старого» буржуа и нового человека: признаки и того и другого сталкиваются и вызывают противоречивые действия. Изучение образа Робинзона стоит начать с рассмотрения связи буржуа и естественного человека. «Он живет в такое время, когда многими владеет горячка быстрого обогащения», – пишет А. Аникст о Робинзоне [4, с. 72]. Деньги для Робинзона как «сына своего сословия» играют очень важную роль. Тот знаменитый пример с монетами, которые Робинзон находит на борту разбитого корабля, ясно отражает в герое черты буржуа. Со словами «**O drug!.. Thou art not worth to me – no, not the taking off the ground; one of those knives is worth all this heap...**» он всё-таки забирает деньги с собой на остров – пусть останутся. Спустя несколько лет на потонувшем возле берега корабле Робинзон снова находит деньги и со словами «**I had no manner of occasion for it; it was to me as the dirt under my feet...**» относит к себе в пещеру [1]. В то же время, «врожденное и неутомимое трудолюбие – самая замечательная черта Робинзона Крузо», – отмечает А. Аникст [4, с. 77].

Расчетливость, строгий контроль своих запасов, ведение календаря, соблюдение распорядка дня воссоздают образ типичного представителя буржуазного сословия, который предназначен для жизни среди людей. Рассмотрим, как долго он может контактировать с природой. Робинзон не имеет склонности к восхищению её вечной красотой и таинственностью. В трактате «О происхождении неравенства» Ж.-Ж. Руссо именно такое отношение к природе приписывает дикарю (естественному человеку): «Зрелище природы становится ему безразличным по мере того, как оно становится для него привычным» [7].

Прожив достаточное количество времени на острове, герой-буржуа не изменяет своим наклонностям подчинять и владеть. Буржуазные черты в поведении героя проявляются и в отношении к могучей, неизведанной им природе, которая, казалось бы, должна посвятить Робинзона в свои тайны, правила и законы. Но для героя отношение к природе выражается в виде утилитарного интереса: «покорить и заставить служить себе» [4].

«But all I could make use of was all that was valuable: **I had enough to eat and supply my wants, and what was all the rest to me?**» – рассуждает Робинзон [1]. Прагматичность в характере героя восполняет образ буржуа. Собственничество – еще одно качество, которое остается «жить» в герое после удивительной смены обстоятельств. Мысль о том, что весь остров принадлежит ему [Робинзону], возрождает в нем энергию, желание жить и радоваться. Это говорит о том, что пред нами буржуа: вот он уже чувствует себя хозяином своего острова.

Робинзон как человек цивилизации видит островную жизнь более детальной и непривычной по сравнению с общественной. Так, появляются мысли о сложности простых, малозначимых вещей в жизни. Мелкие просчеты в действиях, за что сам Робинзон себя винит и упрекает, недовольство героя плодами своего труда говорят о его рефлексивном сознании. Обращение внимания на себя – это осознание себя личностью. Естественный человек (дикарь) в отличие от человека цивилизации, не осознает себя как личность, не впадает в глубокие философские раздумья и «далек от уровня знаний, необходимого для того, чтобы желать приобрести еще больше» [7]. Робинзон размышляет, философствует, духовно развивает себя, он любознателен, он создаёт, совершенствует своё положение по мере сил и разума. С другой стороны, если опираться на теорию Локка о приоритете разума, то такие черты наоборот свидетельствуют о сближении Робинзона с образом естественного человека. Однако эволюция сознания Робинзона претерпевает изменения. Рассматривая каннибалов в качестве потенциального врага, осуждая их зверское, «протivoестественное» [1] поведение, герой вскоре понимает, что не вправе судить их, так как на то есть Провидение. Робинзон размышляет и о выгоде: он считает, что дав свободу этим бедным людям, имеет право подчинить их себе, тем самым приобрести желаемого друга для общения и заодно осуществить намерение покинуть остров, то есть вернуться в лоно цивилизации. Пятница становится для Робинзона приятным собеседником: «**I was greatly delighted with him, and made it my business to teach him everything that was proper to make him useful, handy, and helpful...**» [1], – рассуждает Робинзон. Однако первичным является факт того, что «в этом молодом дикаре Робинзон хочет, прежде всего, видеть своего покорного слугу, раба» [8]. Отношение Робинзона и Пятницы – это отношения в системе «господин – раб». Такая система отношений становится методом воздействия на Пятницу, возможностью установить собственные порядки и использовать дикаря для получения свободы. Такое отношение не может быть естественным и по-настоящему искренним. Пятница – это чистая доска, которую заполняет Робинзон. С первых дней он учит Пятницу духовной человеческой жизни: «**I began to instruct him in the knowledge of the true God**» [1], отучает от его ужасных инстинктов. Человек цивилизации может самостоятельно прийти к вере, осознавая свои грехи вследствие смены привычной обстановки, нарушении внутреннего покоя. Так, духовная метаморфоза героя происходит в естественных условиях, в изоляции от общества. Естественный человек сам не придёт к вере. Он добр и непорочен, ему не свойственно думать о смысле жизни, о поисках истины, так как ему неизвестно, что есть добро и зло. Недаром Пятнице, по словам Робинзона, сложно представить образ дьявола: «**I found it was not so easy to imprint right notions in his mind about the devil as it was about the being of a God**» [1].

**Заключение.** Если Дефо стремился своим романом идеализировать новое сословие в образе Робинзона, а последующие мыслители отражали эту идеализацию в концепции «естественного человека», видели ее как утопию, то с позиции XXI века сложно рассматривать буржуа в контексте концепции «естественного человека». Образ Робинзона сочетает в себе черты человека цивилизации и естественного человека, а его эволюция в романе имеет достаточно сложную природу:

1. Расчетливость, прагматичность, стремление к самоанализу сближают Робинзона с героем-буржуа; в то же время эта склонность к рефлексии одновременно роднит его, согласно Локку, с естественным человеком.

2. Опыт пребывания на острове не повлиял на отношение Робинзона к деньгам, на протяжении всего повествования оно остается неизменным.

3. Человек цивилизации ищет поддержки у Бога, уповает на спасение и нуждается в раскаянии – у естественного же человеку нет необходимости в подобном, он изначально добр и непорочен.

4. Непрерывная деятельность, работа способствуют подавлению естественных чувств – что, по мысли Руссо, характерно для человека цивилизации.

5. Согласно Локку, человек имеет право лишь на имущество, добытое им с помощью труда – Робинзон же, реализуя себя как собственника, объявляет себя хозяином острова.

6. Характерный для Робинзона поиск сложного в простом свидетельствует о его бесконечном стремлении к познанию.

7. Робинзон поработает Пятницу, воспринимая его в первую очередь лишь как возможное средство спасения от изоляции на острове – соответственно, возникают некоторые сомнения в искренности тех чувств, которые он испытывает (или декларирует) по отношению к нему.

8. Робинзону плохо жить на острове, в естественных условиях, именно из-за отсутствия возможности общения – это основной мотив его стремления вернуться в цивилизованный мир. За двадцать восемь лет пребывания на острове Робинзон, несмотря на произошедшие с ним изменения, в итоге так и не становится естественным человеком – в финале перед нами по сути всё тот же рациональный и прагматичный герой-буржуа, при первой же возможности возвращающийся в органичную для него общественно-социальную среду.

### ЛИТЕРАТУРА:

1. Defoe, D. *The Life and Adventures of Robinson Crusoe* [Electronic resource] /. Defoe, 1919. – Mode of access: <https://bookfrom.net/daniel-defoe/7904-the-life-and-adventures-of-robinson-crusoe.html>. – Date of access: 24.04.2018.

2. Даниэль Дефо. Его жизнь и литературная деятельность/ А.В. Каменский// Данте. Дефо. Г. - Х. Андерсен. Ренан. Ибсен: Биограф. Повествования/ Сост., общ. ред. и послесл. Н.Ф. Болдырева. - Челябинск: Урал, 1995. - 456 с.

3. Дефо, Д. Робинзон Крузо/Д. Дефо: пер. М. Шишмаревой. - М.: 1992. - 364 с.

4. Доттен, Л. Жизнь и приключения Д. Дефо, автора «Робинзона Крузо». М., 1926.

5. Локк, Дж. Опыт о человеческом разумении. Книги 1, 2, 3: Локк Дж. Сочинения: В 3-х т. Т. 1 / пер. с англ. А. Н. Савина / под ред. И. С. Нарского. – М.: Мысль, 1985. – 623 с. Книга 4: Локк Дж. Сочинения: В 3-х т. Т. 2 / пер. с англ. А. Н. Савина / под ред. И. С. Нарского.–М.: Мысль, 1985.–560 с.

6. Аникст, А. Б. Робинзон Крузо / А. Б. Аникст // Даниель Дефо. Очерк жизни и творчества / А. Б. Аникст. – Москва: Детгиз, 1957. – с.58-107.

7. Локк, Дж. Два трактата о правлении [Электронный ресурс] – Режим доступа: [http://www.civisbook.ru/files/File/Lokk.Traktaty\\_2.pdf](http://www.civisbook.ru/files/File/Lokk.Traktaty_2.pdf).

8. Руссо, Ж.-Ж. Рассуждение о происхождении и основаниях неравенства между людьми [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.rulit.me/books/rassuzhdenie-o-proishozhdenii-i-osnovaniyah-neravenstvamezhdu-lyudmi-read-281546-1.html>.

9. Сеттарова, М. Д. Просветительские идеалы Д. Дефо в романе «Робинзон Крузо» [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://lit-prosv.niv.ru/litprosv/articles-eng/settarova-prosvetitelskie-idealy-defo.htm>.

## XX ASR JAHON ADABIYOTIDA EKSPRESSIONISTIK QARASHLAR

*Murtazayev Elyor Nizomiddinovich,*  
*Qarshi innovatsion ta'lim universiteti*  
*Pedagogika va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi*  
*[vip.murtazayev@gmail.com](mailto:vip.murtazayev@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr jahon adabiyotida ekspressionistik qarashlar, adabiyot va san'at tarixida, shuningdek, jahon va o'zbek adabiyotshunosligida urush va jang tasvirlari aks ettirilgan asarlar, xususan, san'atshunoslikning urush mavzusiga bag'ishlangan badiiy adabiyotlar, qahramonlik eposlari, jangnomalar, afsona va rivoyatlar batal janrida yaratilganligi haqidagi ma'lumotlar izohlab berilgan.

Yozma adabiyotlarda birinchi jahon urushi ta'sirida G'arb adabiyotida "yo'qotilgan avlod" yo'nalishiga bag'ishlangan ijod namunalari, XX asr 30-yillaridan boshlab antifashistik ruhda yaratilgan insonparvarlik g'oyalarini ifodaovchi asarlar yuzaga kelganligi, shuningdek, sobiq sovet ittifoqi adiblarining asarlarida qahramonlik motivi yetakchilik qilganligi, o'zbek adabiyotida lirika bilan birgalikda dramaturgiyaning ham muhim o'rin tutganligi haqidagi izohlar maqolaning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** ekspressionistik qarashlar, jahon va o'zbek adabiyoti, badiiy adabiyot, shariyat, proza, realistik obrazlar, motiv, epos.

## ЭКСПРЕССИОНИСТСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XX ВЕКА

**Аннотация.** В данной статье излагаются экспрессионистские взгляды на мировую литературу XX века, на историю литературы и искусства, а также на мировые и узбекские литературные произведения, отражающие образы войны и сражений, в частности, на батальный жанр художественной литературы военной тематики, героические эпосы, батальные истории, легенды и повествования. Основное содержание статьи составляют замечания о том, что в письменной литературе под влиянием первой мировой войны значительное место в западной литературе занимали также образцы творчества, посвященные направлению «потерянного поколения», появление произведений 30-х годов XX века, олицетворяющие гуманистические идеи, созданные в антифашистском духе, а также замечания о том, что в произведениях писателей бывшего Советского Союза героический мотив является ведущим, и наряду с лирикой в узбекской литературе важное место занимает драматургия.

**Ключевые слова:** экспрессионистские взгляды, мировая и узбекская литература, художественная литература, поэзия, проза, реалистические образы, мотив, эпос.

## EXPRESSIONISTIC VIEWS IN THE 20<sup>TH</sup>-CENTURY WORLD LITERATURE

**Abstract.** In this article, expressionistic views in 20<sup>th</sup>-century world literature, as well as their depiction in literary and art history, particularly in global and Uzbek literary science, with regards to works portraying war and conflict, especially those dedicated to the theme of artistic warfare, the creation of heroic epics, war narratives, legends, and stories in the genre of battle, are discussed and elaborated upon.

The main content and essence of the article comprise examples of creative works dedicated to the "lost generation" trend in Western literature under the influence of the First World War, the emergence of works expressing humanitarian ideals developed in an anti-fascist spirit from the 1930s onwards, as well as the leading role of heroism motifs in the works of former Soviet Union writers, in addition to comments about the great significance of lyricism and dramaturgy in Uzbek literature.

**Keywords:** expressionistic views, world and Uzbek literature, fiction, poetry, prose, realistic characters, motif, epic.

**Kirish.** Urush mavzusi adabiyot va san'at tarixida muhim o'ringa ega. San'atshunoslikda urush mavzusidagi asarlar alohida janr sifatida shakllangan bo'lib, u batal janri deb ataladi. Bu janr, asosan, tasviriy san'atda uchraydi.

## LITERARY CRITICISM

“Batal” atamasi fransuz tilidan olingan bo‘lib, “jang” degan ma‘noni anglatadi. Janr sifatida XV-XVI asrlarda shakllangan. Jang ko‘rinishlari, urush va harbiy hayot lavhalarini tasvirlash batal janrida asosiy o‘rinda turadi. Podsho, fir‘avn va sultonlarning zafarli yurishlari tasvirlari qadimgi Sharq miniaturalarida, Xitoy musavvirlarining asarlarida uchraydi.

**Asosiy qism.** Adabiyotda ham urush va jang tasvirlari aks ettirilgan asarlar qadimiy tarixga ega. Qahramonlik eposlari, jangnomalar, turli xalqlarning bahodirlari haqidagi afsona va rivoyatlar shular jumlasidandir. Keyingi davrlarda yozma adabiyotda ham urush hodisasi keng miqyosda ifodalanib, badiiy adabiyotda salmoqli o‘rinni egalladi.

XX asrga kelib G‘arb adabiyotida urushga qarshi kayfiyat yanada kuchayib, adabiy jarayonda yetakchi o‘ringa chiqdi. Buning asosiy sababi jahon urushlari va ularning fojiali asoratlari bo‘ldi. Birinchi jahon urushidan keyingi davrda G‘arb mamlakatlarida patsifizm ruhi hukm surdi. Bu esa badiiy adabiyotda ham o‘z ifodasini topdi.

Birinchi jahon urushi ta‘sirida G‘arb adabiyotida “yo‘qotilgan avlod” yo‘nalishi vujudga keldi. “Yo‘qotilgan avlod” adabiyoti vakillariga misol sifatida Ernest Heminguey, Skott Fitsjerald, Erix Mariya Remark, Richard Oldington, Uilyam Folkner kabi yozuvchilarni keltirish mumkin. Ular yaratgan romanlarda urush tufayli hayoti izdan chiqqan insonlarning taqdiri va o‘y-kechinmalari realistik obrazlar vositasida tasvirlandi.

XX asr 30-yillaridan boshlab fashizmning kuchayishi, xalqaro siyosiy vaziyatning keskinlashuvi natijasida yangi urush xavfi paydo bo‘ldi. Dunyoning ilg‘or yozuvchilari bunday qaltis pallada o‘z vazifalarini bajardilar. Ular antifashistik ruhdagi insonparvarlik g‘oyalarini ifodalovchi asarlar yaratdilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida sobiq sobiq sovet ittifoqi adabiyotida urush mavzusi yetakchilik qildi. Rus adiblari K. Simonov, B. Polevoy, A. Safronov, V. Surkov kabi ijodkorlar o‘z asarlarida vatanparvarlik, qahramonlik g‘oyalarini ilgari surdilar. Bu urush haqida keyingi davrda ham ko‘plab asarlar yaratildi. Mixail Sholoxovning “Inson taqdiri” romanidagi Sokolov, Vadim Kojennikovning “Qilich va qalqon” romanidagi Iogann Vayss (Aleksandr Belov), Yulian Semyonovning “Bahorning o‘n yetti lahzasi” romanidagi Maks Shtirlits obrazlari urushda jasorat ko‘rsatgan jangchi, ofitser va harbiy josuslarning qahramonliklariga bag‘ishlangan. Umuman, sobiq sovet ittifoqi adiblarining II jahon urushi mavzusida yaratilgan asarlarida qahramonlik motivi yetakchi o‘rinda turdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin G‘arb mamlakatlarida ham urush va uning fojiali oqibatlarini haqidagi asarlar yaratildi. Venger yozuvchisi Imre Kertisning “Angliya bayrog‘i”, “Izquvar” kabi romanlarida fashist konslagerlaridagi tutqunlar taqdiri hikoya qilinadi. Bu romanlari uchun muallif Nobel mukofotiga loyiq ko‘rilgan. Angliyalik adib Bernard Shou esa urushdan keyin avj olayotgan yadroqurollarini yaratish va qurollanish poygasi haqida asarlar yaratdi. Xususan, uning 1948-yilda yozilgan “Olis kelajak haqida rivoyat” asarida atom urushi qoralangan.

Bu davrda ijodkorlarning urush motiviga ko‘p murojaat etishlarining sabablaridan biri adabiyotda eksprissionizm yo‘nalishining vujudga kelganligi hamdir.

“Eksprissionizm” lotinchada ifoda, ekspressivlik degan ma‘nolarni anglatadi. Bu yo‘nalish XX asrning 10-yillarida Germaniya va Avstriya adabiyotida vujudga keladi. Bu yo‘nalishda ilk yaratilgan asarlar lirik adabiyot namunalari edi. Nemis shoirlari Georg Trakl (1887-1914), Frans Verfel va Ernst Stadler (1883-1914) she‘rlari bu yo‘nalishdagi ilk adabiyot namunalari edi.

Eksprissionizm oqimi Praga maktabida o‘z taraqqiyotining cho‘qqisiga erishadi. K. Kape, P. Adler, L. Perutz, F. Kafka bu maktabning atoqli namoyandalari edilar. Bu yo‘nalishda eng unumli qo‘llanilgan motiv urush motivi edi.

Buning natijasida adabiyotshunoslik ilmida urush mavzusidagi asarlarni o‘rganish zaruriyati paydo bo‘ldi. Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida urush mavzusi keng miqyosda o‘rganildi. Turli davrlar badiiy adabiyotida urush mavzusi tarixi va uning tutgan o‘rni kabi masalalar G‘arb olimlari A. Vernon, T. Riggs, D. Bevan, K. Makloulin, E. Krimmer, L. Goldenson, M. Norris, S. Hayneslar tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, rus olimlaridan T. M. Toper, Y. V. Staroverova, I. F. Gerasimova, Y. A. Rikunina, I. A. Tarasova kabi mutaxassislar ham ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

O‘zbek olimlaridan U. O‘ljaboyev “O‘zbek harbiy prozasida xarakter yaratishning ba‘zi muammolari” [5, 1989] kitobida XX asr o‘zbek adabiyotida yaratilgan eng sara harbiy mavzudagi qissa va romanlar: Abdulla Qahhorning “Qizil yulduz” qissasi, Oybekning “Quyosh qoraymas”, Shuhratning “Shinelli yillar”, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” kabi romanlari qiyosiy tahlil qilingan. Ushbu asarlarda tasvirlangan urush kishilarining obraz xususiyatlaridagi adabiy qahramon, xarakter va tip munosabatlari asosida o‘rganilgan.

N. Karimov, S. Mamajonov, B. Nazarov, U. Normatov, A. Rasulovlarhammuallifligida yozilgan “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida II jahon urushi yillari adabiyoti haqida shunday fikr bildiriladi: “1941-1945-yillar o‘zbek she‘riyati, nasri va dramaturgiyasida ham safarbarlik ruhi hukmron bo‘ldi. G‘. G‘ulom, Oybek, H. Olimjon, M. Shayxzoda kabi ijodkorlar o‘z she‘rlarida vatanparvarlik va qahramonlik g‘oyalari ilgari surib, xalqni mardonavor kurashga da‘vat etdilar. Bu davr adabiyotida lirika yetakchi tur bo‘ldi”. [3,51-bet]

Saydulla Mirzayev ham o‘zining “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” o‘quv qo‘llanmasida bu davr adabiyotiga, xususan, she‘riyatiga baho berar ekan, shunday fikrni ilgari suradi: “Shuni alohida ta‘kidlash o‘rinliki, Ikkinchi jahon urushi yillarida she‘riyat qanchalik safarbarlik ruhini o‘zida aks ettirmasin, baribir she‘rlarning badiiy saviyasi pasayib ketmadi. Mualliflar yangicha ifodalar, badiiy kashfiyotlar topa oldilar. Ayniqsa, jangchining onasiga yoki sevgilisiga maktub tarzida yozilgan she‘rlarda biz lirik turga xos bo‘lgan hissiy kechinmaningajoyib namunalarini ko‘ramiz” [1,39-bet]. Ayni paytda, ushbu dasrliklarda II jahon urushi yillari o‘zbek adabiyotida lirika bilan birgalikda dramaturgiyaning ham muhim o‘rin tutganligi, dramatik asarlarda tarixiy mavzuning yetakchi xususiyat kasb etganligi ta‘kidlangan.

Urush davri deganda esa odamlarning ocharchilik, yetishmovchilikdanqiynalagan holatlari chor-nochor kishilar ko‘z oldingizga keladi. XX asr o‘zbek adabiyotida ham urush mavzusi katta o‘rin tutib, ushbu mavzuda qator asarlar yaratildi. G‘afur G‘ulomning “Vaqt”, “Sog‘inish”, “Bizningko‘chada ham bayram bo‘lajak”, “Kuzatish”, “Sen yetim emassan”, “Men –yahudiy” kabi she‘rlari, “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi, Oybekning “Quyoshqoraymas”, Shuhratning “Shinelli yillar” romanlari, Hamid Olimjonning “JangchiTursun”, Maqsud Shayxzodaning “Kapitan Gastello” balladalari, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi, O‘lmas Umarbekovning “Qiyomat qarz” hikoyasi hamda shu nomdagi pyesasi, O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni”, “Nega, nega-a-a?!” hikoyalari, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” romanlari bunga misol bo‘la oladi. Bu asarlarda ham urushning odamlar boshiga keltirgan azob-uqubatlari, urush yillarida jasorat va qahramonliklar ko‘rsatgan insonlar hayoti tasvirlangan. G‘afur G‘ulomning “Vaqt” nomli falsafiy she‘ri fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba sharafiga yozilgan bo‘lsa, “Sog‘inish” she‘rida o‘g‘li urushga ketgan otaning his-tuyg‘u va kechinmalari kuylangan. “Sen yetim emassan” she‘rida esa shoirning yuksak insonparvarligi, o‘zbek xalqiga xosbo‘lgan bag‘rikenglik va bolajonlik xislatlari zo‘r mahorat va pafos bilan she‘rga solingan. Yuqoridagi she‘rlarida G‘afur G‘ulom II jahon urushi yillari voqealariga hissiy munosabatini ifodalagan bo‘lsa, “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida I jahon urushi yillarida Turkiston o‘lkasidagi og‘ir hayot, yo‘qchilik va chorasizlik kabi holatlar o‘g‘ri va Qorabuvining o‘zaro suhbatlari orqali tasvirlangan. Oybekning “Quyosh qoraymas”, Shuhratning “Shinelli yillar” kabi romanlarida, SaidAhmadning “Ufq” trilogiyasida II jahon urushi yillarida front va front ortida ko‘rsatilgan qahramonliklar badiiy ifodasini topgan.

XX asr o‘zbek adabiyotida urush haqida yaratilgan asarlarning katta qismi jahon urushlari, ayniqsa II jahon urushi davri hayotini tasvirlagan. Urush yillari adabiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri safarbarlik ruhining ustunligi edi. Hukumat va partiya buyurtmasi asosida bir qator she‘rlar, hikoya, qissa va romanlar hamda dramatik asarlar yaratildi. Biroq bu davrda yaratilgan asarlarning barchasini ham siyosiy buyurtma mahsuli deb qarash to‘g‘ri emas. Masalan, G‘afur G‘ulomning “Sharqdan kelayotirman” to‘plamiga kiritilgan insonparvarlik g‘oyasini ilgari suruvchi antifashistik ruhdagi she‘rlari, Oybekning “Mahmud Torobiy”, Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi”, Hamid Olimjonning “Muqanna” kabi tarixiy mavzudagi dramatik asarlari mualliflarning shaxsiy tashabbusi va ijodiy rejaları mahsuli edi. O‘z-o‘zidan ma‘lum bo‘ladiki, II jahon urushi yillari o‘zbek dramaturgiyasida tarixiy mavzudagi asarlarning salmoqli o‘rin tutgan. Tarixiy dramalarda o‘tmishdagi buyuk shaxslarning qahramonliklari, mardlik va jasoratini tasvirlash vositasida xalqni kurashga, g‘alabaga ruhlantirish, shuningdek, o‘zbek xalqining buyuk o‘tmishi borligini eslatish ham maqsad qilingan. Epik tur esa bu davrda lirika va dramaturgiyaga nisbatan ancha orqada qoldi. Shunday bo‘lsa-da, Abdulla Qahhorning “Asror bobo”, “Xotinlar” singari hikoyalari, “Oltin yulduz” qissasi, Oydinning “Umr sovg‘asi”, “Asl yor”, “Eryurak” kabi hikoyalari yaratilib, jang va mehnat frontlarida jonbozlik ko‘rsatgan insonlarning qahramonliklari, ichki kechinmalari va ruhiyati badiiy bo‘yoqlarda tasvirlandi.

Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi asarlarning ko‘pchiligida, vatanparvarlik, qahramonlik g‘oyalari ustun tursa, afg‘on urushi mavzusida yozilgan barcha asarlarda tragik pafos yetakchi o‘rinda turadi. Chunki bu urush mohiyat jihatdan II jahon urushidan farq qilardi. II jahon urushi ham katta fojia va kulfatlarga sabab bo‘lgan, lekin unda qatnashgan o‘zbek sovet jangchilari Vatan himoyasi yo‘lida jang qilgandilar. Shu tufayli ham II jahon urushi haqidagi asarlarda qahramonlik ruhi yetakchilik qiladi. XX asr adabiyoti ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan hamnafas holda rivojlandi. Davrning muhim voqealariga hozirjavoblik bilan yondashdi.

## LITERARY CRITICISM

---

Ayniqsa, urush mavzusida juda ko'p asarlar yaratildi. Ularda urushning vayronkor mohiyati realistik obrazlar vositasida aks ettirildi.

**Xulosa.** Xullas, jahon adabiyotshunosligida ekspressionistik adabiyotdagi urush mavzusi bilan bog'liq ko'plab ilmiy tadqiqot, maqola, o'quv qo'llanma, monografiyalar yaratilgan. Ularda urush mavzusining badiiy adabiyotdagi o'rni, turli davrlar va mamlakatlar adabiyotida urush odamlari obrazlarining turli talqinlari, harbiy she'riyat va prozada mavzu, g'oya va motiv ifodasi, "yo'qotilgan avlod" muammosi, jahon urushlarining badiiy adabiyotga ta'siri kabi masalalar o'rganilgan.

### ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev S. *XX asr o'zbek adabiyoti tarixi*, – T.: "Yangi asr avlodi", 2005 – 39-bet.
2. *O'zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi*. – Toshkent: Fan, 1983. 206 b.
3. Karimov H., Mamajонов C., Nazarov B., Normatov U., Rasulov A. *XX asr ўzbek adabiyoti tarixi*. – T.: "Ўқитувчи", 1999 – 51-bet.
4. Қаюмов О. *Чет ел адабиёти тарихи*. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1979 – 242-бет.
5. Ўлжабоев У. *Ўзбек ҳарбий прозасида характер яратишининг баъзи муаммолари*. Toshkent, 1989.
6. Alpomish. *Doston. Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2016.
7. Heminguey E. *Chol va dengiz*. – Toshkent, 2017.
8. Remark E. M., Uch og'ayni, T., "Ma'naviyat", 2002.
9. Қаюмов О. *Чет ел адабиёти тарихи*. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1979.
10. Bevan D. *Literature and War*. – Amsterdam: "Rodopi", 1989.
11. Goldensohn L. *XX th century Soldier-Poetry*. – New-York: "Columbia University Press", 2003.
12. Hynes S. *War Imagined: The First World War and English Culture*. London: "Bodley Head"; 1990.

### ERKIN VOHIDOVNING "O'ZBEKISTON" SHE'RIDA VATAN TALQINLARI

*Maxmudova Sadoqat Xolmatovna,*  
*BuxDPI dotsenti*  
[sadoqatmaxmudova948@gmail.com](mailto:sadoqatmaxmudova948@gmail.com)

**Annotasiya.** Maqola Erkin Vohidovning "O'zbekiston" she'ridagi Vatan mavzusi talqiniga bag'ishlangan. Shoirning "O'zbekiston" she'ri mavzuning yangi qirralari ochib berilgan. O'zbekistonning quyoshli o'lka ekanli, shu bilan birga, o'zi yashagan davrni "tug'yonli asr"ga o'xshatgani, gul sochgan vatan bag'rini nurli koshonaga, jahon ichra tengsiz jahonga mengzagan. O'zbekistonni shoir "ming bir dovon oshgan alp pahlavonim" deya tashxislantirgan. Unda Vatan tuyg'usini anglash va anglatishdagi har bir shoirning o'ziga xos ifoda yo'sini, uslubiy individualligiga xos muhim xususiyatlar qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar.** Vatan mavzusi, metafora, tashxis ijodiy individulligi, istiora, istiora, realistik tasvir uslubi, lirik syujet, peyzaj, masnaviy, vatansevar lirik qahramon.

### INTERPRETATIONS OF THE HOMELAND IN THE POEM "UZBEKISTAN" BY ERKIN VOHIDOV

**Abstract.** The article serves to investigate the theme of "Homeland" in Erkin Vohidov's poem "O'zbekiston". A hidden facet of the poem's theme "O'zbekiston" is revealed. The analogy of a sunny country leads to the era of enlightenment in Uzbekistan, and the country is like a blooming flower that brightens and illuminates the bosom of the homeland in the world. The poet suggests that Uzbekistan is the same as a fearless warrior, who has taken part in a thousand fights. The research compares the different ways poets express themselves, their stylistic uniqueness, and the distinguishing features of the poetry genre as conducted in a comparative linguistic approach.

**Keywords.** The theme of "Homeland", metaphor, diagnosis, creative individuality, hysteria, hysteria, realistic image, lyrical plot, landscape, masnavi, patriotic lyrical hero.

### ТОЛКОВАНИЯ РОДИНЫ В СТИХОТВОРЕНИИ ЭРКИНА ВАХИДОВА "УЗБЕКИСТАН"

**Аннотация.** Статья посвящена теме "Родина" в стихотворении Эркина Вахидова «Узбекистан». Стихотворение поэта «Узбекистан» раскрывает новые грани темы. Тот факт, что Узбекистан является «солнечной страной», в то же время сравнивая свое время с «веком восходящего солнца», прославляет несравненный мир. Поэт назвал Узбекистан «альпийским патриархом, преодолевшим перевал». В ней в сравнительно-типологическом аспекте рассматриваются особенности индивидуальности каждого поэта в понимании и выражении чувства Родины.

**Ключевые слова.** Тема «Родина», метафора, диагностика, творческая индивидуальность, истiora, истiora, реалистический образ, лирический сюжет, пейзаж, маснави, патриотический лирический герой.

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov o'z she'rlarida millat dardini ochiq ayta olgan, yuksak tuyg'ular haqida kuylagan, ayni vaqtda, faqat o'zigagina xos hazil-mutoyiba bilan jamiyat hayotidagi muammolar yechimini ko'zlagan adiblardan biridir. Erkin Vohidovning "O'zbekiston" she'ri Oybek, Hamid Olimjon satrlariga hamohang jaranglaydi. Taniqli adabiyotshunos Yashar Qosim bu haqda yozadi: "XX asr o'zbek she'riyatida Vatan konsepsiyasining, falsafasining tubdan yangilanishida Erkin Vohidov va Abdulla Oripov asarlarining, xususan, ularning mumtoz va shohona she'rlari – "O'zbekim" (1968) va "O'zbekiston Vatanim manim" (1969) qasidalarining alohida o'rni bor. She'riyatimizda milliy ruhning o'sishida, Vatan obrazini yangicha ma'naviy-axloqiy nuqtayi nazardan yaratishda mazkur asarlarning ahamiyati mislsiz darajada katta. Ularning yoniq va bir qadar shikasta, sog'inchli Vatan taronalari olislarning ovoziday hasratli, ayni chog'da, Istiqlolning yaqinlashib kelayotgan sadosiday qudratli va umidbaxsh edi".

O'zbekiston atalgan ajib diyor paxtakorlari, botirlari, shoirlari, kuychilari, pazandalari, munis ayollari bilan hikmatli. Darhaqiqat, shoir Vatanni mana shunday keng tushunadi va tushuntiradi.

Shuning uchun yopinmagay xas,  
Shuning uchun kiyinar atlas.  
Shunday o'lka doim bor bo'lsin,  
Shunday o'lka elga yor bo'lsin.

Ta'kidlash kerakki, Hamid Olimjon she'riyatiga xos chuqur samimiyat, o'ynoqilik, quymalik va ravonlik bu satrlarda ham o'zini namoyon etgan. "Shuning uchun" bog'lovchisining har bir misra boshida takrorlanib, anafora bo'lishidan tashqari o'sha quymalik, ravonlikni ham ta'minlagan, o'ziga xos musiqiylikni, ohangdorlikni ta'minlagan. Qolaversa, yurtning tinchligini "somonda yotmas", "sovuqda qotmas", "yopinmagay xas", "kiyinar atlas" kabi tasvirlar orqali ifoda etilgan.

Omon bo'lsin og'aynilari,  
Omon bo'lsin do'stlarning bari.  
Doim bo'lsin davlati omon,  
Shunday bo'lsin bu butun jahon.  
Shaftoluzor bog'larni ko'rdim,  
Gul ko'kargan tog'larni ko'rdim,  
Mehr qo'yib o'pgan sari oq,  
Oppoq bo'ldi bu, aziz tuproq.  
Vodiylarni yayov kezganda,  
Bir ajib his bor edi menda...

O'zbekiston tabiati tasviri orqali yurtga qaynoq muhabbati ifoda etilgan ushbu she'r hayotsevarlik ruhi bilan intiho topadi. Zero, yurtning yashnashi, xalqning farovon yashashi tinchlik degan ne'mat bilan chambarchas bog'liq. Shu ma'noda shoir nafaqat yurtiga, butun dunyoga tinchlik, omonlik sog'inadi. "Shaftoluzor bog'lar", "gul ko'kargan tog'lar" sifatlashlarida esa milliy hayot parchalari o'z aksini topgan. Zero, yurt tuprog'ini kezib, uning vodiylari, qirlari, bog'lari va tog'larida erkin nafas olgan shoir ana shunday ajib hisni – Vatanga bo'lgan iliq mehr taftini, uning har bir puchmog'iga muhabbatni tuyadi.

Erkin Vohidovning "O'zbekiston" she'rini ham shu silsilada tahlil etish bu mavzuning yangi qirralarini ochishga yordam beradi:

Yurtim,  
Seni yana oldim qalamga,  
To'ying, shodiyonang bahona bo'lib.  
Yana kelib qo'nding tonggi misramga  
Falak nisor etgan durdona bo'lib.  
Iqbol peshonamga bitgan oshyonim – O'zbekistonim.

Yurtga mehr-muhabbat tuyg'ulari bilan boshlangan bu misralarda shoir Vatanni "falak nisor etgan durdona", "iqbol peshonamga bitgan oshiyon" deya ta'rif etadi.

Toleyim bor ekan, senga hamnafas,  
Otashin quyoshing bilan yo'g'rildim.  
Yuz yil avval emas, yuz yil so'ng emas,  
Tug'yonli asrda senda tug'ildim.  
Gullar sochding men ilk bosgan qadamga  
Bag'ring menga nurli koshona bo'lib.  
Jahon ichra mening tengsiz jahonim –  
O'zbekistonim.

Shoir – she'rning lirik qahramoni baxtu toleyini yurtning "otashin quyoshi bilan" yo'rilganida ko'radi. Bunda ham O'zbekistonning quyoshli o'lka ekanligi obrazlantirilgan. Shu bilan birga, u o'zi yashagan davrni "tug'yonli asr" deb ataydi. Ayni choqda, bu satrlarda avtobiografizm ham bor. Chunki shoir ilk qadamlariga gul sochgan vatan bag'rini nurli koshonaga, jahon ichra tengsiz jahonga mengzaydi. She'rning keyingi bandlarida O'zbekistonni shoir "ming bir dovon oshgan alp pahlavonim" deya tashxislantiradi.

She'rning keyingi bandlari Abdulla Oripovning "O'zbekiston" she'riga uyg'un jaranglaydi:

Asli ellik emas, ellik ming yoshing,  
Kechmishing tarixlar nariyog'ida.  
To'marisdek ona Kayxisrav boshin  
Qon to'la sanochga solgan chog'ida,  
Spitamen kamon tutib dastida  
Maroqandni saqlab turganda uzoq,

Yovni adashtirib olim dashtida  
Ko'krak ochib qah-qah urganda Shiroq,  
Hali o'zbek emas, lekin olamga  
Mashhur eding soq-u sug'd ona bo'lib.  
Iskandarni majruh etgan kamoni –  
O'zbekistonim.

Dastlabki misralar she'ning O'zbekiston tashkil etilganligining 50 yilligiga bag'ishlab yozilganligini ko'rsatib turadi. Biroq shoir uning ko'hna va g'oyatda qadimiy tarixini olis tarix qatlarida ko'radi: “ellik ming yoshing” ifodasi orqali beradi. Keyingi satrlar esa tarixiy voqealar va tarixiy shaxslarga ishoralar tarzida yuzaga chiqadi. To'maris vatanini yovdan mardona himoya qilgan ayol vatanparvar obrazini bildiradi. U bu yo'lda Kayxisrav – Doro boshini qon to'ldirilgan meshga soldiradi. Yoki xalq qahramoni Spitamen kamoni bilan Maroqanda uzoq vaqt himoya qiladi. Yoki xalq qahramoni, vatanparvarlik timsoli Shiroq esa Doro qo'shinini bir o'zi yengadi: butun boshli qo'shinni dashtga olib boradi va mardlarcha halok bo'ladi. Iskandan Zulqarnaynni esa so'g'd onaning kamoni mahv etgan. Shoir shu qadim tarixni she'rga soladi va To'maris, Spitamen, Shiroqlarni Vatan timsollari sifatida keltiradi.

Vahshat vodiysida kechdi asrlar  
Aljabr ustodin tuqquncha yering.  
Iliming yuksalguncha Beruniy qadar,  
To Alisher qadar yetguncha she'ring,  
Hayratga solguncha fan olamini  
Farg'oniy chiqargan aniq hisoblar...  
Tebransa ne ajab Toshkent zamini,  
Bu yerga ko'milgan milliard kitoblar.  
Farang-u Hind-u Chin, Iroq, Ajamga  
Taralding Alqonun, Saydona bo'lib.  
Buyuklar tan bergan buyuk dostonim –  
O'zbekistonim.

Shoir tarix sahifalarini varaqlashda davom etadi: Vatanning dunyoga dovrug solgan ilm-faniga nazar soladi. Bunda ham talmehlar hayotiy mazmun tashiydi. Binobarin, aljabr – algebra, matematikaga asos solgan al-Xorazmiyga ishora bor. She'riyat sultoni Alisher Navoiy, fan olamini hayratga solgan Ahmad Farg'oniy tilga olinadi. Shu bilan birga, “Alqonun” (Ibn Sino), “Saydona” (“Saydana” – dorivor o'simliklarga bag'ishlangan Beruniyning asari) kabi asarlar ham talmeh qilib keltirilgan. Bu asarlar o'z zamonida Farang-u Hind-u Chin, Iroq, Ajamga tarqalgan. Shoir vatan dovrug'ini el aro yoygan ulug' allomalarga ishora qiladi. Shu orqali muazzam Vatan manzaralarini chizadi.

Ming bora tiklanding, ming bor qulading,  
Yovlar qamchisidan chekkanda ozor –  
Alpomish singari o'glon tilading,  
Tilading Go'ro'gli singari sardor.  
Sen ham gullar terib umid bog'idan  
Tole orzusida tuzding alyorlar.  
Ammo bo'talaring qo'ng'irog'idan  
Cho'llarda to'kilib qoldi oh-zorlar.  
Umring egiz bo'ldi anduh-alamga  
Orzularing bari afsona bo lib.  
Barchinning ko'ksida qolgan armonim –  
O'zbekistonim.

Bu satrlar ham tarix sahifalaridan, Vatan kechmishiday so'zlaydi va ko'proq, “Alpomish” xalq dostonidagi voqealarga ishoralar aks etgan. Darhaqiqat, juda ko'p urushlarga guvoh bo'lgan yurt zaminini hamisha Alpomish va Go'ro'g'liga o'xshagan mard o'g'lonlari himoya qilgan. Biroq hamma vaqt ham uni himoya qilish oson kechmagan. Shuning uchun “tole orzusida alyor tuzgan” xalqning bo'talari qo'ng'irog'idan ohu zorlar cho'llarga to'kilib qolgan. Bu istiorali tasvirda vatan ko'ksidagi dardlar ifoda etilgan. Shu bois shoir yurtini “Barchinning ko'ksida qolgan armonim” deydi. Chunki Barchin otasi va amakisining kelshmovchiligi tufayli tuqqan eli – Qo'ng'irotni tark etishga majbur bo'lgan.

Zamin dardicha bor bir ayol dardi,  
Oyning dog'i balki uning dog'idan.  
Faryod olov bo'lsa olam yonardi

Sharqlik juvonlarning chekkan ohidan.

Zebuniso o'tdi tanho va mahzun

Boshida o't bolib malika toji.

Tun bo'lib yoyilar Qo'qonda har kun

Nodirabegimning qirqilgan sochi.

Ayol!

To'rt devorda ko'milding g'amga,

G'azalalarda faqat jonona boqib.

Barnodek, Anbardek dili so'zonim – O'zbekistonim.

Bunda Vatan deb yonib o'tgan ayol shoirlar talmeh qilib keltirilgan: shoh Avrangzebning qizi malika Zebiniso, Nasrulloxon tomonidan shafqatsizlarcha so'yilgan Nodirabegim, to'rt devor ichida g'amga ko'milgan Dilshodi Barno va Anbar Otin kabilar talmeh qilingan. Ularning achchiq qismati nazarda tutilib, O'zbekiston "dili so'zonim" – qalbi vayron bo'lgan, kuygan ayolga – Anbar Otin va Dilshodi Barnoga nisbat berilgan.

Umuman, she'rning har bir bandida vatansevar lirik qahramon siymosi balqib turadi. Keyingi bandlari "Do'stlik ipak yo'li ochgan karvonim – O'zbekistonim", "Parvonadek kuyib o'rtangan jonim – O'zbekistonim", "Taqdir sahrasida zor-u sarsonim – O'zbekistonim", "Kulib turgan, yorug', munis makonim – O'zbekistonim", "O'lkam, onajonim, yuragim, jonim – O'zbekistonim" tarzida yakunlangan. Bunda O'zbekiston karvonga, parvonaga, zoru sarsonga, yorug' makonga mengzalgan. So'nggi satrda esa Vatan onaga, yurakka, jonga qiyoslangan.

Ko'rinadiki, XX asr o'zbek she'riyatida "O'zbekiston" nomi ostida Oybek, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov kabi shoirlar asarlar yozganlar. Bu she'rlar yangi adabiyotning eng yorqin namunalari sifatida yashab kelmoqda. Bu asarlar o'ziga xos jihatlarga ham ega. Oybekning "O'zbekiston", H.Olimjonning "O'zbekiston" she'rlari o'tgan asrning 30-yillarida yaratilgan. Oybek she'rida ijtimoiy ruh ustunlik qilsa, Hamid Olimjonda yurt tabiatiga oshuftalik hislari sezilib turadi. Erkin Vohidovning "O'zbekiston" she'rida esa yurt tarixiga nazar solinadi.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Каримов Н., Назаров Б. *ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи.* –Тошкент: Ўқитувчи, 1999. –Б. 200-201 б.
2. Ойбек. *Мукамал асарлар тўплами. Биринчи том. Шеърлар.* – Тошкент: Фан, 1975. – Б.309.
3. Ҳамид Олимжон. *Ўлка.* – Тошкент: *Ғ.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат наشريёти*, 2000. – Б. 8.
4. Заҳриддин Мухаммад Бобур. *Девон.* – Тошкент: Фан, 1993. – Б.54.
5. Фурқат. *Муҳаббат йўлида. Шеърлар.* – Тошкент: *Янги аср авлоди*, 2009. – Б. 253.

UO'K 070

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI DEVONI TARKIBIDA MATBUOT KOTIBINING ROLI

*Berdiyeva Sevinch Aliddin qizi,*

*Buxoro davlat universiteti Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar*

*yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*[sberdiyeva56@gmail.com](mailto:sberdiyeva56@gmail.com)*

***Annotatsiya.** Kotibiyat karerasining eng yuqori cho'qqisi haqli ravishda mamlakat Prezidentining matbuot kotibi lavozimi hisoblanadi. Ushbu maqolada mualliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni tarkibida matbuot kotibi lavozimiga nomzodga qo'yiladigan asosiy talablarni ko'rib chiqadilar. O'zbekiston ommaviy axborot vositalari nashrlarining ma'lumotlariga asoslanib, mualliflar ushbu lavozimga nomzod qanday bo'lishi kerak degan xulosaga kelishadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi matbuot kotibi tomonidan bajariladigan funksiyalar, asosiy vazifalar va ish kunining taxminiy jadvali keltirilgan va batafsil tavsiflangan. Maqolada O'zbekiston Prezidentlarining beshta matbuot kotibining tarjimai holi keltirilgan, ular yuqori professionallik va fidoyilikning isboti, shuningdek, kotib sifatida qanday ajoyib martabaga erishish mumkinligining yorqin namunasidir.*

***Kalit so'zlar:** Matbuot kotibi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati, matbuot kotibining shaxsiy va kasbiy fazilatlariga qo'yiladigan talablar, matbuot kotibining funksional majburiyatlari.*

## РОЛЬ ПРЕСС-СЕКРЕТАРЯ В АППАРАТЕ ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

***Аннотация.** Должность пресс-секретаря президента страны по праву считается вершиной секретарской карьеры. В данной статье авторы рассматривают основные требования к кандидату на должность пресс-секретаря Администрации Президента Республики Узбекистан. На основе информации публикаций узбекских СМИ авторы приходят к выводу о том, каким должен быть кандидат на эту должность. Представлены и подробно описаны функции, выполняемые пресс-секретарем при Президенте Республики Узбекистан, основные задачи и примерный график рабочего дня. В статье представлены биографии пяти пресс-секретарей президентов Узбекистана, которые являются доказательством высокого профессионализма и целеустремленности, а также ярким примером того, какой большой карьеры можно добиться на должности секретаря.*

***Ключевые слова:** пресс-секретарь, пресс-служба Президента Республики Узбекистан, требования к личным и профессиональным качествам пресс-секретаря, функциональные обязанности пресс-секретаря.*

## THE ROLE OF THE PRESS SECRETARY IN THE OFFICE OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

***Abstract.** The position of press secretary of the President of the country is rightfully considered the pinnacle of the secretarial career. In this article, the authors consider the main requirements for a candidate for the position of press secretary in the Office of the President of the Republic of Uzbekistan. Based on information from Uzbek mass media publications, the authors come to a conclusion about what a candidate for this position should be. Functions performed by the press secretary under the President of the Republic of Uzbekistan, the main tasks and the approximate schedule of the working day are presented and described in detail. The article presents the biographies of five press secretaries of the Presidents of Uzbekistan, who are proof of high professionalism and dedication, as well as a bright example of what a great career can be achieved as a secretary.*

***Key words:** press secretary, press service of the President of the Republic of Uzbekistan, requirements for the personal and professional qualities of the press secretary, functional obligations of the press secretary.*

Ko'pgina davlat va xususiy tashkilotlarda tashkilot yoki bo'lim boshlig'i nomidan jamoatchilik bilan aloqalarni amalga oshiradigan matbuot xizmatlari mavjud. Jurnalist kasbining vakillari matbuot markazida

ishlashni martaba o'sishi uchun ham, muxbirlik ko'nikmalarini amalda qo'llash uchun ham imkoniyat deb bilishadi. Matbuot kotibi rasmiy va shaxsiy ma'lumotlardan tashqari, o'z doiralarda muhim siyosiy shaxs bo'lishga imkon beradigan etarli miqdordagi ichki maxfiy ma'lumotlarga ega bo'lgan sodiq va ajralmas yordamchidir va albatta, ushbu professional sohadagi martaba cho'qqisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot kotibi lavozimidir. Xo'sh, ushbu lavozimga nomzod qanday kasbiy fazilatlar va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak? Davlatning birinchi shaxs vakili qanday funktsiyalarni bajaradi va unga qanday maxsus vakolatlar berilgan? Ushbu maqolada biz berilgan savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Shubhasiz, bunday yuqori lavozimga ish tajribasiga ega bo'lmagan odam olinmaydi. Shuning uchun, martaba kamroq ko'rinadigan pozitsiyalardan boshlanishi kerak. Shunday qilib, biz davlat kompaniyasida matbuot kotibining bo'sh lavozimiga nomzodga qo'yiladigan standart talablar ro'yxatiga e'tibor qaratamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, matbuot kotibi lavozimiga da'vogar o'z siyosiy pozitsiyasiga ega bo'lishi kerak. Matbuot kotibi yuzaga kelgan vaziyatlarni tushunishga ijodiy yondashishi va strategiyalarda ishlab chiqilgan asosiy fikr va g'oya saylovchiga etib borishi uchun mustaqil ravishda yanada samarali va asosiy echimlarni topishi kerak. Shuning uchun matbuot kotibi to'g'ridan-to'g'ri siyosatchi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan ishlashi va u bilan qo'yilgan barcha savol va muammolarni to'g'ridan-to'g'ri muhokama qilishi kerak. Matbuot kotibi lavozimini egallash uchun birinchi navbatda nima kerak?

Jurnalistika va reklama sohasida yoki xalqaro munosabatlar sohasida oliy ma'lumotga ega. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarida yoki RMB va reklama sohasida kamida uch yillik tajriba talab etiladi. Ingliz tilini bilish, malakali nutq va yaxshi yozish qobiliyatlari matbuot kotibi lavozimiga nomzod uchun majburiy talablaridir. Va shaxsiy fazilatlariga kelsak, bu yerda siz aql va jiddiylik bilan murojaat qilishingiz kerak. Birinchidan, inson bilimdon va mas'uliyatli bo'lishi kerak. Bo'lajak matbuot kotibi o'z rahbarining sirlarini saqlashi kerak. Ikkinchidan, psixologik darajada nomzod portlovchi bo'lmasligi va tantrums qilmasligi kerak, lekin atrofdagi narsalarga befarq bo'lmasligi kerak. Uchinchidan, nomzodga qo'yiladigan eng muhim talab bu ishonchdir, chunki siyosatchi nafaqat o'z matbuot kotibini shaxsiy yordamchisi va o'ng qo'li deb bilishi, balki unga shaxsiy va rasmiy sirlarini so'zsiz ishonishi kerak[10].

Matbuot kotibining roli vositachidir. Matbuot kotibi hokimiyat va uning rahbari va ommaviy axborot vositalari o'rtasida vositachilik qiladi. Ikkala tomonning ham o'z manfaatlarini bor: hokimiyatda bu "to'g'ri" jamoatchilik fikrini yaratishdir va ommaviy axborot vositalarida davlatning birinchi shaxslarining shaxsiy va kasbiy faoliyati bilan bog'liq barcha narsalar qiziqish uyg'otadi. Ko'pincha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot kotibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti uchun nutq matnlarini tayyorlashda yordam beradigan mutaxassislar apparatiga bo'ysunadi. Matbuot kotibi rahbarga hamma joyda hamrohlik qiladi, shuningdek, uning nomidan jurnalistlarga sharhlar berishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi hokimiyat organlarida ishlaydigan matbuot kotibining faoliyati to'g'risida yuqorida aytilganlarga asoslanib, uning bir qator asosiy funktsiyalari to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

1. Tashqi funktsiya-bu xizmat ma'lumotlarini tahlil qilish va uni ommaviy axborot vositalariga etkazish. Matbuot kotibi hujjatlar matnlarini barcha oddiy o'quvchilar uchun qulay va tushunarli tilga tarjima qilish bilan shug'ullanadi. Bu hokimiyat qarorlarini ommalashtirish funktsiyasi bo'lib, u nafaqat so'z bilan ishlash qobiliyatini, balki ma'lum bir hujjatning aholisi uchun ahamiyatini, ahamiyatini baholash qobiliyatini ham talab qiladi. Matbuot kotibi matbuot xizmati ishini tashkil qiladi, press-relizlar yuborilishini ta'minlaydi, reklama bukletlari va maqolalarini tayyorlaydi. Uning vazifasi jurnalistlar bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalari monitoringini tashkil etishdir. U yig'ilishlarda qatnashish, o'tkaziladigan tadbirlarda qatnashish, shuningdek o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rash huquqiga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, hatto yuqori darajada ham kerakli natijaga erishish har doim ham oson emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turli odamlar bilan o'zaro munosabatlarida kerakli natijani ta'minlash uchun ko'plab professional fazilatlar va shaxsiy tajriba matbuot kotibi lavozimini talab qiladi. Matbuot anjumanlari va brifinglarni tashkil etish va o'tkazish matbuot kotibining bevosita vazifasidir. Jurnalistlarning davlatning birinchi shaxsi bilan uchrashuvlari matbuot kotibining bevosita vazifasidir. U uchrashuvlar, intervyular, ularning davomiyligi va davriyligini tartibga soladi. Matbuot kotibining vazifasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi munosabatlarda nizosiz va do'stona muhitni yaratish va saqlashdir. Bu erda muloqot, diplomatiya va moslashuvchanlik kabi ko'nikmalar zarur.

2. Xavfsizlik funktsiyasi xizmat ma'lumotlarini, davlat sirlarini himoya qilishdan iborat. Har bir bo'lim, har bir hokimiyat tuzilmasida hamma ko'rishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlar mavjud. Matbuot kotibi uchun jurnalistlar bilan munosabatlarni o'rnatish juda muhim, shunda hokimiyatning haddan tashqari yaqinligi hissi paydo bo'lmaydi, lekin shu bilan birga xizmat ma'lumotlarini himoya qila oladi.

3. Ichki funktsiya-bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining faoliyati to'g'risidagi ommaviy axborot vositalarida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish. Ichki funktsiyalarni bajarish maxsus yondashuv va ma'lum bir jasoratni talab qiladi.

Matbuot kotibining ishi, rasmiy mavqeining ma'lum bir imtiyoziga qaramay, ko'pincha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining manfaatlari va harakatlariga to'liq bog'liq holda quriladi. Matbuot kotibi nafaqat ish paytida, balki bo'sh vaqtlarida ham Prezidentning birinchi yordamchisidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi matbuot kotibiga berilgan asosiy vakolatlar matbuot bilan yaxshi ishbilarmonlik aloqalarini shakllantirishdan iborat; ommaviy axborot vositalari uchun o'z materiallari va ma'ruzalarini tayyorlash; matbuot anjumanlari, taqdimotlar va boshqa ommaviy tadbirlarni o'tkazish rejasini ishlab chiqish; shuningdek, prezidentning bo'lajak intervyulari va televizion fotosuratlarini oldidan dolzarb masalalarni hal qilish. Matbuot kotibi matbuot xizmatining ichki hayotidagi voqealarni jurnalistlar va matbuotning diqqat markazida bo'lgan axborot kun tartibi bilan bog'lay olish. Bundan tashqari, tajribali matbuot kotibi ushbu kun tartibini oldindan tuzishi va bashorat qilishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining faoliyati to'g'risida ijobiy sharhlar bilan nashr etilgan nashrlar soni matbuot kotibi va matbuot xizmatining samarali ishlashining asosiy ko'rsatkichidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi matbuot kotibi kasbining ijobiy va salbiy tomonlari bor. Kasbning afzalliklari:

- \* martaba pog'onasini ko'tarish uchun "to'g'ri" odamlar bilan keng muloqot doirasi; shon-sharaf va tan olish, chunki matbuot kotibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ommaviy axborot vositasi;

- \* ijobiy ish, bu erda sizning yashirin iste'dodlaringiz va imkoniyatlaringizni biznes dunyosida amalga oshirish imkoniyati mavjud, masalan, tashkiliy faoliyat;

- \* nufuzli lavozim va barqaror daromad.

Biroq, kasbning kamchiliklari ham bor. Ishning kamchiliklari, bizning fikrimizcha, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- \* yuqori mas'uliyat tufayli doimiy keskinlik;

- \* tartibsiz ish kuni;

- \* tashqi ko'rinish, nutq qobiliyatlari, odob-axloq qoidalari yuqori talablar, chunki matbuot kotibi davlatning birinchi shaxsining vakili bo'lishi kerak.

Matbuot kotibining ish kuni normallashtirilmagan va juda band. Ish vaqtining har bir daqiqasi shunchaki bo'sh bo'lmasligi kerak, chunki ular muhim va juda qimmat. Matbuot kotibi uchun dam olish kunlari, bayramlar va ba'zan hatto tushlik tanaffuslari yo'q, chunki siz nafaqat bajarilgan ishlarni doimiy ravishda kuzatib borishingiz kerak. Matbuot kotibining ish kunining taxminiy jadvali ikkiga bo'lingan. Odatda, matbuot kotibi ish joyiga prezidentdan 15-20 daqiqa oldin keladi. Kunning birinchi yarmida u joriy kun uchun hal qilinadigan ishlarning tuzilgan rejasiga muvofiq kerakli hujjatlar va axborot materiallarini tanlashi kerak. Bundan tashqari, kunning boshida u qabul qilingan taklifnomalarni, bayonotlarni, sharhlarni, shuningdek konferentsiyalar, ommaviy axborot vositalari bilan uchrashuvlar va boshqa tadbirlar haqidagi xabarlarini ko'rib chiqishi kerak. Matbuot kotibining vazifalariga prezidentga har kuni ertalab bo'lib o'tadigan ishlar to'g'risida hisobot berish, joriy va keyingi kun uchun tadbirlar rejasini aniqlashtirish, prezidentning ko'rsatmalari va buyruqlarini yozib olish kiradi.

Kunning ikkinchi yarmida matbuot kotibi qo'yilgan savollarni telefon orqali hal qilishi, jurnalistlar bilan uchrashishi, tashrif buyuruvchilarni qabul qilishi kerak. Shu bilan bir qatorda, u O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rejalashtirilgan uchrashuvlarda ishtirok etishi uchun materiallar tayyorlaydi.

Ish kunining oxirida tegishli xizmatlarni kelgusi tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik to'g'risida xabardor qilish (delegatsiyalarni qabul qilish, yig'ilishlar o'tkazish va h.k.), zarur buyruqlar berish, matbuot xizmati xodimlarining tayyorligini tekshirish muhimdir.

Albatta, ushbu ish jadvalini tahlil qilishda yarim kunlik ish haqida savollar tug'ilishi mumkin, ammo bu noto'g'ri taassurot. Matbuot kotibining faqat taxminiy jadvali keltirilgan, chunki kun davomida rejadan tashqari ishlar paydo bo'lishi mumkin, ularni zudlik bilan hal qilish kerak bo'ladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, matbuot kotibi lavozimi hamma uchun mos emas degan xulosaga kelishimiz mumkin. Yuzingizni, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida, shuningdek jamoatchilik oldida axloqsizlikka urmaslik uchun professional va shaxsiy tajribaga ega bo'lishingiz kerak, chunki bu matbuot kotibi ishining sifati va samaradorligining asosiy mezonidir. Yuqori professionallikning namunasi va isboti sifatida biz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotiblarining professional hayotidan ba'zi dalillarni keltiramiz. O'zbekistonning birinchi prezidenti A.I Karimovning rahbarlik faoliyatida ijtimoiy tarmoqlarda beshta matbuot kotibi borligi haqida ma'lumotlar qoldirilgan.



Irismat Abduxoliqov

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining birinchi matbuot kotibi Irismat Abduhalikov SSSR Markaziy televideniyesining "vaqt" dasturining ko'p yillik muxbiri bo'lgan. Birinchi prezident bilan ishlaganidan so'ng, Irismat Abduhalikov Vazirlar Mahkamasining matbuot kotibi, O'zDJTuning jurnalistika bo'yicha katta o'qituvchisi, Milliy teleradiokompaniyasida ishlagan, hozirda O'zAda ishlaydi.

Avazbek Xodjimetov



Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar boshqarmasi boshlig'i — Tashqi ishlar vazirligi matbuot kotibi etib tayinlandi, deya xabar berdi TIV matbuot xizmati.

Ushbu lavozimda bunga qadar 2011 yildan buyon Adilbek Kaipberganov faoliyat ko'rsatib kelayotgan edi.

Avazbek Xodjimetov (1974 y. t.) Toshkent davlat sharqshunoslik instituti hamda Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabini tamomlagan. Mehnat faoliyatini TIV huzuridagi «Jahon» axborot agentligida boshlagan. O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi elchixonasida press-atashe sifatida (2004–2007), TIVning BMT ishlari va xalqaro tashkilotlar boshqarmasida (2007–2009) faoliyat ko'rsatgan.

Prezident devonida turli lavozimlarda ishlagan (2009–2015). Xalqaro hamkorlik va xavfsizlik ishlari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-tahliliy markaziga rahbarlik qilgan (2015–2016). Prezident matbuot kotibi (2016), prezident matbuot xizmati xxborot-tahlil ishlari bo'yicha sektori mudiri hamda Prezident administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktorining birinchi o'rinbosari (2019) bo'lib ishlagan.



Azamat Ziyo

Azamat Ziyo (to'liq ismi: Azamat Ziyo Hamid o'g'li; 1963-yil 23-iyun, Toshkent shahri, O'zbekiston SSR) — davlat hamda jamoat arbobi, akademik[1][2][3][4]. O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimovning sobiq matbuot kotibi[5]. „Milliy tiklanish“ partiyasi a'zosi[6]. „O'zbekiston tarixi“ jurnali bosh muharriri[7]. 1963-yil 23-iyun kuni Toshkentda, taniqli o'zbek tarixchi-olimi Hamid Ziyoev (1923—2015) oilasida tug'ilgan.

Azamat Ziyo 1985-yili Toshkent davlat universitetining (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitet) Sharq tillari fakulteti Eron bo'limini bitirgan.1985—1997-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining katta laboranti, kichik ilmiy xodimi, ilmiy xodimi, katta ilmiy xodimi.bo'lib ishlagan.

1997—2000-yillarda O'zbekiston Prezidenti Devoni Axborot markazi tahlil guruhining bosh konsultanti, O'zbekiston Prezidentining matbuot kotibi, O'zbekiston Prezidentining Ijtimoiy-siyosiy masalalar bo'yicha davlat maslahatchisi. 2019-yili Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori etib tayinlangan.



### Murod Muhammad-Do'st

Murod Muhammad Do'st (1948-yil 12-aprel; Samarqand viloyati, Jom qishlog'i, O'zbekiston SSR) — yozuvchi va jamoat arbobi. „O'zbekfilm“ kinostudiyasida ssenariynavis (1979—1984), „Sharq yulduzi“ jurnalida bo'lim mudiri, bosh muharrir o'rinbosari (1984—1989), „Literaturnaya gazeta“ning muxbiri (1989—90), Prezident devonida mas'ul xodim (1990—1992), O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot agentligi bosh direktori (1992—1993; 1999—2002), Prezidentning matbuot kotibi (1993—1999). 2002-yildan „O'zbekkino“ davlat aksiyadorlik kompaniyasi raisi.



### Asadjon Xodjayev

Asadjon Xodjayev — [O'zbekiston Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi](#) direktori, O'zbekiston kikkboxing assotsiatsiyasi vitse prezidenti

Asadjon Azatbekovich Xodjayev 1970-yil 3-sentyabrda Qozog'iston Respublikasi Chimkent viloyatida tug'ilgan. 1993-yilda Toshkent elektrotexnika aloqa institutining elektraloqa muhandisligi yo'nalishini tugallagan.

2001-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat qurilishi akademiyasini tamomlagan. Mutaxassisligi — elektraloqa muhandisi, iqtisod magistri.

Asadjon Xodjayev 1995-yilda o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Aloqa vazirligida boshlaydi. Shuningdek, 2001-yilgacha O'zbekiston pochta va telekommunikatsiyalar agentligi markaziy apparatida ham faoliyat ko'rsatgan. 2001-yildan boshlab bir qancha davlat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida ishlay boshlaydi.

Yillar:	Mansab
2001-2003-yillarda	"O'zbekiston pochta" Davlat aksiyadorlik kompaniyasi bosh direktorining birinchi o'rinbosari, „O'zinfokom“ Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda joriy etish markazi direktorining birinchi o'rinbosari
2003-2004-yillarda	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy xavfsizlik kengashi apparatining yetakchi konsultanti, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligini rivojlantirish loyihasi rahbari o'rinbosari
2004-2011-yillarda	O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Bosh direktorining o'rinbosari
2011-2012-yillarda	O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi Bosh direktori
2012-2017-yillarda	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori
2017-yil martidan avgustiga	Prezident Shavkat Mirziyoyevning matbuot kotibi[3]
2017-yilda	O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri apparati mudiri, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisi o'rinbosari[4]
2017-yilning dekabridan	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi Ilmiy-ma'rifiy memorial majmuasi rahbarining birinchi o'rinbosari

## JOURNALIZM

2018-yil avgustidan	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi huzuridagi Axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlashga ko'maklashish markazi direktori
2019-yil noyabridan	O'zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasining boshlig'i [3]
2020-yil 29-iyuldan	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori [5]
2021-yil 16-avgustdan	O'zbekiston kikkoxsing assotsiatsiyasining konferensiyasida assotsiatsiya vitse prezidenti [6]

Ushbu beshta tarjimayi holdan ko'rinib turibdiki, oliy ma'lumotli, hayotiy va kasbiy tajribaga ega bo'lgan, shuningdek, ijodiy faoliyatda muloqot, mas'uliyat va iste'dod kabi shaxsiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxs mamlakat Prezidentining matbuot kotibi lavozimiga murojaat qilishi mumkin, bu esa martaba zinapoyasida faqat yuqoriga ko'tarilishga yordam beradi. G'ayrioddiy shaxslar matbuot kotiblari lavozimlarini egallaydilar. Ushbu ishda hech qanday cheklovlar yo'q, ammo bu og'ir ish jadvaliga bardosh berish uchun kuchli psixologik pozitsiya, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik e'tiborida doimiy bo'lish kerak.

### ADABIYOTLAR:

1. Sharipkina M. taniqli matbuot kotiblari. - M.: tarjimai hollar va xotiralar, 2008. 300 s.
2. Matbuot kotiblari davridagi odam // Stringer axborot agentligi. 2013 yil 10 dekabr. - URL: <http://stringernews.com/publication.mhtml?Part=50&PubID=28709> (kirish sanasi: 18.05.2014).
3. Ish tavsifi // matbuot kotibi. URL: [http://www.borovik.com/index\\_instruction.php?Gins=dytq&lang\\_i=0](http://www.borovik.com/index_instruction.php?Gins=dytq&lang_i=0) (kirish : 06.05.2014).
4. Kasb matbuot kotibi // matbuot kotibi. - URL: <http://enjoy-job.ru/professions/press-sekretar/> (kirish sanasi: 06.05.2014).
5. Gnetnev A. I. zamonaviy matbuot xizmati. Rostov n / D: Feniks, 2010 yil. 197 s.
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Asadjon\\_Xodjayev](https://uz.wikipedia.org/wiki/Asadjon_Xodjayev)
7. <https://darakchi.uz/index.php/oz/24906>
8. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Murod\\_Muhammad\\_Do'st](https://uz.wikipedia.org/wiki/Murod_Muhammad_Do'st)
9. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Azamat\\_Ziyo#cite\\_note-](https://uz.wikipedia.org/wiki/Azamat_Ziyo#cite_note-)
10. Rogotneva Yelena Nikolayevna, TPU ijtimoiy-gumanitar texnologiyalar institutining sotsiologiya, psixologiya va huquq kafedrasida dotsenti.

**MUSHTUM JURNALINING TARIXIGA BIR NAZAR**

**Primov Shamsiddin Muhiddin o'g'li,**  
Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi  
va jurnalistika kafedrasida o'qituvchisi  
[sh.m.primov@buxdu.uz](mailto:sh.m.primov@buxdu.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada milliy matbuotimizda hajviy janrlarning asosiy manbasi bo'lgan "Mushtum" jurnalining yuzaga kelish tarixi, undagi dastlabki yillarda e'lon qilingan kontentlar tahliliga oid ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** hajviy publitsistika, satira, yumor, "Mushtum", kichik hajviy xabar, hajviy xat, hajviy e'lon.

**ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ КУЛАЧНОГО ЖУРНАЛА**

**Аннотация.** В этой статье представлена информация об истории возникновения журнала "Муштум", основного источника юмористических жанров в нашей национальной прессе, анализе публикуемого в нем контента в первые годы его существования.

**Ключевые слова:** комическая публицистика, сатира, юмор, "Муштум", небольшое комическое сообщение, комическое письмо, комическое объявление.

**A LOOK AT THE HISTORY OF MUSHTUM MAGAZINE**

**Abstract.** This article provides information about the emergence history of the "Mushtum" journal, which is considered the main source of humorous genres in our national press, and analyzes the content published in its early years.

**Keywords:** Such as humorous publicism, satire, humor, "Mushtum", brief humorous news, humorous letters, and humorous advertisements are mentioned in the article.

**Kirish.** Yurtimizda bugun jadallik bilan rivojlanib borayotgan jurnalistika sohasi o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichlarida muhim bo'lgan qadriyatlarini, mezonlarini saqlab kelayotgani bilan ahamiyatga molik. Xususan, milliy matbuot asos solinganidan buyon o'tgan bir yarim asrdan ziyod davr mobaynida katta o'zgarishlarga yuz tutdi. Bosma nashrlarning zamonaviy raqamli media bilan integratsiyalashuvi yangi taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Biroq mana shu jarayonlarda ham jurnalist oddiy axborot ulashuvchigina emas, balki jamiyatda xalq manfaatlarini himoya qiladigan "to'rtinchi hokimiyat" vakili sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Biz ommaviy axborot vositalari timsolida o'zining chuqur bilim va tajribasi, noyob iste'dod va mahoratini xalqimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, odamlarning ong-u tafakkurini yuksaltirish, jamiyatimizda ochiqlik va oshkoralik muhitini mustahkamlash, global axborot makonida milliy manfaatlarimizni himoya qilishdek oliyjanob ishlarga bag'ishlangan jonkuyar va zahmatkash insonlarni ko'ramiz"[1;6].

Milliy matbuot o'zining rivojlanish jarayonida turli janrlar, yangi shakl va mazmun bilan boyib, takomillashib kelmoqda. Biroq qanday ko'rinish va shaklda bo'lmasin uning asosiy vazifasi oddiy xalq manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatli.

Mana shunday o'zida xalq manfaatlarini ifoda etgan matbuot janrlari – bu hajviy publitsistika hisoblanadi. O'tgan asrning birinchi yarmida millatning taraqqiyoti uchun kurashgan jadid jurnalistlari hajviy publitsistikaning kuchidan ustalik bilan foydalanishgan. Fikrimizga bir asrlik tarixga ega "Mushtum" jurnalida chop etilgan maqolalar dalil bo'la oladi.

**Asosiy qism.** Xalqimizning buyuk ma'naviy boyliklaridan biri "Mushtum" jurnalining asos solinganiga ham yuz yildan ortiq vaqt o'tdi. Bir asrlik tarixiy davr davomida ushbu otaxon jurnal xalqimiz bilan birgalikda bo'lib, barcha og'ir va shodon kunlarni baham ko'rib kelmoqda.

Millatimizning bir asrdan beri ajralmas yo'ldoshi bo'lib kelayotgan "Mushtum" jurnaliga 1923-yil 18-fevral sanasida Abdulla Qodiriy va uning maslakdoshlari tominidan asos solingan. Uning dastlabki bosh muharriri G'ozii Yunus (1923-1924), ilk bosh rassomi Ishtvan Tula hisoblanadi"[2;5]. Shu davrdan boshlab

hozirgi kungacha jurnalda Komil Alimov (1925–1926), Ziyo Said (1927–1931), G‘ulomnazar G‘ofurov (1931–1934), Jumaniyoz Mahmudov (1939), Husayin Shams (1940–1941), Mumtoz Muhamedov (1952–1955), Akmal Po‘lat (1956–1960), Zokir Yo‘ldosh (1961–1962), Mirmuhsin (1962–1971), Ibrohim Rahim (1972–1984), Maqsd Qoriyev (1985–1988), Jo‘ra Sa‘dullayev (1989–1990), Ne‘mat Aminov (1990–1996), Ashurali Jo‘rayev (1996–2006), Nosirjon Toshmatov (2007-yildan hozirgacha) kabilar bosh muharrirlik lavozimida faoliyat yuritmoqdalar. Jurnal esa e‘lon qilingan davrdan buyon yurtimizdagi eng asosiy hajviy nashr hisoblanadi.

“Mushtum” jurnali haqida fikr yuritishdan oldin ushbu so‘zning lug‘aviy ma‘nosiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, “mushtum” – forscha musht so‘zidan olingan bo‘lib, kaft-panjaning zarb uchun siqimlangan holati” [3;245] degan ma‘noni anglatadi. Nima uchun aynan jurnalga shunday nom berilgani haqida ushbu jurnalning 1923-yil 18-fevralda chiqqan 1-sonida yurtimizning ma‘rifatparvar farzandi taniqli adib, jurnalning ilk tashkilotchilaridan biri Abdulla Qodiriy “Julqunboy” taxallusi bilan chop etilgan “Mushtum ta‘rifi” nomli maqolasida atroflicha izohlab bergan. “Mahalla-ko‘ylarimizda bitta-bitta yog‘on – bo‘yni g‘avslar borlig‘ini har bir kimsa bilur va ularning mahalla ijtimoiyatida o‘ynaturg‘on rollari ham katta-kichikka belgulikdir. Bizning tekshirish va kashfiyotimizcha, asl xususiyat bo‘yni yo‘g‘onlikda bo‘lmay, uning zamiridagi mushtdadir va mushtumzo‘rlikdadir.

Lekin bu ta‘rif jahongir va burjuaziya faylasuflari nuqtayi nazaridan bo‘lib, ammo proletariatning mushtga bo‘lgan nazariyasi buning aksidir. Jurnalimiz shu, keyingi qo‘li qadoqlar sinfining mushtumi bo‘lg‘onligidan uning ma‘nosi ham haligi ta‘rifning tamoman aksidir. Bu mushtumzo‘rlik mushtumi emas, mazlumlar mushtumidir. Shuning uchun buning ma‘nosi ham boshqachadir”[4,6].

Yuqoridagi fikrlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, jurnal, asosan, oddiy avom xalq manfaatlarini, ularning hayotida uchraydigan ijtimoiy muammolarni achchiq kulgi asosida fosh etishga qaratilgan ekanligi namoyon bo‘ladi. Ushbu vazifani bajarish uchun jurnal hajviy publitsistikaning barcha janr, shakl va elementlaridan atroflicha foydalandi va foydalanib kelmoqda. Aynan mana shu jihatlardan, balki, jurnalning asrlar dovonidan omon chiqishida asosiy rol o‘ynagandir. Lekin mana shu bir asr davomida har doim ham jurnal uzluksiz nashr etilgan degan fikrdan yiroqmiz. Barcha nashriyotlarda bo‘lgani sari “Mushtum” jurnalining ham bir asrluk faoliyatida turli qiyinchiliklar yuzaga keldi. Bunga oddiy misol Abdulla Qodiriyning 1923-yil 12-sonda e‘lon qilingan “Mushtum” oqsoqlang‘an emish” maqolasini keltirib o‘tsak bo‘ladi. “Bu xabar el og‘zida bir -ikki oydan beri yuribdir. “Mushtum” nimaga o‘z vaqtida chiqmaydir, “Mushtum” musht yedimi, nima bo‘lsa-da, “Mushtumni davom etdirish kerak, degan savol va tilaklar idorag‘a yomg‘urdek yog‘ib turadir... Yo‘q, “Mushtum” musht yemadi. “Mushtum” davomidan to‘xtamadi, ham to‘xtamas degan umiddamiz. Lekin masalaning uchi mulla-mirjiring chevron alayhissalomga borib taqaladir. “Mushtum” hukumat hisobidan chiqmaydir”[5;7].

Shundan keyin ziyolilar o‘z tashabbuslari bilan xalqimizning ma‘naviy targ‘ibotchisi bo‘lgan jurnalni saqlab qolishga intilishdi. Jurnal ham bir asrga yaqin davr mobaynida xalqimizga beminnat, bekamu-ko‘st xizmat qildi. Yuqoridagi moliyaviy tanglik jurnalning boshidagi yagona sinov emas edi. Butun dunyoda boshlangan va barcha sohalarga o‘zining salbiy ta‘sirini o‘tkazgan Covid-19 pandemiyasi davri va undan keyingi moliyaviy qiyinchiliklar davrida jurnal yana o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ldi. Ammo bu qiyinchiliklar ham adolat uchun ko‘tarilgan “Mushtum”ning qaddini ega olmadi.

“2021-yil 12-oktabr sanasida O‘zbekiston Milliy Matbuot markazida “Mushtum” jurnalining qayta tashkil etilishiga bag‘ishlangan matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi”[2;8]. Shu kundan boshlab xalqimizning sevimli nashri yana o‘z faoliyatini davom ettira boshladi.

“Mushtum” jurnali ilk marta 1923-yilda nashr etilishi bilan juda ko‘plab adiblar o‘z maqola va asarlarini ushbu jurnalda e‘lon qilishdi. Ana shunday ishga birinchilardan bo‘lib Cho‘lpon qo‘l urdi. Adib jurnalning 1924-yil 5-sonida “Taraqqiy” nomli hajviy maqolasini e‘lon qiladi. Bu maqolada o‘z davrining aysh-ishratga berilgan yoshlarini achchiq kulgi asosida fosh etadi. Bundan tashqari, Cho‘lpon turli vaqtli matbuot nashrlari orqali ham xalq orasida “Mushtum” jurnalining keng tarqalishi uchun o‘z hissasini qo‘shdi. Bunga misol qilib “Farg‘ona” gazetasining 1924-yil 10-aprel soni 19-betida “Qalandar” imzosi bilan bosilgan “Mushtum”ning 25-soni” nomli maqolasini olish mumkin. Ushbu maqolada “Mushtum” jurnalining 25-o‘ziga xos yubiley soni chiqishi munosabati bilan jurnalda A.Qodiriy, G‘. Yunus, Cho‘lpon va boshqalarga o‘rtoqlik hazil rasmlari berilgan. Cho‘lpon hamkasblarini tabriklash bilan birga o‘zining ayrim tilaklarini ham bayon etgan”[6;20].

Bundan tashqari, Cho‘lpon taniqli rus masalchisi I.Krilovning “Bo‘ri bilan qo‘zichoq” masalini tarjima qilib jurnalning 1936-yil 1-sonida e‘lon qiladi. Yuqoridagilardan tashqari, ushbu jurnal adabiyotimizning boy xazinasidan o‘rin olgan juda ko‘plab nodir asarlarning birinchi e‘lon qiluvchisi hisoblanadi. Bular qatorida A. Qahhorning hajviy hikoyalari, G‘. G‘ulomning “Shum bola” qissasi, qolaversa, endigina 7-sinfda o‘qiydigan

Erkin Vohidovning “Sobirjonning tuflisi” hajviy she’ri ham ayni mana shu jurnal orqali xalqimizga yetib kelgan.

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, jurnal chop etilgan davrdan boshlab satirik va yumoristik ruhdagi kichik hajviy janrlardan unumli foydalangan. Barcha janrlar bir vaqtning o’zida birdaniga yuzaga kelgan, degan fikrdan yiroqmiz.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida shu narsa aniq bo’ldiki, jurnalning dastlabki nashrlarida, asosan, kichik hajviy janr hisoblangan hajviy maqola, hajviy xabar va e’lonlar nashr etilgan. Bunga misol tariqasida A. Qodiriyning “Nima qayoqqa ketadir?” nomli kichik hajviy maqolasini keltirishimiz mumkin. Ushbu maqola jurnalning 1923-yil 3-sonida “Mulla Julqunboy” taxallusi ostida e’lon qilingan. Maqola mazmunida Julqunboy o’z zamondoshlarining yelib-yugurib topayotgan sariq chaqalarini nima maqsadda ishlatayotgani haqida achchiq kulgu ostiga olganini ko’rishimiz mumkin. Unda shunday fikrlar berib o’tilgan:

– Muridning topqoni eshonga ketadir.

– Eshonning topqoni sakkizta xotung’a ketadir.

– Xotunlarning topqonlari issiq-sovuqchi domlag’a ketadir.

– Boybachchaning topqoni “Turkvino” bilan barishnaxonlarga ketadir.

– Yoshlarning topqonlari upa-elik bilan o’sma-surmalar’ga ketadir”[7;10].

Yuqoridagi hajviy maqola o’zining satirik xarakterdagi fosh etuvchi xususiyatga ega ekanligi bilan kishini o’ziga jalb etadi. Butun jamiyat rivojlanish sari harakat qilish o’rniga topgan pullarini faqat arzimagan narsalar yoki nafsiy istaklar yo’lida sarflayotgan zamondoshlarining asil yuzlarini fosh etib beradi. Ushbu maqolada adib o’z davridagi biror bir kishining nomini aniq keltirib o’tmaydi. Berilayotgan barcha fikrlar ma’lum shaxs haqida emas, balki butun jamiyatga tegishli ekanligi bilan xarakterlanadi.

Qolgan janr namunalari asta-sekinlik bilan jurnal mundarijasini boyitib borgan. Jurnalga dastlab asos solingan vaqtlarda boshqa vaqtli matbuot nashrlari singari hajviy publitsistikaning nisbatan katta janrlari bo’lmish hajviy maqola va felyetonlardan unumli foydalandi. Bu borada taniqli adib Abdulla Qodiriy va zamondosh ijodkorlarning xizmatlari beqiyosdir.

“Mushtum” jurnalining 1936-yil 10-son 8-betida “Domla Ananis” taxallusi bilan e’lon qilingan kichik hajviy xabarga yuzlanamiz.

“Sirk “rekord”chisi” nomli hajviy maqolada: “Chiroqchi rayon Qiziltepa jamoasidagi “Qizil O’zbekiston” kolxozi qoshida sirk tashkil etilib, bunga qiziqqan havaskorlar tortilgan edi. Havaskorlardan kolxozning prrandachilik ferma mudiri Abdulla Qo’ziyev o’z rovida rekord oldi. Uning “rekord”i shundan iboratki, bir iljayib, ikki marotaba qiyshayib to’rt tomonga qarab chiqib, birdaniga 300 tovuq va 25 ta xo’rozni yutib jamoat oldida hazm qilib yubordi.

Bu, albatta, rayonda yagona bo’lgan bir fermaning nom chiqarishi, “taraqqiyoti” uchun katta sabab demakdir. “Rekordchi o’zining bu muvaffaqiyati uchun oladurg’on “mukofotni” kuta-kuta, ko’zi teshila yozdi-yu, hali hech kimning xabari yo’q”.

Yuqoridagi hajviy xabar namunasi orqali o’z davrining eng dolzarb bo’lgan ijtimoiy mavzusi yumoristik mubolag’a orqali ko’rsatib berilgan. Bu yerdagi havaskor sirk guruhi va sirk tomoshasidagi “rekord” degan tushunchalar to’qima jarayon bo’lib oddiy bir axborotni hajviy shaklga o’tkazish vositasi bo’lib xizmat qiladi. Agar ushbu vositalar qo’llanilmaganida Chiroqchi rayonida parrandachilik fermasining mudiri Abdulla Qo’ziyev degan odam 300 ta tovuq va 25 ta xo’rozni o’z manfaati yo’lida talon-taroj qilgan degan oddiy axborot berilar edi. Bu esa berilayotgan xabarning ta’sir etish kuchini ancha kamaytiradi. Ko’rinib turibdiki, kichik hajviy xabarlar oddiy xabar shaklidagi kontentdan o’zining badiiy tasviriy vositalari hisoblanmish yumor, satira, mubolag’a va boshqa unsurlari bilan tubdan farq qiladi.

“Mushtum” jurnalining dastlabki yillarida foydalanilgan kichik hajviy janr namunalaridan yana biri hajviy xatlar hisoblanadi. Ular ham hajviy xabarlar bilan birgalikda, bir vaqtda hajviy publitsistikaning rivojlanishida tamal tosh vazifasini o’tadi. Chunki qolgan janrlarning ko’pchiligi hali-hanuz adabiy janrlar tarkibida u yoki bu ko’rinishda namoyon bo’layotgan edi. Mana shunday hajviy xatlardan biri “Mushtum” jurnalining 1936-yil 8-son 11-betida e’lon qilingan “Qimmatli “Mushtum” sarlavhali xat hisoblanadi.

“Men bundan ilgari bir xabarimda Quybishev (Rishton) rayonining madaniy oqartish ishlarini maqtab, uzundan uzoq bir narsa yubargan edim. Xabar qo’lingizga tekkan hamon, albatta, siz ham hovliqib ketgandirsiz. Lekin xabarda ko’rsatilgan hammom hali ham bitganicha yo’q. Klubning oti bor-u o’zi yo’q. Teatrga esa hali artistlar tortilmagan. Fizkultura ishlari hali ham xo’rjun. Kino va qiroatxona haqida og’iz ochmaysiz. Kinoning lentasi bor-u – apparati yo’q, degandek, kitob bor-u joy yo’q. Boshqa yo’q va yo’qlar tog’risida gapirmasdan endi shuni aytmoqchiman, ya’ni man shu yo’q-yo’qlar bitirilsa, Quybishev rayonida madaniy oqartish ishlari ko’ngildagidek.

Yuqoridagi hajviy xat namunasida oddiy bir tumanda e'tibordan chetda qolib ketayotgan madaniy sohadagi o'zgarishlar haqida xabar berilgan. Yana bir xat namunasiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu jurnalning 1936-yil 2-son 11-betida "Mushtum"ga xat" sarlavhasi ostida Q. Abduvaliyev muallifligida e'lon qilingan. Ushbu hajviy xatning o'ziga xosligi shundaki, u she'riy shaklda bayon etilgan. Xatda Karimov degan bir moliyachining kirdikorlari yuzasidan "Mushtum"da e'lon qilingan karikaturaga minnatdorchilik munosabati bilan fikrlar bildirilib o'tilgan. Bilamizki, oddiy shaklda bitilgan xat namunasidan ko'ra she'riy shaklda yozilgan xatlarning ta'sir kuchi yuqoriroq bo'ladi.

"Mushtum" jurnali xatlarni qabul qilib, ularni chop etishdan tashqari xatlarda ko'tarilgan muammolarni o'rganib ularga o'z vaqtida javob xatlarini ham e'lon qilib borgan. Bunday xatlar dastlabki nashrlardan to hozirgi kungacha "Bizning javoblarimiz", "Mushtum" javob beradi", "Mushtum" ko'maklashdi" va boshqa ruknlar ostida e'lon qilib kelinmoda. Dastlabki yillardagi nashrlarda "Bizning javoblarimiz" rukni ostida berilgan javob xatlarida, asosan, asossiz deb topilgan, yoki o'rganib chiqilib jurnalda e'lon qilishga sabablar yetarli bo'lmagan xatlar haqida ma'lumotlar berib borilgan.

Jurnalning ilk yillaridan buyon uchraydigan yana bir kichik hajviy janr namunasi bu kichik hajviy e'lonlar hisoblanadi. Jurnalning 1936-yil 18-sonida "Toshkent sarguzashtlari" rukni ostida "Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyulmas", "Ehtiyot bo'linglar", "Sichqon dom", "Qo'lim tegmaydi, – dedim" sarlavhali hajviy e'lonlar berib o'tilgan. Kichik hajviy e'lonlar "Mushtum" jurnalining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bu janr namulari uning butun faoliyati davomida jurnalda berib borilganligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, jurnalning eng taraqqiy etgan davri bo'lgan 1960-1970-yillarda nashr etilgan sonlarini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, kichik hajviy e'lonlar deyrli har bir sonda berib borilgan.

Quyida "Bildirish" deb nomlangan hajviy e'lonlardan namunalar keltiramiz:

"Bolalar qo'shiqlari plastinkalarini ishlab chiqarish tuyaning dumi yerga tekkanida boshlanadi, xaridorlar tishni-tishga qo'yib yuraversin.

Toshkent grammplastinka zavodi direksiyasi".

"Bemorlar bilib olsin!

Medpunktga kelganda cho'ntakka pul solib keeling, har bir ukol uchun 5 so'm, dorilar uchun 14 so'mdan 42 so'mgacha pul olaman. Medpunktning eshigi qulf bo'lsa, kutib o'tirilmasin, men ovga ketgan bo'laman!

Vobkent rayon "O'zbekiston" kolxozidagi medpunkt  
feldsheri: Omonjon Rustamov".

Yuqorida keltirilgan hajviy e'lon namunalari jurnalning 1960-yil 6-son 10-betida berib o'tilgan. Hajviy e'lonlarning xarakterli jihati shundaki, ularda jamiyatda uchraydigan illatlarning bajaruvchi shaxslari o'z qilayotgan qilmishlari haqida o'zlari e'lon qiladi. Bu esa ularning o'quvchilar va auditoriyaga bo'lgan ta'sirini yanada orttiradi. Shu sababli ham hajviy jurnalistikaning ilk namunalaridan biri bo'lgan e'lonlar "Mushtum" jurnalida keng qo'llanilib kelingan.

**Xulosa.** "Mushtum" jurnali bir asrdan ortiqroq vaqt davomida hajviy publitsistikamizning asosiy manbayi sifatida shakllandi. Jurnalda e'lon qilingan kontentlar qaysi davrda e'lon qilinishidan qat'iy nazar o'z davrining eng muhim va dolzarb mavzularini, jamiyatdagi katta va kichik illatlarni hajviy satira va yumor orqali ochib bera olgan. Hozirgi kunda ham jurnal o'zining ilmiy ahamiyatini saqlab qolgan. "Mushtum" jurnali bugungi kun nuqtayi nazari jihatdan yurtimizdagi yangiliklarni va axborotlarni tezkor shaklda hajviy publitsistik janrlarning deyarli barcha turlari: hajviy maqola, hajviy xabar, hajviy e'lon, felyeton, pamflet, karikatura va boshqalar orqali keng jamoatchilikka yetkazib kelmoqda. Shunga qaramasdan, bosma OAVning barchasida bo'lgani kabi ushbu jurnalga bo'lgan e'tibor yuqori darajada deya olmaymiz. Ushbu holatlarni inobatga olgan holatda shuni ta'kidlash lozimki, "Mushtum" jurnalida e'lon qilingan kontentlar hali to'la holatda tahlil etilmagan. Ushbu kontentlar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

### ADABIYOTLAR:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga bayram tabrigi. //Yangi O'zbekiston. 2022. 127-son.*
2. *Bobojonov R. Jurnalning yangi soni. // Xalq so'zi. – 2021. 13-oktabr.*
3. *O'zbek tilining izohli lug'ati. "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" davlat nashriyoti. 2008.*
4. *Julqunboy. Mushtum ta'rifi. // Mushtum. –1923. – № 1.*
5. *Qodiriy A. Mushtum oqsoqlang'an emish. // Mushtum. –1923. – № 12.*
6. *Cho'lpon A. Asarlar. 4 jildlik. J.IV. – Toshkent: Akadempnashr. 2016. 20-bet.*
7. *Mulla Julqunboy. Nima qayoqqa ketadir? // Mushtum. –1923. – № 3.*

**O'ZBEKISTONDA MATBUOT XIZMATLARI**

**Berdiyorova Sevinch Aliddin qizi,**

*Buxoro davlat universiteti, Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar yo'nalishi 3-bosqich talabasi*  
[sberdiyorova56@gmail.com](mailto:sberdiyorova56@gmail.com)

**Annotatsiya.** Bugungi rivojlanayotgan va demokratik tamoyillarni ustun qo'yayotgan bu davrda Matbuot xizmati tarmog'ining ahamiyati va o'rni ortib bormoqda. Chunki hozirgi asr xalqning roziligi yoki uning munosabatini o'rganish orqali tezkor va samarali rivojlanishni taqdim etmoqda. Shu sababdan ham bugun dunyo hamjamiyatida Matbuot xizmati va uning faoliyati mamlakat, davlat yoki ma'lum tizimni rivojlantirishda yuqorida o'rin egallamoqda.

O'zbekiston ham mana shunday yangi tendensiya va tarmoqlar ta'siri ostida rivojlanish, xalq va millat kelajagini ta'minlash yo'lida ilg'or tajriba, bir qancha amaliy ishlar olib bormoqda. Buni O'zbekistonda bugungi kunda e'tirof etilib, atroflicha e'tibor berilayotgan Matbuot xizmati bo'limlari faoliyati va Matbuot kotibi ish jarayonlarini qonun hujjatlari bilan himoyalagan holda davlat tashkilotlaridan tashkil qilganlikdan ham ko'rishimiz mumkin.

Ushbu maqolada mana shunday davlat tashabbusi bilan Matbuot xizmati faoliyati borasida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning samaradorligi, istiqbolli rejalari haqida so'z boradi. Hamda bu sohaning O'zbekistonda tashkil etilishi, o'tmish va hozir o'rtasida amalga oshirilgan ishlari hamda sohaning bugungi kundagi holati va ko'rinishlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** PR, Matbuot xizmati, matbuot kotibi, ochiqlik siyosati, demokratiya, davlat tashkilotlari, davlat siyosati, davlat tashkilotlarida PR, OAV, jurnalistika, hokimliklar, viloyat hokimliklari.

**PRESS SERVICE IN UZBEKISTAN**

**Abstract.** In today's developing and democratic principles, the importance and role of the press service network is increasing. Because the present century presents rapid and effective development by studying the consent of the people or their attitude. For this reason, today in the world community, the press service and its activities occupy a high place in the development of a country, state or a certain system.

Under the influence of such new trends and networks, Uzbekistan is also conducting advanced experience and a number of practical works in the direction of development, securing the future of the people and the nation. We can see this from the activity of the Press Service departments, which are recognized and given close attention in Uzbekistan today, and the work processes of the Press Secretary are organized from state organizations, protected by legal documents.

This article talks about the activities of the Press Service under such a state initiative, as well as their effectiveness and future plans. Also, the organization of this industry in Uzbekistan, the work done between the past and the present, as well as the current situation and views of the industry are analyzed.

**Key words:** PR, Press service, press secretary, openness policy, democracy, state organizations, state policy, PR in state organizations, mass media, journalism, hokimities, regional hokimities.

**ПРЕСС-СЛУЖБА В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Аннотация.** В современных условиях развития и демократических принципов возрастает значение и роль сети пресс-служб. Потому что нынешний век представляет собой быстрое и эффективное развитие путем изучения согласия людей или их отношения. По этой причине сегодня в мировом сообществе пресс-служба и ее деятельность занимают высокое место в развитии страны, государства или определенной системы.

Под влиянием таких новых тенденций и сетей Узбекистан также проводит передовой опыт и ряд практических работ в направлении развития, обеспечения будущего народа и нации.

Мы видим это на примере деятельности подразделений пресс-службы, которые сегодня в Узбекистане признаны и уделяют пристальное внимание, а рабочие процессы пресс-секретаря организованы из государственных организаций, защищены правовыми документами. В данной статье рассказывается о деятельности Пресс-службы в рамках такой государственной инициативы, а

*также об их эффективности и планах. Также анализируется организация этой отрасли в Узбекистане, проделанная работа в прошлом и настоящем, а также нынешняя ситуация и взгляды на отрасль.*

**Ключевые слова:** PR, Пресс-служба, пресс-секретарь, политика открытости, демократия, государственные организации, государственная политика, PR в государственных организациях, средства массовой информации, журналистика, губернаторства и региональные губернаторства.

Matbuot xizmati – bu ma'lum tashkilot yoki muassasaning maqsadli auditoriyasi va kuzatuvchilari bilan samarali muloqot olib boruvchi tarmoq bo'lib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, korxonada faoliyatini OAV bilan hamkorlikda yoritib, jarayonlar haqida batafsil ma'lumot berib boruvchi omma va tashkilot o'rtasidagi advokatdir. Shuningdek, Matbuot xizmati, odatda, axborot agentligi yangiliklar hisobotlarini to'playdigan va ularni gazetalar, jurnallar, radio va televideniye kabi obuna bo'lgan yangiliklar tashkilotlariga sotadigan tashkilot sifatida ham mashhur. Ushbu agentliklar butun dunyo bo'ylab o'zlarining muxbirlari va muxbirlari tarmog'i orqali yangiliklarni to'playdi va ularni o'z mijozlariga taqdim etadi.[4] Kengroq ma'noda "matbuot xizmati" atamasi tashkilot ichidagi matbuot yoki jamoatchilik bilan aloqalar bo'limiga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ushbu bo'lim ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarni boshqarish, press-relizlar yaratish va tashkilot haqidagi ma'lumotlarni jamoatchilikka tarqatish uchun matbuot anjumanlarini tashkil qilish uchun javobgardir[5].

Matbuot xizmatlari dunyoning turli burchaklaridan ommaviy axborot vositalariga axborot oqimini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi, ular esa bu ma'lumotlarni jamoatchilikka yetkazadi. Bu jarayon yaxshi xabardor jamiyatni saqlashga yordam beradi va yangiliklar keng ommaga ochiq bo'lishini ta'minlash orqali demokratik jarayonni qo'llab-quvvatlaydi.

Umumiy qilib aytganda esa "Matbuot xizmati" atamasi odatda gazetalar, radio, televidenie va raqamli platformalar kabi turli ommaviy axborot vositalariga yangiliklarni to'playdigan, yozadigan va tarqatadigan tashkilotlarni anglatadi. Ushbu kontseptsyaning kelib chiqishini 19-asrda axborot agentliklarining dastlabki shakllanishiga to'g'ri keladi. Birinchi va eng nufuzli axborot agentliklaridan biri Associated Press (AP) bo'lib, u 1846-yilda Meksika-Amerika urushini yoritish uchun Nyu-York shahar gazetalarida o'rtasida hamkorlikda ish boshlagan. Bu hamkorlik 1848-yilda AP nomi bilan mashhur bo'lgan rasmiy tashkil etilganligini belgilab, kemalar tomonidan olib kelingan xorijiy yangiliklarni o'z ichiga olgan holda kengaytirildi.

Matbuot xizmati modelini rivojlantirishda AP, Reuters va Agence France-Presse (AFP) kabi axborot agentliklarini qayta quruvchi rol o'ynadi. Ushbu agentliklar bir nechta obunachilarga, shu jumladan butun dunyo bo'ylab gazetalar va radioeshittirishlarga tez va samarali tarqatilishi mumkin bo'lgan markazlashtirilgan yangiliklar manbasini taqdim etdi. Matbuot xizmati kontseptsiyasi nafaqat yangiliklar maqolalarini tarqatishni, balki fotosuratlar, audiotasmalarni va oxir-oqibat, raqamli kontentni ham o'z ichiga olgan holda rivojlandi.[6]

Matbuot xizmatining rivojlanishi zamonaviy jurnalistika va ommaviy axborot vositalarining yuksalishining ajralmas qismi bo'lib, axborot va yangiliklarning jahon miqyosida tez tarqalishiga imkon berdi. Ushbu tizim yangiliklar hisobotini standartlashtirishga yordam berdi va hatto kichikroq ommaviy axborot vositalarining ham o'z resurslaridan tashqarida bo'ladigan keng qamrovli yangiliklardan foydalanishini ta'minladi.

Davlat tashkilotlarida matbuot xizmatlarini tashkil etish va matbuot kotibi faoliyatining O'zbekiston tajribasini va faoliyatini tahlil etishdan oldin turli mamlakatlarda qachon paydo bo'lishini o'rganishimiz mumkin. Chunki tajribada e'tibor beradigan bo'lsak, Rossiya va O'zbekiston Matbuot xizmatini tashkil etilishi bir-biriga yaqin ekanligini ko'rishimiz mumkin.

1. Amerika Qo'shma Shtatlari: Oq Uydagi matbuot kotibining roli 1920-yillarda rasman o'rnatilgan, Jorj Akerson prezident Gerbert Guver davrida birinchi bo'lib unvonga ega bo'lgan. O'shandan beri bu rol prezidentning jamoatchilik bilan aloqalari va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarini boshqarish uchun mas'ul bo'lgan ma'muriyatning muhim qismiga aylandi.

2. Birlashgan Qirollik: Britaniya hukumati matbuot kotiblari va matbuot idoralaridan foydalanishning uzoq tarixiga ega. Bosh vazirning matbuot kotibi rolini o'z ichiga olgan Hukumat Axborot xizmati Ikkinchi Jahon urushi davrida urush targ'iboti va ommaviy axborotni boshqarish uchun yanada rasmiylashtirildi.

3. Fransiya: Fransiya hukumati Elise saroyida Prezident nomidan ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar va aloqalarni yuritish uchun mas'ul bo'lgan matbuot idorasiga ega. Bu rol 1958-yilda Beshinchi Respublika tashkil etilganidan beri muhim bo'ldi.

4. Rossiya: Rossiyadagi matbuot xizmatlarini Sovet davridan kuzatish mumkin, u yerda ular davlat tashviqoti uchun juda ko'p foydalanilgan. Zamonaviy Rossiyada matbuot kotibining roli Kremlning aloqa

strategiyasini boshqarishda muhim rol o'ynaydi, Prezident matbuot kotibi 1990-yillardan beri muhim mavqega ega.

5. Germaniya: Germaniya Federal Hukumati Matbuot va Axborot Ofisi (Bundespresseamt) 1949-yilda tashkil etilgan. U hukumat siyosati va faoliyati to'g'risida ma'lumot beruvchi hukumat aloqalari bo'yicha markaziy agentlik bo'lib xizmat qiladi.

6. Xitoy: Xitoyda matbuot xizmatlarining roli Davlat kengashining axborot bo'limi tomonidan boshqariladi, bu mamlakat media strategiyasi va xalqaro kommunikatsiyalarni muvofiqlashtiradi. Bu idora Xitoyning global imidjini shakllantirishga qaratilgan 20-asr oxiridagi iqtisodiy islohotlardan beri ayniqsa ahamiyatli bo'ldi.

Mavjud ma'lumotlardan kuzatish mumkinki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ham bu soha tarixi va rasmiylashtirilishi yaqin tarixga ega. Bu xol O'zbekistonda tarjibasidan ham mustaqillikdan keyingi yillarda shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. O'zi matbuot xizmatining paydo bo'lishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu PRning Davlat tashkilotlarida PR yo'nalishidan kelib chiqqan hisoblanadi hamda PRning tarkibiga kirib ketadi.

Mamlakatlarimizda olib borilgan tadqiqotlarga asoslanadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-mayda qabul qilingan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonunida (1-ilova) Axborot xizmatlarining huquqiy asosi mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 125-qarorida (2-ilova) davlat va xo'jalik boshqaruvi sohasida ochiqlik va shaffoflikka asoslangan samarali qarorlar qabul qilish tizimini joriy etish, axborot olishda mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi hisobdorligi, ochiqligi va mas'uliyatini ta'minlash vazifalari belgilab berildi.[2]

Qabul qilingan qonun hujjatlarini o'rganish natijalariga asosan, O'zbekiston o'zining hayotida muntazam bilvosita qo'llab kelgan bo'lib, yo'nalish 2006-yildan boshlab, qonun hujjatlari orqali ilk marotaba davlat tashkilotlari kesimida faoliyatini boshlaydi. Keyinchalik 2019-yilda yangicha ko'rinishda rivojlanish bosqichini qayd etadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda Matbuot xizmatlari ikki bosqichda bugungi kungacha o'z hayot davrini yashab o'tgan. Asosan, O'zbekistonda matbuot xizmatlari tarixi va uning rivojlanish bosqichlari davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan belgilanadi desak adashmayman. Chunki MDH mamlakatlari o'rtasida O'zbekiston davlat tashkilotlarida tashabbuskorlik ko'rsatib, ushbu tizimni amalda joriy qilgan mamlakatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Buni qabul qilingan qonun hujjatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda Matbuot xizmatlarining qonuniy asoslari bo'lgan qonun hujjatlari:

№	Hujjat nomi	Turi	Kuchga kirgan sanasi	Holati
1.	Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida	O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori	22.09.2006	17.02.2018
2.	Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida	O'zbekiston respublikasining qonuni	06.05.2014	amalda
3.	"Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi o'zbekiston respublikasi qonuni qoidalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar ko'rish to'g'risida	O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori	16.11.2015	amalda
4.	O'zbekiston respublikasi ichki ishlar vazirligining matbuot xizmati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida	O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori	01.11.2017	amalda
5.	Davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmati rahbarini lavozimga tayinlashni o'zbekiston respublikasi prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy	O'zbekiston respublikasi prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy	03.10.2019	amalda

	kommunikatsiyalar agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari bilan kelishish, ularni attestatsiyadan o'tkazish hamda ish samaradorligini baholash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida	kommunikatsiyalar agentligi direktorining Buyrug'i		
6.	Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida	O'zbekiston respublikasi prezidentining Qarori	28.06.2019	amalda
7.	Davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmati rahbarini lavozimga tayinlashni o'zbekiston respublikasi prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi yoki uning hududiy boshqarmalari bilan kelishish, ularni attestatsiyadan o'tkazish hamda ish samaradorligini baholash tartibi to'g'risidagi nizomning 1-bandiga o'zgartirish kiritish haqida	O'zbekiston respublikasi prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktorining Buyrug'i	16.01.2020	amalda
8.	Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida	O'zbekiston respublikasi prezidentining Farmoni	17.06.2021	amalda

Nima uchun qabul qilingan hujjatlar, mamlakatimizda matbuot xizmatlari faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq demoqchiman? Chunki aynan qabul qilingan hujjatlar ushbu yo'nalishni faoliyatini yo'lga qo'yib uning rivojlanishiga imkon yaratgan. Yuqorida bu yo'nalishning qisqa tarixini ikki bosqichga bo'lib o'tdik. Chunki mana shu ikki bosqichda ushbu loyuhada davlat siyosatini rivojlantirishda yuqori o'rin tutadigan daraja yetib bormoqda deyish mumkin. Jadvalga e'tibor qaradigan bo'lsak, ilk marotaba 2006-yilda ushbu yo'nalish qonun hujjatlari bilan rasmiylashtirib, yo'lga qo'yilgan bo'lsa, biror ko'rga ko'rinarli manbada biror davlat tashkilotlarining faoliyati rivojlanganini payqamaysiz. Ammo 2017-yilda O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori bilan bu tarmoqning faoliyat uchqunlarini payqash mumkin. Bunga misol, Buxoro viloyati hokimligi matbuot xizmati, Samarqand viloyati matbuot xizmati va boshqa oliy ta'lim va hu singari davlat tashkilotlari matbuot xizmatlari telegram va boshqa platformalardagi faoliyatlari yaratiladi, garchi samarali faoliyat yuritilmagan bo'lsa-da. Shuning bilan aynan ushbu qarar qabul qilingandan so'ng davlat tashkilotlaridagi matbuot xizmati faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati ortadi. Buni 2018-yilda Kun.uz axborot kanali e'lon qilgan tanqidiy maqolada ham ko'rishimiz mumkin. Maqola ma'lumotlari bir vaqtning o'zida matbuot xizmati faoliyati tarixining birinchi bosqichi sarhisobi haqida ma'lumot beradi. "Ochiq tan olish kerak, bugun O'zbekistonda matbuot kotiblari ishi qoniqarli emas. Qaysiki vazirlik, qo'mita, idora va tashkilot faoliyati ommaviy axborot vositalarida tanqidga uchrasa, eng avvalo, shu tashkilotning matbuot kotibi boshida kaltak sinmoqda. Ya'ni, kutilmagan tanqidning oldini o'lmagani sababli bosh aybdorga chiqarilmoqda. Hatto ayrim hollarda rahbarlarning o'z matbuot kotibiga "yovqarashi" yoki "masofa saqlab muomalada bo'lishi" tafakkur qobig'ini uzoq yillardan buyon o'rab olgan qo'rquv pardasi hamon so'tilmaganini ko'rsatadi", — deyiladi maqolada.[3] Aytish mumkinki, Vazirlar mahkamasining ushbu qarori yurtimizdagi tashkilotlar ochiqligi borasida yangi bosqichga ilk qadam bo'ldi. Mazkur qarordan so'ng O'zbekiston respublikasi prezidentining Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Qarori qabul qilinib, Bu bugungi kundagi matbuot kotiblar huquqlari va faoliyatini nazoratga oluvchi va tashkil etuvchi qonun hujjati sifatida xizmat qilmoqda. E'tiborlisi, mana shu qaror loyihasida ilk marotaba Matbuot kotibning mavqeyi muassasa rahbrining o'rinbosaruga tenglashtirishitirilib, ushbu bo'lim faoliyati uchun moddiy-texnik baza ta'minoati borasida aniq imkoniyatlar belgilandi.

2018-yilga qadar matbuot kotiblarini birlashtiradigan va uning faoliyatini nazorat qiladigan tashkilot bo'lmagan bo'lsa, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 2-fevraldagi „Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida“gi farmonga muvofiq O'zbekiston matbuot va axborot agentligi negizida O'zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tashkil etildi

Tashkilot tashkil qilingan yillardan boshlab, sohani rivojlantirish uchun qator islohotlar amalga oshirildi. Eng e'tiborlisi, mavjud matbuot xizmatlari reytingi har yili aniqlanib, tahlil qilinib borilmoqda. Shu bugunga qadar esa tashkilot tashabbusi bilan, 4 marotaba yillik matbuot kotibi faoliyati sarhisobi amalga oshirildi.

Ta'kidlash joizki, 2017-yildan boshlab, matbuotchilar uchun tashkilot tashabbusi bilan turli seminar va dasturlar joriy qilindi. Aynan oliy ta'lim muassasalari va boshqa ko'plab tashkilotlarning quyi qismlarida matbuot xizmatlari faoliyatining tashkil etilishi davlat tashabbusi samarasidir. 2019-2020 yillarda mana shunday tarmoqqa berilgan e'tibor samarasi o'laroq mamlakatimizda 75 ta davlat organlari tashkilotlari, 206 ta tuman va shahar hokimliklari matbuot xizmatlari ik marotaba tashkil qilingan va 98 ta tashkilotda matbuot xizmati faoliyati qaytadan tashkil etildi.

Agentlik tomonidan ochiqlik sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish, ochiq ma'lumotlar ko'lamini kengaytirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, amaldagi qonunchilik hujjatlaridagi bo'shliqlarni to'ldirilib, ijrosini ta'minlash bo'yicha tizimli tahlillarga asoslangan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'tgan davrda ochiqlikni ta'minlash sohasidagi milliy qonunchilik ilg'or xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirilib, xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribasi amaliyotga samarali joriy etildi.

Tahlillarga ko'ra, 2017-2023-yillarda qabul qilingan 180 ta normativ-huquqiy hujjatda ochiqlik va shaffoflik mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan 328 ta vazifa va topshiriqlar belgilab berilgan. Ulardan 187 tasida amaldagi mexanizmlar ochiqlik prinsiplari asosida takomillashtirilgan bo'lsa, 141 tasi bo'yicha yangi amaliyot yo'lga qo'yildi.

Birgina, davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiq e'lon qilish tizimi yo'lga qo'yilganligi natijasida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar davomida 138 ta holatda yo'l qo'yilgan qonunbuzilishlari bartaraf etilib, 110 mlrd. so'mlik davlat xaridlari bekor qilindi. Yoki, bugungi kunda 123 ta davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiya holatlari haqida xabar berish imkonini beruvchi 615 dan ortiq aloqa kanallari (“Ishonch telefoni”, elektron pochta va boshqa elektron manzillar, platforma hamda boshqa maxsus dasturiy ta'minot) ochiq e'lon qilinib, tizimli faoliyati yo'lga qo'yilgan. Faoliyati ochiqligi o'rganilgan 103 ta davlat idorasining 75 foizi 2023-yilda o'z faoliyatiga oid hisobotlarni ochiq e'lon qilib, jamoatchilik ishtirokida muhokama qilinishi ta'minlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni asosida ochiq ma'lumotlar ko'lami yanada kengaytirilib, sohada jamoatchilik nazoratini ta'minlashga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etildi.

Jumladan, Farmonga muvofiq 2023-yil 1-dekabrda boshlab “Haj” tadbiriga borish uchun navbatda turgan ziyoratchilarning yagona onlayn navbati, bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish uchun berilgan arizalar navbati, bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlariga ajratilgan grant va ijtimoiy buyurtma loyihalari, shu jumladan, g'olib bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning buyurtma doirasida bajargan ishlari yuzasidan hisobotlar ochiq e'lon qilinishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar toifasiga kiritildi.

Shuningdek, Farmon bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga “Qayta aloqaning sirli mijozi” tadbirlari orqali davlat idoralarining ishonch telefonlari faoliyati samaradorligini monitoring qilib borish vazifasi yuklatildi.

Bu borada, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan davlat organlari va tashkilotlarining Ishonch telefonlari (Call-markaz) hamda rasmiy veb-saytlarda e'lon qilingan telefon raqamlarning doimiy ravishda ishchi holatdagi, ma'lumotlar almashinuvi samaradorligi, qayta aloqaning mavjudligi, tezkorligi va belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi masofaviy monitoring tartibda o'rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish borasida davlat idoralariga taqdimnoma kiritish tartibi belgilandi.

Bundan tashqari, Farmon asosida quyidagi jarayonlarni internet tarmog'i orqali jonli efirga uzatish tartibi joriy etildi:

- falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun Ilmiy kengash tomonidan o'tkaziladigan dissertatsiya himoyasi;

- akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari, maxsus akademik litseylar ("Temurbeklar maktablari" harbiy-akademik litseylarining test jarayonlari), shuningdek, prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablariga kirish imtihonlari;

- oliy ta'lim muassasalari bazasidagi harbiy ta'lim fakultetlariga (harbiy kafedra) qabul qilishdagi saralash tanlovlari.

Joriy yilning 1-aprel kuni davlat organlari va tashkilotlarining 2023-yil uchun "Ochiqlik indeksi" natijalari e'lon qilindi.

"Ochiqlik indeksi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-154-son Farmoniga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan 2023-yilda ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilgan ishlarning samaradorligi va natijadorligi asosida baholandi. Ikkinchi bor e'lon qilinayotgan "Ochiqlik indeksi" 84 ta baholash mezonidan tarkib topgan 8 ta indikator asosida baholangan. Samaradorlik ko'rsatkichlari 71 ball dan 100 ballgacha baholanganlar - "yashil", 55 ball dan 71 ballgacha baholanganlar - "sariq" va 55 ball dan past ko'rsatkich qayd etganlar - "qizil" toifalarga kiritiladi.

Joriy yildagi baholashda jami 103 ta (2022-yilda - 86 ta) respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari - vazirlik, qo'mita, agentlik, inspeksiyalar va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati qamrab olingan. Yakuniy natijalar keng jamoatchilik uchun index.anticorruption.uz platformasi orqali e'lon qilindi.

Baholash natijalariga ko'ra, 31 ta davlat organi "yashil" (71-100 ball), 43 tasi "sariq" (55-71 ball) va 29 tasi "qizil" (55 ball dan past) samaradorlik ko'rsatkichlarini qayd etgan. Baholash natijalariga ko'ra, faoliyat samaradorligi "yashil" toifadagi davlat idoralari soni o'tgan yilga nisbatan 16 taga (13%ga) ortgan.

Shuningdek, 2022-yil yakuni bo'yicha "qizil" toifaga kiritilgan "O'zsuva't-minot" AJ (2022-yilda - 47 ball, 2023-yilda - 81 ball), "Turonbank" ATB - (2022-yilda 53 ball, 2023-yilda - 78 ball), "O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJ (2022-yilda 48 ball, 2023-yilda - 77 ball), "Hududgazta'minot" AJ (2022-yilda 52 ball, 2023-yilda - 75 ball) faoliyatida 2023-yil baholash natijalari bo'yicha keskin ijobiy o'sish kuzatilgan. Natijadorlik ko'rsatkichlari o'tgan yildagi baholashga nisbatan Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish hamda Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar joylashtirilishi indikatorlari bo'yicha ortgan.

Jumladan, Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlarning e'lon qilinishini baholash mezoni talablari ijrosi 12 ta davlat organlari va tashkilotlari tomonidan 100 foiz natijadorlik asosida ijro etilgan. Yoki, Jamoatchilik kengashining faoliyati samaradorligini baholash mezoni talablarida 6 ta davlat organlari tomonidan to'liq bajarilib, ushbu yo'nalishdagi faoliyat ochiqligi ta'minlangan.

2023-yil uchun "Ochiqlik indeksi"da eng yuqori natijadorlik O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (88 ball), "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ (86 ball), Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi (86 ball), "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ (84 ball) va Xorazm viloyati hokimligi (84 ball) tomonidan qayd etilgan. Mahalliy davlat hokimiyati organlaridan Toshkent (69 ball), Buxoro (67 ball), Jizzax (66 ball), Samarqand (63 ball), Farg'ona (57 ball), Sirdaryo (57 ball) viloyatlari va Toshkent shahar (64 ball) hokimliklari "sariq" toifada, Namangan, Surxondaryo, Qashqadaryo va Andijon viloyat hokimliklari 55 ball dan past ko'rsatkich bilan "qizil" toifada baholangan.

Respublika darajasidagi O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (15 ball), Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi (26 ball), Tog'-kon geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi (27 ball) hamda "Poytaxtbank" AJ (33 ball) "qizil" toifada baholangan. Sohadagi natijadorlik ko'rsatkichlari xalqaro reyting va indekslarda O'zbekistonning o'rnini yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Xususan, 2023-yilda O'zbekiston "Open Data Watch" tashkilotining "Open Data Inventory" (ODIN) Ochiq ma'lumotlar reytingida 70 ball to'plab, jahon bo'yicha 30-o'rinni, Markaziy Osiyoda esa 1-o'rinni egallagan (2020-yilda 63 ball bilan 45-o'rinni egallagan). "Open Data Watch" ochiq ma'lumotlar va rasmiy statistika asosida faoliyat ko'rsatuvchi xalqaro notijorat tashkiloti hisoblanib, mazkur reytingda mamlakatlarning statistik takliflari to'liqligi va ulardagi ma'lumotlar xalqaro ochiqlik standartiga mosligi baholab boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6247-son Farmonida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati majlislari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi sessiyalarini telekanallar, shuningdek, Internet tarmog'i orqali jonli e'fira uzatishni ta'minlash belgilangan.

Shunga ko'ra, 2021-yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati majlislari, mahalliy xalq deputatlari Kengashi sessiyalari telekanallar va Internet platformalari orqali muntazam jonli e'fira uzatish yo'lga qo'yildi. Mazkur samarali amaliyotning yo'lga qo'yilishi, fuqarolarning

huquqiy xabardorlik darajasini, shuningdek, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining davlat boshqaruvidagi roli va nufuzini oshirishga, vakillik organlarida ko‘rib chiqilib, qaror qabul qilingan masalalar yuzasidan aholining o‘z vaqtida munosabat bildirish imkonini bermoqda.

2023-yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan mahalliy xalq deputatlari Kengashi sessiyalari jonli efirga uzatilishi muntazam monitoring tartibida o‘rganib borildi. Ochiqlik sohasida xorijiy davlatlarning tajribasi va ilg‘or xalqaro standartlar talablari o‘rganilgan holda, Ochiq ma‘lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxatini to‘ldirish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqildi. Ochiq ma‘lumotlar ko‘lamini kengaytirish ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxatini to‘ldirib borish bilan birga, yangi platforma va ochiq ma‘lumotlar to‘plamlari asosida yaratilgan mobil ilovalar asosida amaliyotga joriy etish rejalashtirilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda Matbuot xizmatining tarixi ikki bosqichda bo‘lib, uning birinchi bosqichi 2006-2017-yillar, ikkinchi bosqichi esa 2017-yildan hozirgacha bo‘lgan muddatni tashkil qilmoqda. Hamda ikkinchi bosqich davlat siyosatini rivjlantitishdagi eng ahamiyatli qismi sifatini namoyom bo‘ladi.

### ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-4700918>
2. To‘Iqin Eshbekov. *Axborot xizmatlari*. -T.: «Fan va texnologiya», 2019. 224 bet.
3. *O‘zbekistondagi vazirlik, idora va tashkilotlar matbuot kotiblari faoliyati tanqid qilindi* — *Uzbekistan News | DARYO.UZ*.
4. <https://www.britannica.com/topic/Associated-Press>.
5. [https://en.wikipedia.org/wiki/Public\\_relations](https://en.wikipedia.org/wiki/Public_relations).
6. <https://www.britannica.com/topic/news-agency>.
7. *Axborot xizmatlari uchun amaliy qo‘llanma: jamoatchilik bilan samarali muloqot* / N. Qosimova, G. Bobojonova, L. Islomova. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. 132 b
8. <https://kun.uz/news/2021/08/24/vazirliklar-va-mahalliy-hokimiyatlar-matbuot-kotiblarining-reytingi-elon-qilindi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2021%2F08%2F24%2Fvazirliklar-va-mahalliy-hokimiyatlar-matbuot-kotiblarining-reytingi-elon-qilindi>
9. <https://t.me/c/1948734331/94>



# Navoiy gulshani

ALISHER NAVOI AN OUTSTANDING POET

*Hikmet Koraş,*  
*Professor, Doctor of philological Sciences(DSc), University of Niğde Ömer Halishdemir(Turkiya)*  
*Sayliyeva Mohinur Rahmiddinovna,*  
*Bukhara State University teacher*  
*m.r.saylieva@buxdu.uz*

590- poem of Garayib us-sigar  
 Xushturur gulgun qadah davrinda gulbargi tari,  
 Xossa bayram avvali bolgan dagI gul oxiri.

Har varaq bir nomayi ishratdurur fahm aylagil,  
 Tong yelidan abtar olmastin burun gul oxiri daftari.

Guncha xudi birla gul qolgoniga yetti shikast,  
 Bolgali paydo sarig savsan

Gul adam shomiga yuzlangan uchun zanbaq guli,  
 Bor kumush mashal dogiyu xurdalardur axgari.

Lola qon uzra boyalib,ot uzra anbar qoyub,  
 Bor pariixon,chiqmagan goyib chechaklardur pariy.

Nilufar tutmish sipehri lojuvardiy hayatin  
 Jolalar yuzinda andoqkim nujumi axtari.

Opsa lalingni Navoiy sanga xush kelmas,vale  
 Xushturur gulgan qadah davrinda gul bargi tari.  
 —V— — / —V— — / —V— — / —V— yoki —V~  
 Foilotun-foilotun-foilotun-foilon (yoki foilon)  
 Ramali musammani mahzuf(yoki maqsur)

**Vocabularies:**

Gulgun - pink color

Davr - 1) circle, circle; 2) rotation; 3) time, time

Xosa - 1) special, 2) especially, especially, conclusion

Abtar - 1) dirty, corrupt, helpless; 2) unhappy

Xud - 1) a long pointed cap; 2) of course, really; 3) alone, the only one

Shashpar - a hammer

Adam - Absence

Zanbaq- a bulbous flower

Xurda - small, tiny

Axgar - a red-hot burning fire, a ember

Avbar - fragrance

Sipehr - sky, sky dome, sky

Hay'at - 1) shape, image, appearance; 2) science

Jola - 1) hail; 2) dew; 3) age, tears

Nujum- the stars

Axtar -a star

### Prose description of the verse:

A petal around a pink glass is nice, like a flower at the beginning and end of the holiday.

Each page is a dream book, a book of flowers before the morning dew.

From the tip of the bud, the shield of the flower was damaged, and a golden lump of yellow lily appeared.

Because the flower faces the evening of absence, there are traces of embers in the onion flower.

Tulip was stained with blood, the barn was burned in the grass, Oh fairy, go to the flowers, because the fairy did not come out of the flowers.

Lily has captured the image of the sky, and the dews are like the stars of the stars on her face.

If Navoi kisses your lips, you will not like it, but the rose petals around the rose cup are nice.

### Notes and comments:

This verse is taken from the epic "Garayib us-sigar". The poem consists of seven stanzas. It is among the romantic poems.

This poem is written in a unique way. The words "lover" and "mistress" are not mentioned. It talks about flowers, especially tulips and lilies.

The opening of the bud is described by the poet as damage to the shield of the flower.

He makes the dew drops on the lotus flower look like stars.

Stylistic device used in verse:

In this poem, the poet used art very skillfully. The art of proportion is used in the first verse of the poem (this art is created by the words flower and petal)

The device of metaphor is used in the second stanza.

In the third stanza "flower shield" and in the fourth stanza "man's evening" created the art of metaphor.

In the next verses of the poem, we can see that the poem of metaphor is used very beautifully and appropriately.

### Rhyming of the poem:

a-a,b-a,d-a,e-a,f-a,g-a,h-a.

A simple poem according to its rhyme. The verses in the stanzas are as follows: tari, oxiri, daftari, shashpari, axgari, axtari

This is a type of absolute rhyme.

In rhyming words, the narrator is the "t" sound.

Poem has no radif.

The first stanza of beginning is a thesis, in which the main idea of the poet is briefly expressed. The second stanza concretizes this basic idea, which forms the basis of the ghazal, in terms of time and space. It is extremely pleasant to have the petals of a flower around a glass filled with pink wine. This is especially true at the end of the red flower season and the beginning of the summer season (the word "holiday" here has a broad meaning, not only in the sense of Eid, but also includes summer, which is a season of prosperity in general). Takes) gives a special effect. The poet devotes the next stanza to proving his opinion by means of an original metaphorical image: you are so attractive and at the same time, you know the spoils of the temporary opportunity. After all, for a perceptive person, a flower is like a notebook, each page of which consists of a name of Ishrat.

There is no doubt that the morning breeze will destroy this delicate notebook. Therefore, it is carelessness to spend such precious days in vain. The next four stanzas are aimed at showing the most characteristic aspects of this specific season (the end of the red flower period). As a result, each stanza became a lyric sheet of symbolic character. See: the "golden hammer" of the yellow lily (the opening of emergence) damaged the shield of the flower with the pointed brass cap of the bud (stanza 3). Because the red flower has entered the night of absence, the lily flower (onion stalk, long-leaved rose) is similar to the silver torch of that night (stanza 4). A tulip is covered with blood who is sprinkling anbar (a reference to black spots) on the fire while covered in blood (stanza 5). Lily entered the picture of the dark blue sky. The dew on his face is like stars in the sky. The poet selects the most characteristic aspects of the landscape characteristic of the world of flowers during the crisis of the red flower and gives a metaphorical description. But the purpose of the poet in this poem is not to give a simple description of the natural landscape. In the ghazal, the poet's thoughts go hand in hand with the description of the landscape. Every detail in it has a specific function and evokes a specific association in the poet, and all the poet's thoughts serve to support his conclusion in the first stanza and his appeal in the second stanza. After that, the poet completes the whole image and goes to the general mood. It is known that the main idea of the poet and, in general, his opinion in the form of a conclusion, which is in the

center of the poem, was given as a thesis in the first verse. The same idea is repeated in the conclusion of the poem. But simple repetition can separate the last stanza from the previous verse of the poem and undermine the logical consistency of the image. A reason is needed for logical repetition. For this purpose, the poet connects the image with the lover: If Navoi praises her red lips like a mute, you will not like her so much. "Flower petals in the time of the beautiful flower cup". The proof and explanation of this point is detailed in the preceding stanzas. The poet showed a great skill to give the main idea, the idea as a thesis, to give a broad explanation and to emphasize it again in the form of a conclusion, and to maintain logical consistency in this. Although the verse as a poetic art is exactly the same in both verses, the ideological and methodological atmospheres of the verses to which each of them belongs differ from each other. In the first stanza, the poetic thought is expressed directly, but in the eulogy, it now has a metaphorical character. That is, in the phrase "flower leaf" there is also a reference to the purple lips of the lover.

So, the line that came as a general thesis at the beginning of the poem is assigned a new task in the conclusion of the poem, keeping its original meaning. So, the poet does not follow the path of repeating it in order to emphasize his main idea, but achieves his goal by showing its new aspects and creating a new intellectual and methodological situation. The semantic composition of the poem, in our opinion, consists of three parts: These consist of the thesis and the conclusion from it (matla' and makta) and a review of the proof of this thesis. The main idea based on the poem came as both a thesis and a conclusion at the same time. This is, of course, this poem an event related to the character. Because the first part of the poem begins with a statement of a direct opinion, and in the next stanzas, the association takes the main position. In the last byte, the image returns to its original state. In poems with a different character of the image, the essence of this art (although the main function does not change) may be different in relation to the concrete function.

\*\*\*\*\*

591- poem of Garayib us-sigar  
Sevungil,ey kongul,oxirki jisming ichra jon keldi,  
Quvon,ey joni mahzunkim,hayoti jovidon keldi.

Safardin ul pariy yeti,meni mahzunni shod etti,  
Konguldin eski gam ketti,tan ichra yangi jon keldi.

Xirad,yig bu masofingni tahammul,qoy gazofingni,  
Varat,tark ayla lofingniki,oshubi jahon keldi.

Damekim andin ayrildim,kongulni hamrahi qildim,  
Bugun keldi kongul,bildimkim,ul nomehribon keldi.

Kelintur yoshurun ul shah,meni majnun eman ogah,  
Pariy ermas esa bas,vah nechuk kozdin nihon keldi.

Falak boqti figonimga,ajal rahm etti jonimga,  
Xazonlig bostonimga guli bogl jinon keldi.

Muganniy bir navoye tuz,Navoiy nagmaye korguz,  
Ayoqchi,tomsa tut toqquzki Doroiy jahon keldi.

—V— — / —V— — / —V— — / —V— yoki —V~

Foilotun-foilotun-foilotun foilun(yoki foilon)

Ramali musammani mahzuf(yoki maqsur)

**Vocabularies:**

Mahzun - sad, sad, upset

Jovidon - eternal, constant

Xirad - mind, thought, mind

Masof - 1) Paradise area; 2) Battle, war; 3) Soldier line

Tahammul - tolerance, patience, endurance

Vara - abstaining from forbidden activities, dieting

Jinon - Heavens

Nag'ma - 1) melody, melody; 2) singing

### Prose description of poem

O heart, rejoice, the end of your body has come, O sad soul, joyous eternal life has come.

The fairy came from the trip and cheered me up, the old pain left my heart and a new soul came to my body.

Oh mind, collect the fields of heaven, put your patience, leave your anger, leave your diet, because a mischief maker has come to the world.

Don't say that I lost him, I lost my heart, Today I felt bad, I knew that he came unkindly.

That king has come secretly, and I am mad, I am not aware of it.

The sky took care of my figs, death had mercy on my soul, the flower of the paradise garden came to my fall walley.

Singer pour salt, dance Navoi drink wine in a glass of sake,

World Doro has arrived

### Notes and comments:

This verse is taken from the poem "Garayib us-sigar". The verse has seven stanzas. From the point of view of the theme and ideological direction, it can be included in the list of romantic verses, because the verse praises the love of the lover for the lover.

The lover waits for his lover to such an extent that his arrival is like the arrival of a coin. The visit of the lover removes old pains from the lover's heart and gives him a new life.

In the fifth stanza of the verse, the poet reaches the climax of his experiences and compares the arrival of his lover to the arrival of a fairy. ``not showing is being compared to each other.

In the sixth stanza, the lover describes his mistress as "the flower of the paradise garden". In the seventh stanza, he equates the arrival of the mistress with the arrival of Doro, one of the kings of Iran.

### Stylistic devices used in poem:

In the first verse of the poem, the art of exclamation is used.

In the second stanza, the device of antithesis is skillfully used. Sad and happy words in the first verse of the verse, old and new words in the second verse brought out the art of antithesis.

The combination "O mind" in the third stanza also created the art of exclamation

The words "king and mad" in the fifth stanza, and the combination "ashubi jahan" in the sixth stanza created the art of metaphor.

In the seventh stanza, the art of talmeh is skillfully used.

RhymStylistic devices used in poem:

In the first verse of the poem, the art of exclamation is used.

In the second stanza, the device of antithesis is skillfully used. Sad and happy words in the first verse of the verse, old and new words in the second verse brought out the art of antithesis.

The combination "O mind" in the third stanza also created the art of exclamation

The words "king and mad" in the fifth stanza, and the combination "ashubi jahan" in the sixth stanza created the art of metaphor.

In the seventh stanza, the art of talmeh is skillfully used.

### Rhyming of the poem:

a-a,b-a,d-a,e-a,f-a,g-a,h-a.

It is a simple poem according to its rhyming, and the rhymes in the stanza are as follows:

The soul, the eternal, the world, the unkind, the soul, the devil, the world.

It belongs to the type of muqayyad rhyme.

The narrator in rhyming words is the "n" sound.

Radif: is the word "came".

Alisher Navoi has always emphasized that everyone who holds a pen in his hand should strive hard to make his words meaningful, he should work tirelessly on himself. In general, Navoi had a very critical attitude towards untalented penmen. Even in some historical sources, there are some anecdotal fragments that testify to this. For example, according to Khondamir's work "Makorimul Axloq", when Navoi rebuked the poet Asafi for not working on himself enough, Asafi said: "Nowadays, I am busy writing more and more poems. For example, last night, I recited two hundred verses until the two-dollar candle burned out," he said. Then Navoi replied: "So, every hundred bytes of your lines is worth a penny." With this, the poet is saying that no matter how big the poem is, if it is spiritually and artistically shallow, its value is insignificant.

Alisher Navoi himself insists that the purpose of speaking should be meaning, and he severely criticizes those who claim to be people of meaning, even if there is no meaning in what they write:ing of the poem:

a-a,b-a,d-a,e-a,f-a,g-a,h-a.

It is a simple poem according to its rhyming, and the rhymes in the stanza are as follows:

The soul, the eternal, the world, the unkind, the soul, the devil, the world.

It belongs to the type of muqayyad rhyme.

The narrator in rhyming words is the "n" sound.

Radif: is the word "came".

Alisher Navoi has always emphasized that everyone who holds a pen in his hand should strive hard to make his words meaningful, he should work tirelessly on himself. In general, Navoi had a very critical attitude towards untalented penmen. Even in some historical sources, there are some anecdotal fragments that testify to this. For example, according to Khondamir's work "Makorimul Axloq", when Navoi rebuked the poet Asafi for not working on himself enough, Asafi said: "Nowadays, I am busy writing more and more poems. For example, last night, I recited two hundred verses until the two-dollar candle burned out," he said. Then Navoi replied: "So, every hundred bytes of your lines is worth a penny." With this, the poet is saying that no matter how big the poem is, if it is spiritually and artistically shallow, its value is insignificant.

Alisher Navoi himself insists that the purpose of speaking should be meaning, and he severely criticizes those who claim to be people of meaning, even if there is no meaning in what they write:

Lafzlari bemaza, tarkibi sust,  
Nosara mani-yu ado nodurust.

Borchasiga daviyi maniyi xos,  
Xoslarim topmay alardin xalos.

Navoi compares the poem to the beauty of China. Although the poet raised this beauty to a high status with his poetic talent, but a group of thugs who call themselves poets robbed this beauty and killed himself they take a prisoner and make him cry. Instead of the beautiful clothes worn by the poet, they cover the old shawl, that is, they deprive the poem of both its spiritual and artistic beauty.

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK SIYOSATI

*Mansurova Nigora Dmitriy qizi,*  
Buxoro davlat universiteti Tarix va  
yuridik fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 1-kurs talabasi  
[mansurovan649@gmail.com](mailto:mansurovan649@gmail.com)

**Annotatsiya.** Gender tenglik bu jamiyatda ayollar va erkaklarning tengligi, faol hayotda esa, har bir jabhada xotin-qizlar va erkaklarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishi hisoblanib, davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Chunki har bir demokratik davlat va jamiyatning eng muhim jihatlaridan biri bu ijtimoiy tenglikdir. Shunday ekan, har bir demokratik jamiyatga kirib kelayotgan davlat fuqarolar orasida gender tenglikni ta'minlashi dolzarb ahamiyatga ega. O'zbekiston ham xuddi shu yo'nalishdan borar ekan, bunda fuqarolar ham faol tarzda ishtirok etishlari, bu masalalardagi holatni kuzatib, kamchiliklarni aniqlab, yechimlarni topishda yakdil bo'lishlarini taqozo etadi. Mazkur maqola mamlakatimizda ayollarning huquqlari va erkinliklari, jamiyatdagi tengligi masalasiga bag'ishlanib, bu borada respublikamizda ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasida olib borilayotgan davlat siyosati, erishilgan natijalar va ularning ahamiyati tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** gender tenglik, strategiya, parlament, genofond, oila, taraqqiyot, adolat, tashabbus, diskriminatsiya.

ПОЛИТИКА ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** Гендерное равенство - это равенство женщин и мужчин в обществе, где у них имеются равные возможности во всех сферах активной жизни. Это является одним из стратегических направлений политики нашего государства, поскольку социальное равенство является ключевым аспектом любого демократического общества. Поэтому для каждого демократического государства важно обеспечить гендерное равенство среди своих граждан. Узбекистан также движется в этом направлении, и от граждан требуется активное участие в раскрытии текущей ситуации, выявлении проблем и поиске решений. Данная статья посвящена вопросам прав и свобод женщин, а также рассматривает государственную политику по обеспечению этих прав и свобод, достигнутые результаты и их значимость.

**Ключевые слова:** гендерное равенство, стратегия, парламент, генфонд, семья, развитие, справедливость, инициатива, дискриминация.

GENDER EQUALITY POLICY IN UZBEKISTAN

**Abstract.** Gender equality is the principle of equal rights and opportunities for both women and men in society. It is crucial that women and men have the same chances to thrive in all aspects of life, making it a core focus of our state's policy. Social equality stands as a fundamental pillar of any democratic state and society, highlighting the need for gender equality among citizens. As Uzbekistan progresses in this direction, active citizen participation plays a vital role in monitoring the situation, addressing challenges, and collaboratively seeking solutions. This article delves into the issues surrounding women's rights and freedoms, shedding light on the state policies aimed at ensuring gender equality in our country. By examining the results achieved and their significance, the article aims to promote a better understanding of the importance of gender equality in society.

**Keywords:** gender equality, strategy, parliament, gene fund, family, development, justice, initiative, discrimination.

**Kirish.** Avvalambor, gender tenglik tushunchasining o'ziga to'laroq ta'rif beradigan bo'lsak, bu tushuncha jamiyatning barcha sohalarida iqtisod, siyosat, ta'lim, madaniyat, huquq, ilm – fan va sport munosabatlarida ayollar va erkaklarning teng huquqliligi va imkoniyatlarning tengligini anglatadi. Qadimgi madaniyatga nazar tashlasak, ayol zotiga faqatgina “Ona” va “Xotin” sifatida qarashlar yuqori o'ringa chiqqan edi. Demak, XX asrgacha ayolga faqat pazanda, bolajon, badiiy-estetik timsol sifatida qarash mavjud edi. Xotin-qizlarning ta'lim olish huquqi, davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishida ko'plab to'siqlar mavjud

edi. Bu holat ayniqsa, chekka-chekka hududlardagi ayollarning psixologiyasini va dunyoqarashini tor doiraga tushurib, qoloq qilib yuboradi. Ammo, inson huquqlari sohasidagi yangi harakatlar ayolni ijtimoiy-siyosiy hayotda teng huquqli a'zoga aylantirdi.

Dastlab, bu borada Yevropa ayollari namuna ko'rsatgan bo'lsa, keyinchalik Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi qit'alaridagi ayollar ham ularning yo'llaridan borishmoqda. Lekin ba'zi islom qadriyatlarini hukmdor davlatlarda patriarxal munosabatlar ayollarning teng huquqliligiga to'siqlarni vujudga keltirayapti. Chunki islomdagi ayol kishini erkak kishidan bir pog'ona past turishi haqidagi stereotipning noto'g'ri talqin etilishi natijasida shunday tasavvur saqlanib qolmoqda. Bu aqidaning tub ma'nosi aslida ayol ojiza va uni erkak kishi himoya qilishi, hurmat va ehtirom ko'rsatishi, uni har tomonlama ta'minlab va hattoki ilmiy qilishi vazifa qilib yuklatilgan. Islomda ayol kishi sharaflanadi va o'ta aziz hisoblanadi. Ammo hozirgi zamon ayoli o'sha XX asrgacha bo'lgan ayol emas.

**Adabiyotlar tahlili va metodlari.** O'zbekistonda gender tenglik siyosati masalasini tahlil qilishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning konseptual g'oyalari tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida xizmat qildi.

O'zbekistonda gender tenglik siyosatini tadqiq etishda analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

**Natijalar va muhokama.** Ayollarning o'z haq-huquqlari uchun kurashishi, jamiyatdagi tenglik tushunchasini kun tartibiga ustuvor masala qilib qo'yadi. Xuddi shu vaziyatda intellektual salohiyat jihatidan ham fizika yo'nalishida Nobel mukofoti laureati Maria Sklodovskaya Kyuri ayollarning va erkaklarning aqliy salohiyati teng ekanligini va bir biridan farq qilmasligini ko'rsatib isbotlab bera oldi. "Shunday qilib, XX asr boshlarida xotin-qizlar masalalarida jiddiy siljishlar ro'y bera boshladi. Buyuk Britaniya va Skandinaviya mamlakatlarida ayollar mahalliy boshqaruvda ishtirok etish huquqini va parlamentga ovoz berish huquqini qo'lga kiritdilar" [1].

Xuddi shunday dunyoning boshqa burchaklaridagi ayollar ham birin ketin qator yutuqlarga erisha boshladilar. 1893-yilda Yangi Zelandiyada ayollar erkaklar bilan teng saylov huquqiga ega bo'lishdi. Avstraliyada esa 1902 – yilda, Finlandiyada 1906 – yilda va nihoyat Norvegiyada 1913 – yilda ayollar saylash huquqini qo'lga kiritdilar.

Gender tenglikni ta'minlashni xohlovchilar bu tushuncha erkaklar egallagan amallarni egallab, oilasini ta'minlab, ular bilgan narsalarni bilib yashashdir. Yana bir narsani hisobga olish kerakki, gender tenglik faqatgina ayol va erkak munosabatlarida tenglikni ta'minlashnigina anglatmaydi, balki bu butun ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishi mumkin bo'lgan hodisadir. Shunday ekan, bu insoniyatni yangi ijtimoiy munosabatlar tizimiga asos solishga unday oladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda gender tenglik munosabatlari sohasida milliy tajriba shakllanib, strategik islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalqimizning shonli tarixida ham shohlarning, davlat arboblari va buyuk sarkardalarning hayotida ayollarning o'rni o'ta muhim darajada bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Mana shunday ayollar qatorida adabiyotimiz va ilmiy-tarixiy me'rosimizga o'zining ulkan hissasini qo'shgan Zulfiyaxonim, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva, Muzayyana Alaviya, Sora Eshonto'rayeva kabi mashhur va ilmiy ayollarimizni faxr bilan tilga olib, g'ururlanamiz.

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridanoq xotin – qizlarga e'tibor ko'rsatish, ularni har tomonlama qo'llab – quvatlash, ijtimoiy – huquqiy, siyosiy faolligini oshirish, ma'naviy va intellektual salohiyatlarini oshirish, qizlarni zamonaviy kasb – hunar va sportga jalb etish davlatimiz siyosatining muhim va strategik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1991-yildayoq O'zbekiston Xotin – qizlar qo'mitasi tashkil etilgan bo'lib, u yaqin yillar ichida xalqaro maydonda ham o'z rolini kuchaytirish uchun poydevor yaratgan edi. Bugun davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan respublikamizdagi xotin – qizlarning jamiyat va oiladagi mavqei mustahkamlash, ijtimoiy – siyosiy faolligi oshirish, ularni muhofaza qilishda yangi tahrirdagi Respublikamiz Konstitutsiyasi, o'nlab qonunlar, farmonlar va qarorlar, davlat dasturlari huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bunday ulkan o'zgarishlarga misol qilib keltirishimiz mumkin bo'lgan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'RQ-562-sonli va O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-sonli qonunlari yuqoridagi fikrimizning yoqin dalilidir [2].

Mamlakatimizdagi aholining qariyb 50 foizini ayollar tashkil qilishini hisobga oladigan bo'lsak, ularga qaratiladigan e'tibor ham shunga muvofiq ravishda yuksalib bormoqda. 2019-yildayoq ayollarning sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi ulushi 82 foizdan ortig'ini, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va

san'at sohalorida 72 foizni, qishloq xo'jaligida 45 foizdan ortiqni, sanoatda esa 38 foizni tashkil qilgan va bu ko'rsatkichlar bugunga qadar ham muttasil o'sib kelmoqda. Shu bilan birgalikda ijtimoiy faol ayollarni rahbarlik lavozimiga tayyorlash, o'qitish va ularning malakasini oshirish tizimi ham yaratilmoqda.

Bugungi kunga kelib, xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish ham anchayin kuchaygan va davlat oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadidagi kreditlar hajmini ham 2 barobargacha oshirgan. Bundan tashqari, 2014-2016- yillar davomida tijorat banklaridan ayollarga tadbirkorlik uchun jami 3 trilion 800 milliard so'm miqdorida kreditlar berilgan bo'lsa, birgina 2018-yilning o'zida esa, bu ko'rsatkich 3 trilion 361 milliard so'mni tashkil qilgan. Bu raqamlar ko'p narsalardan dalolat beradi, so'ngi yillarda esa bular yanada ilgarihamoqda.

“Chindan ham, qizlarimiz – bizning kelajagimiz, millatimiz genofondini asraydigan, munosib davom ettiradigan insonlardir va ularni jismoniy hamda ma'naviy barkamol etib tarbiyalash – ezgu burchimiz” [3]. Prezidentimizning ushbu keltirib o'tilgan so'zlari ham yuqorida fikrlarimizning izohidir. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash” sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora tadbirlar to'g'risidagi farmoni bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qildi. Bu orqali respublikamizdagi ayollarning jamiyatdagi mavqei shunga mutanosib tarzda oshib borishiga erishildi. Jumladan, 2020-yilgi saylov natijalariga ko'ra, Respublikamiz Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylangan 150 dan 48 nafari ya'ni 32 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Senatda va mahalliy kengashlarda esa, bu ko'rsatkich 25 foizdan ortiqroqni tashkil etdi. Bu o'rinda Prezidentimizning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “... O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda ayollar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti ayol deputatlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida 37 – o'ringa ko'tarildi. Holbuki, - shunga e'tibor berishingizni so'rayman – bundan 5 yil avval biz bu borada 128-o'rinda edik” [4]. Bunday ulkan natijaga erishishda shubhasiz yurtimizda gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, tadbirkorlikka va yangi ish o'rinlari yaratishga bo'lgan e'tiborni davlat darajasiga ko'tarilganligining natijasi deyishimiz mumkin.

Prezidentimizning 2022-yilda e'lon qilgan “Taraqqiyot Strategiyasi”da ham ayollarga oid masalarni keltirib o'tilgan. Xususan, strategiyaning to'rtinchi ustuvor yo'nalishi bo'lgan “Adolatli ijtimoiy siyosat” yo'nalishida tarkibida gender siyosati xususida ham qator masalalarga e'tibor qaratiladi:

- ijtimoiy-siyosiy hayotda ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratish;
- iqtisodiyot, bandlik sohasida va migrantlar sifatida huquqlarni himoya qilishda gender tengligini ta'minlash, adolatli va sifatli ta'limni ta'minlash;
- xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish, odam savdosiga chek qo'yish;
- barcha uchun ijtimoiy himoya, sog'lom turmush tarzini ta'minlash;
- milliy gender statistikasini rivojlantirish, rejalashtirish va budjetlashtirishda gender masalasini inobatga olish;
- xavfsiz ekologik muhitni ta'minlash bo'yicha ayollarni kengroq jalb qilish va gender muammolarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritishini ta'minlash va b.

Shunday qilib mamlakatimizda amalga oshirilayotgan va amalga oshirilishi rejalashtirilgan bunday islohotlarni barchasida gender tenglikni ta'minlash mexanizm va istiqbollari mujassam. Bulardan ko'zlangan maqsad esa xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini mustahkamlash, e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish va ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashdir. Ko'rib turganizimdek mamlakatimizda ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan say-harakatlarini ancha ijobiy natijalar bermoqda, dunyo e'tiborini o'ziga qaratib, hayratlantira olmoqda. Dunyo bo'ylab ham ayollar va erkaklar orasidagi tenglikni ta'minlash, jamiyatda ayollarning mavqeyini oshirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar yurtimizga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, BMTga a'zo mamlakatlarda ham ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash, unga doir milliy majburiyatlarni to'liq bajarish, ularning barchasi rivojlanish maqsadlariga erishish va BMT tamoyillarini qo'llab-quvvatlashga munosib hissa qo'shishni anglatadi. Davlatda samarali iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlar va erkaklarning teng imkoniyatlar ta'minlanishi kafolati bo'lgan institutsional mexanizmni yaratish rivojlantirishni taqozo etmoqda. Gender tenglik masalalari bir qancha xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan. Misol uchun, A'rof muhit va rivojlanish bo'yicha Rio-de-Janeyro Deklaratsiyasi (1992), Aholishunoslik va rivojlanish bo'yicha Qohira konferensiyasi (1994), Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha Pekin konferensiyasi (1995) va Inson manzilgohlari bo'yicha Istanbul konferensiyasi (1996). Ushbu qoidalarning bosh qomusimiz bo'lmish – yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 58-moddasida mustahkamlanishi diqqatga sazovor. Shuningdek, mamlakatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-marifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yilishi

bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ishlab chiqilib, uning beshinchisi xotin-qizlarning ish bilan ta'minlanishi masalasi bag'ishlanganligi muhim islohotlardandir.

Hozirgi zamonda gender tenglik tushunchasi bilan birgalikda "pozitiv diskriminatsiya" tushunchasi ham birgalikda qo'llanilib kelinmoqda. Avvalo bu tushunchga ta'rif beradigan bo'lsak, pozitiv diskriminatsiya-ta'limda, ilm sohasida gender tenglikka erishish uchun qo'llaniladigan uslub bo'lib, kam sonli guruhga alohida imkoniyatlar va kvotalar berishdan iboratdir. Misol tariqasida shuni keltirib o'tishimiz mumkinki, O'zbekistonda bugungi kunda muhandis, jarroh, dasturchi kabi sohalardagi ayollarning kamligi, ushbu sohalarda ayollarning ko'payishiga ehtiyoj tug'diradi. Buni bartaraf etish uchun bu yo'nalishlarga xotin-qizlarni ko'proq jalb etib o'qitish va bu uchun alohida imkoniyat va yana kvotalar yaratish pozitiv diskriminatsiya bo'lib hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bu masalad xususida to'xtalib, quyidagilarni e'tirof etadilar: "... o'z navbatida, "Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilimli, ma'rifatli va salohiyatli qilish", degan qoidani hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi" [5]. Darhaqiqat, mamlakatimizdagi strategik islohotlar nafaqat ayollarning ijtimoiy va siyosiy sohadagi o'rni, balki, salomatligini ham hisobga olingan. Jumladan, homiladorlik paytlarida bepul dori-darmonlar bilan taminlash bo'yicha shart-sharoitlar yaratilganligi buning yorqin misolidir. Sababi jamiyatning gullab-yashnashi sog'lom avlodga bog'liq. Sog'lom fikrlaydigan insonlarning sog'lom kelajakni yaratishda o'rni kattadir. Ayollarning jamiyatga butkul sog'lom avlodni dunyoga keltirish, ularni barkamol qilib tarbiyalashda o'rinlari beqiyosligi sababli xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy erkinliklari davlat himoyasida va ular har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda.

Xotin-qizlarning iste'dodini munosib taqdirlash borasida ham keng qamroqqli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Zulfiya" mukofoti, shu bilan birgalikda "Mo'tabar ayol" nomli mukofotlar barchasi ayollar uchun mo'ljallanganligi muhim tadbirlardandir. "Zulfiya" mukofotiga har yili 28 nafardan qizlar munosib deya ko'rib, 2020-yilga qadar bu mukofotga ega bo'lgan qizlarning soni 311 nafarga yetgan va bu sonlar har yili ko'payib bormoqda. Yoki onalik va bolalikni himoya qilish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha ham namunalar ko'rsatgan ayollarga "Mo'tabar ayol" nishoni topshirilmoqda va 2020-yilga qadar 287 nafar xotin-qizlar bu nishon sohibasiga aylanib ulgurgan. Ayollarning jamiyat qurilishi, boshqaruvdagi roli va siyosiy huquqlar oshayotganligining yana bir isboti sifatida ularning ism-shariflari yoniga O'zbekiston Qahramoni, Senator, Deputat, Vazir, Vazir o'rinbosari, tadbirkor, direktor, hokim, olim kabi nomlarning qo'shib aytilishi misolida ham ko'rishimiz mumkin.

2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash sohasida quyidagi islohotlarni amalga oshirish ko'zlangan:

➤ gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish.

➤ jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash.

➤ "Ayollar daftari" bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar, qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar va qarorlar mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash va bu sohadagi muammolarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish uchun xizmat qiladi. O'zbekistonda demokratik va dunyoviy mamlakatda inson huquqlarini ta'minlash va unda jahon tajribalaridan foydalanish rivojlanishni ta'minlashning asosiy bosqichi bo'lib hisoblanadi.

**Keywords:** Justice, notary, "Anti-corruption management system", "Concepts of development of justice bodies and institutions", "Mediation", Notary chamber, "Notarial advice", "notarialpalata.uz".

**Kirish.** 2024-yilda O'zbekistonda zamonaviy adliya tizimi 100 yoshga to'lmoqda, bu uning paydo bo'lishi, shakllanishi va keyingi rivojlanishining tarixiy bosqichlarini eslash uchun munosib sababdir. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tarixi asosan zamonaviy o'zbek davlatchiligi shakllanishining 100 yillik tarixiga to'g'ri keladi.

Sir emaski, bugungi kunga kelib adliya organlari va muassasalari davlat boshqaruvi organlari orasida va jamiyat hayotida muhim o'rin egallab, mamlakatning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy tashkilotchisi hamda qonuniy adolatni ta'minlaydigan organga aylanib bormoqda.

Jahon tarixida davlatda kafolatlangan qonuniy adolat XVIII asr ohiri - XIX asrlarda vujudga kelib, rivojlangan nisbatan yosh hodisadir. 1789-yilgi buyuk fransuz inqilobidan keyin hokimiyatni ajratish g'oyasi amalda qo'llanila boshlanib, ilk zamonaviy sud-huquq tizimiga andoza yaratildi.

Tarixda islom diniga e'tiqod qilingan hududlarda adolatni ta'minlash asosan qozilik lavozimi zimmasiga yuklatilgan. Qozilar shariat, xususan islom qonunchiligi (fiqh) asosida faoliyat yuritganlar. Shariatga musulmon dunyosi uchun dunyoga kelishidan to o'limigacha yurish-turishini belgilovchi qoidalar to'plami sifatida qaralgan. Shariat huquqiy tizim sifatida XI-XII asrlarda tugal shakllanib, XIX asr o'rtalariga qadar amal qildi.

Ammo nasroniylar yoki dinsizlar tomonidan shariat qoidalarini, yevropada esa dindorlar yoki ateistlar tomonidan turli hil diniy boshqaruv usullari tan olinmaslik holatlari paydo bo'ldi.

XX asr 20 yillariga qadar Turkistonda ham adolat va qonuniylik masalalari asosan qozilik tizimi tomonidan hal qilingan. Vatanimizni XIX asr 2 - yarmidan Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi davlat boshqaruvi va davlat organlarining shakllanishiga ham katta ta'sir o'tkazdi. Xususan, Rossiya imperiyasining Adliya vazirligi 1802 - yil 20 - sentyabrda Aleksandr I ning "Vazirliklarni tashkil etish to'g'risida»gi manifestiga binoan tashkil etilgan edi. Huddi shu hujjatda Hukumatda Adliya vaziri lavozimini joriy etilib u ayni paytda u Rossiya imperiyasining Bosh prokurori ham edi.

1828 - yilda adliya vazirligi imperatorga sudlarni sudyalari va advokatlar bilan mustahkamlash zarurligi to'g'risida takliflar kiritdi va ularni tayyorlash Adliya vazirligining bevosita ishtirokini talab qildi.

Eng muhimi, Adliya vazirligining 1881 - yil 26 - maydagi iltimosiga ko'ra, o'lim jazosini omma oldida ijro etish bekor qilindi. Ammo o'zbek xonliklarida ming afsuski, omma oldida o'lim jazosi XX asrning boshlarida ham saqlanib qolgan edi.

Bolsheviklarning 1917 - yil oktyabr inqilobidan keyin noyabrda adliya vazirligi tugatildi. Sovetlarning 8 - noyabrdagi Butunrossiya Kongressi qaroriga muvofiq 1917 - yilda RSFSR Adliya xalq komissarligi (AXK) tuzildi.

1919-yil AXK ning viloyat Ijroiya qo'mitalarining Adliya bo'limlari to'g'risida Qarori qabul qilindi.[1] Mazkur qaror bo'yicha mahalliy muassasalar faoliyatini birlashtirish va boshqarish, AXK har bir viloyat ichida viloyat hokimligiga tayinlanishi ta'kidlandi.

Ta'kidlash kerakki, 1920 - yil 30 - aprelda xalq vakillarining birinchi Butunxorazm qurultoyida Xorazm XSR tashkil topganligi e'lon qilindi. Shu kuni "Mamlakatda militsiya boshqarmasini ta'sis etish va Xiva shahrini himoya qilish to'g'risida»gi qarorni qabul qildi. Mazkur qarorga ko'ra, Respublika Adliya nozirligi qoshida Militsiya boshqarmasi ta'sis etildi. Shundan boshlab, birinchi ichki ishlar noziri N.Sholikorov 1920 - yil 30 - apreldan o'z vazifasini bajarishga kirishdi.[2] Bolsheviklar yuridik amaliyotchilarning maxsus bilimlaridan "to'g'ri foydalanish" maqsadida XKSning 1920 - yil 11 - mayda butun mamlakatda "Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi.[3]

1924 - yil ohirlarida O'rta Osiyoda milliy - hududiy chegaralanishning o'tkazilishi va O'zbekiston SSR ning (1925 - yilning fevral oyi) tashkil etilishi natijasida, Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm xalq sovet Respublikalari hududlarida faoliyat yuritgan adliya organlari O'zbekiston Respublikasi AXK tasarrufiga o'tkazildi. Rasman O'zbekiston Respublikasi AXK 1924 - yil 26 - noyabrda Inqilobiy qo'mitaning qarori bilan Turkiston ASSR AXK negizida tashkil etildi. Uning asosiy vazifalaridan biri O'zbekiston hududida adliya idoralarining faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirishdan iborat edi.

1925 - yil 6 - may kuni O'zbekiston Kengashining MIQ Rayosati AXK haqidagi Nizomni tasdiqladi.[4] Bu Nizom yangi barpo etilgan AXK ning tarkibi va vakolatlarini belgilab berdi. 1928 - yil 27 - oktyabrda O'zbekiston SSR ning MIQ kengashi tomonidan chiqarilgan "O'zbekiston SSR sud organlariga rahbarlik qilish tartibi to'g'risida»gi qaror bilan AXK tizimiga sezilarli o'zgartirishlar kiritildi.

Mazkur qaror bilan "Yagona sud siyosatini o'rnatish va sud organlarini boshqarish" zaruratidan kelib chiqib, O'zbekiston SSR XKSni shunday qayta tashkil etish lozimki, unga ko'ra uning faoliyati ustidan, ayniqsa, prokuratura va sud organlari ustidan nazorat qilish va ularni boshqarish maksimal darajada ta'minlangan bo'lishi lozim" - deyiladi. AXKda sud va prokuraturani boshqarishni birlashtirish maqsadida prokuratura yo'nalishi bo'yicha (Respublika prokurori) va sud yo'nalishi bo'yicha (O'zbekiston SSR Oliy sudi raisi) ikkita o'rinbosar lavozimi tashkil etildi.

Ming afsuski, XX asrning 30-40 yillarida adliya ministrligi ayrim vaqtda adolatga emas, Stalinning vahshiyona qatag'on, shafqatsiz rejimida jazolashga xizmat qilgan vaqtlar ham bo'ldi. Chunki ushbu tizim ham batamom partiya va sovet ijroiya organlariga qaram edi.

Sobiq Ittifoq Markaziy ijroiya qo'mitasi va XKSning 1934 - yil 27 - oktyabrdagi qaroriga asosan AXK ning tizimida bo'lgan mehnat - tuzatish muassasalari Ichki ishlar xalq komissarligining tarkibiga o'tkazilgan.

Ta'kidlash kerakki, Prokuratura 1936 - yilga qadar AXK ning tarkibida bo'lgan. SSSR Markaziy ijroiya qo'mitasi va XKS ning 1936 - yil 20 - iyundagi qarorining 2 - moddasiga binoan prokuratura va tergov organlari ittifoq va avtonom Respublikalarning Adliya xalq komissarlaridan ajralib, SSSR prokurorining mutlaq bo'ysunuviga o'tdilar.

Sobiq Ittifoq MIQ va AXKS tomonidan 1936 - yil 20 - iyulda qabul qilingan "SSSR AXKni tashkil qilish to'g'risida"gi qarori markazlashtirilgan sud va prokuratura tizimini yaratishda yakunlovchi hujjat bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston SSR Xalq Komissarlar Soveti 1937 - 1941 - yillar davomida "O'zbekiston SSR davlat notariati to'g'risidagi nizom"ga bir qancha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritdi. Respublikaning 54 ta tumanida notarial idoralari yo'qligi munosabati bilan AXK 1938 - yil 27 - avgustda buyruq chiqarib, ushbu tumanlar sud organlariga notarial harakatlarni bajarish vazifasi yuklatildi.

1940 - yil iyul oyida mahalliy boshqarmalar boshliqlariga xalq sudyalariga intizomiy jazo - mulohazalar va tanbehlar yuklash huquqi ham berildi.

1941 - yil 15 - iyulda SSSR AXK mahalliy boshqarmalarga, agar noto'g'ri ruxsat etilgan ishlar topilsa, ittifoq Respublikasi AXKni chetlab o'tib, ularni to'g'ridan to'g'ri ittifoq Respublikasi Oliy sudi raisiga protest qilish g'oyalari bilan kirish huquqini berdi.

SSSR AXK ning 1941 - yil 27 - sentabrda chiqarilgan buyrug'i bilan viloyat va viloyat boshqarmalari boshliqlariga RSFSR AXK ning ruxsatisiz mahalliy Kengashlarga sudyalarni olib tashlash masalasini qo'yish huquqi berildi.

II jahon urushi yillarida adliya idoralari tizimida jiddiy o'zgarishlar bo'lmadi, ammo ayrim bo'limlar faoliyati Respublika ma'muriy - hududiy bo'linishidagi o'zgarishlar va harbiy vaqt xususiyatlaridan kelib chiqib takomillashdi.

SSSR hukumatining 1944- yil 30- dekabrda "Maxsus lager sudlarini tashkil etish to'g'risida" gi Farmoni asosida 1949 - yilda 77 ta maxsus lager sudlari tashkil etildi. 1948 - yildan boshlab maxsus Adliya organlari vakolatlarini cheklash va faoliyatini asta - sekin pasayishi kuzatildi. 1953 - yildan boshlab davlat organlarida "tozalash" kompaniyasini boshlanishi munosabati bilan ularning ko'pchiligi ishsiz qolishdi.

1956 - 1958-yillardan boshlab SSSR Oliy Sovetining maxsus komissiyasi SSSRning sobiq Adliya vaziri K.Gorshenin boshchiligida davlatdagi faoliyat yuritgan maxsus sudlar haqida har qanday eslatmani bekor qilishni taklif qildi. Bu vaqtga kelib bu atama ancha obro'sizlantirildi va atamaga siyosiy tus berildi. Shuning uchun maxsus sudlar to'g'risidagi har qanday eslatmalar qonuniy hujjatlar va ilmiy adabiyotlardan g'oyib bo'ldi.[5]

1946 - yil 15 - martdan xalq "SSSR XKS ni SSSR Vazirlar Kengashiga va ittifoq va avtonom Respublikalar Xalq Komissarlari kengashlarini ittifoq va avtonom Respublikalar vazirlari Kengashlariga aylantirish to'g'risida" gi SSSR Qonuniga muvofiq SSSR Xalq Komissarligining huquqiy vorisi sifatida Adliya vazirligi tashkil etilib, Qonuniga muvofiq O'zbekiston SSR xalq komissarlikligi O'zbekiston SSR Adliya vazirligiga aylantirildi.[6]

Huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha kadrkar va ilmiy xodimlar tayyorlashni yo'lga qo'yish maqsadida 1947 - yilda O'rta Osiyo davlat universiteti tarkibida yuridik fakultet tashkil etildi. 1955 - yilda esa Toshkent yuridik instituti esa O'rta Osiyo davlat uniersitetining yuridik fakultetiga aylantirildi.

1947 - yilga kelib sobiq Ittifoq Adliya vazirligi qoshida 9 oylik Sud va prokuratura xodimlarini tayyorlash O'rta Osiyo kursi faoliyat ko'rsata boshlagan. Bu kursi Ittifoq miqyosidagi hududiy ta'lim muassasasi bo'lib, u nafaqat O'zbekiston uchun, balki Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalari uchun ham sud va prokuratura sohasida kadrlarni yetishtirib berdi

1951 - yildan boshlab adliya tizimiga sud ekspertiza muassasalari kiritildi, tadqiqot sud - tibbiyot laboratoriyalari va Butunittifoq yuridik fanlar instituti tashkil etildi.

1948 va 1951 - yillarda SSSR Ministrlar Soveti, xususan O'zbekiston SSR adliya vazirligi viloyat ijroiya qo'mitalari sudlarga zarur binolar va jihozlarni ajratishi qat'iy belgilab berildi. 1952 - yilda huddi shu yordam kompaniyasi notarius organlariga nisbatan ham o'tkazilishi kerak edi. Ammo demokratik yangilanishlardan qo'rqadigan sovet organlari bu islohotlarni odattagidek e'tiborsiz qoldirdilar.

1953 - yilda sovet adliya tizimida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'z - o'zidan I.Stalinning o'limi, "Shaxsga sig'inish" g'oyasining tugab, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning yangi davriga o'tish bilan izohlanadi.

1953 - yil 28 - martda "SSSR Ichki ishlar vazirligidan axloq tuzatish ishlari lagerlar va koloniyalarni Adliya vazirligiga o'tkazish to'g'risida"[7] gi № 832 - 370 sonli qarori e'lon qilindi.

SSSR Oliy sovet prezidiumining 1956 - yil 31 - maydagi farmoni bilan SSSR Adliya vazirligi, xususan O'zbekiston SSR adliya vazirligi ham bekor qilindi va SSSR 1956 - yil 14 - iyuldagi Qonuni bilan vazirlik haqida eslatma SSSR Konstitutsiyasining tegishli moddasidan chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining 1956 - yil 7 - avgustdagi "Mehnatkashlar deputatlari viloyat Kengashlari qoshidagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining boshqarmalarini tugatish haqida"gi farmoniga asosan, Respublika Vazirlar Kengashi o'zining 1956 - yil 6 - noyabrdagi qarori

bilan Respublika Adliya vazirligi to'g'risidagi yangi Nizomni tasdiqladi. Yangi Nizomga binoan O'zbekiston Adliya vazirligi bevosita Respublika Vazirlar Kengashiga bo'ysungan. Vazirlikda vazir, uning o'rinbosarlari va bir nechta rahbar xodimlardan iborat hay'at faoliyat ko'rsatgan. Hay'at yig'ilishlarida sud va adliya idoralarining ishini amaliy boshqarish, ijroni tekshirish, kadrlarni tanlash, eng zarur buyruq va yo'riqnomalarni tayyorlash kabi masalalar hal qilingan.

Butunittifoq yuridik fan xodimlarisiz tizim xodimlari atiga 302 kishini tashkil etardi.

U 1956 - yilning sentyabrida X.Sulaymonova O'zbekiston SSR Adliya ministri etib saylandi.

1957 - yil 1 - maydagi ma'lumotlarga e'tibor bersak, ministrlikdagi 41 xodimning 15 nafari, viloyat sudi 87 sudyasining 25 nafari, 230 xalq sudyasining 48 nafari, 70 notariusning 53 nafari ayol - qizlar bo'lgan. Bunga qaraganda, X.Sulaymonova ayol - qizlar masalasiga alohida e'tibor qaratgan ko'rinadi. 1958 - yil 24 - yanvarda uning rahbarligida Toshkent sud ekspertiza ilmiy - tadqiqot instituti tashkil etiladi. Bu institutga keyinroq X.Sulaymonova nomi berildi.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1963 - yil 20 - sentyabrdagi 551 - sonli qarori bilan "Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yuridik (shartnoma - yuridik) bo'limi (byurosi), bosh (katta) yuriskonsult, yuriskonsult to'g'risida Namunaviy nizom" tasdiqlangan.

1959 - yil 23 - martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosati "viloyat va xalq sudlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish" maqsadida Adliya vazirligini tugatdi. Viloyat va xalq sudlarining ishini tekshirish, ularning barcha faoliyati ustidan nazorat qilish huquqi hamda sud statistikasini olib borish majburiyati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga yuklatildi. Bunday qayta tashkil qilish oqibatida yuqori sud instansiyalari sud boshqaruvini ham amalga oshirdi.

Respublika Vazirlar Kengashining 1959 - yil 27 - martdagi Qarori bilan uning huzurida yuridik komissiya tashkil qilinib, bu komissiya zimmasiga qonunlarni mujassamlashtirish, hukumat topshiriqlariga ko'ra Vazirlar Kengashiga kiritilgan normativ xususiyatga ega qonun hujjatlari va hukumat qarorlari loyihalarini dastlabki ko'rib chiqish yuklatilgan.

Ammo, keyinchalik davlat qurilishi amaliyotiga bunday yuzaki yondashuv xato ekanligi va qonun hujjatlarini tayyorlash sifatiga, malakali huquqshunos kadrlarning salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi ma'lum bo'ldi.

1970 - yil 31 - avgustda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi "SSSR ittifoq - Respublika Adliya vazirligini tashkil etish to'g'risida" Farmon chiqardi va o'sha yilning 10 - dekabrda SSSR ning 565 - VIII - sonli Qonuni qabul qilindi, unda ushbu Farmon tasdiqlandi va ittifoq Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritildi.

1970 - 1980 yillarda O'zbekistondagi yuridik ta'lim rivojlana boshladi. Aynan shu yillari Samarqand davlat universiteti qoshida yuridik fakultet (1974), Nukus davlat universitetining tarix fakulteti qoshida huquqshunoslik bo'limi (1977), O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida yuridik texnikum (1977) va Adliya vazirligi qoshida malaka oshirish kurslari (1971) tashkil etildi.[8]

1990 - yilgacha ToshDU yuridik fakultetida kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlar faoliyat olib borgan. Agar 1921 - yili Huquq institutini atigi 30 nafar talaba bitirgan bo'lsa, 1980 - yilning ohiriga qadar birgina ToshDU yuridik fakultetini 4 mngdan ziyod yoshlar bitirib chiqdi. Qolaversa, 1921 - yilda Huquq instituda atigi 9 nafar professor - o'qituvchi dars bergan bo'lsa, 1989 - 1990 o'quv yilida ularning soni 118 nafarni tashkil etgan.

Xulosa shuki, 1970 - 1980 yillarda O'zbekiston SSR ning huquqiy tizimida ham katta o'zgarishlar ro'y bergan. Turli sohalarga oid huquq manbalari, kodekslar ishlab chiqilgan. Jumladan, Jinoyat kodeksi (1959 - yil), Jinoyat - protsessual kodeksi (1959 - yil), Fuqarolik kodeksi (1963 - yil), Fuqarolik - protsessual kodeksi (1963 - yil), Nikoh va oila kodeksi (1969 - yil), Yer kodeksi (1970 - yil), Mehnat qonunlari kodeksi (1971 - yil), Suv kodeksi (1972 - yil) va boshqa normativ - huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston SSR boshqa ittifoqdosh Respublikalar kabi mustaqil deb e'lon qilingan bo'lib, amalda tom ma'nodagi mustaqil davlat bo'lmagan. 1985 - yilda boshlangan qayta qurish, demokratiya va oshkoralik uchun harakatlar SSSR ning tarqab ketishiga va ittifoqdosh Respublikalarning mustaqillikka erishishiga olib keldi.

O'zbekiston SSRda adliya organlari hamda muassasalarining shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari ilmiy - amaliy tahriri quyidagi xulosalarni asoslashga xizmat qildi:

Birinchidan, 1924 - yil ohirlarida O'rta Osiyoda milliy - hududiy chegaralanishning o'tkazilishi va O'zbekiston SSR ning tashkil etilishi natijasida, Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm xalq sovet Respublikalari hududlarida faoliyat yuritgan adliya organlari O'zbekiston Respublikasi AXK tasarrufiga o'tkazildi. Rasman O'zbekiston Respublikasi AXK 1924 - yil 26 - noyabrda Inqilobiy qo'mitaning qarori bilan Turkiston ASSR AXK negizida tashkil etildi. Uning asosiy vazifalaridan biri O'zbekiston hududida adliya idoralarining faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirishdan iborat edi.

O'zbekistonda Adliya organlarini tashkil etish va shakllantirishi, Yurtimizda zamonaviy huquqshunoslik tizimini boshlanishini, sud tizimi va yangi huquqiy munosabatlarni boshlab berdi.

Ikkinchidan, sovet hokimiyati yillarida zamonaviy tashkil etilgan Adliya organlari mamlakatda sodir bo'lgan eng yirik tarixiy voqealarning ishtirokchilari bo'lib, jamiyatning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini isloh qilishga hissa qo'shdilar.

Feodal jamiyatdan umuman yangi sotsial tuzimga o'tish zo'ravonliksiz bo'lishi mumkin emas edi. Achinarlisi, individual hatto ommaviy terror siyosatini o'tish vaqtida davlat agregatining bir qismi sifatida Adliya organlarining ham ishtirok etishiga ham olib keldi.

Totalitar tizimda ular partiya-davlat nomenklaturasi erkinligini ifoda etdilar, ularning erkinligini ijro etdilar. Shuning uchun, sovet hukumati Adliya organlari tarixida faqat yomon, salbiy narsalarni ko'rish adolatdan bo'lmaydi.

Uchinchidan, ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, 1985 - 1990 - yillarda Respublikamizda yuridik xizmat va huquqiy ishlar to'g'risida maxsus normativ hujjatlar deyarli qabul qilinmagan hamda davlat boshqaruv organlari va korxonalar ilgari qabul qilingan normativ - huquqiy hujjatlar asosida faoliyat ko'rsatganlar. Bu esa adliya vazirligiga huquqiy targ'ibot bo'yicha faoliyatini to'liq olib borishga imkon bermagan.

Adliya idoralarining o'rni va mas'uliyatini oshirish, qonun ijodkorligini faollashtirish, aholiga huquqiy yordam ko'rsatishni yaxshilash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov 1992 - yil 8 - yanvarda „O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida“gi PF - 314 - sonli farmonni qabul qildi. Ya'ni, O'zbekiston SSR ning ittifoq - Respublika Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 - yil 27 - avgustdagi „O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida“gi 370 - sonli Qaror esa vazirlik faoliyatini va obro'sini tubdan o'zgartirib yuborgan tarixiy hujjatlardan biri bo'ldi.

2017 - 2023 - yillar adliya sohasida muhim o'zgarishlar davri sifatida tarixda qoladigan davr bo'ldi. Qabul qilingan bir qator qonunlar va Prezident qarorlari ushbu jarayonda muhim huquqiy asos vazifasini o'tadi. 2017 - 2021 - yillar adliya tizimida katta islohotlar va natijalarga erishildi. Adliya organlari va muassasalari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan 20 ga yaqin yangi qonun hujjatlari qabul qilindi.

Xususan, 2017 - yilga qadar adliya organlarida 200 ga yaqin funksiya mavjud bo'lgan bo'lsa, 2017 - 2021 - yillarda qo'shimcha yana 160 dan ortiq funksiya va vazifalar yuklatildi.

Ushbu yillarda vazirlik tomonidan huquq ijodkorligi yuzasidan ham katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, 202 ta qonun hujjatlari loyihalari ishlab chiqildi. Shundan, 52 ta qonun loyihasi, 38 ta Prezident hujjatlari va 80 ta hukumat qarorlari loyihalari ishlab chiqildi.

Ta'kidlash kerakki, 2020 - yil 19 - mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida“gi PF - 5997 - sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga ko'ra 2020 - 2024 - yillarda adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

Ta'kidlash kerakki, Adliya organlari va muassasalarida jami 7263 nafar xodim faoliyat yuritib kelayotgan bo'lsa, shundan 2682 nafarini (37 %) xotin - qizlar, 4581 nafarini (63 %) erkaklar tashkil etadi.

Bugungi kunda huquqiy targ'ibot bu - zamon talabi, Yangi O'zbekiston uchun esa katta va muhim ehtiyoj hamdir. Shuni e'tiborga olgan holda, Adliya organlari ayni vaqtda har bir fuqaroga malakali, bepul va konfedensial huquqiy ma'lumot olish imkoniyati ustida harakat qilmoqda. Shu bilan bir qatorda, adliya organlari jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyatini tizimli ravishda muvofiqlashtirib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ - 3666 - sonli Qarori [9] vazirlik faoliyatidagi eng muhim tarixiy hujjatlardan biridir. Zero ushbu qaror vazirlik faoliyatini tubdan faollashtirib, Yangi O'zbekiston davlat va jamiyat hayotida adliyaning o'rni hamda mas'uliyatini ikki karra oshirdi.

Ta'kidlash kerakki, vazirlik tomonidan yaratilgan [www.lex.uz](http://www.lex.uz) rasmiy axborot kanali O'zbekistonda eng ko'p foydalaniladigan saytlar qatoriga qo'shildi. So'nggi yillarda saytning yangi versiyasi ishga tushirildi. Saytning yangi versiyasida hujjatlarni orfografik xatoalr bilan qidirish, xato so'zlarni aniqlash, abbreviature (qisqartmalar) va sinonim so'zlar bo'yicha izlash, hujjatning oldingi va hozirgi tahrirlarini solishtirish kabi funksiyalar yaratildi. Shuningdek. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) saytining mobil ilovasi ham takomillashtirildi.

Mazkur sayt [www.uz](http://www.uz) reytingida barcha kategoriyalar bo'yicha 13 - o'rin, ma'lumot beruvchi saytlar ro'yxatida 3 - o'rinda, qonun va huquq yo'nalishida 1 - o'rinda saralangan. Saytga doimiy kiruvchilar soni bir kunda taxminan 71 - 72 mingtani, ko'rishlar soni esa 208 - 221 mingta (o'rtacha hisobda oyiga 5,2 mln) ni tashkil etmoqda.[10]

O'zbekiston Milliy axborot agentligining "Yil tanlovi - 2020" tadbirida "2020 yilning eng namunali vazirligi" yo'nalishiga Adliya vazirligi g'olib deb topildi. Vazirlik 2020 - yilda har qachongidan ham faol ish olib bordi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning 2018 - yil 13 - apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora - tadbirlar to'g'risida"gi PQ - 3666 - son Qarori bilan Adliya vazirligi tuzilmasida har bir hududda bittadan 14 ta yuridik texnikum tashkil etildi.

Yuridik texnikumlarning eng asosiy vazifasi TDYU ga talaba yetkazib berish emas, balki hududlardagi tashkilot, korxonalar va muassasalarda o'rta maxsus ma'lumotli huquqshunos kadrlar bilan ta'minlanish hisoblanadi. Shuning uchun texnikum bitiruvchi kurs o'quvchilarining aksariyat qismi notarius yordamchisi, FHDY bo'limi inspektori, DXM mutaxassisi, davlat ijrochisi, arxivator kabi mutaxassisliklarda ishlashni asosiy maqsad sifatida qarashmoqda.

Qolaversa, mazkur qaror yuridik texnikum bitiruvchilari uchun OTM "yurisprudensiya" yo'nalishining 2 - kursiga tavsiya etilishlari uchun aniq tartib - qoidalarini belgilab berdi. Unga ko'ra bitiruvchi kurs o'quvchisiga bir nechta talablar qo'yildi.

Xususan, texnikum o'quvchilariga har bir fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi reyting natijalari bo'yicha 71 va undan ortiq % ni tashkil qilishi kerak (o'quvchi sirtqi yoki masofaviy ta'lim shakllarida o'qiganda 85 va undan ortiq % ni tashkil qilishi kerak), chet tilini B2 va undan yuqori darajada bilishini tasdiqlovchi sertifikatga ega bo'lishi, ma'naviy - ma'rifiy va jamoat ishlari, loyihalar va tanlovlarda faol ishtirok etishi hamda ichki tartib - qoidalarga, odob - axloq qoidalarga rioya etishi kerak bo'ladi.

Yuridik texnikum bitiruvchisiga chet tilini bilish majburiyatining qo'yilishi albatta bejiz emas. Zero buyuk jadidimiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'z vaqtida "**Biz uchun ikki emas, to'rt tilni bilish zarur**", deb bong urgan edi. Behbudiy bobomizning ushbu da'vati hozir ham g'oyat dolzarb bo'lib turibdi. Hozirgi kunda farzandlarimizning chet tillarini aniq hamda ijtimoiy fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Xalqimiz tomirida buyuk ajdodlarimiz qoni oqayotganligini his etish, dunyo ilm - fani rivojiga muhim hissa qo'shgan ajdodlarimizga munosib voris ekanligini anglagan holda mamlakatimizda ilm - fan taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shish, yoshlarimizning bilimli va yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga e'tibor qaratish davr talabiga aylandi.

Adliya vazirligi – bugungi kunda eng ko'p o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan va hozirda ham shiddat bilan rivojlanayotgan davlat tashkilotidir. 2022 - yilda 30 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ushbu davr mobaynida davlatimiz qonunchiligining drayveri vazifasini o'tadi, deb bimalol aytishimiz mumkin. Chunki ayni shu dargohda minglab qonun, qaror va farmonlarning "zuvalasi qorilgan". Zero, vazirlikning eng asosiy vazifasi yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish va norma ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish ekanligini alohida qayd etish joiz.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, adliya organlari va muassasalari faoliyatida huquqiy islohotlarning yuqori samaradorlik darajasiga erishishga to'sqinlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjud. [11] Xususan:

**Birinchidan**, Adliya organlari to'g'risida yuzlab qonunosti hujjatlar qabul qilingan bo'lib, o'zgargan rasmiy hujjatlarni doimiy ravishda o'rganib borish vaqt va mehnat sarfiga olib kelmoqda. 2022-yil 21-avgustda qarardoshlarimiz Qozog'iston Respublikasida "Adliya organlari to'g'risida"gi 5 bo'lim va 34 moddadan iborat Qonun qabul qilindi. Qonunda adliya organlari tuzilmalari, maqsad-vazifalari hamda huquqiy faoliyati to'liq ko'rsatib o'tilgan. O'zbekistonda ham adliya organlarining faoliyatini yagona qonun orqali boshqarish maqsadga muvofiqligini olib, "Adliya organlari to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqib, tasdiqlash maqsadga muvofiq.

**Ikkinchidan**, so'nggi yillarda hukumat boshqaruvida optimallashtirish masalasi ketmoqda. Adliya vazirligi birinchilardan bo'lib ushbu optimallashtirishni boshlab berdi. Ammo ijtimoiy tarmoqlarda tuman adliya bo'limini ham optimallashtirish yoki qisqartirish masalasi muhokamasi kuzatilmogda.

Unutmaslik kerakki, davlatda shu vaqtga qadar huquqni qo'llash amaliyotini tizimli tahlil qilish va uning izchilligi va bir xilligini ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralarni ishlab chiqish, huquqiy normalarning o'zboshimchalik bilan va noto'g'ri talqin qilinishiga yo'l qo'yimaslik yuzasidan joylarda davlat organlari va boshqa tashkilotlarga huquqiy maslahatlar berish hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining noqonuniy qarorlar qabul qilish nazoratini olib borish bo'yicha samarali ishlar yo'lga qo'yilmagan edi. Ushbu huquqiy maslahatni hozirda faqatgina tuman adliya bo'limlari tashkil etishmoqda. Jamiyatni huquqiy savodxonligini joylarda amalga oshirayotgan tuman adliya bo'limlarini qisqartirish masalasini muhokamadan olib tashlash kerak.

**Uchinchidan**, o'tgan davr mobaynida jamiyatda advokatura instituti hamda advokatlarning rolini yanada oshirish maqsadida qonunchilikka muhim normalar kiritildi. Shu bilan birga, amalda advokaturaning

mustaqilligini ta'minlash, professional yuridik yordam sifatini va advokat kasbining nufuzini oshirish borasida bir qator muammo va kamchiliklar mavjudligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Shu muammolarni bartaraf qilish maqsadida advokatga nisbatan qamoqqa olish, uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash va boshqa sanksiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahri sudi tomonidan qo'llanilishi, shuningdek, advokat so'roviga asosan haq evaziga ekspertiza tayinlanishi hamda advokatlarning ish faoliyatida manfaatlar to'qnashuviga ta'sir qilmagan holda boshqa haq to'lanadigan faoliyatlar bilan shug'ullanish imkoniyatini joriy qilish lozim. Bu ishlar fuqarolarga malakali huquqiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshiradi.

So'nggi 20 yillikni tahlil qiladigan bo'lsak, oliy yuridik ma'lumotga ega bitiruvchilarining katta qismi asosan huquq - tartibot organlarida faoliyat yuritishni maqsad qilib olgan. Bu esa sud tizimida, oliy va professional ta'lim tizimida, NNT lar faoliyatida va yuridik tashkilotlarda huquqshunos kadrlarning sezilarli ravishda yetishmasligini keltirib chiqardi. Birgina misol, hozirda O'zbekistonda 5 mingdan ortiq advokatlar orasida faqatgina 100 dan ortig'i 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Yuridik texnikum bitiruvchilarini advokat yordamchisi sifatida ish boshlashlari uchun imtiyozlar berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

**To'rtinchidan**, vazirlik tomonidan 2024-yilning 20-yanvaridan 20-martiga qadar "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" huquqiy aksiyasi o'tkazildi. Ushbu aksiya so'nggi yillardagi eng ta'sirli va haqiqatdan ijtimoiy ahamiyatli tadbirlardan biri bo'ldi.

Huquqiy aksiya doirasida tegishli hujjatlarga ega bo'lmagan shaxslar respublika miqyosida xatlovdan o'tkazildi, fuqarolarning ushbu turdagi murojaatlari joylarda tashkil etilgan maxsus shtablar yoki "1148" ishonch telefoni orqali tezkorlik bilan qabul qilindi, yuzlab sayyor qabullar tashkil etildi hamda kelib tushgan barcha murojaatlar o'rganib chiqilib, muammolarni qonuniy hal etishga ko'maklashildi.

Ammo yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun va mohiyatini tushuntirish bo'yicha joylarda adliya organlarining ishi aksariyati davlat tashkilot va muasssalarida o'tkazilmoqda. Ammo qishloq joylarida ushbu huquqiy targ'ibot lozim darajada tashkillashtirilmayapti, hamda o'tkazilayotgan loyihalarni ko'pchiligi ta'sirsiz. Buning natijasida esa aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyati, ayniqsa, qishloq joylarda qoniqarsiz darajada qolmoqda.

**Beshinchidan**, xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini munosib ifoda etadigan mutaxassislar, xususan diplomat huquqshunos yoki xalqaro huquqshunoslarning keskin yetishmasligi saqlanib qolmoqda, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida talab yuqori bo'lgan tor doiradagi va sohaviy mutaxassisliklar bo'yicha yuridik kadrlar, ayniqsa yuridik xizmat xodimlarini tayyorlash mukammal tizimini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq. *Zero Jahon* iqtisodiyoti va *diplomatiya universiteti* bilan hamkorlikda TDYU ning Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti hamkorligini yanada integratsiyalash, kuchaytirish maqsadga muvofiq.

**Oltinchidan**, yuridik texnikum pedagog-xodimlarini ijtimoiy va moddiy rag'batlantirishning darajasi past ekanligi, mazkur sohaga yuqori malakali mutaxassislarni muqim jalb etish, barqaror kadrlar zaxirasini shakllantirish imkonini bermayapti hamda xodimlarning tashabbuskorligi va mas'uliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

**Yettinchidan**, xorij tajribasini ko'radigan bo'lsak, Fransiya prokuraturasi tashkiliy jihatdan Adliya vazirligi tarkibiga kiradi. Prokuratura organlarining ish tizimi sud tizimining faoliyatiga to'g'ri keladi. Barcha prokurorlar Adliya vazirining tavsiyasiga binoan Fransiya Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan chetlashtiriladi. Fransiyadagi prokurorlar jinoiy javobgarlikka tortish, oldindan tergov ustidan nazoratni amalga oshirish va sudda ayblovni qo'llab-quvvatlash huquqiga ega.

Davlatni yanada demokratlashtirish jarayonida ushbu amaliyotga bosqichma-bosqich o'tish, ya'ni prokurorlarni tayinlashda Adliya vazirligining tavsiyasini olish maqsadga muvofiq.

**Sakkizinchidan**, Vazirlik so'nggi yillarda byurokratiya va qog'ozbozlikka qarshi kurash yo'nalishdagi muhim chora - tadbirlarni amalga oshirdi. Zero, har bir ish va harakat kutilgan samara berishi uchun, avvalo, uning huquqiy va tashkiliy asosi mustahkam bo'lishi lozim. Shu maqsadda so'nggi yillarda qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish yo'nalishida erishilgan natijalar hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirishda muhim omil bo'layotganini alohida qayd etish joiz.

Bu yo'nalishda xorijiy va mahalliy ekspertlar bilan birgalikda mamlakatimiz tarixida ilk bor milliy qonunchilik bazasi yalpi xatlovdan o'tkazildi. Eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan, haddan tashqari tartibga solish yukini, byurokratik to'siq va g'ovlar hamda huquqni qo'llash amaliyotida chalkashliklarni keltirib chiqarayotgan 7000 dan ortiq qonunchilik hujjati bekor qilingan. Davlat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi hamda normativ - huquqiy hujjatlarni qonunchilik tarmoqlari bo'yicha qayta ko'rib chiqish orqali normativ - huquqiy baza keraksiz hujjatlardan "tozalangan".

Bu jabhadagi ishlarni yanada rivojlantirish bo'yicha vazirlik tomonidan bir qancha rejalar tuzilgan. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi 5000 ga yaqin qonunchilik hujjatini tizimlashtiruvchi Tadbirkorlik kodeksini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Tadbirkorlarga nisbatan ma'muriy bosimga sabab bo'layotgan ortiqcha nazorat funksiyalarni maqbullashtirish hamda tekshirishlarni o'tkazish, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilishni to'liq elektron ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi "Yagona davlat nazorati" axborot tizimini joriy etishni maqsad qilingan.

Buning natijasida tartibga solish xususiyatiga ega va huquqni qo'llashda turli yondashuvlarga sabab bo'lgan haddan tashqari ko'p qonunchilik hujjatlari bekor qilinib, yagona normativ - huquqiy hujjat orqali ish yuritiladi. Maqsad, tekshirishlar va nazorat tadbirlarining oldi olinadi.

**To'qqizinchidan**, adliya organlariga faoliyat yo'nalishiga muvofiq bo'lmagan va bir - birini takrorlovchi, ayniqsa, shartnomaviy - huquqiy ishlarni nazorat qilish sohasidagi vazifalarning yuklatilganligi davlat huquqiy siyosatini amalga oshirish sohasida ularga yuklatilgan birinchi darajadagi vazifalarni bajarish uchun mavjud kuch va vositalardan oqilona foydalanish imkonini bermaslikka olib kelmoqda.

### ADABIYOTLAR:

1. <http://docs.historyrussia.org/ru/nodes/348970#mode/inspect/page/1/zoom/4>.
2. <https://iv.uz/oz/pages/vazirlik-tarixi>.
3. <http://docs.historyrussia.org/ru/nodes/349756#mode/inspect/page/1/zoom/4>.
4. [https://enc.for.uz/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_Respublikasi\\_Adliya\\_vazirligi](https://enc.for.uz/wiki/O%CA%BBzbekiston_Respublikasi_Adliya_vazirligi).
5. *Иванова Г.М. Лагерная юстиция в СССР. 1944-1954 // Труды Института российской истории. М., 2004. Вып. 4. С. 287. 71..*
6. *Закон СССР от 15 марта 1946 г. «О преобразовании Совета Народных Комиссаров СССР в Совет Министров СССР и Советов Народных Комиссаров союзных и автономных республик - в Советы Министров союзных и автономных республик».*
7. <http://docs.historyrussia.org/ru/nodes/170797#mode/inspect/page/1/zoom/4>.
8. *Adliya: shonli 30 yil. Toshkent shahar, "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2022-yil 83-bet.*
9. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 13 - apreldagi PQ - 3666 - sonli "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora - tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.*
10. *Adliya: shonli 30 yil. Toshkent shahar, "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2022-yil 74-bet.*
11. <http://www.uzbekembassy.in/davlat-huquqiy-siyosatini-amalga-oshtirishda-adliya-organlari-va-muassasalari-faoliyatini-tubdan-takomillashtirish-chora-tadbirlari-togrisida/?lang=uz>

MOLIYAVIY MUNOSABATLARDA XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI

**Qolqanatov Asilbek Nazarbay o'g'li,**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası o'qituvchisi*  
[qolqanatov9518@gmail.com](mailto:qolqanatov9518@gmail.com)

**Samiyev Baxtiyor Norbobo o'g'li,**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** *Xalqaro kapital migratsiyasi mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni shakllantirishda, iqtisodiy o'sish, barqarorlik va rivojlanish trayektoriyalariga ta'sir ko'rsatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqola xalqaro kapital migratsiyasining dinamikasi, omillari va oqibatlari haqida qisqacha ma'lumot beradi. Mamlakatlar uchun kapital migratsiyasining ta'siri, shu jumladan, uning iqtisodiy o'sish, moliyaviy barqarorlik, daromadlarni taqsimlash va siyosiy ta'siri muhokama qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *kapital, kapital oqimi, mahsuldorlik, pul-kredit, moliya, kapital migratsiyasi, moliyaviy munosabatlar.*

МЕЖДУНАРОДНАЯ МИГРАЦИЯ КАПИТАЛА В ФИНАНСОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ

**Аннотация.** *Международная миграция капитала играет решающую роль в формировании финансовых отношений между странами, влияя на траектории экономического роста, стабильности и развития. В данной статье представлен краткий обзор динамики, движущих сил и последствий международной миграции капитала. В статье обсуждаются последствия миграции капитала для отправляющих и принимающих стран, в том числе ее влияние на экономический рост, финансовую стабильность, распределение доходов и политическую автономию.*

**Ключевые слова:** *капитал, движение капитала, производительность, денежный кредит, финансы, миграция капитала, экономические отношения.*

INTERNATIONAL CAPITAL MIGRATION IN FINANCIAL RELATIONS

**Abstract.** *International capital migration plays a decisive role in the formation of financial relations between countries, influencing the trajectories of economic growth, stability and development. This article provides a brief overview of the dynamics, drivers and consequences of international capital migration. The article discusses the consequences of capital migration for sending and receiving countries, including its impact on economic growth, financial stability, income distribution, and political autonomy.*

**Keywords:** *capital, capital flow, productivity, monetary credit, finance, capital migration, economic relations.*

**Kirish.** *Global moliyaning murakkab tarmog'ida kapitalning chegaralar bo'ylab harakatlanishi zamonaviy iqtisodiy landshaftning o'ziga xos xususiyati sifatida paydo bo'ldi. Kapitalning xalqaro harakati (migratsiyasi) - bu bir davlatning yuridik va jismoniy shaxslariga tegishli bo'lgan kapitalning foyda (daromad) olish, tashqi iqtisodiyotdagi mavqeini mustahkamlash, bozor va resurslar uchun kurashish maqsadida boshqa mamlakatlarga harakatlanishidir.*

*Xalqaro kapital migratsiyasi davlatlar o'rtasidagi investitsiyalar, mablag'lar va aktivlar oqimini o'z ichiga oladi va butun dunyo bo'ylab moliyaviy bozorlarga, iqtisodiy rivojlanishga va siyosatni ishlab chiqishga katta ta'sir ko'rsatadi. Kapital migratsiyasining murakkabliklarini tushunish siyosatchilar, investorlar va global iqtisodiyotning murakkab yerlarida harakat qilmoqchi bo'lgan bizneslar uchun juda muhimdir. Asosan, xalqaro kapital migratsiyasi iqtisodiy imkoniyatlar va bozor kuchlaridan tortib siyosiy barqarorlik va xavf-xatarni idrok etishgacha bo'lgan ko'plab omillar bilan ta'minlanadi. Investorlar istiqbolli iqtisodiy istiqbollar, mustahkam infratuzilma va qulay tartibga solish muhitini taklif qiluvchi mamlakatlarga jalb qilinadi. Ushbu mulohazalar, foiz stavkalari, valyuta kurslari va geosiyosiy o'zgarishlarning o'zgarishi bilan birgalikda global miqyosda investitsion qarorlar va kapital taqsimotini shakllantiradi. Kapital oqimining shakllari xilma-xil bo'lib, ular to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalari, pul o'tkazmalari va tashqi*

yordamni o'z ichiga oladi. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar xorijiy mamlakatlarda biznes va aktivlarni tashkil etish yoki sotib olishni o'z ichiga oladi, bu texnologiya transferi va sanoat rivojlanishiga yordam beradi. Boshqa tomondan, portfel investitsiyalari diversifikatsiya va daromad olish motivlari bilan boshqariladigan aksiyalar va obligatsiyalar kabi moliyaviy aktivlarga investitsiyalarni o'z ichiga oladi. Pul o'tkazmalari va chet el yordamlari oluvchi mamlakatlarda turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, qashshoqlikni bartaraf etish va rivojlanish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro kapital migratsiyasining iqtisodiyotlarga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikdan daromadlar tengsizligi va qaramlikkacha. Kapital oqimi investitsiyalar, mahsuldorlik va infratuzilmani rivojlantirishni rag'batlantirishi mumkin bo'lsa-da, moliyaviy barqarorlik, valyuta kursi dinamikasi va ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarga xavf tug'diradi. Ushbu muammolarni hal qilish, investitsiyalarni rag'batlantirish, prudensial tartibga solish, valyuta kurslarini boshqarish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun samarali siyosat choralari muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur izlanish mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarni o'rganib chiqish va tahlil qilishga yo'naltirilganligi uchun bibliografik tadqiqot usulidan foydalangan. Bunda ScienceDirect, Google Scholar va boshqa ilmiy bazalardan mavzuga doir xorij olimlari tomonidan yozilgan 50 ta maqola ajratib olingan va o'rganilgan hamda ulardan 20 tasi mazkur ilmiy ishimizda o'z aksini topgan.

**Adabiyotlar sharhi.** Kapital oqimlari aksiyalar, obligatsiyalar, valyutalar va boshqa moliyaviy vositalarga investitsiyalarni o'z ichiga olgan moliyaviy aktivlarning chegaralar bo'ylab harakatlanishini ifodalaydi. Bu oqimlar jahon iqtisodiyotini shakllantirishda, valyuta kurslari, foiz stavkalari va aktivlar bahosiga ta'sir ko'rsatishda hamda mamlakatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. So'nggi bir necha o'n yilliklar davomida globallashuv, texnologiya taraqqiyoti va me'yoriy-huquqiy bazalardagi o'zgarishlar tufayli kapital oqimlari hajmi va murakkabligi oshdi. Kapital oqimlari dinamikasini tushunish siyosatchilar, iqtisodchilar va bozor ishtirokchilari uchun ham zarur bo'lib qoldi, chunki bu oqimlar iqtisodiy barqarorlik, moliya bozori faoliyati va daromadlarni taqsimlash uchun chuqur oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ushbu adabiyotlarni ko'rib chiqish kapital oqimlari bilan bog'liq nazariyalar, empirik dalillar va siyosat oqibatlarini o'rganish, ularning harakatlantiruvchilari, oqibatlari va rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodchilar siyosatchilari oldida turgan muammolarni yoritishga qaratilgan.

Asosiy qism. Anjali Sisodia (2022) "Kapital tuzilishini o'rganish: tizimli tahlil va bibliometrik tadqiqot" nomli maqolasida 2010-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davr mobaynida kapital karakatiga doir chop etilgan maqolalarni tizimli ko'rib chiqish orqali tadqiqot olib borgan va o'zining ilmiy ishida kapital tuzilmasini o'rganishning keng qamrovli sharhini, jumladan, uning iqtisodiyotning turli tarmoqlari, tadqiqotlar olib boriladigan mamlakatlardagi ahamiyatini o'rgangan.

P. Priyan va boshqalar (2022) "Kapital tuzilmasi qarorlari bo'yicha bilimlar bazasini bibliometrik tadqiqoti" nomli ilmiy izlanishlarida 2979 ta maqolani tadqiq qilgan bo'lib tadqiqot Scopus ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda kapital tuzilmasi qarorlari bo'yicha bilim bazasini tahlil qiladi. Mualliflar, jumladan Wakara Ibrahimu Nyabakora, Priyan va Geoffrey Rwezimula, katta tajribaga ega va xalqaro ekspertizadan o'tgan jurnallarda ko'plab maqolalarni nashr etishgan. Ularning ixtisoslashgan sohalariga moliyaviy menejment, korporativ moliya, davlat moliyasi va bank ishi kiradi. Mualliflarning ta'kidlashicha, VOSviewer dasturi 2979 ta maqolani tahlil qilib, tarmoq o'sishi, eng yaxshi hissa qo'shuvchilar va intellektual tuzilma kontekst kabi ko'p o'rganilgan mavzular va tadqiqotlarni tahlil qilgan.

Xalqaro kapital migratsiyasi global iqtisodiyotning asosiy xususiyati bo'lib, moliyaviy bozorlarni, investitsion modellarni va iqtisodiy rivojlanish traektoriyalarini shakllantiradi. Kapital migratsiyasi borasida ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar va biz bulardan bazilarini keltirib o'tamiz.

Stefan Brunov va boshqalar (2015) o'zlarining "Xalqaro migratsiyaning global iqtisodiyotdagi iqtisodiy o'sishga ta'siri" nomli ilmiy asarida migratsiyadagi cheklovlarni olib tashlash farovonlikning sezilarli darajada oshishiga va xalqaro darajad kapitalning bir hududdan ikkinchisiga ko'chishiga katta sababchi bo'lishi mumkinligini takidlashgan. Asarda xalqaro migratsiyaning kuchayishi global iqtisodiyotga va kapital harakatiga ta'siri, agar u global o'sish sur'atini oshirsa, yanada kattaroq bo'lishi takidlab o'tilgan.

Xandon Vang va boshqalar (2023) "AQSh pul-kredit siyosati noaniqligi: Xalqaro kapital oqimlarining roli" nomli ilmiy maqolasida AQShning pul-kredit siyosati noaniqligining xalqaro valyuta kurslarining o'zgaruvchanligiga ta'sirini ekonometrik modellardan foydalangan holda o'rganilgan va xalqaro kapital oqimlarining turli xil turlari nuqtai nazaridan o'tkazish mexanizmini ko'rib chiqilgan. Izlanuvchilar tadqiqot natijalariga ko'ra, AQSh pul-kredit siyosatidagi noaniqlikning oshishi boshqa ko'plab mamlakatlar masalan: Xitoy milliy valyutasi kursining o'zgaruvchanligini yomonlashtiradi va Xitoyning to'g'ridan-to'g'ri investitsion oqimlari va portfel investitsiya oqimlarini oraliq uzatish orqali yuan kursining o'zgaruvchanligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bu esa o'z navbatida jahon miqyosida kapital harakatini sekinlashtiradi.

Piter Makquad va Martin Shmit (2017) “Xalqaro kapital oqimida katta turg‘unlik” nomli ilmiy ishida global kapital oqimining so‘nggi kamayishi inqirozdan oldingi va inqirozdan keyingi davrlarni taqqoslash yo‘li bilan tahlil qilingan. Bundan tashqari qulay pul-kredit siyosati va inqirozning kamroq ta‘siri sezilgan mamlakatlardan past daromadga ega bo‘lgan iqtisodlarga kapitalning oqib kelishi tasvirlab berilgan. Maqolada global moliyaviy integratsiyaning sekinlashishi potentsial tushuntirishlar, jumladan, kapital oqimining potentsial beqarorlashtiruvchi ta‘siri bilan bog‘liq ekanligi alohida takidlangan. Mualliflarga ko‘ra kapital qoidalari qattiqroq bo‘lgan mamlakatlarda kapitalning chetga chiqib ketishi yuqori bo‘ladi.

Stiven Turnovskiy (2019) “Demografik tuzilmalar, jamg‘armalar va xalqaro kapital oqimlari” nomli maqolasida ikki mamlakat o‘rtasidagi demografik tafovutlar kapital oqimiga qanday ta‘sir qilishini o‘rganadi. Maqolada takidlanishicha uzoq umr ko‘rgan shaxslar yuqori jamg‘arma stavkalariga ega bo‘lishadi. Tadqiqot AQShning sof xorijiy aktivlari pozitsiyasining pasayishi va boshqa G7 iqtisodlari bilan solishtirganda uzoq umr ko‘rishga qaratilgan. Bundan tashqari ikki mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarkibiy xususiyatlariga kapital oqimlari va sof xorijiy aktivlarining sezgirligi va ularning jamg‘armalarga ta‘sirlari o‘rganilgan.

Linda Goldberg va Sign Krogstrup (2023) o‘zlarining “Xalqaro kapital oqimining bosimi va global omillar” nomli maqolasida xalqaro kapital oqimining risklar barqarorligiga tasiri o‘rganilgan, maqolada takidlanishicha kapital oqimining barqarorligiga havfsiz makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan ko‘ra savdoni amalga oshirish uchun mavjud bo‘lgan fondlar va barqaror valyuta ayriboshlash kurslari javob beradi. Mualliflar fikriga ko‘ra kapital oqimi bosimining tavakkalchilikka nisbatan sezgirligi mamlakatlarda farq qiladi va vaqt o‘tishi bilan rivojlanadi. Xavfsiz makroiqtisodiy profilning joriy ko‘rsatkichlari xavfsiz boshpana maqomi bilan zaif bog‘liqlikka ega.

Karolina Konopchak (2017) “Xalqaro kapital oqimlarining rivojlanayotgan bozorlarning suveren risk holatiga ta‘siri - talab va zaiflik effekti” nomli ilmiy izlanishida so‘nggi yillarda rivojlanayotgan iqtisodlarda xorijiy kapitalning o‘sishi kuzatilganligi, bu suveren obligatsiyalarning daromadlilikiga ikki jihatdan ta‘sir qilishi: talabning ortishi natijasida daromadlilikning pasayishi va tashqi moliyalashtirishga haddan tashqari bog‘liqlik tufayli daromadning oshishi tadqiq qilingan. Maqolada takidlanishicha rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijiy kapitalning ko‘payishi suveren obligatsiyalarning daromadlilikiga qarama-qarshi yo‘llar bilan ta‘sir qiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu bibliometrik tahlil moliyaviy munosabatlardagi xalqaro kapital migratsiyasi bilan bog‘liq tadqiqot landshafti haqida qimmatli fikrlarni taqdim etdi. Adabiyotlarni tahlil qilish orqali biz chegaralar orqali kapital oqimining murakkabligi va oqibatlarini tushunishga qiziqish ortib borayotganini kuzatdik. Ko‘rib chiqish natijasida paydo bo‘lgan asosiy mavzular qatoriga kapital migratsiyasining harakatlantiruvchi omillari, uning iqtisodiy o‘sishga ta‘siri, moliyaviy barqarorlik va jo‘natuvchi va qabul qiluvchi mamlakatlar uchun siyosat masalalari kiradi. Ilmiy izlanish kapital migratsiyasining qonuniyatlarini tushuntirishda portfel nazariyasi, xalqaro moliya va globallashuv kabi nazariy asoslarning muhimligini ta‘kidladi. Kelajakda, bibliometrik tahlil kelajakdagi tadqiqotlar uchun bir nechta yo‘llarni taklif qiladi. Bular texnologik taraqqiyotning, tartibga soluvchi o‘zgarishlarning va geosiyosiy omillarning kapital migratsiya shakllariga ta‘sirini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, kapital oqimlarini boshqarish va iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish bo‘yicha siyosat choralarning samaradorligini yanada kengroq o‘rganishga ehtiyoj bor. Umuman olganda, ushbu bibliometrik sharh moliyaviy munosabatlarda xalqaro kapital migratsiyasini chuqurroq tushunishga yordam beradi va tadqiqotning ushbu muhim yo‘nalishi bo‘yicha keyingi tadqiqotlar uchun asos yaratadi. Mavjud bilimlarni sintez qilish va adabiyotlardagi bo‘shliqlarni aniqlash orqali ushbu sharh global iqtisodiyotdagi kapital oqimlari bilan bog‘liq muammolar va imkoniyatlarni hal qilishga qaratilgan akademik nutq va siyosatni ishlab chiqish harakatlari haqida ma‘lumot beradi.

### ADABIYOTLAR:

1. Aghilasse Kashi and Mohammed Eskander Shah (2023). *Bibliometric Review on Sustainable Finance. Multidisciplinary Digital Publishing, 15*
2. Anjali Sisodia and G. C. Maheshwari (2022). *Capital Structure Study: A Systematic Review and Bibliometric Analysis. Management Development Institute journal, 13*
3. Fan Wang et al. (2023). *Impact of US monetary policy uncertainty on RMB exchange rate volatility: The role of international capital flows. Finance research letters, 58, pp. part C.*
4. Karolina Konopczak and Michał Konopczak (2017). *Impact of International capital flows on emerging markets' sovereign risk premium – demand vs. vulnerability effect. Finance Research Letters, 23, pp. 239-245*

5. Linda S. Goldberg and Signe Krogstrup (2023). *International capital flow pressures and global factors*. *Journal of International Economics*, 146
6. P. K. Priyan et al (2022). *A Bibliometric Review of the Knowledge Base on Capital Structure Decisions*. *Management Development Institute journal*, 27
7. Peter McQuade and Martin Schmitz (2017). *The great moderation in international capital flows: A global phenomenon?* *Journal of International Money and Finance*, 73, pp. 188-212
8. Stephan Brunow et al. (2015). *The Impact of International Migration on Economic Growth in the Global Economy*. *Handbook of the economics of international migration*, pp. 1027-1075.
9. Stephen J. Turnovsky (2019). *Demographic structures, savings, and international capital flows*. *Journal of International Money and Finance*, 98

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИДА ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИ  
АМАЛГА ОШИРИШДАГИ МУАММОЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

*Абдирасулов Муслимбек Хусниддинович,  
Ўзбекистон Республикаси ИИВ ходими,  
Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни  
тайёрлаш институтининг мустақил изланувчиси*

*Аннотация.* Мазкур мақолада Марказий Осиё давлатларида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишдаги муаммолар ва уларни юзага келтирувчи омиллар ва сабаблари ҳақида сўз юритилган. Шунингдек, ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда вужудга келаётган айрим муаммоли масалаларни бартараф этишга йўналтириш ва янада такомиллаштиришга оид таклифлар билдирилган.

Бундан ташқари, ёшларга оид давлат сиёсати соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар ва давлат сиёсатининг устувор йўналишлари, уларнинг моҳияти, зарурати ва аҳамияти ҳақида фикр юритилган ва таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** Марказий Осиё давлатларининг ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида қонун, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, Стратегия, Концепция, Давлат дастурлари, Лойиҳалар, амалга оширилаётган ислохотлар ва юзага келаётган муаммолар.

REGARDING THE ANALYSIS OF THE PROBLEMS OF IMPLEMENTING STATE  
POLICY TOWARDS YOUTH IN THE COUNTRIES OF CENTRAL ASIA

*Abstract.* This article talks about the problems of implementing state policy towards youth in the countries of Central Asia and the factors and causes that cause them. And also, proposals were made to resolve some problematic issues that arise in the implementation of youth policy and to further improve it.

In addition, reforms being implemented in the field of public policy related to youth, and priority areas of public policy, their nature, necessity and significance were discussed and analyzed.

**Keywords:** Law, regulatory documents, Strategy, Concept, State programs, Projects, ongoing reforms and emerging problems in youth policy of Central Asian countries.

ПО ПОВОДУ АНАЛИЗА ПРОБЛЕМ РЕАЛИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ  
ПОЛИТИКИ В ОТНОШЕНИИ МОЛОДЕЖИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

*Аннотация.* В данной статье говорится о проблемах реализации государственной политики в отношении молодежи в странах Центральной Азии и факторах и причинах, их вызывающих. А также, были высказаны предложения по решению некоторых проблемных вопросов, возникающих при реализации молодежной политики, и дальнейшему ее совершенствованию.

Кроме того, были обсуждены и проанализированы реформы, реализуемые в сфере государственной политики, касающиеся молодежи, и приоритетные направления государственной политики, их характер, необходимость и значение.

**Ключевые слова:** Закон, нормативно-правовые документы, Стратегия, Концепция, Государственные программы, Проекты, реализуемые реформы и возникающие проблемы по молодежной политике стран Центральной Азии.

**Кириш.** Бутун дунёда бўлгани каби Ўзбекистон Республикасида ҳам ёшларга эътибор сўнгги йилларда янги босқичга кўтарилди, ёшлар сиёсатига доир туб ислохотлар ўтказилди. Бир қанча янги тузилмалар вужудга келди, қонун, қарор ва фармойишлар қабул қилинди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатаси ҳузурида 250 нафар фаол ва ташаббускор ёшлардан иборат “Ёшлар парламенти”, Қонунчилик палатасида Ёшлар масалалари бўйича комиссия ташкил қилинди. Ўзбекистон аҳолисининг 20,9 млн. нафари ёки 60 фоизини 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этади. Ёшларнинг 10,5 миллиони эркак, 10,4 миллиони аёл жинсига мансуб.

2017-2024 йилларда ёшларга оид 50 дан ортиқ қонун ва қонуности ҳужжатлар қабул қилинди. Давлатимиз раҳбарининг 2024 йил 20 январь кунидаги ПФ-18 сонли фармонида биноан Ёшлар ишлари

агентлиги Ёшлар сиёсати ва спорт вазирлиги таркибидан чиқарилиб, алоҳида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширувчи давлат бошқарув органи сифатида ташкил этилди.

Шунингдек, ҳар бир маҳалла, туман, шаҳар ва вилоят кесимида ишсиз ёшлар киритиладиган “Ёшлар дафтари” тизими жорий этилди. Ёш авлод тарбиясида ҳал қилувчи ўрин тутадиган таълим тизимида ҳам улкан ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Сўнги 6 йил мобайнида олий ўқув юртлири сони 77 тадан 170 тага етди, уларга қабул 3,5 бараварга ортди. Олий таълимда рақобатни қўллаб-қувватлаш ва хусусий секторни жалб қилиш орқали 24 та хорижий ҳамда 27 та нодавлат олийгоҳлар ташкил этилди. Шу асосда ёшларни олий таълим билан қамров даражаси 9 фоиздан 32 фоизга оширилди. “Мард ўғлон” давлат мукофоти ва “Келажак бунёдкори” медали таъсис этилиб, мамлакат ижтимоий сиёсий ҳаётида фаол бўлган 14 ёшдан 30 ёшгача бўлган ёшлар мукофотланмоқда.

Юқоридаги ютуқлар билан бирга бир қанча камчиликлар ва муаммолар сақланиб қолмоқда:

- Таълим тизимининг барча босқичларида таълим сифати етарли даражада эмас;
- Амалдаги таълим тизимимизда маълумотларни ёд олишга қаратилган бўлиб, ёшларни мантиқий ва танқидий таҳлили, мустақил фикр юритиши ва креативлигини ривожлантиришга йўналтирилмаган;

- Олий таълим тизимида кадрларни тайёрлаш меҳнат бозори талаблари асосида амалга оширилмаяпти;

- Янги профессионал таълим ишлаб чиқаришдан узилиб қолмоқда;

- Ёшлар бандлигини таъминлаш, уларга муносиб меҳнат шароитларини яратиш оғир аҳволда қолмоқда;

- Ёшлар ўртасида меҳнат миграцияси географиясини кенгайтириш масаласи ҳалигача долзарб бўлиб қолмоқда;

- Ёшлар томонидан содир этилаётган жиноятларнинг йилдан-йилга ошиб бораётганлиги;

*Статистик маълумотлар таҳлиliga кўра, ўтган йили республикада қайд этилган жиноятларнинг 23,2 % айнан ёшлар томонидан содир этилган бўлиб, ушбу кўрсаткич 2022 йилда 11,7 %ни ташкил қилган.*

- Ёшларда ҳуқуқий онг ва билимнинг етарли даражада эмаслиги.

Ҳуқуқий онги, тарбияси ва ҳуқуқий маданияти етук бўлмаган вояга етмаган ва ёшлар жамиятда амалга ошираётган айрим салбий ҳаракатлари ҳуқуқбузарлик эканлигини тушунмайди. Масалан, вояга етмаган ўсмир майда ўғирлик ҳуқуқбузарлик эканлигини, бунинг оқибатида жавобгарлик масаласи борлигини ҳуқуқий онги, ҳуқуқий маданияти етишмаслиги ва ҳуқуқий тарбияга эга эмаслиги учун билмайди. Натижада ана шундай майда ҳуқуқбузарликлар ўрнини катта жиноятлар эгаллайди;

-Чет элга ишлашга кетган оилаларнинг болалари қаровсиз, назоратсиз қолаётганлиги натижасида безорилик ва жиноят кўчасига кириб қолаётганлиги;

-Худудларда ёшларга оид инфратузилмалар қониқарсиз даражада қолаётганлиги.

Хусусан, мавжуд спорт иншоотлари 1,3 млн ўринга эга бўлиб бутун мамлакат аҳолисининг фақатгина 4 фоизини қамраб олади, мактабларнинг 24 фоизида спорт заллари мавжуд эмаслиги сабабли, ўқувчиларнинг бор йўғи 25 фоизи жисмоний тарбия ва спортга жалб қилинганлиги;

Кўплаб худудларда сифатли, тезкор ва арзон интернет хизматларидан фойдаланиш қониқарли эмаслиги ёшларнинг замонавий ИТ технологияларидан фойдаланишига тўсиқ бўлмоқда[1];

Бундан ташқари, Қозоғистонда Республикасида 2023 йилда ёшлар ўртасида ишсизлик даражаси 3,3 %ни ташкил этди[2], аммо бир нечта сўров натижаларига кўра, ёшларнинг қариб 42 фоизи доимий равишда иш билан боғлиқ муаммога дуч келмоқда. Бунга бир қанча омиллар сабаб бўлмоқда.

Биринчидан, ёшларнинг таълим тизимида олган билимлари ва малакалари кўпинча иш берувчилар талабларига жавоб бермаслиги.

Иккинчидан, ёшларнинг ўзлари, айрим ҳолларда ишга жойлашиш бўйича талабларини ошириб юборишган. Иш берувчилар томонидан тақдим этилган иш ҳаққи ва меҳнат шароитларидан норози бўлган кўплаб таълим муассасаларнинг битирувчилари ўз касблари бўйича ишлашдан бош тортмоқдалар.

Хусусан, Қозоғистон Республикаси Президенти қошидаги КИМЕР экспертлари томонидан 2017 ва 2018 йилларда ёшлар ўртасида социологик тадқиқотлар ўтказди. Респондентлар сони ўттиз минг кишидан ошди. Сўровларга кўра, “ёшлар” нинг асосий муаммолари: иш билан таъминлаш, уй-жой билан таъминлаш, таълим қиймати ва сифати, болалар боғчаларининг етишмаслигини кўрсатишган.

Бугунги кунда Қозоғистонда ёшлар орасида ўз жонига қасд қилиш муаммоси долзарбдир.

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) маълумотларига кўра, ўз жонига қасд қилиш яни 15 дан 29 ёшгача бўлган гуруҳлар орасида енг кўп учрайдиган ўлим сабаблари рўйхатида дунёда иккинчи ўринни эгаллайди ва Марказий Осиёда бу борада мамлакат мутлақ етакчидир.

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг статистикасига кўра, Қозоғистонда ёшлар орасида ўз жонига қасд қилиш ҳар 100 минг кишига 18 кишини ташкил қилади.

*Маълумот учун: Қирғизистонда бу кўрсаткич 8.7, Ўзбекистонда 12.6, Туркменистонда 7.8, Тожикистонда 5.2. кишини ташкил қилади[3].*

Мамлакатдаги ёшлар орасида ўз жонига қасд қилиш тенденциясининг кўпайишига бир нечта омиллар сабаб бўлмоқда.

Жумладан, болалар ота-оналарининг ажрашишига гувоҳ бўлаётганлиги,

*(Маълумот учун, Қозоғистонда 2008-2018 йилларда бир ярим миллиондан зиёд никоҳ рўйхатга олинган, аммо уларнинг ҳар учинчиси бузилган.)* Болалар бошидан кечирган психологик босим уларни кундалик стресслари, уларни бутун умр таъқиб қилади ва босим ўтказди.

Шунингдек, иккинчи омил сифатида Қозоғистонда жорий этилган ягона миллий тест тизими яъни, ўқишга қира олмаган ёшлар жиддий стрессни бошдан кечириб ўз жонига қасд қилиш ҳолатлари рўй бермоқда.

Қозоғистонда пандемия вақтида ёшлар орасида ўз жонига қасд қилишлар сони икки бараварга ошди.

Жумладан, 2020 йилнинг тўрт ойи давомида ёшлар орасида 114 марта уриниш ва 46 ўз жонига қасд қилиш ҳолатлари қайд этилди. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти барча мамлакатларга ўз жонига қасд қилишни камайтиришга қаратилган стратегияларни қабул қилишни ва шу билан мавжуд муаммони тан олишни тавсия қилади.

Масалан, 2009 йилда Ўзбекистонда ўз жонига қасд қилишнинг олдини олиш бўйича 2010-2020 йилларга мўлжалланган стратегия ишлаб чиқилган ва қабул қилинган бўлиб, унда мамлакатда юз берган аниқ вазиятлар таҳлил қилинган, мамлакатнинг асосий суицидологлари - ўз жонига қасд қилишнинг олдини олиш билан бевосита шуғулланадиган муассасалар кўрсатилган. ва аниқ стратегик мақсадлар ҳам белгиланган.

Шунингдек, Қозоғистон раҳбарияти ҳам соғлиқни сақлаш соҳасидаги стратегик дастурлар устида фаол иш олиб бормоқда, улардан бири 2016-2019 йилларга мўлжалланган “Денсаулик” (Соғлиқни сақлаш) дастури. Бироқ, ушбу ҳужжат мамлакатда ўз жонига қасд қилиш муаммосининг фақат бир нечта бандларини ўз ичига олади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти барча мамлакатларга ўз жонига қасд қилишни камайтиришга қаратилган стратегияларни қабул қилишни ва шу билан мавжуд муаммони тан олишни тавсия қилади.

Қозоғистон Республикасининг ёшлар сиёсатини ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирлари қуйидагиларни ўз ичига олади.

Жумладан, бугунги кунда ёшлар орасида кўпайиб бораётган ўз жонига қасд қилишни олдини олиш, арзон ва сифатли таълимни таъминлаш ва илмий-техник салоҳиятни ривожлантириш; соғлом турмуш тарзини шакллантириш; ишга жойлашиш ва иш билан таъминлаш учун шароит яратиш; ёш оилалар учун арзон уй-жойлар тизимини ривожлантириш; ёшлар ўртасида тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш, ҳуқуқий маданият даражасини ошириш учун шарт-шароитлар яратиш, коррупцияга қарши кураш руҳида тарбиялаш; маданий дам олиш ва дам олиш учун шароитлар яратишдан иборат.

Давлат ҳар бир муаммога комплекс ва тизимли ёндашиши керак. Ёшларнинг бўш вақтларини инфиратузилмасни ва қулайлигини ривожлантириш, мактабларда психологик ва ижтимоий ишларни кучайтириш, мактаб психологиклари ва ижтимоий ишчиларининг иш ҳаққини ошириш, ўз жонига қасд қилишга қарши курашнинг ягона дастурини жорий этиш, барча масъул вазирликлар, шунингдек уларнинг идоралари ҳаракатларини мувофиқлаштириш. Агар ушбу муаммо юқори давлат даражасида тегишли бюджет маблағлари билан ҳал этилмаса, у ҳолда ўз жонига қасд қилишда ёшлар сони даҳшатли миқёсга эга бўлиши мумкин, бу миллий фалокатга тенг.

Қирғизистон Республикасининг Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисидаги қонун ҳужжатида белгиланган ёшлар - ўн тўрт ёшга тўлган ва ўттиз беш ёшдан ошмаган фуқаролар ташкил қилади.

Хусусан, Қирғизистон Республикаси Миллий статистика Комитетининг маълумотларига кўра, 2023 йил 1 январь ҳолатига кўра, мамлакат аҳолиси 7 миллион 037 минг 600 кишини, шундан ёшлар 2 миллион 439 минг кишини (умумий аҳолининг 35 %) ташкил этган. Ёшлар орасида 50,1 % эркаклар, 49,9% ни аёллар ташкил этган[4].

2025 йилга бориб болалар туғилиш даражасининг барқарор пасайиш тенденцияси бошланиши кутилмоқда. Аҳоли таркибида вояга етган ва кекса ёшдаги аҳолининг улуши ўсиб боради, бу эса жиддий ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий ўзгаришларга сабаб бўлади.

Ҳозирги кунда Қирғизистон Республикасида ёшлар ўртасида ишсизлиги сезиларли даражасига эга. Мамлакатда ёшлар ишсизлиги 8,4 фоизни ташкил этади

Қирғизистон Республикаси таълим ва илм-фан соҳасидаги ўзгаришларга қарамай, ёшларнинг умумий таълим олиш даражаси атиги 62,2% ни ташкил қилади, қолган 37,8% га яқин ёшлар мактаб, касб-хунар лицейлари ва коллежларда ўқимаслиги каби муаммолар. Яна бир муаммо ўрта ва олий таълим, давлат таълим ва саноат инфратузилмаси, янгилаш ва таъмирлаш, етарли ахборот ресурслари билан таъминланмаганлиги, ўқитувчилар етишмаслиги туфайли, таълим сифати каби муаммолар ҳисобланади.

Маданият соҳаси ёшлар билан ишлашда энг муаммоли соҳа ҳисобланади.

Хусусан, ёшларнинг атиги 16% китоб ўқийди ёки маданий объектлар (театрлар, музейлар, кўرғазмалар) га ташриф буюради. Ушбу ҳолатнинг асосий сабаблари қуйидагилар: ёшлар инсоннинг ижтимоий-маданий ва психологик ривожланишида маданиятнинг аҳамияти ва роли ҳақида жуда кам маълумотга эга; дам олиш соҳасида ёшлар хулқ-атвори маданияти шаклланмаган; деярли маданий дам олишга вақт ажратмайдиган ота-оналар.

Маданий тадбирларга жами 58,6% ёшлар жалб етилган бўлса, қолган 41,4% га яқин ёшлар кинотеатр, театр, музей, кутубхона, кўрғазма ва бошқа маданий объектларга қизиқмайди.

Қирғизистон Республикасида ёшлар ўртасида юқумли касалликлар, яъни жинсий йўл билан юқадиган инфекциялар ОИВ ва ОИТЦ касалликлари кўпайиб қолганлиги.

Жумладан, 2019 йил 1 июл ҳолатига кўра, Қирғизистон Республикаси фуқаролари орасида мамлакатда ОИВ инфекцияси билан боғлиқ барча рўйхатга олинган ҳолатлардан (8711 ҳолат) 29,71% ни 15-29 ёшдаги ёшлар ташкил этган.

Қирғизистон Республикасида ахборот-коммуникация технологиялари соҳаси жадал ривожланмоқда, бироқ мамлакатда ҳамон инфратузилма ва ахборот технологиялари, айниқса, қишлоқ жойларда етишмаётгани ҳам яққол кўзга ташланмоқда.

### **Мамлакатда эрта никоҳ муаммоси мавжуд.**

Жумладан, 2013 йил сўров натижаларига кўра, 13-24 ёшдаги аёлларнинг тахминан 18% 18 ёшга тўлмасдан эрта никоҳ қуришади.

Ёш оилалар учун имтиёзли кредитлар ҳам мавжуд эмас. Уларнинг келажиги билан боғлиқ нисбатан фаровон вазиятга қарамасдан, кўплаб ёшлар келажак ҳақида чекланган фикрларга эга. Бу уларнинг ўз-ўзини англашига бир қатор тўсиқларга дуч келиши билан боғлиқ.

Қирғизистонда олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий барқарорлаштириш жараёнларига қарамай, ёшларнинг аҳоли назоратдан четда қолмоқда. Иш билан банд бўлмаган ёшларнинг катта қисми, ишлаётган ёшларнинг ярми таълим жараёнида олган мутахассислиги бўйича ишламайди. Демак, ёшларда, умидсизлик, ғазабланиш, норозилик ёшлар орасида намоён бўлади, бу эса ёшлар ўртасида ижтимоий кескинлик мавжудлигини кўрсатиб, ўз навбатида жамиятдан узоқлашишга олиб келади.

Ҳозирги кунда Қирғизистон Республикаси учун энг муҳим вазифа инсон капиталини оширишдир. Бу таълим, соғлиқни сақлаш, билим (илм-фан), тадбиркорлик қобилияти, меҳнат ахборот қўллаб-қувватлаш, фуқаролар ва бизнес хавфсизлиги, иқтисодий эркинлик, шунингдек, маданият ва санъат, шу жумладан, аҳолининг ҳаёт даражаси ва сифатини яхшилаш ҳисобланади.

1991 йилда Туркманистон мустақилликка эришган кундан бошлаб ҳозирги кунгача мамлакатда ёшлар сиёсатини тартибга солувчи аниқ бир давлат органи бўлмаган. Асосан, Туркманистон ёшлари муаммоларини ҳал қилиш ваколати Туркманистон Таълим вазирлигига, шунингдек, мамлакатнинг барча вилоятлари ва туманларининг маҳаллий ҳокимият органларидаги ихтисослаштирилган бўлимлари ёки бўлинмаларига юклатилган.

Шунингдек, Туркманистонда 2028 йилда ташкил этилган Спорт ва ёшлар сиёсати вазирлиги 2022 йил 20 октябрь куни тугатилиб, унинг негизда Жисмоний тарбия ва спорт қўмитаси ташкил этилди.

Бугунги кунда, Туркманистон Вазирлар Маҳкамаси томонидан мамлакатда ёшлар сиёсати соҳасидаги фаолиятни мувофиқлаштириш, шунингдек, ватанпарвар, дунёқараши кенг, меҳнатсевар, юксак маданиятли ёшларни тарбиялаш ҳамда ёшлар сиёсатига доир давлат дастурларини ишлаб чиқиш, тасдиқлаш вазифалари юклатилган[5].

БМТнинг ҳисоб-китобларига кўра, Туркманистонда икки миллиондан ортиқ ёшдаги ёшлар бор 10 ёшдан 29 ёшгача, бу мамлакат аҳолисининг деярли 40 фоизини ташкил этади.

Туркменистон Республикасининг 2022 йил 1 сентябрь куни янги тахрирда қабул қилинган “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида” ги Қонуннинг қабул қилиниши мамлакатда ёшларга эътибор давлат даражасига кўтарилганлигини кўришимиз мумкин.

Шу билан бирга мамлакатда ёшлар билан боғлиқ бир қанча муаммолар кўзга ташланмоқда.

Жумладан, Таълим соҳасида яъни Туркменистон Қонунчилиги мамлакатда болалар ва ўспиринлар учун бепул мажбурий таълимни кафолатлайди. Бугунги кунда мамлакатда 12 йиллик умумий ўрта таълим тизими мавжуд. Давлат тарафидан таълимга ажратилаётган маблағлар 20 фоизга тушиб кетганлиги, бу эса барқарорликни таъминлашни талаб қилмоқда.

Бундан ташқари, Туркменистонда ёшлар орасида эрта никоҳ қуриш ҳолатлари учрамоқда. 2012 йилда қабул қилинган Туркменистон Республикасининг Оила кодексига мувофиқ никоҳ ёши ўн саккиз ёш деб белгиланган. 15-17 ёшдаги ўспирин қизларнинг никоҳи 12 фоизни ташкил қилмоқда.

Туркменистон Республикасида Гендер тенглик соҳасида ҳам бир қанча ишлар олиб борилмоқда.

Жумладан, 1996 йилда Туркменистон камситилишнинг барча турларини йўқ қилиш тўғрисидаги конвенцияга қўшилди ва аёллар тўғрисида (CEDAW) ва 2009 йилда унинг Ихтиёрий протоколини ратификация қилди.

Туркменистон Мажлиси ҳозирда аёлларни оиладаги зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонунни ишлаб чиқиш чораларини кўрмоқда.

Дарҳақиқат, фактлар шуни кўрсатадики, 35 фоиз мамлакатдаги 15-49 ёшдаги қизлар ва аёллар, агар эрни зўравонлигини табиий ҳол деб ҳисобласа, қолган 70 фоизи бундан норозилигини кўрсатишган.

Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги Статистика кўмитаси ва Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Таъсис жамғармаси томонидан ўтказилган таҳлилларга кўра, Тожикистон Республикаси аҳолиси сонига кўра энг ёш аҳолиси бўлган мамлакат сифатида аниқланди. Бугунги кунда аҳолининг ўртача ёши 25 ёшни ташкил этади ва туғилиш ҳар йили 2,2 фоизга ўсмоқда.

Таҳлилларга кўра, Тожикистон Республикасининг умумий аҳолисининг 32,9 фоизини ёшлар (14-35 ёш) ташкил этади, бу эса ёш авлодни жамиятда ўқитиш ва тарбиялаш бўйича кўплаб тадбирларни амалга оширишни талаб қилади[6].

Жумладан, Тожикистон Республикасида 2018 йилда мамлакатдаги таълим муассасалари сони 3 869 донага етди, у ерда 2,2 миллион ортиқ ёшлар (14 ёшдан юқори) таълим олишади.

Шунингдек, қонунчилик талабларига биноан ушбу ижтимоий гуруҳ қатламларига таълим билан бир қаторда, замонавий жамиятнинг нотинчликларига чидамли бўлиш учун мафкуравий таълим, мустақил ҳаётга тайёргарлик кўриш ва салоҳиятни ошириш каби ғоялар сингдириб келинмоқда.

Ёшларга оид давлат сиёсатининг яна бир устувор йўналиши уларни самарали иш билан таъминлашдир. Ёшларни, айниқса қишлоқ ёшларини муносиб иш билан қамраб олиш жамиятни иқтисодий инқироздан қутқариш ва ижтимоий ва ахлоқий асосларни мустаҳкамлашга ёрдам беради.

Хусусан, ҳукуматнинг ёшлар сиёсати бўйича статистик маълумотларига кўра, ишчиларнинг деярли 76 фоизини ёшлар ташкил этади.

Тожикистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлигининг тадқиқот натижаларига кўра, 2016 йилда 15-29 ёшдаги ёшлар улушининг иш билан таъминланганларнинг умумий сонига нисбатан қисқариши кузатилмоқда, бундан ташқари йиллик катталар ўртасида (30-75 ёш) бандлик даражаси ўсиб бормоқда, бу эса ташвишга солмоқда (2004 йилда - 56,3 фоиз; 2016 йилда - 68,9 фоиз)ни ташкил қилган.

Шундай қилиб, тегишли иш билан таъминланмаган 15-35 ёшдаги ёшлар сони жуда кўп ва жамиятнинг ушбу қатлами заиф қатлам сифатида қаралади ва уларнинг етарли иш билан таъминланиши учун зарур чора-тадбирлар ишлаб чиқилмаган.

Хусусан, расмий статистик маълумотларга кўра, ишсизлар сони 2010 йилда 59669 кишини ташкил этган бўлса, 2016 йилда бу кўрсаткич 23 фоизга ўсди, шундан 46 фоизини 15-29 ёшдаги ёшлар ташкил этади. Яъни, ишсизлик билан боғлиқ вазият энг аввало ёшларга таҳдид солмоқда ва барчаси 2014-2016 йилларда вазият деярли ўзгармаганлигини кўрсатмоқда.

Агар Тожикистонда Республикасида ёшлар сони 1,7 фоизга кўпайса (ўртача, йилига), улуши ҳажми бир хил бўлган янги иш ўринлари сони кўпайиши керак. Шу билан бирга, ёшларни доимий иш билан қамраб олиш учун ҳар йили камида 300 мингта янги иш ўринлари яратилиши керак.

Тожикистон Республикасида ёшлар орасида соғлом турмуш тарзини таъминлаш ҳам ёшларга оид давлат сиёсатининг устувор йўналиши ҳисобланади. Юқумли касалликлар, масалан, инсон иммунитет танқислиги вируси, орттирилган касаллик синдроми, гиёҳвандлик, сил касаллиги ва бошқа ўта хавфли касалликлар глобаллашув шароитида ўспиринлар ва ёшларни катта таҳдид остига қўйди.

Расмий маълумотларга кўра, 2016 йилда жами беморларнинг сони 1,7 миллионга етди ва ҳар йили 8 фоизга ўсмоқда, айниқса ёшлар орасида.

2017 йилда мамлакатда юқумли касалликка чалинган ёшлар сони 6 947 кишига етди, улардан 5 231 нафари эркаклар ва 2 478 нафари аёллар.

Биргина 2016 ва 2017 йилларда 657 нафар ёш инсон иммунитет танқислиги вирусини юқтирган.

Шунингдек, 2017 йилда 962 киши (шу жумладан, 330 та қиз) инсон иммунитет танқислиги вируси, жинсий йўл билан юкадиган касалликлар, сил касаллиги, гиёҳванд моддалар ва бошқа ўта хавфли касалликларни юқтиргани аниқланди.

Бундан ташқари, мамлакатдаги ҳозирги ижтимоий-иқтисодий вазиятда ёшлар энг химояланмаган ва беқарор ижтимоий гуруҳ бўлиб, таълимнинг паст сифати ва натижада касбий ихтисослашувининг йўқлиги каби салбий тенденциялар кучаймоқда.

**Хулоса** қилиб айтадиган бўлсак ҳар бир мамлакат аҳолисининг катта қисмини ёшлар ташкил қилади. Бу дегани мактабгача таълим қамровини ошириш, халқ таълими тизимидаги муаммоларни ечиш ва таълим сифатини ошириш чораларини кўриш, бу олий таълим тизимидаги ислохотларни янада чуқурлаштириш, олий таълимни сифат жиҳатдан юқори босқичга олиб чиқиш, бу олий таълимдан кейинги таълим тизимидаги муаммоларни бартараф этиш, ёшларга касб-хунар ўргатиш тизимини мукамаллаштириш, умуман ёшлар учун янги иш ўринларини яратиш деганидир.

### **АДАБИЁТЛАР:**

*1 Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатаси ҳузуридаги Ёшлар парламенти Фан таълим масалалари қўмитаси аъзоси ҳамда ЎЗМУ таянч докторанти Аҳмедов Азизхон.*

*2. <https://dzen.ru/a/ZVHOMjujUHAIpfzB>https:*

*3. [//ourworldindata.org/suicide#suicide-is-a-leading-cause-of-death-especially-in-young-people](https://ourworldindata.org/suicide#suicide-is-a-leading-cause-of-death-especially-in-young-people)*

*4. <https://www.stat.kg/ru/statistics/naselenie/>.*

*5. <https://minjust.gov.tm/ru/hukuk/merkezi/hukuk/177>.*

*6. Закон Республики Таджикистан от 23 декабря 2021 года №1830 О молодежи и государственной молодежной политике.*

RADIKALIZMNING MOHIYATI, ASOSIY SHAKLLARI VA ILMIY TALQINLARI

*Boymirzayeva Mohira Shavkatjonovna,  
Respublika Ma'naviyat va marifat markazi huzuridagi  
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada radikalizm mafkurasining mohiyati, radikalizm mazmuni va talqinlar hamda radikallshuvga ta'sir ko'rsatuvchi omillar muhokama qilingan bo'lib, uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlar hamda yoshlar siyosiy faolligiga ta'sir ko'rsatish qamrovi ochib berilishiga e'tibor qaratilgan.

*Kalit so'zlar:* radikalizm, radikallshuv, siyosiy jarayonlar, yoshlar, siyosiy faollik.

THE ESSENCE, MAIN FORMS AND SCIENTIFIC INTERPRETATIONS OF RADICALISM

*Abstract.* This article discusses the essence of the ideology of radicalism, the content and interpretations of radicalism, as well as factors affecting radicalization, focusing on revealing its scope of influence on socio-political processes and political activity of young people.

*Keywords:* radicalism, radicalization, political processes, youth, political activity.

СУЩНОСТЬ, ОСНОВНЫЕ ФОРМЫ И НАУЧНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ  
РАДИКАЛИЗМА

*Аннотация.* В данной статье рассматривается сущность идеологии радикализма, содержание и трактовки радикализма, а также факторы, влияющие на радикализацию, уделяя особое внимание раскрытию сферы ее влияния на общественно-политические процессы и политическую активность молодежи.

*Ключевые слова:* радикализм, радикализация, политические процессы, молодежь, политическая активность.

Bugungi globallashuv davrida davlatlarning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi ko'p jihatdan jamiyat a'zolari, xususan yoshlarning siyosiy faolligiga bog'lib bo'lib bormoqda. Siyosiy faollik esa o'z navbatida siyosiy ong va madaniyatlikni talab qiladi. Demokratik mazmundagi va insonparvarlik g'oyalari bilan mustahkamlangan hamda milliy o'ziga xos xususiyatlar bilan himoyalangan siyosiy madaniyat modeli ko'proq o'zining yashovchanligini ko'rsatmoqda. Shu jihatdan, yoshlarning siyosiy ongiga ta'sir ko'rsatishga intilayotgan buzg'unchi kuchlar manbalarini aniqlash, yoshlarda barqaror siyosiy madaniyatni shakllantirish davr talabiga aylangan. Shu bilan birga, bugungi axborot asrida ma'lumotlar oqimining kuchayib borayotganligi ijtimoiy hayotimizda ularni saralash va tahlil qilishni qiyinlashtiradi. Bu ma'lumotlar ichida yoshlar qatlami ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, ularda ijtimoiy-siyosiy keskinlik kayfiyatini keltirib chiqaruvchi "oqimlar"ning mavjudligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, yoshlarda radikal kayfiyatga undash holatlari toboro avj olgan. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Butun dunyoda kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorism, odam savdosi, giyohvandlik kabi xatarlar, afsuski, bizni ham chetlab o'tmayapti"[1]. Ayni mazkur dolzarblik davlatning yoshlar siyosatini chuqur tanqidiy ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Bu boradagi asosiy yondashuvni Prezidentimiz o'zining Oliy Majlisga murojaatnomasida alohida ta'kidlab o'tdi: "Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma'rifat o'rnini jaholat egallashiga yo'l qo'ymaymiz"[2]. Shunday ekan, bugungi kunda radikalizm mafkurasini va uning g'oyalari mazmunini anglash, yoshlarning faol siyosiy intilishlari uchun asosiy manbaaga aylanib qolmaslik choralari ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlab, "radikalizm" tushunchasi va uning turli talqinlari, kelib chiqish tarixi va siyosiy-mafkuraviy asoslarini o'rganish hamda namoyon bo'lish shakllarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Hozirgi paytda yer yuzidagi barcha davlatlar oldida turgan eng muhim masalalardan biri ham radikallashuv muammosining oldini olishdir. Hattoki, xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarning aksariyatida ushbu jihatga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Turli nomlar ostida o'zining g'arazli maqsadini, terroristik va ekstremistik faoliyatini olib borishni ko'zlagan radikal oqim vakillari bugun axborot texnologiyalari rivojlangan bir davrda internet va ijtimoiy

tarmoqlari orqali o'z sahifalarini ochib, noqonuniy faoliyat olib bormoqda. Ularning aksariyati dunyoning bir chekkasida turib, tinch-totuv yashayotgan xalqlarning farovonligiga taxdid solish bilan mashg'ul. Ayniqsa, yovuz niyatlarini amalga oshirishda internet hamda ijtimoiy tarmoqlar qarmoq vazifasini o'tamoqda.

Hozirgi vaqtda "radikallashuv" tushunchasini o'rganish katta qiziqish uyg'otishda davom etmoqda, bu zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlar, shu jumladan siyosiy zo'rvonlik, ko'pincha ekstremizm va terrorizm ko'rinishidagi turli xil to'qnashuvlar bilan bog'liq. "Radikallashuv" atamasi ancha vaqtdan beri siyosiy nutqda va ilmiy muomalada mustahkam o'rin egallab, turli kontekstlarda faol qo'llanilmoqda. Ammo ushbu hodisaning mohiyatiga qarashlarda sezilarli evolyusiyani, shuningdek, tadqiqotchilar o'rtasidagi jiddiy qarama-qarshiliklarni kuzatish mumkin.

"Radikal" atamasi –lotincha "radicalis" - "ildizga oid", "ildiz" so'zidan olingan bo'lib, qat'iy va keskin choralar, harakatlar, dasturlar tarafdori, degan ma'nolarni anglatadi. Shu bilan birga, ba'zi talqinlarga ko'ra, "Radikalizm – tom ma'noda oxirigacha borish, har qanday faoliyatda tub o'zgarishlarga erishish uchun murosasiz istakni anglatadi"[3]. Mavjud davlat tuzumini tanqid ostiga olib, radikal o'zgarishlar va islohotlar o'tkazishni talab etuvchi siyosiy oqim sifatida e'tirof qilinadi. Bunday oqim tarafdorlari o'z oldiga qo'ygan g'arazli maqsadi yo'lida hech narsadan tap tortmaydi. Yer yuzidagi mavjud davlatlarning tinchligi, davlat sifatidagi maqomi, milliy qadriyati, tili, dini, asriy an'alarining izdan chiqishi, yemirilishi uchun yovuz harakatini olib boradi. Buning natijasida butun bir xalqning milliy ma'naviyati va madaniyatiga darz ketadi.

Radikal g'oyalar va harakatlar qadim zamonlardan beri mavjud bo'lsa-da, tadqiqotlarda keltirilishicha "radikalizm" atamasi Angliyada XVIII asrning oxirida paydo bo'lib, falsafa, din, siyosiy g'oya va usullarni o'z ichiga oladi. Kanadalik tadqiqotchi M.Nyuman bu atamani izohlash uchun 1802-yildagi[4] Oksford lug'atida keltirilgan ma'lumotlardan foydalandi va qolganlarga qaraganda ancha ilgariroq qo'llay boshlagan, deyish mumkin.

Boshqa bir fikrga ko'ra, mazkur atama birinchi marta I.Bentam tomonidan falsafaning yangi yo'nalishiga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik esa XIX asrda ijtimoiy-siyosiy qarashlar va mafkuralarga singib ketdi[5].

"Encyclopaedia Britannica"ga ko'ra, "radikalizm" atamasi birinchi marta siyosiy ma'noda ingliz parlamentining Vigi partiyasi a'zosi Charlz Jeyms Foks tomonidan ishlatilgan, u 1797-yilda saylov huquqining sezilarli darajada kengayishini nazarda tutuvchi "radikal islohot"[6] nuqtai nazaridan ishlatadi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, dastlab "radikalizm" atamasi demokratik islohotlarni amalga oshirish orqali ijtimoiy muammolarni hal qilish istagini bildirgan.

Boshqa bir manbalarda radikalizm konsepsiyasi 1832-yilda Angliyada saylov islohoti to'g'risidagi qonun loyihasining muxoliflari orasida yangilik tarafdorlariga xos xususiyat sifatida paydo bo'ldi. Keyinchalik utilitarizm asoschisi Bentam, keyin esa uning izdoshlari radikalizm tarafdori sifatida namoyon bo'lishdi[7].

1930-yilda amerikalik olim Horas Kallen "radikalizm" atamasini izohlar ekan: "Radikalizm – bu nafratlanadigan narsalarni doimiy yo'q qilishga va uni almashtirishga qaratilgan ijtimoiy o'zgarishlarning muqobil falsafa va g'oyasidir"[8], deb ta'kidlaydi.

Radikalizm tushunchasining kelib chiqish tarixi aniq ko'rsatib turibdiki, radikalizmni har qanday muayyan siyosiy pozitsiya bilan bog'lash qiyin. Shubhasiz, radikalizmning paydo bo'lishi uchun asos davlatning siyosiy va boshqaruv apparati samaradorligidan norozilikdir, ammo bu radikalizmning keng tarqalishini tushuntirib berolmaydi. Ushbu atamaning ma'lum bir ijtimoiy, siyosiy yoki falsafiy yo'nalishga nisbatan qo'llanilishiga ta'sir qilgan asosiy parametrlar vaqt va joy parametrlari edi. Vaqt va makonga ko'ra utilitarizm g'oyalari, burjua-demokratik tushunchalar, neomarksizm va boshqalar radikalizm deb atalgan. Bundan tashqari, xuddi shu parametrlar ko'pincha ilgari radikal deb tan olingan ko'plab ta'limotlar uchun reabilitatsiya omillari bo'lgan. Aslida, XIX asrdayoq radikalizm siyosiy, falsafiy, diniy, madaniy va ma'rifiy oqim sifatida kengroq talqin etila boshlandi.

Sovet ijtimoiy fanidagi bu etimologik yondashuv mafkuraviy yondashuv bilan to'ldirildi, unda radikalizm kapitalizm illatlariga qarshi norozilik bildiruvchi g'oyaviy-siyosiy harakat sifatida qaraldi. Albatta bu birtomonlama qarashdir, chunki radikalizm hodisa sifatida faqat kapitalizm bilan bog'liq emas[5].

Shuni ta'kidlash joizki, ilmiy adabiyotlarda hali "radikallashuv" tushunchasining aniq konseptual asoslari ishlab chiqilmagan va "radikallashuv" atamasini faqat qurolli guruhlariga qo'shilish va ishtirok etish faktiga nisbatan qo'llashga urinish mavjud. Biroq, vaqt o'tishi bilan "radikalizm" atamasining ma'nosi biroz o'zgardi. Xususan, Novikov Igor Anatoliyovich ta'kidlashicha, hozirgi zamonda "radikalizm" atamasi tobora mavjud institutlarni tubdan o'zgartirishga qaratilgan siyosiy g'oyalar va harakatlar majmuini anglatadi[9]. XIX asrning ba'zi radikal talablari endilikda inson huquqlarining bir qismiga aylandi. Boshqacha [aytganda](#), "radikal" tushunchasining mazmuni bir asrdan ko'proq vaqt ichida keskin o'zgardi: XIX asrda "radikal" atamasi asosan liberal, antiklerikal, demokratiya tarafdori, progressiv siyosiy pozitsiyalarga ishora qilingan

bo'lsa, zamonaviy foydalanishda ko'proq antiliberal, fundamentalistik, antidemokratik va regressiv ma'noga ega bo'lib bormoqda.

Hozirgi vaqtda xorijiy adabiyotlarda "radikallashuv" tushunchasiga bir nechta asosiy yondashuvlar mavjud. 2001-yilgacha "radikallashuv" atamasi ba'zan ilmiy doiralarda qo'llanilsa-da, matbuotda kam tilga olindi. Keyinchalik 2005-2007-yillarda, xususan, 2004-yil martidagi Madrid portlashlari va 2005-yil iyulidagi London portlashlaridan so'ng, "milliy terrorizmi" kabi hodisa bilan bog'liq bo'lgan "radikallashuv" atamasini qo'llash keskin o'sdi. 2005-yildan buyon G'arbiy Yevropaning aksariyat mamlakatlarida "Radikallashuvni yo'qotish" dasturlari ishlab chiqilib, amalda qo'llaniladi boshlandi.

Bugungi kunda asosan G'arb jamiyatlarida radikallashuv 9/11 davrining mahsuli sifatida qaraladi va ko'pincha Islom bilan bog'liq[10] ekanligi ta'kidlanadi.

Ayrim tadqiqochilarning fikriga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasida ham Islomning tiklanishi, diniy amaliyotlarning kuchayishi va Islomiy siyosiy partiyalarning paydo bo'lishi ko'pincha radikallashuv shakli sifatida qabul qilinadi[11].

Shuni ta'kidlash kerakki, "radikalizm" atamasi fanda nisbatan neytral ma'noga ega bo'lib, shartli salbiy va shartli ijobiy o'zgarishlarni anglatishi mumkin. So'nggi paytlarda bu atama akademik mazmun kasb etib, ilmiy jamoatchilikda tobora keng tarqalib bormoqda.

Ba'zi qarashlarga ko'ra, radikalizm nafaqat salbiy, balki ijobiy ham tasvirlashi mumkin. Turli davrlarda o'zining fikrini keskin ifoda etgan, jamiyatning ayrim qatlamlari manfaatlarini himoya qilgan jamoat arboblari ham "radikallar" deb atalgan[12].

Agar talqinlarga e'tibor qaratsa, radikalizm aniq ijobiy yoki salbiy ma'noga ega emas, hamma narsa maqsadlarni belgilash va amalga oshirishning o'ziga xos shartlariga bog'liq. Siyosiy jarayonda yuzaga keladigan vaziyatlar ko'pincha siyosiy ishtirokchilarni qat'iy qadamlar tashlashga majbur qiladi, ammo bu qadamlarning radikal bo'lishi, ba'zi mualliflar o'ylagandek, qat'iylik darajasiga emas, balki ishtirokchilarning maqsadlariga bog'liq. Bu ham mahrumlik darajasiga bog'liq emas, chunki radikal g'oyalarda mulkni, hokimiyatni, resurslardan foydalanishni va hokazolarni adolatli qayta taqsimlash istagini emas, balki barqaror tartib o'rnatish istagini aks ettiradi.

Umuman, quyidagi bir qator talqinlarni ko'rib chiqish mumkin. Jumladan, "radikalizm" atamasi jamiyatda radikal o'zgarishlarni talab qiladigan va shu bilan ijtimoiy yoki siyosiy institutlarni o'zgartiradigan g'oyalarni anglatadi. Ba'zi mualliflar radikalizmni siyosatni amalga oshirish usuli, faqat vosita sifatida ko'rsatishga urinishadi.

Radikalizm, psixologik jihatdan rahbarlar va ularning partiyalari va harakatlarining murosasiz ravishda belgilangan maqsadga muvofiq harakat qilish temperamenti va moyilligini aks ettiradi. Biroq, zo'rlik yoki zo'ravonlik tahdidi istisno qilinmaydi. Radikalizm – tub o'zgarishlarga intilish, shu jumladan mafkuraviy maqsadlar va ularga erishish vositalarini aks ettiruvchi umumlashtiruvchi kategoriyadir[5].

Ba'zi radikallar hali ham atamaning etimologiyasidan kelib chiqadigan asl ma'nosini boshqarishga harakat qilmoqdalar (lotincha "ildiz", "kelib chiqishi" ma'nosidan). Ular 1960-1980-yillarda dunyodagi eng mashhur radikal siyosiy arboblardan biri, amerikalik Anjela Devisning so'zlariga asoslanadi: "...radikal shunchaki narsalarning kelib chiqishini tushunishni anglatadi"[13].

Zamonaviy anarxizm ideologi Jeff Shantz radikalizm ko'pincha noto'g'ri da'vo qilinganidek, strategiya emasligini ta'kidlaydi. Bu zamonaviy dunyoda harakat qilish uchun hayotga muhim yondashuvdir. Uning fikriga ko'ra, "Radikal bo'lish bu – oddiy taxminlar, juda oson tushuntirishlar, qoniqarsiz javoblar va muammolarni hal qilish uchun davolovchi vositalar bilan cheklanmaslikdir"[14].

Rus olimi S.Samoilovning fikricha, radikalizm g'oya emas, balki xulq-atvor modelidir. Shu bilan birga, u radikalizmga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi: ma'lum bir ta'limot talablariga fundamental rioya qilish; utopik g'oyalarning mavjudligi; zo'ravonlik harakatlarining muqarrarligini e'lon qiluvchi inqilobiy ruh[15]. Shu bilan birga, "Radikalizm – fundamentalizm ... utopiya ... inqilobchilik bilan tavsiflangan fikrlash tarzi va u bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlar modelini anglatadi"[16].

Dog'istonlik olim Ya.Yaxyaev radikalizmni konstruktiv va buzg'unchiga ajratadi. Bunda birinchisi ilg'or inqilobiy taraqqiyotni, ikkinchisi esa buzg'unchi konservatizmni nazarda tutadi, lekin ikkalasi ham mavjud hokimiyat tizimini va jamiyat asoslarini yo'q qilishni nazarda tutadi. Bu muallifning fikricha, radikalizm o'ta agressiv mafkura va butun ijtimoiy-siyosiy tuzumni o'zgartirishga qaratilgan o'ta buzg'unchi harakatlarga asoslangan ijtimoiy-siyosiy faoliyatdir[17].

Fikrimizcha, radikalizm murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, millatlararo, diniy, ekologik va boshqa muammolarni hal etishning "oddiy" yo'llarini mutlaqlashtirish, zo'ravonlikni to'g'ridan-to'g'ri "samarali" vosita sifatida asoslash va ideallashtirish bilan tavsiflanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, radikalizmning xavfli tomoni shundaki, u qarama-qarshilik, ishonchsizlik va qarama-qarshilik spiralini kuchaytirib, o'zaro ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Radikalizmning eng keng tarqalgan belgisi – bu mavjud ijtimoiy-siyosiy voqelikka salbiy munosabat va qarama-qarshilikni hal qilishning mumkin bo'lgan variantlaridan birini yagona maqbul variant sifatida taklif qilishdir. Radikalizm tavsifining aynan shu qismida unga xos bo'lgan “reduksionizm” tushunchasini ko'rish zarur. Gap shundaki, radikal g'oyalar murakkab ziddiyatni uni hal qilishning oddiy vositalariga kamaytirishga intiladi. Ko'pincha radikalizm ijtimoiy-siyosiy voqelikning murakkab tizimini ma'lum bir tamoyil yoki ideal loyihaga tushiradi[7].

Siyosatshunos va sotsiolog Farxod Xosroxavaru individual darajadagi radikallashuvni hissiy va kognitiv ta'sir jarayonlariga alohida e'tibor qaratgan holda individual ishtirok etish va o'rganish jarayoni sifatida belgilaydi. Xosroxavarning so'zlariga ko'ra, radikallashuv – bu shaxs yoki bir guruh odamlar tomonidan zo'ravonlik choralarini qo'llash jarayoni. Bu to'g'ridan-to'g'ri siyosiy, ijtimoiy yoki madaniy darajada o'rnatilgan tartibni shubha ostiga qo'yadigan ekstremistik mafkura bilan bog'liqdir[18]. Ushbu ta'rif zaif odamlar orasida muxolifat qahramoni shaxsini yaratishga olib keladigan Internet akkulturatsiyasining potensial kuchini o'rganishga yordam beradi. Biroq, Xosroxavarning asosiy qarashlari G'arbdagi Islomiy diniy radikallashuvga qaratilgan. Ya'ni, bu yondashuv radikallashuvning boshqa shakllarini va boshqa kontekstlarni tahlil qilish nuqtai nazaridan cheklangan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, “radikalizm” tushunchasi talqinlari turli yondashuvlar asosida tushuntirilib, bugungi kungacha uning ijobiy yoki to'liq salbiy ma'nodagi kategoriya ekanligi borasida yakuniy xulosalar mavjud emas. Albatta, aksar talqinlarda, ayniqsa dunyoda xalqaro terrorizmning kuchayishi sharoitida ko'proq salbiy ma'nodagi atama sifatida ishlatilishi ustunlik qiladi. Radikalizm biron bir mafkura bilan bog'liq emas, balki u har qanday mafkuraviy va siyosiy qurilishning sifati o'laroq namoyon bo'ladi. Bu xususiyat qarama-qarshilikni hal qilishning muqobil usullarini va belgilangan idealga erishishning evolyusion yo'lini e'tiborsiz qoldirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga, radikalizm ideal holatga erishish uchun mos vositalarni shakllantirish uchun katta vaqt resurslarini sarflash imkoniyatini rad etadi.

Shunday qilib, ilmiy tushunchada radikalizm keng ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lib, hayotning barcha sohalarini qamrab oladi: siyosiy, ijtimoiy, diniy, iqtisodiy va boshqalar. Radikalizm, birinchi navbatda, haqiqat bilan chuqur ziddiyatli maqsadlar, g'oyalar va qadriyatlar, ikkinchidan, aniqlangan qarama-qarshilikni bartaraf etishning shoshilinch retsepti taklifi bilan tavsiflanmoqda.

Talqinlardan ko'rish mumkinki, radikalizmni ham mafkura, ham usul va texnologiyalar jamlamasi sifatida tahlilga tortish mumkin. Talqin va ta'riflarning turlichaligi o'z navbatida radikalizmni turkumlashtirish, uning turli shakllarda namoyon bo'lishini ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu borada ham har xil yondashuvlar bahsga kirishadi.

Ba'zi tadqiqotchilar radikalizmni “fikir radikalizmi” va “shakl radikalizmi”ga bo'lishadi[19]. Birinchi holatda jamiyatning chuqur ijtimoiy-siyosiy va diniy dunyoqarashi o'zgarishi haqidagi falsafiy mulohazalarni bildiradi. Ikkinchi holatda esa ko'proq shakllangan va reduksionizm bilan ajralib turadigan falsafiy loyihalarni amalga oshirish retsepti sifatida talqin qilinadi.

Radikalizm tipologiyasini ko'rib chiqar ekanmiz, siyosiy fanlar doktori A.Ye.Kruglov radikalizmni quyidagi mezonlarga ko'ra ajratishni taklif qiladi: namoyon bo'lish sohalariga qarab (siyosiy-mafkuraviy, iqtisodiy va huquqiy radikalizm); siyosiy asosga ko'ra (“o'ng” va “so'l” radikalizm); mafkuraviy asosga ko'ra (etnik, diniy va mintaqaviy radikalizm); siyosiy faoliyatning vazifalari bo'yicha (taktik va strategik radikalizm); siyosiy maqsadlariga ko'ra (ajralish, irredentizm yoki siyosiy identifikatsiya shaklidagi radikalizm); namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra (haqiqiy va rasmiy radikalizm); davomiylik mezoniga ko'ra (vaqtinchalik yoki doimiy radikalizm); ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra (arxaik va progressiv radikalizm) va xatti-harakatlar turi bo'yicha (deviant va innovatsion radikalizm)[20].

A.N.Smertin esa yakobin tipidagi radikalizmni quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflaydi: zo'ravonlik, diktatorlik va terrorchilik usullariga amal qilish; haddan tashqari etatizm, shaxs manfaatlarini davlat manfaatlariga bo'ysundirish; blankizm, partiya avangardligi, yetakchilik; siyosiy makiavelizm; huquqiy va axloqiy nigilizm. Tadqiqotchining fikricha, inqilobiy-demokratik radikalizmning o'ziga xos belgilari quyidagilardan iborat: inqilobiy jarayonda omma harakatining prinsipial ahamiyati; saylov vektorining siyosiy terrorizmga yo'l qo'yish; qisqartirilgan liberalizm yoki ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi tub o'zgarishlarni amalga oshirishning islohotchi yo'li imkoniyatlarini taxmin qilish.

Liberal-demokratik radikalizm quyidagi umumiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi: inson shaxsi va uning erkinligining ajralmas qadriyatini tan olish; qonun ustuvorligini himoya qilish va tabiiy huquq nazariyasi; qonuniylikning siyosatdan ustunligi; huquqiy nigilizmga dushmanlik; tinch siyosiy usullar orqali ijtimoiy islohotchilik[21].

Boshqa manbalarda radikalizm mafkurasi mazmuni bilan belgilanadigan ijtimoiy o'zgarishlarning tabiatiga qarab radikalizm shakllarini farqlash mumkin. "Birinchi holda, biz konstruktiv (inqilobiy) radikalizm haqida gapiramiz, uning maqsadi hozirgi ijtimoiy tizimni sifatli, inqilobiy va progressiv o'zgartirishdir. Radikalizmning bu shakli ko'proq mukammal jamiyat yaratishda ifodalangan konstruktiv salohiyatni o'z ichiga oladi, mavjud tuzumni yo'q qilishga qaratilgan buzg'unchi elementdan ustun turadi. Ikkinchi holda, biz haqiqiy ijtimoiy voqelikka, ijtimoiy tizimga yoki muayyan ijtimoiy vaziyatga qarshi zo'ravonlik harakatlari orqali eskirgan ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolish maqsadini qo'yadigan buzg'unchi radikalizmni nazarda tutamiz"[22] deydi A.M.Kadieva.

Tadqiqotchi S.F.Samoylov radikalizmning ikkita asosiy turini – ijtimoiy va siyosiy radikalizmni ajratib ko'rsatadi. Mazmun jihatidan ijtimoiy radikalizm har qanday ijtimoiy guruh manfaatlarining butun jamiyat manfaatlaridan ustunligini tan olishdir. Ijtimoiy radikalizmga misollar: irqchilik, etnosentrizm, feminizm, ekologiya, diniy fundamentalizm, LGBT harakati va boshqalar. Siyosiy radikalizm davriy ijtimoiy inqirozlarni (turli sabablarga ko'ra) hozirgi davlat hokimiyatini o'zgartirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qodir mexanizmga aylantirishni maqsad qiladi[15].

Radikalizm shakllarini uning vakillarining faollik darajasi bilan ajratish mumkin. Mo'tadil radikallar jamiyatni minimal zo'ravonlik bilan yumshoq vositalar bilan isloh qilishga intilishadi. Inqilobchilar barcha jamoat institutlarini tubdan yangi asosda chuqur o'zgartirishga harakat qiladi. Ekstremistlar terrorga qadar maqsadlarga erishishning eng qat'iy usullarini talab qiladi[23].

Ammo shuni hisobga olish kerakki, radikallashuv har doim ham destruktiv emas. O'zining noaniqligiga qaramay, u muayyan funksiyalar doirasida har qanday mamlakatning siyosiy hayotida muhim rol o'ynaydi.

Ba'zi jamoaviy tadqiqotlarda[24] radikallashuv birinchi navbatda ma'lum o'zgarishlarga olib keladigan jarayon sifatida ta'riflanadi: dunyoqarashda, xulq-atvorda, ijtimoiylashuvda va mo'tadil e'tiqodlardan ekstremal qarashlarga[25] va majburiyatlarga[26] o'tish. Shu bilan birga, radikallashuvni salbiy atama emas, deyishadi. Masalan, Maxatma Gandi va Martin Lyuter Kingni radikallar deb ham atash mumkin bo'lgan.

Radikallashuv jarayonini har tomonlama tushunish uchun radikallashuvning quyidagi darajalarini ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan: individual (shaxsning radikallashuvi); ijtimoiy (ma'lum bir guruhning radikallashuvi); sotsial (jamiyatning radikallashuvi).

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda diniy radikalizm va boshqa tushunchalar mohiyati to'g'risida aniq fikr yo'q. Umuman olganda, radikalizm deganda har qanday qarashlarga, fikrlash tarziga, konsepsiyaga haddan tashqari murosasiz rioya qilish tushuniladi. Ushbu atama ko'proq siyosiy va ijtimoiy sohalarda qo'llaniladi. Ko'pgina mualliflar radikalizmni nafaqat buzg'unchi, balki taraqqiyotni tezlashtiradigan ijobiy hodisalarning katalizatori deb bilishgan.

Radikalizmni haddan tashqari darajada tajovuzkor mafkuraga asoslangan va mavjud ijtimoiy-siyosiy tizimni keskin o'zgartirishga qaratilgan faol harakatlar bilan birga keladigan ijtimoiy va siyosiy xarakterdagi faoliyat turi sifatida ekstremizm deb atash mumkin.

Demokratiya sharoitida radikal oqimlarning paydo bo'lishini aniqlash yoki kuzatish juda qiyin, chunki u so'z va dinning mutlaq erkinligini nazarda tutadi. Bunday oqimlarning keyingi rivojlanishi tabiiy ravishda ekstremizmning paydo bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, radikal qarashlarning paydo bo'lishi insonning mamlakatda sodir bo'layotgan jarayonlarga u qabul qila olmaydigan himoya reaksiyasi bo'lishi mumkin. Radikalizm jamiyatning sekulyarizatsiyasi va diniy guruhlarning marginallashuvi jarayonlariga himoya reaksiyasi sifatida ham paydo bo'lishi mumkin. Radikal qarashlarning tarqalishi orqali turli siyosiy kuchlar tomonidan ma'lum bir mamlakatning davlat va siyosiy tizimini o'zgartirishning zo'ravon usullari targ'ib qilinadi.

### ADABIYOTLAR:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi*//<https://president.uz/oz/lists/view/5774/>. – 20.12.2022.
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi* // "Xalq so'zi" gazetasi, 2022 yil 20 dekabr, №272 (8334), - B.3.
3. *Новая философская энциклопедия : в 4 т. / Ин-т философии РАН ; науч.-ред. совет: В.С.Степин, А.А.Гусейнов, Г. Ю.Семигин. – М.: Мысль, 2010. – Т. 3 : Н–С. – С.395-396. – 692 с.*
4. *Neumann M. What's Left?: radical politics and the radical psyche. Peterborough (Canada) ; Lewiston (N.Y.), 1988. – P.230.*

5. *Радикализм: теория и практика : учебное пособие для магистратуры / И. Н. Лопушанский. -2-е изд., перераб. и доп. – Санкт-Петербург : Санкт-Петербургский юридический институт (филиал) Академии Генеральной прокуратуры Российской Федерации, 2016. – С.4.*
6. *Encyclopaedia Britannica / Volume 9// New York: – 1911. – P .793.*
7. *«Экстремизм и радикализм – от понятий к пониманию»: методическое пособие / Санкт-Петербургское государственное бюджетное учреждение «Городской центр социальных программы профилактики асоциальных явлений среди молодёжи «КОН- ТАКТ». – СПб.: Амирит, 2016 г. – С.19.*
8. *Kallen H. Radicalism // Encyclopaedia of the Social Sciences (15 vol, NY 1930–34), – № 13.– P. 51–54.*
9. *Новиков И.А. Молодежный радикализм как фактор девиантного поведения: социокультурный анализ: автореф. дисс.... канд. соц. наук. – М., 2006. – С.203.*
10. *Kundnani A. A Decade Lost: Rethinking Radicalization and Extremism. – London:Clayston, 2015.*
11. *Олимова Н. Угроза радикализации в странах Центральной Азии: социальное измерение (на примере Республики Таджикистан). – Central Asian Analytical Network, 2016.*
12. *Айтжанова Д.А. Опыт европейских стран в противодействии религиозному экстремизму. Диссертация на соискание степени доктора по профилю. – Нур-Султан, 2021. – С.34.*
13. *Angela Davis Quotes //http://www. azquotes.com/author/3699-Angela\_Davis.*
14. *Shantz J. In Defense of Radicalism // Radical Criminology. – 2013. – Iss. 2 –P.7.*
15. *Самойлов С.Ф. К проблеме разграничения понятий социального и политического радикализма // Общество: политика, экономика, право. – 2008. –№ 2. – С. 81-87.*
16. *Самойлов С.Ф. Концептуализация понятий социального и политического радикализма и экстремизма / С.Ф.Самойлов, В.В.Плотников // Вестн. Краснодарского ун-та МВД России. – 2015. – № 4. – С.258.*
17. *Яхъяев М.Я. Причины радикализации ислама в современном мире // Исламоведение. – 2012. – № 2. – С. 4-14.*
18. *Хосрохавар Ф. Как радикалы противопоставляют себя обществу // <https://inosmi.ru/world/20150729/229329095.html>*
19. *Ольшанский Д.В. Психология терроризма. – СПб.:Питер, 2002. – С.288.*
20. *Круглов А.Е. Молодёжный радикализм. автореферат диссертации по политологии //http://cheloveknauka.com/molodyozhnyu-radikalizm*
21. *Смертин А.Н. Типология радикальных политико-правовых концепций // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. – 2008. – № 4 (40). – С.42.*
22. *Кадиева А.М. К вопросу о сущности религиозного экстремизма // Религиоведение. – 2007. – № 4.*
23. *Национальная политическая энциклопедия //http://politike.ru/termin/radikalizm-politicheskii.html.*
24. *Насритдинов Э., Урманбетова З., Мурзахалилов К., Мырзабаев М. Уязвимость и устойчивость молодых людей в Кыргызстане крадикализации и экстремизму: анализ в пяти сферах жизни. Научно-Исследовательский Институт Исламоведения, Бишкек, Кыргызстан. САП, номер 212, Январь 2019.*
25. *RCMP NSCI, Royal Canadian Mounted Police, National Security Criminal Investigations(2009) Radicalization—A Guide for the Perplexed, National Security Criminal Investigations.*
26. *Kruglyanski A., E. Orehek. The Need for Certainty as a Psychological Nexus for Individuals and Society, in Hogg and Blaylock (eds) Extremism and the Psychology of Uncertainty, Blackwell Publishing Ltd, 2012.*

### XX ASR BOSHIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI TURK VA AFG'ON FUQAROLARI, ULAR BILAN MAHALLIY AHOLINING MUNOSABATI XUSUSIDA (O'ZBEKISTON MILLIY ARXIVI MA'LUMOTLARI ASOSIDA)

*Xaitov Shadmon Axmadovich,*

*Buxoro davlat universiteti jahon tarixi kafedrası professori, tarix fanlari doktori*

*Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li,*

*Buxoro davlat universiteti arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası katta o'qituvchisi, t.f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududiga turk va afg'on fuqarolarining tashrif buyurishi, Bolqon urushi davrida Turkiyaga ko'rsatilgan moddiy yordam, milliy o'zlik uchun kurash targ'iboti masalalari ustida fikr-mulohazalar bildiradi.

**Kalit so'zlar:** bek, beklık, turk fuqarosi, afg'onlar, turk sultoni, afg'on amiri, ittihad, soliq to'plash, panislomchi, milliy kurash, yashirin yig'ilish, qavm-qarindoshlik, boshqaruv, qurol-yarog', o'q-dori, tashviqot, targ'ibot.

### AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY, THE TURKISH AND AFGHAN CITIZENS OF BUKHARA Emirate, IN PARTICULAR OF THE RELATIONSHIP OF THE LOCAL POPULATION WITH THEM

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются визиты турецких и афганских граждан на территорию Бухарского эмирата в начале XX века, материальная помощь, оказанная Турции во время Балканской войны, а также пропаганда борьбы за национальную идентичность.

**Ключевые слова:** бек, беклик, гражданин турции, афганцы, турецкий султан, афганский эмир, союз, сбор налогов, панисламист, национальная борьба, тайное собрание, родство, управление, оружие, боеприпасы, пропаганда, пропаганда.

### В НАЧАЛЕ XX ВЕКА ТУРЕЦКИЕ И АФГАНСКИЕ ГРАЖДАНЕ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА, В ЧАСТНОСТИ ОТНОШЕНИЙ С НИМ МЕСТНОГО НАСЕЛЕНИЯ

**Abstract.** In this article, discussions are presented on the visits of Turkish and Afghan citizens to the territory of the Bukhara Emirate in the early 20th century, material support provided to Turkey during the Balkan War period, and issues related to the promotion of national identity and the struggle for self-preservation.

**Keywords:** Bek, beklık, turkish citizen, afghans, turkish sultan, afghan emir, alliance, tax collection, pan-islamist, national wrestling, clandestine assembly, kinship, governance, weapons, ammunition, propaganda.

**Kirish.** Buxoro amirligi bilan Usmoniylar saltanati (Turkiya) va Afg'oniston davlatlari o'rtasida protektorat yillarida ham (1868-1917 yy) o'zaro savdo-sotiq, elchilik va madaniy aloqalar davom etdi. Buxoro amirligi aholisi vakillari savdo-sotiq, haj ziyorati, ta'lim olish kabi maqsadlarda Turkiya shaharlari va Afg'onistonga safarlar qildilar. Shuningdek, turk va afg'on fuqarolari ham Buxoro amirligi beklıklarida savdo-sotiq qilish, ta'lim olish, ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etish, ayrim paytlarda ayg'oqchilik vazifasini bajarish singari maqsadlarda tashrif buyurishgan.

1913-yil 1-iyulda Buxoro amirligidagi veteranar vrachning Turkiston general-gubernatoriga yuborgan 59-sonli maxfiy xatida, Qarshi beklıklarida turk va afg'onlarga mahaliy hukumat va ziyolilarning munosabati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur xat bayonida G'uzor bekligidagi boshqaruvda bek, qozi va rais kabi mansabdorlarining mavqei yuqoriligi, qozi shariat himoyachisi, rais boshqaruv egasi sifatida bekdan mustaqil ish tutushi, ular o'z qo'rg'on (qarorgohi)ga egaligi ko'rsatib o'tilgan. G'uzor bekligidagi yasovul bosh, devonbegi, qorovulligi, mirzaboshi kabi mansabdorlar ayrim masalalarda mustaqil bo'lishgan. G'uzor qozisi bekning o'g'li qonunga bo'ysunmagani uchun uni mansabidan bo'shatib, Eski Buxoroga yuborgan. Bek qanchalik harakat qilmasin, uni o'z mansabi va azaliy yeriga qaytara olmagan. Xolbuki, bekning o'g'li miroxo'r mansabida ishlagan, bekning o'zi 7 yil amir bilan Sankt-Peterburg (Rossiya)da birga bo'lgan, amir tarbiyachilaridan biri edi. Rais to'g'ridan to'g'ri amirga bo'ysunib, shahar boshlig'i, ko'chalar ozodaligini

## HISTORY

nazorat qiluvchi, Shaharda tarozi o'Ichovlarini aniq olib borishni tekshiruvchi kabi mas'uliyatli vazifalarni bajargan. Agar tarozidan urib qolgan savdogar aniqlansa, unga 4,1 kop jarima solinib, necha gramm olib qolgan bo'lsa, bunday jinoyatchi o'shancha tayoq bilan urilgan. Agar qassob go'shtdan 100 gramm urib qolsa, 100 tayoq savalangan. Bunday shaxs pora bersada, tayoq zarbidan butunlay qutulmasdi. Biroq shahar bosh mirshabi qozi va raisdan farqli o'laroq mustaqil harakat qila olmas, balki, bekka bo'ysunardi. Bekliklar volostlarga bo'linib, har bir volost oqsoqolliklarga taqsimlangan. Volostni volost boshlig'i, oqsoqollikni "elbegi" boshqargan. Masalan, Qarshi bekligi 14 ta volostlikka bo'linib, volost boshliqlari (amlodkor) bekka bo'ysungan, oqsoqollar volost boshlig'iga bo'ysunardi. Soliqni oqsoqollar to'plab volost boshlig'iga, volost egalari bekka yetkazishgan. Ko'p hollarda bekka qadar soliq pul holatida ayrim paytlarda mahsulot (natura) tarzida yetkazilgan. Suvsizlik, quruqchilik davrida soliq to'plash ishlari qiyin kechgan. Bek soliqlar miqdorini yil boshida belgilagan, sharoitga qarab o'zgartirmagan, natijada xalq noroziligi tufayli qo'zg'alonlar kelib chiqqan, non yetishmasligi oqibatida ocharchilik ham ro'y bergan: 1. Yuqoridagi fikrlarni keltirishdan asosiy maqsad Buxoro amirligi bekliliklaridagi barcha jarayonlarni amir va uning markaziy ma'muriyati to'la nazorat qila olmaganligi, bek, qozi, rais singari mansabdorlar o'z faoliyatida bir biridan mustaqilligi, volost va qishloqlarda aholi belgilangan soliqni to'lagandan so'ng, bir qadar erkinligi kabi jihatlarni bayon etishdan iborat. Yuqoridagi omillar tufayli amirlik bekliliklarining shahar va qishloqlarida turk va afg'on fuqarolari, rus fuqarolari anchagina salmoqli sonni tashkil etgan.

Turkiston Rayon Qo'riqlash Bo'limi (Oxranka, Maxsus idora, 1907-yilda tuzilgan) faoliyati bilan bog'liq arxiv hujjatlarida 1912-1913-yillarda Buxoro amirligi bekliliklaridagi "ziyolilar" (madrasa talabalari, amaldorlar, ilg'or fikrli tijoratchilar) orasida Turkiya va Afg'onistondagi voqealarga qiziqish kuchliligi haqida ma'lumotlar mavjud. "Turkiyaning Bolqon urushidagi janglari (1911-1912, 1912-1913), uni bu janglarda qo'llab-quvvatlash zarurligi haqidagi munozaralar beklilik va shaharlarda avj olgan.

Afg'onistonda nashr etiladigan gazeta va jurnallar mutolaa qilinmoqda. Turk sultoni va turk shahzodalari qiyofasi "yosh turklar" faoliyati tasviri tushirilgan otkritkalar tarqatilmoqda. Turkiyada chiqarilgan sirkuryarlar bilan birga gazetalarga qiziqish kuchaygan. Rossiya musulmonlarining Bog'chasaroyda chop etilgan "Tarjimon" gazetasi bilan birga turk va afg'on matbuoti keng tarqalmoqda [1] – kabi fikrlar mavjud, arxiv hujjatida. Yana bir maxfiy ma'lumotda esa, "Buxoro amiri (Sayid Olimxon) ga mahalliy ziyolilar tomonidan ishonch, e'tibor yo'qolgan, afg'on amiri (Habibullaxon, hukmronligi 1901-1919 yy) ning obro'-e'tibori oshib, uning mavqei baland, janubiy bekliliklarda ommabop bo'lib ketdi. Bolqon urushidagi mag'lubiyatdan so'ng, Turkiya mavqei musulmonlar orasida biroz pasayib, afg'on amirini "Ikkinchi yapon Matsuxitosi" sifatida ulug'lashmoqda, uning portretlari tarqalgan. Turk sultoni Abdulhamid hukmronlik qilgan davr (1876-1909 yy) olqishlanishi, Abdulmajid sultonligi tanqid etilmoqda" [2] – deyilgan, arxiv manbasida.

Buxoro amirligi poytaxti Eski Buxoroda yashagan Xo'ja Abdulahad Rohatboyev haqida imperiya ayg'oqchilari maxfiy ravishda to'plagan ma'lumotlar arxivda saqlangan.

U haqda: "Xo'ja Abdulahad etikdo'z, Rohatboy o'g'li, Eski Buxoro shahrida yashaydi, uning shaxsiy uyi shahardagi Shafaat bozor yonida joylashgan. Hozirga qadar (1913-yil 22 avgust) Xo'ja Abdulahad uyida Konstantinopol (Istanbul), Suriya, Makka, Madina (Arabiston)dan ko'plab kishilar mehmon bo'lishgan. Abdulahad etikdo'z bo'lsada, ziyoli kishi sifatida turkiy tildan tashqari arab, fors-tojik, turk, rus tillarini biladi, 8 marta Konstantinopolga sayohat qilgan. Uning o'g'illaridan biri Konstantinopolda qaysidir maktabda o'qib, xorijiy tillar va yozuvlarni o'rganib, Buxoroga bilimlar zahirasi bilan qaytgan. U olti oy ilgari (1913 yil fevral, mart) Konstantinopol safaridan Eski Buxoroga o'g'li bilan birga qaytgan. Uning uyida turk va afg'onlar doimo mehmon bo'lib turadi" [3].

Xo'ja Abdulahad Rohatboyev Konstantinopol safarlaridan birida turk sultoni Abdulmajid bilan uchrashishga muvaffaq bo'lgan. Shundan so'ng, turkiyalik mehmonlar unga Turkiyadan ma'lumotlar olib kelishgan va u ayrim maxsus topshiriqlarni bajarib turgan. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi ayg'oqchiligi idorasi va Oxranka Xo'ja Abdulahad uyiga 1913-yilda turk fuqarolaridan Rizabey afandi, Mustafo afandilar tashrif buyurganini aniqlashgan. Turkiyaga borib qaytgan Buxoro amirligidagi tubjoy aholisi vakillari (o'zbek va tojiklar) Rohatboyev uyida ko'p bor bo'lishgan. Ushbu shaxs buxorolik ilg'or fikrli yoshlarni Turkiyada oliy ta'lim olishiga tashviq va targ'ib qilgan [4].

Xo'ja Abdulahad Rohatboyev va uning maslakdoshlari Turkiyadan gazeta, jurnal va milliy ongini uyg'otishga xizmat qiladigan Sharq mutafakkirlarining kitoblarini olib turganlar. Rohatboyev uyida "gap" (kechki tadbir, mehmondorchilik) pardasi ostida gazeta va jurnallar mutolaaxonligi tashkil etilib, munozara va muloqotlar uyushtirilgan. Turk va afg'on matbuoti organlari nusxalari bormi-yo'qligi tekshirilganda, uning uyidan ular topilmagan. Bizningcha "gap" a'zolari Rohatboyev uyi nazoratda ekanligi zaruratidan kelib chiqib, xorijiy matbuot organlarining nusxalarini boshqa xonadonlarda yashirishgan [5].

Buxoro amirligining Gʻuzor bekligi bir qator volostlarida va Kitob, Shaxrisabz, Chiroqchi shaharlarida aholi orasida Turkiya turklarini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan ziyoli va savdogarlar targʻibot olib borishgan. Ayniqsa, 1911-1913-yillarda ushbu shaxslarga tayangan 3-4 nafar turk fuqarolari yuqorida qayd etilgan shaharlarga kelib, vaqtincha istiqomat qilishgan. Aynan shu yillarda Gʻuzor bekligidagi amir amaldorlari (bek, qozi, rais va h.k) aholiga jabr-zulmi kuchaytirganligi, ocharchilik va aholi qashshoqlanganligiga qaramay soliq zulmi aholida turk fuqarolari targʻibotiga ishonchni kuchaytirgan. Amirlik bekliliklarida oʻgʻil va qiz bolalarni “tortiq” qilishdek qabih odat hukm surganligi, bu esa turk va mahalliy ziyolilar tomonidan qoralanib targʻib etilishi ham tubjoy kishilarida turklarga hurmatni oshirgan [6].

Arxiv manbalari tahlil etilar ekan, amirlikning bir qator bekliliklarida antirus kayfiyatidagi kuchlar soni oshib borganligi aniqlandi. Hatto, “kofir” va “eʼtiqodsiz” (“неверных”)larga qarshi kurash kayfiyati hamda oppozitsiyadagi kuchlarga Gʻuzor begi, uning bir qator amaldorlari xayrxohlik bildirishgan. Bek, qozi, rais, mirshabboshi mansablaridagi shaxslar turk va afgʻon fuqarolarini qabul qilishgan, ular bilan muloqot qilishgan.

Gʻuzor bekligidagi ziyoli va savdogarlar turk va afgʻonlar orqali xorijdan qurol-yarogʻ, oʻq-dori (Berdonka-3, Berdanka-5 miltiqlari, revolver va h.k) sotib olish xatti-xarakatida boʻlganlar. Turk va afgʻon fuqarolari vositachiligida Samarqanddan 1500 rublga miltiqlar, revolverlar sotib olingan. Bu harakatda amaldorlardan Ogʻaliq bey va Eshik ogʻasi ham ishtirok etgan [7].

Maʼlumotlarda keltirilishicha, Shaxrisabz bekligining toʻqsabasi, bek ruxsati bilan qurol sotib olishga bagʻishlangan va 15 kishi yashirin qatnashgan majlisda (1913 yil) shaxsan ishtirok etgan. Shundan soʻng, Abduxoliq ismli shaxs Samarqandga Mir Kamol Munavvarov Andijonga qurol-yarogʻ, oʻq-dori sotib olish uchun yuborilgan. Sotib olinajak qurollarni yetkazishda afgʻonlardan umid qilingan [8].

Oxranka mahalliy aholi bilan Rossiya fuqarolari oʻrtasidagi roʻy berib turadigan mushtlashuv va toʻqnashuvlarga sabab “amirlikdagi turli qorongʻu burchaklarda” turk va afgʻonlarning paydo boʻlishi deb, millatchilik, fanatizmda ularni ayblagan.

1913-yilning yoz kunlaridan birida Gʻuzor bekligi markaziy bozorida rus millatiga mansub K<sup>o</sup> Zinger firmasi xizmatchisi va yana bitta rus doʻkondori oʻzbeklar bilan tortishib qolgan. Toʻqnashuvda 2 ta oʻzbek oʻlgan, 3 ta oʻzbek jarohat olgan, 2 nafar rus fuqarosi balchiqqa qorishib, jarohatlanib, zoʻrgʻa tirik qolgan. Janjal joyiga bek, harbiy garnizon boshligʻi, politmeystr yetib kelgan. Ushbu janjal turklarning “kofirlar”ga qarshi antirus targʻibotidan kelib chiqqanligi, bek rus hukumati aʼzolari yetib kelguncha Rossiya fuqarolari hisoblangan bir necha rus va armanlarni Dushanbe qishlogʻida hibsdan saqlagani ham shundandir”[9] – deb xabar berilgan “Turkestanskiy kurer” gazetasi.

Buxoro amirligida 1912-1913-yillarda Bolqon urushida Turkiya foydasiga mablagʻ toʻplash uchun harakat ishtirokchilarining faoliyati arxiv hujjatlarida aniq dalillarda koʻrsatilgan. Amirlikdagi Turkiyada “yosh turklar” tomonidan tuzilgan “Ittihod va taraqqiy” (“Birlik va taraqqiyot”) partiyasiga xayrxoh hamda unga aʼzolar bilan bogʻliq maʼlumotlar saqlangan.

Manbalardan birida: “Ittihod” komiteti aʼzolaridan Samarqand shahridan boʻlgan savdogar Hoji Mamed, Bogʻir Ogʻa Rizayev, Samarqand shahri oqsoqoli Hoji Yoqub, buxorolik Mirzo Mahdi va turkman Xoʻjabeklar Eronning Tabriz shahriga turklar foydasiga pul toʻplash uchun joʻnab ketganlar. Biroq ular asirga olinib Tiflis shahriga yuborilgan. Kavkaz rayon qoʻriqlash boʻlimi (Oxrankasi) ularni hibsdan ushlab turibdi” [10] deb qayd etilgan.

Hibsga olinganlar orasida buxorolik Mirzo Mahdi “turkparastligi”, “panisломchi”, “ittihod” kamitetida ancha mavqega egaligi kabilar tezkor maxfiy bildirishda alohida taʼkidlangan. Uning Konstantinopolda boʻlganligi, Tabrizda ham maslakdoshlari borligi haqida 1913-yil 10-avgustdagi 6052-raqamli maxfiy xatida yana bir eslatib oʻtilgan [11].

“Ittihod” partiyasiga aʼzolaridan biri Mulla Qamar bir necha turk millatiga mansub doʻstu-birodarlariga egaligi, tashviqot va targʻibotni kuchaytirib aholi orasida nutqlar iroda qilib yurigan Qozi Mulla Mahmud ham “turkparast ittihod” ekanligi toʻgʻrisida maʼlumotlar mavjud. U oʻzining nutqida “kim doʻstlik qardoshlik yordamini musulmon birodarlari (turklarga) koʻrsatsa, xudo marhamatiga sazovor boʻladi. Kabi fikrlarni ilgari surgan. Shuningdek, turklarning tarafida turgan “Ittihod” aʼzolari Buxoro, Samarqand, Kattaqoʻrgʻon shaharlarida milliy, diniy-gʻoyaviy targʻibot bilan mashgʻuldirsizlar” [12] kabi fikrlar mavjud arxiv manbasida.

“Ittihod” aʼzolari “eʼtiqodsiz”, “kofir” larga qarshi kurash maqsadida “jihod” uchun ham mablagʻ toʻplashgan. Hoji Mahmud, Faqir Rizayev, Hoji Yoqub, Mirzo Mahdi, Xoʻja Bek va bir qator taxallus bilan yuruvchi ismi-sharifi sir tutilgan shaxslar 1913-1914-yillarda 16 ming rubl pul toʻplashgan. Bu pullarni “ozodlik” harakati uchun sarflash maqsadida oralaridan saylangan xazinachiga topshirishgan. Hatto,

## HISTORY

“Ittihod”ni O‘sh shahrida Eshon Xo‘ja va Mullo Xolnazar kabi a‘zolari bor edi. Biroq, Toshkentda bu jamiyat a‘zolari va unga xayrixohlar hozirgacha aniqlanmadi” [13] – deb ma‘lumot bergan, Oxranka ayg‘oqchilari.

Arxiv hujjatlari o‘rganilar ekan, Turkiya sultoni va afg‘on amiri tomonidan yuborilgan rasmiy vakillardan tashqari nufuzli turk va afg‘on fuqarolarini Buxoro amiri ham qabul qilgan. Hatto, 1913-yilning yoz oyi oxirlarida Buxoro amirligida amir o‘z hisobidan va aholidan to‘plagan pullardan 3.000000 ( 3 mln) tangani yordam sifatida turk sultoni manziliga yubordi, qabilidagi gap-so‘zlar tarqalgan. Buxoro amiri afg‘on amiri bilan muntazam maxfiy yozishmalar almashinib turganligi, ularda o‘zaro ittifoq tuzishga oid kelishuvlar bo‘lganligi ham qayd etilgan.

Turklarning Bolqon urushidagi g‘alabasi uchun Buxoro amirligi va Turkistondagi badavlat, millioner, obro‘li shaxslar ham pul berganligi haqida ma‘lumotlar hujjatlarda keltirilib, andijonlik millioner Mirkomilboy Mirmo‘minboyev turklarga moddiy madad bergan, kabi fikrlar aholi orasida tarqalgan [14].

**Xulosa** o‘rnida quyidagilarni qayd etish mumkin.

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Usmoniylar saltanati (Turkiya) hamda Afg‘oniston o‘rtasida madaniy-ma‘rifiy aloqalar kuchaygan. Amirlik aholisi vakillari Konstantinopol (Istanbul) orqali haj ziyoratiga safar qilish, savdo-sotiq maqsadida faol qatnadilar. Istanbulda o‘z farzandlarini o‘qitib ma‘lumotli qilish tendensiyasi avj oldi. Bu esa Turkiyadagi ilg‘or fikrli turk fuqarolari hamda muhojir turkistonlik (o‘zbek)lar bilan yaqinlashuv jarayonini kuchaytirdi. Turk fuqarolari buxorolik orqadoshlariga tayanib amirlik hududiga kirib keldilar. Ular dindoshlik, qavm-qarindoshlik aloqalaridan foydalanib milliy uyg‘onish, milliy birlik g‘oyalari ilgari surdilar. Biroq, turk va afg‘onlar orasida oz bo‘lsa-da, ayg‘oqchilar mavjud bo‘lganligini ham e‘tirof etmoq zarur.

2. Butun Turkiston mintaqasi singari Buxoro amirligida ham Turkiyaning 1- va 2-Bolqon urushida g‘alabasini ta‘minlash uchun moddiy-ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ya‘ni “pul to‘plash” kompaniyasi harakati vujudga keldi. Bu harakatda Buxoro amirligidagi savdogar va ziyolilar, taraqqiyparvar kayfiyatidagi amaldorlar yetakchilik qildilar va aholi orasida tashviqot hamda targ‘ibot olib bordilar.

3. XX asr dastlabki o‘n yilligida Buxoro amirligi beklik va shaharlarida taxminan 7 ming nafar turk, 4 ming nafar afg‘on fuqarolari istiqomat qilib, ular ijtimoiy tarkibi xilma-xil edi. Xorijliklar orasida ziyolilar hamda savdogarlar salmoqli bo‘lib, bundaylarning milliy ozodlik harakati va birlik borasida olib borgan kurashlari “panisломchi”, “panturkchi” kabi yasama ayblar asosida qoralandi.

### ADABIYOTLAR:

1. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312-yig‘majild, 240-varaqning orqasi.
2. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312-yig‘majild, 241-varaq, 241-varaqning orqasi.
3. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312-yig‘majild, 318-varaq.
4. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312-yig‘majild, 316-varaq.
5. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312-yig‘majild, 316-varaq.
6. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312-yig‘majild, 339-varaq.
7. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1372-yig‘majild, 339-varaqning orqasi.
8. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1372-yig‘majild, 340-varaq, 340-varaqning orqasi.
9. Гуссар. (Бухарская владения) (От наш корресп) «Туркестанский курьер» за 1913 г. №50.; O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312 yig‘majild, 425-varaq.
10. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312-yig‘majild, 434-varaq.
11. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312-yig‘majild, 436-varaq.
12. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312-yig‘majild, 445, 446-varaq.
13. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312-yig‘majild, 446-varaqning orqasi.
14. O‘MA, I-461-fond, 1-ro‘yxat, 1312-yig‘majild, 340-varaq, 340-varaqning orqasi.
15. Akhmadjon A. *History of bukhara-afgan relations in the process of inclusion into the russian customs system //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences.* – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 39-46.
16. Asror o‘g‘li A. A. *History of Afghanistan-Bukhara Relations in the Process of Incorporation of Bukhara Emirate into Russian Customs System //American Journal of Social and Humanitarian Research.* – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 339-342.

### BUXORO ELEKTR TARMOQLARI TARIXI MUZEYI

**Boltayev Bobir Baxtiyorovich,**

*Buxoro davlat universiteti*

*Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi t.f.f.d (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoro viloyati hududidagi dastlabki elektr tarmoqlari soha vakillarining fidokorona mehnati va mashaqqatli kasbi haqida ma'lumot berilgan bo'lib, shu bilan birgalikda Buxoro amirligi hududida saroy va ko'chalarni yoritish maqsadida foydalanilgan ilk dvijok, elektr stansiyasi binosi va uning takomillashib rivojlanib borish yo'nalishlari tahlil qilib o'tilgan. Bundan tashqari, hozirgi kunda bu tashkilot huzuridagi mavjud muzey faoliyati va uning tarixi bilan bog'liq masalalar ham keng qamrovli tarzda yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** elektr, energiya, dvijok, stansiya, hisoblagich, tarmoq, kaska, uniforma, albom, transformator, muzey.

### МУЗЕЙ ИСТОРИИ ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СЕТЕЙ БУХАРЫ

**Аннотация.** В данной статье приводятся сведения о самоотверженном и упорном труде представителей первых электросетей Бухарской области, а также о первом двигателе, использованном с целью освещения дворцов и улиц на территории Бухарского эмирата, строительство электростанции, ее благоустройство и развитие. Кроме того, всесторонне освещены вопросы, связанные с историей и деятельностью действующего музея при этой организации.

**Ключевые слова:** Электричество, энергия, движок, станция, счетчик, сеть, каска, униформа, альбом, трансформатор, музей.

### MUSEUM OF THE HISTORY OF ELECTRIC NETWORKS OF BUKHARA

**Abstract.** In this article, information has provided on the selfless work and dedication of the representatives of the early electric power networks in the Bukhara region. It also discusses the first engine used for illuminating palaces and streets in the Emirate of Bukhara, the construction of the power station, and its subsequent enhancement and expansion. Furthermore, the article thoroughly covers matters concerning the history and operations of the museum associated with this organization.

**Keywords:** Electricity, energy, engine, station, meter, network, helmet, uniform, album, transformer, museum.

**Kirish.** Hozirgi kecha-kunduzdagi Buxoro viloyati va uning chekka hududlarini ham tun-u kun bir zayilda elektr quvvati bilan uzluksiz ta'minlab kelayotgan "Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ tarixi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Buxoro elektr tarmoqlarining rivojlanish tarixiga bag'ishlangan ilk muzey 1993-yilda ko'rgazma shaklida faoliyat boshlagan edi. Ushbu muzey xonasi sig'imining kamligi sababli eksponatlarni namoyish qilishning imkoni mavjud bo'lmagan. Shuningdek, muzey faoliyatini takomillashtirish zamonaviy tarzda yangilash va qayta jihozlash masalasi kun tartibdagi asosiy vazifalardan biriga aylandi. Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi aksiyadorlik jamiyati tashkil topganligining yuz yillik to'lishi munosabati bilan muzeyni qayta tashkil qilish vazifasi, shu tashkilotning Axborot texnologiyalari bo'limi boshlig'i lavozimida ancha yillardan beri ishlab kelayotgan Sharofov Raxmatullo Raximovich zimasi yuklatiladi. Tez fursatda muzey eksponatlarini o'z o'rniga joylashtirish maqsadida Buxoro davlat muzey - qo'rixonasi tarix ilmiy bo'limi boshlig'i O'.Ravshnov taklif qilinadi hamda hamkorlikda muzeyning ilmiy konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Aynan ana shu konsepsiya asosida muzey jihozlanishi boshlab yuboriladi [1].

2023-yilning may oyida qaytadan tashkil etilgan yangi muzey bitta xonadan iborat bo'lib, umumiy maydoni 6x12=72 m<sup>2</sup>. Muzeyga chap tomondagi eshikdan kirar ekansiz, dastlab devorda Buxoro hududida ilk faoliyat boshlagan dizel stansiyasi va uning tarixi yoritilgan. Ilk stansiya Buxoro amirining Shirbudun saroyida o'rnatilgan bo'lib, Buxoroning markazidan janubiy-sharqda, shahar tashqarisida joylashgan, saroyning qurilishi Amir Muzaffarxon (1860-1885), Amir Abdulahadxon (1885-1910) hukumronlik qilgan

## HISTORY

yillarga borib taqaladi. Ushbu saroyda asosan amir va uning oila a'zolar yoz faslida istiqomat qilib, xorijlik elchilarni ham qabul qilishgan. 1893 yilda Gamburglik sanoatchi va siyosatchi Maks Albrext Markaziy Osiyo bo'ylab qilgan sayohat taassurotlaridan kelib chiqib, 1896-yilda o'zining "Russisch Centralasien.-Reisebilder aus Transkaspien Buchara und Turkestan" – "Rossiyaning Markaziy Osiyosi. Transkaspiy mintaqasi, Buxoro va Turkistondan sayohat rasmlari" nomli kitobini chop etirgan. Kitobning 152-155 betlarida muallif o'zi tashrif buyurgan Shirbudin saroyini ta'riflab saroy haqida o'ta qiziqarli ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Jumladan: "Noyob juda go'zal gilamdan tashqari, rus chiroq sanoatining rang-barang turlarini ko'rib hayratlanganligini takidlab o'tadi. Maks Albrext Shirbudun saroyida o'z ko'zi bilan ko'rgan bino va saroy xonalarning fotosuratlarini olgan, ana shu suratlar orqali biz o'sha davr saroyi va binolarini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 1907 va 1911- yillarda Buxoroda bo'lgan rus fotosuratchisi Sergey Mixaylovich Prokudin-Gorskiy (1863-1944) dastlabki xuddi ana shu mazmundagi rangli fotosuratlarini olishga muyassar bo'ladi. Jumladan, Amir Olimxon portreti, xalq ahvoli tushirilgan manzaralar, Shirbudun saroyining old qismi va orqa qismi, taxt saroyi, hamda bog'larning ko'rinishlarini suratga oladi. S.M. Prokudin-Gorskiyning 1907- yil Shirbudun saroyining yuqori martabali mehmonlarni qabul qilish xonasida olgan fotosuratda biz elektr orqali yoritiladigan xonani va qandilni ko'rishimiz mumkin. Saroydagi xonalar dizel generator orqali yoritilgan. Afsuski, ushbu generator bizgach saqlanmagan hamda u qancha quvvatga ega elektr ishlab chiqarganligi bizga noma'lumligicha qolmoqda, sababi bunday ma'lumotlar deyarli hech qayerda qayd qilib o'tilmagan [2].

Demak, ilk bora elektrlashtirish ishlari Buxoro amirligi hududida dastlab, Buxoro amirining Shirbudun saroyida foydalanilganligi haqida dalillarni Buxoro elektr tarmoqlaridagi mavjud muzey fondlaridagi yozma manbalar va arxiv fotosuratlar orqali bilib olish mumkin. 1911- yilga kelib Chor Rossiya hukumdori Nikolay II, Buxoro amirligi bilan munosabatlarni yaxshilash maqsadida amir Olimxonga elektr dvijogini hadya qilib yuboradi. Xuddi shu vaqtda amir farmoni bilan shahar chekkasidagi bahavo hududlardan birida – Sitorai Mohi Xossada yozgi saroy qad ko'tarayotgan edi. Binoni to'liq yoritish maqsadida amir Olimxon Nikolay II sovg' qilgan dvijokni yozgi saroy darvozasi yoniga o'rnatiradi. Uning umumiy quvvati 50 kvli bo'lgan elektr generator yordamida saroy zallari, xonalari, hovlisini yoritish 1913- yildan amlga oshiriladi. 1923- yilga qadar Buxoro shahri va uning atrofida yashovchi aholi xonadonlarini yoritishda doimo pilikdan "qorachiroq"lardan keng foydalanib kelishgan. Shahar ko'chalari kech kimgach zim-ziyo bo'lib, uylarni arang topish mumkin bo'lgan[3].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar muzey devorida joylashgan stenddan o'rin olgan. Aynan shunga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, Buxoroda birinchi elektr stansiyasining ishga tushirilishi, Buxoro shahrining to'liq elektirlashtirilish jarayonlari tasvirlangan fotolavhalar va eksponatlar qo'yilgan. 1921-yil Goerlo rejasi asosida sobiq sovet davlati hududlarini elektrlashtirish boshlab yuboriladi, oradan bir yil mudat o'tgach 1923-yilga kelib ark saroyining janubi-sharqida dizel elektr stansiyasi qurilishi boshlab yuborilib, Fayzulla Xo'jayev rahbarligida shahardagi mavjud ma'muriy binolar, ko'chalar, shifoxona va teatr binolari yoritish chiroqlari bilan ta'minlangan.

Keyinchalik shaharga ichimlik suvini olib kelish, kichik zavod va fabrikalarni elektrlashtirish maqsadida reja ishlab chiqilgan edi. Ana shu rejalarni amalga oshirish uchun 1923-yilda Buxoro xalqi uchun ilk bora Gruziyada ishlab chiqarilgan "Satsanbo" texnik qurilish tashkiloti ko'pchilikka xizmat qiladigan ilk elektr stansiyani qurib foydalanishga topshiradi. Elektr stansiyasi ikki (Shvetsariya) va (Rossiya, Xarkov) davlatlarida ishlab chiqarilgan dizel elektr stansiyasi bilan ishlagan. Shveysariyada ishlab chiqarilgan stansiya 150 ot kuchiga ega bo'lsa, Xarkovda ishlab chiqarilgan stansiya 120 ot kuchiga teng edi. Dastlab, Buxoro elektr stansiyasida o'n to'rt kishidan iborat jamoa faoliyat yuritgan bo'lib, stansiyani qurish va ishga tushirish jarayonlarini boshqarish uchun esa mutaxassislar Rossiyadan jalb qilingan. Stansiyaning birinchi boshlig'i G.S. Fidelman edi. Elektr stansiya Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Savdo sanoat nozirligi tuzilmasi tarkibiga bo'ysundirilgan edi. Elektr stansiyasining ishga tushirilishi Buxoro Xalq Sovet Respublikasini iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uchun muhim rol o'ynaganligini alohida takidlab o'tish zarur deb hisoblaymiz. Buxoro elektr tarmog'i sohasida ilk bora qo'llanilgan asbob anjomlar muzeyning chap tomonidagi devor oldiga o'rnatilgan vetrinaga qo'yilgan[4].

Birinchi dizel elektr stansiyasi kunduzlari shaharning markaziy ko'chalari bo'ylab, shifoxona, asosiy-ma'muriy davlat korxonalar kabi tashkilotlarni yoritir, kechqurun Buxoroning o'n bir: "Samarqand", "Hazrati Imom", "Talipoch", "O'g'lon", "Shergiron", "Qorako'l", "Shayx-Jalol", "Namozgoh", "Qarshi", "Sallohxona", "Mozori Sharif" kabi darvozalariga boradigan yo'llarini yoritir edi [5]. Elektr stansiyasining quvvati pastligi inobatga olinib, chiroqlar faqat ma'lum vaqtlarda yoqilgan. Natijada 1924- yilga kelib stansiyaning eski dizellari quvvati 400 ot kuchiga ega bo'lgan yangi "MAN" rusumidagi ikkita yangi dizel generatori bilan almashtirilgach umumiy quvvat 800 ot kuchiga yetadi. Bu esa elektr energiyasi yordamida ko'proq hududlarni yoritish imkoniyatini berganligini takidlab o'tish joiz deb hisoblaymiz[6].

## HISTORY

Buxoro shahar aholisini umumiy uzunligi 9,5 kilometrni tashkil qiluvchi quvirli toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida 1927- yilda suv nasos stansiyasi qurilishi boshlanadi. Iste'mol quvvati 100 kv dan yuqori bo'lgan bu nasos stansiyasi uchun 6,6 kv li yuqori elektr uzatish tarmoqlari va ikkita transformator o'rnatiladi. 1934- yilga kelib sanoat korxonalarining, ko'chalarni yoritish tarmoqlarining ko'payishi kommunal xo'jalik va savdo-sotiq binolari, kasalxonalarining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun elektr simlarining umumiy uzunligi 16 kmga etadi. Bu muammolarni hal qilish uchun o'sha davrdagi O'zbekiston Respublikasi hukumatining rahbari Fayzulla Xo'jayev Moskvadagi ittifoq hukumati rahbarlari bilan kelishib, Buxoro shahrida umumiy quvvati 11550 kVt bo'lgan Markaziy elektr stansiyasini loyihalash va qurilishini ittifoq davlat rejasiga kiritishga muvaffaq bo'ladi. Elektr stansiyasi 1930-yillar boshida qurila boshlandi va katta qiyinchiliklar evaziga bo'lsada qurib bitkaziladi [7]. Mazkur qurilish ishlari iste'dodli tashkilotchi va tadbirkor inson I.S.Pilshikov boshchiligidagi olib borildi. Qurilish va bunyodkorlik ishlari 1936- yilning may oyi oxirigacha cho'zilib ketadi. 1936- yilda Buxoro Markaziy elektr stansiyasining dastlabki dizeli liniyasi ishga tushirildi. Buxoro viloyati tumanlarining markazlarida 1935-1940-yillar davomida bir qancha dizel elektr stansiyalari ishga tushirilib, tuman markazlaridagi kasalxonalar, bosmaxona, aloqa, ma'muriyat binolari, ko'chalar va uylarning bir qismi elektrlashtirildi [8].

Yuqoridagi keltirib o'tilgan fikrlar ekspozitsiyaga qo'yilgan uchinchi banerda o'z ifodasini topgan. Undan keyingi o'rtadagi vitrinada ham ikkinchi jahon urushi yillariga bag'ishlangan bo'lib, jangohlarda g'alaba uchun o'z jonini fido qilib frontda mardlarcha ishtirok etgan buxorolik qahramonlar qatorida elektr tarmoqlari soha vakillaridan hozirda Buxoro shahri Shofirkon ko'chasida istiqomat qilib kelayotgan to'qson yoshdan oshgan Qarshiyev Norboy otaning suratlari ham osib qo'yilgan[9]. 1962-yilga kelib O'zbekistonda energetika va elektirlashtirish vazirligining tashkil etilishi hamda 1963-yilning 14-martiga kelib, Navoiy issiqlik elektr stansiyasining dastlabki 25 ming kvtli blokining ishga tushurilishi, 110 kV kuchlanishli elektr energiyasining Buxoro viloyati markaziga yetkazila boshlanishi kabi jarayonlar tasvirlangan lavhalar markazda o'rnatilgan stenddan joy olganligini ta'kidlab o'tish lozim[10]. 1973-1997-yillarga kelib Buxoro viloyati hududida yangi korxonalar salmog'ining ortishi munosabati bilan 220 kV li "Turon" taqsimlash punktining Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari uchun qurib bitkazilishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalar uchun yetarli darajada elektr toki yetkazish imkoniyati yaratildi. 2003-yilga kelib butun viloyat elektr energetikasi barcha kuchlanish tarmoqlari 11610 km, transformator punktlari 3846 taga podstansiyalar 85 taga yetgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, tarmoqlar 17709 km, transformator punktlari 5909 taga, podstansiyalar soni 95 taga yetganligini, ularning dinamik o'sish suratlari, diagramma va jadvallarni muzeydagi "Kecha va bugun" deb nomlangan ko'rgazmadan bilib olish mumkin. 2009-2016-yillar mobaynida ishlatilgan elektr toki sarfini hisoblash maqsadida zamonaviy yangi hisoblash vositasi "KAIFA" va "ASKUE" (2019-yil) dan boshlab, tizimining joriy qilinishi, hisoblagichlarning yangi turkumining o'rnatilishini boshlab berdi. Bu tizim qarzdorlikni oldini olish imkoniyatini qisqartirib berdi desak aslo adashmaymiz. Chunki bugun buni hayotning o'zi isbotlab turibdi. Xuddi ana shu eski va yangi rusumdagi elektr hisoblagichlar ham vitrinadan kerakli o'rinni egallab ulgurganligi bizning fikrimizni yana bir karra isbotlaydi [11].

Xonaning burchagida shishali vitrinada esa 2017-yildan beri elektr tarmoqlari soha vakillari ishlatib kelayotgan uniforma manikenda namoyishga qo'yilgan. Biz o'z tadqiqotimiz davomida bu soha vakillarining dastlabki kasb kiyimini aniqlashga harakat qilib ko'rdik, lekin shu narsaga guvoh bo'ldik-ki, bu kasb egalari deyarli hech bir boshqa kasb vakillaridan ajralib turadigan holda maxsus kiyim kiyishmaganligi aniq bo'ldi. Faqatgina U. Mustafayevning Respublika elektr tarmoqlari boshqaruvi kengashiga rais bo'lganidan so'ng, oddiy va rahbar xodimlari uchun kiyadigan to'q sariq va jigar rangdan iborat uniformada yurish joriy qilindi. Oddiy xodim bosh kiyimi (kaska)si turli ranglarda bo'lsada, formasi sariq va jigar rangdan iborat bo'lgan. Ammo rahbar xodimlarning bosh kiyimi (kaska)si oq rangda kiyimi esa to'q sariq rangdan iborat qilib belgilangan[12].

Muzey xonasiga kirish yo'nalishida qarama – qarshi yuqori tomondagi vitrinalar ichida elektr tarmoqlari soha vakillarining faoliyati bilan bog'liq maqtov va faxriy yorliqlar, diplom hamda turli xil sertifikatlar namoyishga qo'yilgan. Elektr tarmoqlari sohasi tarixi va taraqqiyoti bilan bog'liq monografiyalar, ilmiy qo'llanmalar, risola va to'plamlar ham shu vitrinadan joy olgan[13]. Muzey xonasining o'ng qismida joylashgan vitrinalarda Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasining o'n birta direktor va o'nta bosh muhandis lavozimida ishlagan shaxslarning hamda ikki nafar soha faxriylarining suratlari taqdim qilingan. Bundan tashqari, Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasining tashkil topganligining 70 - yilligi va 100 - yilligi tantanalari nishonlangan davrda sovg'a tariqasida topshirilgan o'ndan ortiq chinni va sopol ko'za, idish tovoq, va fotolavhalarini ekspozitsiyada ko'rish mumkin. Muzeyda ikki dona fotoalbom mavjud bo'lib, uning birinchi soni ushbu tashkilotning 70 yilligi va ikkinchi soni esa 100 yilligiga bag'ishlangan. Elektr tarmoqlari

## HISTORY

korxonasi va soha vakillari faoliyatiga oid asl arxiv hujjatlari ham shishalik vitrinadan joy olgan[14]. Uning yuqorisida televizor oʻrnatilgan boʻlib, sohaga oid turli videoroliklarni tashrif buyuruvchilarga taqdim qilish imkoniyati ham mavjud. Shunday filmlardan biri 2020-yil 27-aprelda Buxoro viloyatiga yopirilgan texnogen ofat kuchli shamol natijasida 1816 ta transformatorlarning ishdan chiqishi, 8000 kilometrdan ortiq uzunlikdagi elektr uzatish liniyalarining yaroqsiz holga kelib qolishi oqibatida etkazilgan talofotlarni bartaraf etish maqsadida soha vakillarining fidokorona va mashaqqatli mehnatiga bagʻishlangan boʻlib, ularning soni oʻntani tashkil etadi[15].

**Xulosa** qilib aytganda Buxoro viloyati energetikasini boshqarish, taʼmirlash, isteʼmolchilarni elektr energiyasi bilan uzluksiz taʼminlash, nazorat qilish, hisob-kitob ishlarini olib borish, yangi mutaxassis xodimlarni tayyorlash Buxoro markaziy elektr stansiyasi xodimlari zimmasiga yuklangan boʻlib, bu korxonada Respublika kommunal xoʻjaligi vazirligidagi “Oʻzkomunenergo” birlashmasi tizimida edi. 2023-yilga kelib Buxoro shahridagi birinchi elektr stansiyasining faoliyat boshlaganligiga 100 yil toʻlishi munosabati bilan ushbu muzey ekspozitsiyasi yanada boyidi va yangilandi.

### ADABIYOTLAR:

1. *Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi AJ huzuridagi muzey ilmiy konsepsiyasi. Axborot texnologiyalar boʻlimi boshligʻi R.R.Sharofov – Buxoro 2023.- B. 3.*
2. *Бухоро электр тармоқлари корхонаси 100 ёшда: китоб- альбом / нашрга тайёрловчи: Исмоилова М. – Бухоро: “Бухоро”, нашриёти, 2023. – Б. 9-10.*
3. <https://buxelektr.uz/2023/04/20/shirbuddin-saroyi>.
4. *Сўнмас чироқ / Бухоро электр тармоқлари 70- йиллик тарихига доир. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1993. – Б. 8.*
5. <https://buxelektr.uz/2023/04/20/buxoro-shahridagi-birinchi-elekt-stansiya>.
6. *Исмаи Қудратов. Бухоро вилояти энергетика тарихи. -Бухоро,2003.-Б 2016.-Б 7-9.*
7. <https://buxelektr.uz/2023/04/20/buxoro-shahrida-1923-1936-yillarda-elekt-tarmogining-rivojlanishi>.
8. *Непорожний П. С. Иттифоқ Республикаларида электр -энергетиканинг ривожланиши / 1927-1970 йиллар. - Москва: “Энергия”, 1972. - С. 38.*
9. <https://buxelektr.uz/category/tarix>.
10. *Непорожний П. С. Иттифоқ Республикаларида электр- энергетиканинг ривожланиши / 1920-1980 йиллар”. - Москва: “Энергоатомиздат”, 1982. - С.24.*
11. *Ekspozatsiya (Elektr hisoblagich 2019-yilda ishlab chiqarilgan).Toshkent.- № Inv-27.m.*
12. *Dala tadqiqoti Sharofov Rahmatullo Raximovich bilan shaxsiy muloqot.2023 y.iyun.13.*
13. *Қудратов И.Р..”Нурли йўл”. Бухоро: “Бухоро энерго марказ”, ОТХЖ. 1998-б.52.*
14. *Bobir Boltayev, Новый этап развития музеев и музейного дела в Узбекистан, Центр научных публикаций (buxdu.uz) 5 (5).*
15. *Boltayev B. Madaniy meros obyektlarini muhofaza olishda qonun hujjatlarining ahamiyati //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.*

**BUXORO AMIRLIGIDA JAZO VA IJRO AMALIYOTI**

**Naimov Ismat Nusratilloevich,**

*Buxoro davlat universiteti arxeologiya va  
Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.f.d., (PhD)*

[ismat.naimov@yandex.ru](mailto:ismat.naimov@yandex.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan Buxoro amirligi (1756-1920 yy.) qonunchilik tizimida fuqarolar tomonidan amalga oshirilgan turli darajadagi qonun buzilishlarida amalga qo‘llanilgan jazo turlari va ushbu jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan qonunchilik me‘yorlari o‘z tahlilini topgan. Shuningdek maqolada, Buxoro amirligi sud-huquq tizimida rasmiy ish yuritish me‘yorlari, jinoyatga qarshi kurash va ularni bartaraf etish tadbirlari, jazoning muqarrarligi, jazo turlari, jazo belgilash va ularni ijro etish masalalari, jazoni ijro etish muassasalari hamda Buxoroning so‘nggi amirlari tomonidan adliya sohasida o‘tkazilgan islohotlar to‘g‘risida tarixiy manbalar asosida muallifning fikr-mulohazalari o‘z tahlilini topgan.

**Kalit so‘zlar:** “Bujul bastan”, jazo, darra, “Darrayi Rustam”, “odat qoidalari”, mirg‘azab, “Chor oyna”, shariat, “ta‘zir”, “sangzor”, “ob xuroni”, qozixonona.

**PRACTICE OF PUNISHMENT AND EXECUTION IN THE BUKHARA EMIRATE**

**Abstract.** In this article, in the legal system of the Bukhara Emirate (1756-1920), which played an important role in the history of Uzbek statehood, the types of punishments and the legal norms related to this process are analyzed. Also, in the article, the norms of official proceedings in the legal system of the Bukhara Emirate, measures to fight crime and their prevention, the inevitability of punishment, types of punishment, issues of determining punishment and their execution, institutions of punishment and the reforms carried out in the field of justice by the last emirs of Bukhara on the basis of historical sources, the author's opinions have been analyzed.

**Keywords:** “Bujul bastan” (tying the wrist bone), punishment, flogging, “darrai Rustam” (Rustam's whip), “rules of custom”, mirshab (the police), “Chor Oyna” (four-sided blow), shariat, “tazir” (regret), “sangzor” (hit with a stone), “ob huroni” (force to drink water), kazikhana (judicial institution).

**ПРАКТИКА НАКАЗАНИЯ И ИСПОЛНЕНИЯ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ**

**Аннотация.** В данной статье правовой системе Бухарского эмирата (1756-1920 гг.), сыгравшей важную роль в истории узбекской государственности, анализируются виды наказаний и правовые нормы, связанные с этим процессом. Также в статье на основе исторических источников проанализированы взгляды автора о нормы официального судопроизводства в правовой системе Бухарского эмирата, меры по борьбе с преступностью и ее ликвидации, неотвратимость наказания, виды наказания, вопросы определения наказания и его исполнения, институты наказания, порядок его исполнения и реформы проведенные в сфере юстиции последними эмирами Бухары.

**Ключевые слова:** “Буджул бастан” (связывание запястной кости), наказание, порка, “даррай Рустам” (плетка Рустама), “правила обычаев”, миршаб (полиция), “Чор ойна” (четырёхсторонний удар), шариат, “тазир” (сожаление), “сангзор” (ударить камнем), “об хурони” (заставить пить воду), казихана (судебное учреждение).

**Kirish.** O‘tmishga nazar tashlasak, Turon zaminining ko‘zga ko‘ringan markazlaridan biri Buxoro hududida qonunchilik mahkamalarining vujudga kelishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Dastlab zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” jamiyatning huquqiy qarashlarini o‘zida ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik davlatchilik asoslari tobora tarixiy tajribalar asnosida takomillashib borishi, ayniqsa, islom dinining kirib kelishi va shariat qoidalari asosida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotning tartibga solib borilishi Buxoroda ham qozilik mahkamalarining vujudga kelishiga poydevor qo‘ydi. Natijada hokimiyatning bo‘linish tamoyili asosida mustaqil qozilik mahkamalari jamiyatda adolatni qaror toptirishning huquqiy kafolati bo‘lib, o‘tgan o‘n ikki asr davomida fuqarolarning ishonchini qozonib keldi. Qozilar faoliyat yuritadigan maskan –

“qozixona”lar esa “dor-ul quzzot”, ya’ni adolat dargohi sifatida aholining huquqiy munosabatlarini ta’minlaydigan ishonchli, huquqiy, mustahkam qo’rg’on bo’lib keldi.

**Natijalar muhokamasi.** Qozixona mahkamasida ko’riladigan ishlarining aksariyati fuqarolik munosabatlariga oid masalalarni tashkil etgan. Shu bilan birgalikda, ijtimoiy xavflilik darajasi past bo’lgan va ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan, uncha og’ir bo’lmagan jinoiy ishlar ham ko’rib chiqilgan. To’la jinoiy tavsifga ega ishlarni ko’rib chiqish esa mirshabning vakolatiga kirib, ular shariat yo’li bilan: rais, qozikalon, mirshabboshi tarkibidan iborat guruh tomonidan jamoaviy tartibda muhokama etilgan.

Qoziga ma’lum bir huquqbuzarlik to’g’risida og’zaki, yozma, shaxsan yoki vakil orqali murojaat etish mumkin edi. Qozi arzlarni qayd etib, tasdiqlab, o’z muhrini bosgandan so’nggina ish yurituvga qabul qilindi, deb hisoblash mumkin bo’lgan. Qozilar tomonidan olib boriladigan “murofaa” (sud jarayoni)da aybdorni ayblash yoki uning aybini isbotlash uchun shariat qonun-qoidalariga rioya qiladigan kamida ikki nafar rostgo’y, halol va aqli raso kishilarning guvohligi yetarli asosga ega edi.

Qozining yozma qarori haqiqiy ijro kuchiga ega bo’lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi lozim bo’lgan:

hujjatga qozining lavozimini tasdiqlovchi amir tomonidan berilgan qozining ismi, qozilik hukmi o’tadigan hudud nomi tushirilgan muhr nishonasi bo’lishi;

yoza qaror yoki hukm hoshiyasida yuridik jihatdan asoslanadigan dalil-hujjat, olingan manba va shaxs nomi ko’rsatib qo’yilishi;

ko’rilgan ishning yoki murojaatnomaning qisqacha mazmuni va sabablari ko’rsatib o’tilishi;

guvohlarning ismi-sharifi va da’vogarlarning da’vosi qozi tomonidan asoslab, yozib qo’yilishi;

da’vo ishi ko’rilgan joy, sana, oy, kun qayd etilishi [5; b. 75-76.].

Murofaa jarayonida qozilar aybdorlarning moddiy ahvoli, avvalo aybining darajasiga qarab, so’ngra aybdorning qilmishi uchun chin ko’ngildan pushaymon bo’lishi, zararni ixtiyoriy ravishda qoplashi, jabr ko’rgan shaxsdan uzr so’rashi va yarashuvi kabi holatlarni inobatga olgan holda hukm tayinlagan.

Musulmon davlatlarida qozi islom huquqi to’plamlari, ya’ni Qur’on, hadislar (sunnat), *ijmo’* [*Ijmo’* – arabcha – yakdillik, yakdillik bilan qabul qilingan qaror; *ijmo al-umma* – diniy jamoaning yagona fikri. Qur’on va hadislarda aniq ko’rsatma berilmagan huquqiy masalani hal qilishda faqih va ulamolarning to’planib, yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarishi (fatvo berishi). Shariat dasturlariga keyinchalik kiritilgan 3-manba. Shariatda shunday yo’l bilan chiqarilgan hukm shar’iy (qonuniy) deb qabul qilingan. *Ijmo’*ga shariat manbai sifatida qarash arab xalifaligi (VIII asr oxiri – IX asr)da kelib chiqqan. *Ijmo’* – so’zi lug’atda ikki xil ma’noni ifoda qiladi. Birinchisi – bir ishga azmi qaror qilish; ikkinchisi – ittifoq qilish.] va *qiyosga* [Shar’iy hukm bo’yicha Kitob, Hadis (sunnat) va *Ijmo’*da nass (matn) kelmagan ishni hukmiga ulardan birida matn kelgan ishga tenglashtirish “qiyos” deyiladi. Qiyos hukmni kashf va zohir qilishdir. Demak, qiyos hukmni yangidan paydo qilish emas, balki shunga o’xshash bor hukmni izlab topib ko’rsatish va amalda qo’llashdan iborat.] suyanib hukm chiqarishi lozim bo’lsada, Buxoro amirligida shariat qoidalariga ko’rsatilgan jazo choralarini qo’llash bilan birgalikda, hududning yozilmagan, biroq asrlar davomida rioya etib kelingan “*odat qoida*”lari ham mavjud edi. Bu esa shariatda ko’rsatilgan me’yorlardan chiqish emas, balki har bir ko’rilayotgan ishning o’ziga xos milliy xususiyat va mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olib, tahlillar asosida jazo tayinlanishi amalda o’z ta’sirini samarali ko’rsatishi bilan bog’liq edi.

Qozi shaxsiy munosabatiga yoki o’zigagina ma’lum dalillarga asoslanishi mumkin bo’lmagan. Balki, hukm chiqarishda: *iqror* – gumonlanuvchining o’z aybini bo’yniga olishi; *shuhud* – guvohlarning ko’rsatuvlari; *yamin* [*Yamin* – kuch, hokimiyat, o’ng qo’l ma’nosini beradi. Qasam ichgan shaxsning muayyan ishni bajarish yoki undan o’zini saqlash ahdini mustahkamlovchi majburiyat hisoblanadi.] – qasamyod qabul qilgani kabi omillarga e’tibor berishi lozim bo’lgan [3; b. 368-369].

Qozixonada mahkama jarayonlari ochiq o’tkazilgan, unda istagan kishi qatnashishi mumkin bo’lgan. Jarayon oxiriga yetmagunicha qozi o’zining qaysi tomonga yon bosayotganini bildirishi mumkin bo’lmagan. Jarayonda guvohlarning ko’rsatmalariga qattiq e’tibor berilgan. Qiynoq yoxud boshqa turdagi bosim ostida olingan guvohlik e’tiborga olinmagan. Aksincha, bunday holatning aniqlanishi ishning bekor bo’lishiga va qaytadan ko’rib chiqilishiga sabab bo’lgan. Lekin guvoh ko’rsatma berishdan bosh tortsa, qozi uni guvohlik berishga majburlashi mumkin edi. Agarda kishi boshqa birovning sha’niga putur yetkazgani, ataylab yolg’on guvohlik bergani oshkor bo’lib qolsa, bunday soxta guvohga minba’d qayta takrorlamasligi uchun “*ta’zir*” [*Ta’zir* – jazolash, ayblash, qoralash, tanbeh berish bo’lib, Buxoro amirligida keng qo’llanilgan.] berilgan [4; b. 59]. Aksincha, sud jarayonida ishonchli ko’rsatma bergan, halol guvohlarning ro’yxati qozilar tomonidan amir saroyiga taqdim etib borilgan [9] va ular qozilarning eng ishonchli kishilari sifatida keyingi jarayolarda ham jalb etilgan.

## HISTORY

Shunisi muhimki, qozi mahkama jarayonida da'vo hujjatlariga alohida e'tibor qaratgan. Agar bir kishi mahkamaga da'vo bilan kelsa, undan albatta, qilayotgan da'vosi yuzasidan hujjat yoki dalil keltirishi talab qilingan. Javobgarning iqrori va uning mazmuni aks etgan bayonnoma rasmiy huquqiy dalil hujjati o'rnida qabul qilingan. Ushbu hujjatni guvohlar tasdiqlashi kerak bo'lgan. Da'vogarning dalili bo'lsada, lekin guvohlari bo'lmasa, uning da'vosi qozi tomonidan qabul qilinmagan. Ko'chmas mulkka nisbatan da'vo qilingan holatda qozi mahkamada guvohlardan hovlini yoki yerning umumiy maydoni qanchaligini so'ragan. Shundan so'ng qozi da'vo qilinayotgan manzilga borib guvohlar va da'vogardan ko'chmas mulkning to'rt tomondan chegaralarini ko'rsatib berishni talab qilgan.

Har qanday qozilik mahkamasi hujjatini rasmiylashtirishda qozining yozma qarori va hukmi muhim bo'lib, u muhrlanishi va hoshiyasiga a'lam yoki mufti tomonidan asoslangan shar'iy dalil, ya'ni rivoyat yoki fatvo yozib qo'yilishi shart bo'lgan. Ko'p o'rinlarda qozi tayangan dalili ustiga o'z muhrini qo'ygan.

хуқуқи тарихини ўрганиш биз учун жуда муҳим. Бухоро амирлиги тарихига қисқача назар ташлайдиган бўлсак, XVIII аср биринчи ярмида Бухоро хонлигини бошқараётган аштархонийларнинг сўнгги вакиллари давлатни бошқариш, уни мустақамлаш ва давлатнинг ички ҳамда ташқи хавфсизлиги масалаларига жиддий эътибор қарата олмадилар. Бу эса мамлакатни ички низолар гирдобиди қолиб, ташқи хавф бўлмиш Эрон босқинига қарши ожиз бўлиб қолишига сабаб бўлди[1.231]. XVIII аср иккинчи ярмидан бошлаб Бухорода манғит сулоласининг намоёндалари ҳукмронлик қила бошладилар. Манғитлар сулоласининг дастлабки вакиллари томонидан амалга оширилган ислохотлар мамлакатни бирлаштириш ва аҳоли турмуш тарзини енгиллаштиришда ижобий аҳамият касб этганини кузатиш мумкин. Марказий бошқарувда ҳам, маҳаллий бошқарувда ҳам турли тоифадаги амалдорларнинг мавқеи баланд эди. Ҳукмдор ва унинг махфий хизмати томонидан амалга ошириб турилган назорат ҳам кўпгина амалдорларнинг ўз мансабларини суиистеъмол қилишлари олдини олишга ёрдам берган. Айниқса, Амир Шохмурод Бухоро амирлиги давлатчилиги тарихида алоҳида ўз ўрнига эга бўлган ҳукмдорлардан саналади. Давлатчилик тарихида “Амири маъсум” (“Беғуноҳ амир”) дея ном олган Амир Шохмуроднинг ҳукмронлик йиллари (1785 – 1800) Бухорода марказий ҳокимиятнинг нисбатан мустақамланиш даври бўлди. Амир Шохмурод даврига келиб давлат тўлақонли мустақам асосларга эга бўлди. Бухоро амирлигида давлатни бошқариш бошқа хонликлардан деярли фарқ қилмаган. Давлат амалдаги ва расман деярли чекланмаган ҳуқуқларга эга бўлган Амир томонидан бошқариларди. Манғитий ҳукмдорлар бошқа сулола вакиллари билан фарқли ўлароқ ўзларини хон деб эълон қилмаган эди. 1756 йил сулола асосчиси Муҳаммад Раҳимни расман тахтга ўтказиш маросими бўлиб ўтди, у оқ кигизга солиниб унинг тўрт томонини йирик ўзбек уруғлари (манғит, сарой, қипчоқ, бахрин) вакиллари кўтариб тахтга ўтқаздилар. Лекин у Чингиз авлодидан бўлмаганлиги учун Хон деб эмас, балки Ноиб ул-ҳукумат деб эълон қилинди[2.193]. Манғит ҳукмдорларидан Шохмурод даврига келиб Амир унвони билан давлатни идора этиш бошланди. Шохмурод давлат бошлиғи – Амир унвонини таъсис этар экан, ушбу унвоннинг ўзбек ва мўғул уруғлари анъаналари билан эмас, балки шариат қоидалари асосида юзага келганини асослаб беради[7.52]. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро амирлиги 27 вилоят ва 11 тумандан иборат бўлган бўлиб, барча туманлар Бухоро шаҳри атрофида жойлашган эди. Бухоро шаҳар ҳокими – амирнинг биринчи вазири ва бошқа вилоят бошлиқлари бошқарувчиси ҳисобланган. Шаҳар миқшаблари бошлиғи эса ўз навбатида барча бекликларидаги миқшаблар ишини бошқарган. Пойтахт олий қозиси, яъни қозикалон – амирликнинг барча қозилари бошлиғи ҳисобланган. Мана шу асосда амирликда жуда катта марказлашув вужудга келган. Яна шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, ўша даврда Қушбеги, Қозикалон, Бош раис ва Бухоро шаҳар миқшаббошисини биргалликда “чор ҳоким” – яъни “тўрт ҳоким” деб юритишган. Бухоро бош қушбегиси – Қушбегийи боло (юқори қушбеги) деб аталган. Ундан фарқ қилган ҳолда қушбегийи пойон (қуйи қушбеги) деб аталган амалдор бўлиб, у давлатнинг бош закотчиси ҳисобланган [3]. Бухоро тарихнавислик мактаби вакиллари билан бўлган Муҳаммад Али Балжувоний қушбеги мажбуриятларини таъкидлаб шундай деган эди: “У шундай подшо, аскар, аҳли вазифа ва фуқаро манфаати учун ҳаракат қилмоғи зарур эди. Шунда давлати олий узоқ муддат давом этади. Акс ҳолда бу ишнинг уддасидан чиқмаса, манфаатидан зарари кўп тегса, бепарво бўлса, кундалик ва вилоят ислоҳини билмаса мансабидан олинган”. Давлатни бошқаришда амирнинг асосий ва биринчи ёрдамчиси қушбеги вазирларнинг энг улуғи ҳисобланган. У давлатнинг тажрибали, ишбилармон, сиёсатдон одамларидан тасдиқланган. Номзод аввал девонбеги мансабига мушарраф бўлмоғи лозим, сўнгра қушбегиликка лойиқ саналган. У саройдаги энг юқори унвон бўлиб давлатда амирдан кейинги ўринда турган. Усмонийлар империясидаги улуғ вазир (Усмонийлар империяси мавжуд бўлган дастлабки даврларда амалдорларга нисбатан фақат вазир (пошо) атамаси ишлатилган бўлиб, Усмонли вазирлардан биринчи бўлиб Қора Ҳалил Хайриддин Пошо “Улуғ вазир” унвонига эга бўлган. Улуғ вазирга жуда катта ваколат берилгани ҳолда, давлат муҳрини сақлаш ҳам унинг зиммасида бўлган. Дастлаб улуғ вазирга мурожаат қилиш учун ишлатилган “вазири аъзам” атамаси аста-секин “садри аъзам” атамаси билан алмаштирилди. Шунингдек “садри олий”, “вакили мутлоқ”, “сохиби давлат” каби атамалар ҳам буюк вазирга мурожаат қилиш учун ишлатилган[9.572].) ёки Европадаги давлат канцлери сингари, қушбеги амирнинг энг яқин маслаҳатчиси ва ишончли одами бўлган. П.Шубинский шундай ёзади: - “Қушбеги амирнинг энг яқин ёрдамчиси. Қушбеги мансабини вице-канцлер мансабига тенглаштириш мумкин, бундан ташқари у шунингдек арк беги, Бухоро шаҳри ҳокими, давлат хазинаси ва муҳрининг сақловчиси мансабларини ҳам ўз ичига олади”. У амирнинг шахсий муҳрини сақловчи, бошқа давлатлар билан алоқаларни назорат қилувчи ва шунингдек молия ишларини бошқарувчидир[8.56].

Бухоро амири Амир Шоҳмурод ўзининг давлат бошқаруви жараёнида турли соҳада ислохотлар ўтказди. Масалан, ер, маъмурий, солиқ, суд ислохоти кабилар. Бу ислохотлар ичида, айниқса, суд ислохоти диққатга сазовордир. Унга кўра ҳар бир мусулмон, ҳатто қул ҳам қозига ўз шикоят билан келишга ва гайриқонуний иш қилаётган ўз хўжайинини жавобгарликка тортишга ҳақлидир. У туркий манғитлар сулоласи ҳукмдорлари ичида биринчи бўлиб суд – ҳуқуқ соҳасида ислохотларни амалга оширди. Амир Шоҳмурод томонидан ўтказилган суд – ҳуқуқий ислохотлари мамлакатда суд ишларидаги ноҳақликларга чек қўйилишига, судларда ишларнинг эркин олиб борилишига ҳамда қозилар томонидан одиллик, адолат ва инсонпарварлик руҳида суд жараёнларини амалга оширишга имкон яратиб берди. Амириликда суд тизими давлатнинг маъмурий аппарати қўлида бўлсада, фикҳ илми уламоларининг назорати остида эди. Бинобарин, давлатда диний амалдорларнинг суд фаолиятини назорат қилиши, ўз навбатида, уларнинг давлат бошқарувидаги аҳамиятини муайян даражада ошириб келган. Асосий суд идораси қозилик маҳкамалари ҳисобланиб, қозикалон бутун мамлакатнинг Бош қозиси (судьяси) эди. Фуқаролик ва жиноий ишларнинг барчасини қозилар кўриб чиққан. Суд ишларини юритиш тартиби оддий кўринишга эга эди. Қозига оғзаки ва ёзма равишда ариза билан мурожаат этиш мумкин эди. Келтирилган мурожаат, ариза ёки шикоятномаларга асосланган ҳолда қозининг ҳузурига айбдор ёки айбдорлар ишни бошлаш учун келтирилар эди. Қозилар томонидан олиб бориладиган суд жараёнида айбдорни айблаш ёки унинг айбини исботлаш учун шарият қонун – қоидаларига риоя қиладиган, ростгўй, ҳалол кишиларнинг гувоҳлиги етарли асосга эга эди. Гувоҳлар эса камида икки кишидан иборат бўлмоғи лозим эди. Суд жараёнида қозилар айбдорларнинг моддий аҳволи, аввало, айбнинг даражасига қараб, сўнгра айбдорнинг қилмиши учун чин кўнгилдан пушаймон бўлиши, зарарни ихтиёрий равишда қоплаши, жабр кўрган шахсдан узр сўраши каби ҳолатларни инобатга олган ҳолда жазо тайинлаган[6.207-208]. Бухоро амирилигида суд ишларини олиб боришнинг алоҳида хусусияти шунда эдики, қозилар ҳар бир ишни муайян тўлов эвазига кўриб чиққанлар. Эҳтиёт чораси сифатида озодликда қолиш учун ҳам муайян миқдордаги тўловни амалга ошириш лозим бўлган. Айбланувчини кафилликка олган шахс маълум бир муддат ичида кафиллик тўловини тўлаши лозим эди. Айбланувчи шахслар ҳар бир кечиктирилган кун учун одатдаги тўловнинг 25 фоизидан ортиғини тўлашга мажбур бўлган. Агар ҳибсга олинган шахсни яна ушлаб туриш зарурати туғилса, бундай ҳолда у шахс зиндонга юборилган[7.114]. Амир Шоҳмурод томонидан ўтказилган суд – ҳуқуқий ислохотларнинг муҳим жиҳати шундаки, бу даврга келиб қозининг ҳукмидан норози бўлган тараф Қозикалонга ёки Амирга шикоят қилиш ҳуқуқига эга бўлди. Қозикалонга ёки Амир номига ёзилган шикоятнома ўрганиб чиқилиб, қозининг ҳукмини асосли равишда қозикалон бекор қилиши ҳамда қозикалон қарорини фақат Амир бекор қилиши мумкин эди[5.208]. Амир Шоҳмурод томонидан ўтказилган суд – ҳуқуқий ислохотлари ўша вақтда нафақат Бухоро амирилигида, балки бошқа хонликларда ҳам суд ва судловни ижобийлаштириш учун улкан кадам эди. Ўз навбатида, Амир Шоҳмурод суд идораларининг қайта тузилиши, ташкил топиши ва қўйи суд идоралари қозиларининг тайинланиши каби янгиликларни амалга оширган эди. Ўша даврда суд идораларини ислоҳ қилиш мақсадида Амир Шоҳмуроднинг бевосита ташаббуси билан қирқ аъламдан (қонуншунослардан) иборат таркибда олий суд палатаси (қозихона) тузилди. Ушбу палатанинг аъзолари, яъни қонуншунослар шарият қонунилари асосида Амир Шоҳмурод томонидан тузилган қоидалар тўплами бўйича қўйи суд идоралари қозиларининг ҳукмидан норози бўлиб ёзилган арз ва шикоятномаларни кўриб чиқар эдилар. Амир Шоҳмурод томонидан ўтказилган суд - ҳуқуқий ислохотларининг яна бир муҳим янгилиги, бу олий суд палатасида қирқ аълам иштирокида кўрилатган арз ёки шикоятномада даъвогарнинг шахсан ўзи иштирок этишининг талаб қилиниши бўлди. Шундай қилиб, Амир Шоҳмурод даврида Бухоро амирилигида янги суд тизими: қасаба (каттарок қишлоқ), туман, вилоят қозилари, Бош қози ва қирқ аълам суди вужудга келиб, энг олий қози Амирнинг ўзи эди[9.132-133]. Шарият ҳуқуқи асосида Шоҳмурод тузган қоидалар тўплами диққатга сазовордир. Амир Шоҳмурод давлатдаги барча шариятга зид бўлган нормаларни жамиятнинг барча жабҳасидан суғириб ташлашга эришди. Тарихнавислар Мирий, Абдул Карим, Мирзо Содик Мунший, Муйин ҳамда Муҳаммад Ёқубларнинг маълумот беришича Бухородаги ёпиқ равишда фаолият олиб борадиган жойларда май, шароб маҳсулотлари, маст қилувчи ичимликлар билан бир қаторда гиёҳванд моддаларнинг тарқатилиши, ашулабозлик, кайф-у сафо, масхарабозлик ҳамда табак чекилиши каби ношарий одатлар мавжуд бўлган. Ундан ташқари, тарихнавислар Абдул Карим ва Мирийларнинг таъкидлашича, Бухорода “қофиробод” дея ном олган квартал бўлиб, ушбу кварталда ҳатто фоҳишабозлик каби иллатлар мавжуд эди. Бундай жиноятларни олдини олиш, бартараф этиш ҳамда тез орада уларга қарши курашиш мақсадида Амир Шоҳмурод шахсан Қушбеги Давлат Бий ҳамда Қозикалон Низомиддин Хўжаларга аниқ вазифаларни белгилаб беради ва ушбу ҳолатлар учун уларни

давлат бошлиғи – амир ҳамда ҳалқ олдида ҳисобдор ва масъул қилиб кўяди. Муҳаммад Ёқубнинг маълумот беришича, Амир Шоҳмурод ўша даврда “ҳуқуқий китоблар” ёзган. Мирийнинг тасдиқлашича, “у ханафия мазҳабига оид барча фатволарни жамлаб, “Фатвойи Аҳли Бухоро” номли тўпламни ёзди” [8.37]. Инглиз сайёҳи ва элчи Жон Мальколмнинг бизгача етиб келган маълумотларига кўра, Амир Шоҳмурод бир қатор қимматли ва ноёб асарлар муаллифи бўлган. Унинг энг зўр ва қимматли китоби “Айн ул-Ҳикма”дир. Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, Амир Шоҳмуроднинг “Фатвойи Аҳли Бухоро” номли асари бугунги кунда миллий давлатчиликни ўрганиш, уни илмий таҳлил этиш, ислом ҳуқуқини тадбиқ этиш бўйича нодир ва қимматли ҳуқуқ манбаи саналади.

**Хулоса.** Кўпгина чет ел олимлари Бухоро амирлиги ва унинг давлат бошқаруви тўғрисида фикр юритар экан, зўравонликка асосланган, қонун ва ҳуқуқлар мавжуд бўлмаган, деспотик монархия тарзида идора этилган давлат дея хуласа қилишади. Хусусан, Д.И. Логофет ҳам Бухоро амирлигининг ҳуқуқий жабҳасини баён этар экан, асосиз равишда “ҳуқуқсизлар ва ёввойи ўзбошимчалик мамлакати” деб таъриф беради [4.58]. Ваҳоланки, юқорида кўриб ўтганимиз Бухоро амирлигида маъмурий-ҳуқуқий соҳаларда амалга оширилган ислохотлар нафақат ўз даври учун, қолаверса бугунги давр нуқтаи назаридан ҳам эътирофга лойиқ. Бухоро амирлиги суд тизимини таҳлил қилар эканмиз, суд ҳокимияти фаолиятига маҳаллий ёки бошқа идоралар аралаша олмаганини, судлов ишлари коллегиаллик асосида очиқ равишда кўриб чиқилганини, қуйи маҳкама ҳукм ва қарорларидан норози бўлган томонлар қозилик судларига ёки шахсан амирга мурожаат қилиш ҳуқуқига эга эканлигини, ҳарбий соҳадаги масалаларни кўриб чиқишда алоҳида қози аскарларнинг мавжудлигини кўришимиз мумкин. Изланиш ва тадқиқотлар шуни кўрсатиб турибдики, XVIII аср охири – XIX аср бошларида Бухоро амирлиги ҳуқуқсизликка асосланган деспотик монархия эмас, балки суд-ҳуқуқ соҳалари тўла ислоқ қилинган, инсон манфаатлари ҳимоя қилинган, шариат қонун-қоидалари асосида бошқариладиган давлат бўлган.

### АДАБИЁТЛАР:

1. Анке фон Кюгельген. *Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII – XIX вв.)* – Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – с.231.
2. А. Сағдуллаев ва бошқалар. *Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1 қисм. Т.: Академия, 2000. 174-175 бетлар. -193 б.*
3. Воҳидов Ш. *Кўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар.* – Тошкент: Фан, 1996.
4. Логофет Д.И. *Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние.* – СПб.: Березовский, 1909, -с.58.
5. Муқимов З.Ю. *Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи.* – Тошкент: Адолат, 2004 – б. 207-208.
6. Тухтаметов Т.Г. *Русско-Бухарские отношения вконец XIX – начале XX в. Ташкент. Фан, 1966 – с. 24-25.* Муқимов З.Ю. *Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи.* – Тошкент: Адолат, 2004 – б. 207-208.
7. Шодиев Ж.М. *Бухоро амирлигининг ташиқил топшиши ва давлат тузуми: Юридик фанлар номзоди... дисс.* – Тошкент: 2008. – 52 б.
8. Шодиев Ж. *Бухоро амирлигида давлатчилик масалалари (1753-1920).* Тошкент: 2005. – 56 б.
9. *Ўзбекистон миллий давлатчилик назариясининг ҳуқуқий асослари. Иккинчи китоб/ М.М. Файзиев, З.Ю. Муқимов, Х.Т. Одилқориев ва бошқ; бош муҳаррир Р. Рўзиев.* – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2005. –б. 132-133.
10. İsmail Hami Danişmend. *Osmanlı devlet erkani: Sadr-ı-a'zamlar (vezi-i-azamlar), şeyh-ül-islamilar, kapdan-ı-deryalar, baş-defterdarlar, reis-ül-küttablar.* – Türkiye Yayınevi, 1971. -572 с.

**БУХОРО ВОҶАСИДА АНТРОПОГЕН ЛАНДШАФТ РИВОЖЛАНИШИНИ ЎРГАНИШГА  
ДОИР ОЛИБ БОРИЛГАН АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР**

**Очилов Алишер Тўлис ўғли,**

*Бухоро Давлат университети доценти, т.ф.ф.д. (PhD)*

[a.t.ochilov@buxdu.uz](mailto:a.t.ochilov@buxdu.uz)

**Аннотация.** Ушбу мақолада Бухоро воҳаси ҳудудида олиб борилган археологик тадқиқотлар қиёсий таҳлил қилинди. Бухоро воҳасида олиб борилган археологик тадқиқотлар тарихини ўрганиши натижасида, воҳада олиб борилган археологик тадқиқотлар тарихини катта уч даврга бўлиши таклиф қилинди. Биринчи давр XIX аср охири-1917 йил, иккинчи давр 1990 йилгача ва учинчи давр 1991 йилдан ҳозирги кунгача бўлган даврни ўз ичига олади. Мақолада шу уч даврда олиб борилган археологик тадқиқотлар таҳлил қилинди.

**Калит сўзлар:** Бухоро воҳаси, археологик тадқиқотлар, Кампир девор, Пойкент, Варахша, Я.Ғуломов, қадимги давр, антик давр, ўрта асрлар.

**ПРОВЕДЕНЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ИЗУЧЕНИЮ  
АНТРОПОГЕННОГО ЛАНДШАФТНОГО РАЗВИТИЯ В БУХАРСКОМ ОАЗИСЕ**

**Аннотация.** В данной статье приводится сравнительный анализ археологических раскопок в Бухарском оазисе. В результате изучения истории археологических исследований в Бухарском оазисе было предложено разделить историю археологических исследований в оазисе на три основных периода. Первый период охватывает конец 19-го века - 1917 г., второй период до 1990 г. и третий период с 1991 г. по настоящее время. В статье анализируются археологические исследования, проведенные в эти три периода.

**Ключевые слова:** Бухарский оазис, археологические исследования, Кампирская стена, Пойкент, Варахша, Я. Гулямов, древний период, античный, средневековый.

**ARCHAEOLOGICAL RESEARCH CONDUCTED TO STUDY ANTHROPOGENIC  
LANDSCAPE DEVELOPMENT IN BUKHARA OASIS**

**Annotation.** This article provides a comparative analysis of archeological excavations in the Bukhara oasis. As a result of the study of the history of archeological studies in the Bukhara oasis, it was proposed to divide the history of archeological studies in the oasis into three major periods. The first period covers the end of the 19th century - 1917, the second period before 1990 and the third period from 1991 to the present. The article analyzes archaeological research conducted during these three periods.

**Keywords:** Bukhara oasis, archeological studies, Kampir wall, Poykent, Varakhsha, Ya.Gulyatov, ancient period, antique, medieval.

**Кириш.** Ўрта Осиёнинг йирик дехқончилик маконларидан бири Бухоро воҳаси ўз географик жойлашувига кўра қадимдан шарқ билан ғарб мамлакатларини боғловчи савдо-иқтисодий ва маданий кўприк вазифасини бажариб келди. Бухоро воҳаси бир томондан дунёга кўплаб йирик кашфиётлар, янгилıklar берган Хитой, иккинчи томондан юсак ривожланган Қадимги Шарқ ҳудудларининг маданий-хўжалик таъсиридан баҳраманд бўлди. Шунинг билан бирга асрлар оша тарихий тараққиёт давомида воҳада ўзига хос ўринга эга бўлган юсак дехқончилик маданияти, ривожланган хунармандчилик ва савдо-сотик тараққий этди.

Бухоронинг ҳар бир қарич ери, ҳар бир тарихий ва маданий обидаси бу ерлик аҳолининг буюк иқтидори ва яратувчилик салоҳиятидан, юсак тараққиёт, илму маърифат, маънавият ва маданият, фалсафа ва дин равнақи йўлидан дарак беради. Бу ер ўз даврида илм-фан, маърифат ва маданият марказларидан бирига айланиб, шаҳарда диний ва дунёвий илмлар ривож топган.

Асрлар давомида Бухоронинг донғи бутун Шарқ бўйлаб факат илму маърифат, маданият ҳамда савдо-сотик соҳасидагина эмас, балки Туркистоннинг йирик маъмурий маркази сифатида ҳам таралиб келган. Бухоро ўтмиши гарчи тарихий ва тадрижий воқеаларга ниҳоятда бой ва қизиқарли бўлса-да, аммо унинг зарварақларининг кўпгина саҳифалари бизгача тўлиқ сақланмаган.

Воҳанинг узоқ ўтмиши, қадимги давр тарихи, шаҳарнинг вужудга келиши ҳақидаги аниқ маълумотлар ёзма манбаларда мутлоқо учрамайди, бор маълумотлар эса тарихий ҳақиқатга мос эмас. Шу сабабли, Бухоронинг қадимги даврлардаги тарихини аниқ ва равшан ёритишда археологик тадқиқот ишлари жуда муҳим жихат ҳисобланади.

**Асосий қисм.** Бухоро воҳасидаги илк археологик тадқиқотларни XIX аср охири - XX аср бошларида (1895-1917 йиллар) фаолият юритган Туркистон археология хаваскорлар тўғараги амалга оширади. Бухоро воҳасида илк археологик изланишлар бошланиши XIX асрнинг охирилари да, аниқроқ қилиб айтганда 1896 йилда харбий топограф Н.Ф.Ситняковский Бухорога келиб, бир қатор археологик ёдгорликларни суратга олиш ишларини бажариши билан бошланади. Тадқиқот воҳанинг асосан ғарбий ва шарқий қисмларида олиб борилади. Ситняковский бу тадқиқотлари уни Бухоро воҳасида бевосита археологик кузатувлар олиб борган биринчи тадқиқотчига айлантирди (Шишкин, 1963, с.14).

Н.Ф.Ситняковский Зарафшон дарёсининг ўнг ва чап соҳилларида жойлашган Кампир девор қолдиқлари, Шаҳри вайрон, Абу Муслим, Ганчхона, Хазора каби тепалар, Жумабозор худуди яқинидаги икки аҳоли манзилгоҳи, Зиёвуддин қалъаси ва Пойкент харобалари, Узулишкент, Кумушкент, Зандана, Ромитан каби жойларнинг умумий жойлашуви ва ҳолати хусусида атрофлича маълумот берган. Булар орасида Пойкент археологик ёдгорлигида олиб борган ишлари алоҳида ажралиб туради. Пойкент худудида тадқиқотлар ўташ жараёнида Н.Ф. Ситняковский дастлаб 6 та кумуш танга топади ва ўз тадқиқотлари ҳақида 1896 йил 11 декабрда Туркистон археология хаваскорлар тўғараги аъзоларига баён қилади. “Ҳисобот” шу йилнинг ўзидаёқ оммага эълон қилинади (Ситняковский, 1900, с.130).

Бухоро воҳасида археологик изланишлар XX асрнинг бошларида ҳам амалга оширилган. Хусусан, 1903 йилда Пайкент ёдгорлигининг харобаларига Корнеджи институтининг геологи Р.Пампелли бошчилигидаги америкалик экспедицияси ўрганган (Муҳаммаджонов, Адилов, Мирзааҳмедов, Семенов, 1988, с.4). Помпелли Пайкентдаги тадқиқотлари натижасида шаҳар деворининг қолдиқларини ва топилган сопол қувурларнинг ишлатилиш мақсади хусусида ўзининг дастлабки фаразларини билдиради (Pumpell<sup>1905, p.8-10</sup>).

Деярли шу даврларда Бухоро воҳасидаги археологик ёдгорликларда Л.А.Зимин ҳам тадқиқот ишларини олиб боради (Зимин, 1914. Зимин, 1915. Шишкин, 1963, с.15).

Л.А.Зимин воҳадаги тадқиқотларини Пойкент археологик ёдгорлигидан бошлади. Л.А.Зимин дастлаб Пойкент ҳақидаги хитой манбалари, араб сайёҳларининг асарлари, маҳаллий аҳолининг асарлари ва XIX асрларда ёзилган Н.Хаников, В.В. Бартольдларнинг шаҳар хусусидаги маълумотларини таҳлил қилган. Олим ёзма манбалардаги маълумотлар билан тўлиқ танишиб чиққандан сўнг, дастлабки археологик қазув ишларини олиб бориш кераклигини таъкидлаган. У пойкентга биринчи марта келганида худуд яхши сақланганлигини алоҳида таъкидлаб, дастлабки изланишларни топографик ўлчов ва ҳатто глозаметрик усулида расм олиш ишидан бошлайди. Л.А.Зимин дастлаб, шаҳарнинг жанубий ва жанубий-шарқий қисмидаги девор қолдиқларини ўрганганиб бир қанча сопол, шиша, темир буюмлар билан бирга бир қанча кумуш танга намуналарини ҳам топиб ўрганган (Зимин, 1913, с.87). Тангаларнинг таҳлили асосида Л.А. Зимин Пойкент харобалари араблар босқинига қадар мавжуд бўлганлиги, Сомонийлар даврида (IX-X асрларда) ривожланиб, Қорахонийлар даврида (XII асрда) эса ташландиқ ҳолга келиб қолганлиги хусусидаги тахминини илгари сурган. Бу тахминни Пойкентда олиб борилган кейинги археологик тадқиқотлар ҳақиқат эканлигини исботлади (Очилов, 2019, б.129-134). Л.А. Зиминнинг Пойкентдаги изланишлари 1914 йилда ҳам давом этган ва икки маротаба (бахор ва ёз фаслида) археологик тадқиқот ишлари олиб борилди (Муҳаммаджонов, Адилов, Мирзааҳмедов, Семенов, 1988, с.4).

1917 йилда Россия империясида кечган кескин ҳаракатлар, февраль инқилоби ва бошқа сиёсий жараёнлар воҳадаги археологик изланишлар олиб боришда тўхталиш қилишни тақозо этди. XX асрнинг 30 йилларида воҳадаги археологик тадқиқотлар яна жонланди.

Бухоро воҳасидаги биринчи жиддий археологик ишлар А.Ю.Якубовский раҳбарлигида Россиянинг Эрмитаж музейи ва Узкомстарис ташкилотлари томонидан 1934 йилда амалга оширилди. Россия (Санкт-петербург)лик олим А.Ю.Якубовский Бухорода биринчи археологик экспедиция уюштириб, воҳанинг шимолий-шарқий қисмлари мудофа истехкомларини текширган. Экспедиция Бухородан Самарқандгача борадиган карвон йўли бўйлаб юришни мўлжаллаган эди. Фаолият давомида Бухоро воҳасининг шимоли - шарқий қисми чеккалари текширилди. Қизилтепа, Шохшохидон, Абумуслим, Бўрихона, Ганчхона, Хазора ва Денгак сингари Кампирдевол бўйлаб бунёд қилинган ёдгорликлар ўрганилди. Уларнинг режаси, қурилиш тартиби аниқланиб, қоғозга туширилди. А.Ю.Якубовский экспедицияси тўғрисидаги ҳисоботида Кампирдевол билан боғлиқ муҳим тарихий

муаммоларга ҳам тўхталган. Жумладан, воҳадаги ўтроқ халқ билан дашт ва чўл минтақасида кўчманчи чорвачилик билан шуғулланувчи аҳоли ўртасидаги муносабатлар масаласига ҳам тўхталган эди. Якубовский текширган бу ёдгорликлар анча юзаки кўздан кечириб чиқиш тартибида, бирор археологик қазишларсиз амалга оширилган. Экспедиция ишидаги ютуқлардан бири Ҳазора яқинидаги археологик ёдгорлик Деггарон (қозон қуявчи деган маънони англатади) масжидини аниқлаб, уни Самоний макбарасидан ёш эмас, деган хулосалар берилди (Нильсен, 1955, с.61). А.Ю.Якубовский олиб борган тадқиқотларнинг ҳисоботини 1940 йилда чоп этди (Якубовский, 1940).

Воҳада А.Ю.Якубовский билан бир даврда В.А.Шишкин ҳам ўз археологик тадқиқотларини олиб борган. В.А.Шишкин Бухородаги илк тадқиқотларини 1934-йилда Кампирак деворини археологик тадқиқ қилишдан бошлайди. Бунда у бутун Бухоро воҳасининг атрофини айланиб чиқишга ҳаракат қилди. Воҳанинг жанубий ва шарқий қисмидаги девор қолдиқларини илмий ўрганилади. Йўл-йўлакай Оқсоч, Хожа Ажуванди, Қуйитепа каби ёдгорликлар ҳам кўздан кечирилди. Тадқиқотлар давомида Қуйимозор қабристонини, воҳанинг Шимолий ва ғарбидаги Вардонзе, Зандана, Варахша сингари девор яқинида юзага келган ёдгорликлар аниқланди (Шишкин, 1940, стр.50). Бу тадқиқотлар Бухоро воҳаси тарихи бўйича жуда кўплаб маълумотларни берсада лекин, тадқиқотларнинг барчаси Бухоронинг шаҳар атрофларидаги тадқиқотлар бўлиб, ҳали Бухоронинг шаҳар қисмида археологик тадқиқотлар бўлмаган эди (Шишкин, 1963, с.16).

Бухоронинг шаҳар қисмида илк археологик тадқиқот 1934-йилда В.А.Шишкин раҳбарлигида Мағоки Атгорий масжид ҳудудида бўлиб ўтади ва шаҳар ҳақида бир қанча маълумотларни беради (Шишкин, 1955, с.29-60). Сўнгра, тақдир тақозоси ва ўша давр сиёсати юзасидан Шишкин Тошкентга қайтиб кетишга мажбур бўлади.

Кейинчалик В.А.Шишкинни эски ирригация зонаси бўлган Бухоронинг ғарбий зоналарига воҳаларига тадқиқот ўташ учун мажбуран юборилади. Аслини олганимизда, бу ҳудуд энг катта ва муҳим аҳамиятга эга бўлган археологик ёдгорликлар жойлашган эди.

У асосан бу ҳудудда жойлашган антик давр ва ўрта асрларга оид ёдгорликларни ўрганди. Бухоро воҳасининг ғарбий томонидаги деярли ҳамма ерлар қадимги даврларда тўлиқ ўзлаштирилган ерлар бўлиб, фақат кейинги даврларда Зарафшон дарёсидаги сувни юқори оқимлардаёқ тақсимланиб ишлатилилиши натижасида дарёнинг қуйи оқимлари кум барханларининг остида қолиб кетди. Бу ҳудудларда археологик изланишлар олиб борган В.А.Шишкин ҳудудни учта қисмга – жанубий, ўрта ва шимолий қисмларга бўлади, аммо бу бўлинган ҳудудлар бир-бирлари билан турли суғориш тизимлари орқали боғланган эканлигини аниқланган (Шишкин, 1940, с.5).

В.А.Шишкин 1937 йилдан Варахша археологик ёдгорлигини ўрганишни бошлади. У дастлаб Варахшадаги хоналарнинг шаклига ва улар қанча баландликка жойлашганлигига эътибор қаратади. Бу қазишлар истиқболли эканлигини Шишкин тушунади ва бу ҳудудни комплект жой деб эътиборга олади. Варахшадаги хоналарнинг бирини қазиш давомида аниқланишича, безак парчаларидан ва турли хилдаги шаклли чирой бағишлайдиган безаклар билан хона деворлари сувалган эди. Бу хусусият сосонийлар даври услубига мансуб деб эътироф этилган. Варахша Суғдиёнадаги жуда кўркам ва ҳашаматли бино, археологик ёдгорлик ҳисобланиб археологик нуқта-и назардан чуқур тадқиқ қилинади (Шишкин, 1940, с.9-27).

Айни шу даврда, яъни 1939-1940 йилларда воҳанинг ғарбий минтақасидаги Пойкент шаҳрида ҳам археологик тадқиқотлар кенг кўламда амалга оширилди. Пойкент шаҳарчасини Россиянинг Эрмитаж музейининг илмий ходими А.Ю. Якубовский (Якубовский<sup>1940,с.113-164</sup>), 1940 йилларда В.Н.Кесаев ва В.А. Шишкин (Шишкин, 1963, с.16-17) каби тадқиқотчилар археологик тадқиқ этилар ва Пойкент шаҳрининг топографик харитасини яратдилар. Бу харитада шаҳар уч қисмдан иборат эканлиги кўрсатилган. Булар: Арк қисми-майдони 1 га, Шаҳристон I қисми-майдони 13 га, Шаҳристон II қисми- майдони 7 га.

Аммо, ўтган асрнинг 40 йилларига келиб иккинчи жаҳон уруши туфайли воҳада қазишма ишлари вақтинча тўхтади. Урушдан кейинги йилларда Бухоро воҳасидаги археологик изланишлари воҳанинг Варахша массивига кўчди. В.А.Шишкиннинг Варахшада 1947 йилда бошланган археологик тадқиқотлари (Шишкин, 1948, с.62-70) узлуксиз 6 йил давом этди (Шишкин, 1956, с.10). Варахшадаги тадқиқот ишлари Ўрта Осиёдаги замонасининг бошқа ёдгорликларидан ажралиб турган эди.

В.А.Шишкиннинг Варахшадаги қазишма ишларида Ўрта Осиёдаги машҳур археолог олим Лазар Албаум, Наталиа Диканова, архитектор В.А. Нилсон ва санъатшунос тарихчи олим В.А.Мешкерис каби олимлар ҳам иштирок этишди (Шишкин, 1963, с.17).

Юқорида кўриб чиққан тадқиқотларнинг барчаси Бухоро воҳасининг антик ва ўрта асрлар даврига тааллуқли тадқиқотлар бўлганлиги сабабли, олимлар орасида Бухорода ибтидоий давр кечмаган

деган фикр кенг тарқади. Лекин, бу қарашларни 1950-йилдан бошланган Я.Ғ.Ғуломовнинг археологик тадқиқотлари хато эканлигини исботлади.

Яхё Ғуломов Қорақўл туманининг Яккатут қишлоғи яқинида ўтмишда Зарафшон дарёсидан ажралиб чиқиб Амударёга оққан, унинг Мохандарё, Гурдуш ва Гужайли каби куриб қолган қадимги ўзанлари ёқалаб илмий тадқиқотлар олиб бориш давомида юлғун, саксовул ҳамда қум барханлари билан қопланган тақир жойларда онда-сонда сочилиб ётган майдай тош қуролчалар, сопол идиш бўлакчаларини териш давомида Бухоро воҳасида бошланган ўз изланишлари дебочасидан мамнун ва ўзида йўқ хурсанд бўлган эди. Чунки, Бухоронинг ибтидоий давр маданиятини ўрганиш йўлида дастлабки калит топилгандек кўринганди (Муҳаммаджонов, 2008, б.33-34).

Я.Ғ.Ғуломов дала кидирув ишлари давомида кўл ёқалари ва дарё ўзанлари бўйлаб қад кўтарган аждодларимизнинг кулбаларини топди, у кулбалар майдонида қум ораларида сочилиб ётган, неолит даврига оид сопол парчалари ва тош қуроллари, бронза даврига тегишли маконлардан сопол синиқларини териб олди. Бундан олим: “Бухоро воҳасининг шимоли-ғарбий районлари археологик жиҳатдан ибтидоий жамоа даврига оид ёдгорликларга бой истиқболли археологик кўрикхона экан”, деган хулосага келади (Ғулямов, 1956, с.149-161). Яхё Ғуломов раҳбарлигидаги экспедициянинг махсус отряди томонидан Зарафшоннинг қуйи оқимидан неолит ва бронза даврига оид 60 дан ортиқ манзилгоҳлар топиб тадқиқ қилинади. Булар орасида Моханқўл, Замонбобо, Кичик Тузкон, Катта Тузкон, Чуқур қўл, Парсанг қўл ва Лўқликўл ёдгорликларнинг очилиши ва ёдгорликлардан топилган археологик топилмаларни алоҳида тақидлашимиз жоиз.

Яхё Ғуломовдан сўнг воҳанинг қадимги давр тарихини ўрганиш ишларини Ў.Исломов ва А.Аскарлар давом эттирди (Ғулямов, Исламов, Аскарлар, 1966, стр.266).

XX асрнинг 50 йилларида Бухоро шаҳрининг кўплаб худудларида С.Н.Юренив бошчилигида чуқур археологик тадқиқотлар амалга оширилди. Бу археологик тадқиқотлар шаҳар тарихи ҳақида бир қанча аниқ маълумотларни тақдим этди (Ставиский, 1996, с.30).

Воҳанинг суғорилиш тизимини ўрганиш ҳам айнан шу даврлардан кенг тус олди. 1960 йиллардан бошлаб археолог А.Муҳаммаджоновнинг Бухоро воҳасида суғориш тизимини ўрганиш ишлари бошланди. У ўзининг Бухоро воҳаси ирригациясини ўрганиш учун юзлаб ёзма манбаларни, археологик ва этнографик материалларини ўрганган ҳолда хулосалар чиқаришга ҳаракат қилди. А.Муҳаммаджонов ирригация тизимларини ўрганишга археологик ёндашуви натижасида Бухоро воҳасининг суғориш тизимларини пайдо бўлишидан бошлаб, то XX аср бошларигача бўлган даврдаги ирригация иншоотларининг тараққиётини кўрсата олди (Муҳаммаджонов, 1972, 376 бет).

XX аср 70 йилларга келиб воҳадаги археологик тадқиқот ишларини А.Р.Муҳаммаджонов, Р.Ҳ.Сулаймонов ва Б.Урақовлар иштирокидаги археологик экспедициялар давом эттирди. Натижада, Бухоро воҳасининг III-VI асрларга таалукли Қизилқир, Сеталок, Ромуштепа, Нортена каби бир қанча археологик ёдгорликлари тўлиқ тадқиқ этилди (Муҳаммаджонов, Сулейманов, Урақов, 1983, стр.126).

Шу даврда Бухоро воҳасидаги қадимги шаҳар ва қишлоқларининг муҳофаа иншоотларини ўрганиш бўйича Х.Муҳаммадов раҳбарлигида бошланган ишлар (Муҳаммадов, 1961) М.Туребеков томонидан олиб борилган илмий изланишлар ҳам ўзининг якунига етди (Турабеков, 1990).

XX аср 70 йилларидан А.Р.Муҳаммаджонов, Ж.К.Мирзааҳмедов ва Ш.Т.Одиловларнинг Бухоро воҳасидаги экспедициялари бошланди. Натижада Бухоро воҳасининг қадимги ва ўрта асрларидаги маданияти анча мукамал ўрганилди. Ж.К.Мирзааҳмедов Бухоронинг сўнгги ўрта асрларидаги кулолчилик буюмлари бўйича мукамал, яқунланган номзодлик диссертациясини ёзди. Натижада Бухоро воҳасининг кулолчилик буюмларининг типологияси ва унинг хронологияси аниқ белгиланди (Мирзааҳмедов, 1987).

Археолог Ш.Т.Одилов томонидан 1980 йилларда Бухоро воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрларидаги шаҳарсозлик маданиятини чуқур археологик тадқиқ қилди (Адилов, 1983. Адилов, Мирзааҳмедов, 1996. Адилов, 1999. Адилов, 2001, с.180-186. Адилов, Мирзааҳмедов, 2001, с.150-157).

Бухоро воҳасини археологик ўрганилиши тарихида Г.Л.Семеновнинг ҳам ўрни каттадир (Семенов, 2002). 1981 йилда Россиянинг Давлат Эрмигажи, Ўз.ҒА Археология институти, Москвадаги Шарқ халқлари санъати институтининг ходимлари билан биргаликда Пайкент ва Бухоро воҳасининг турли археологик ёдгорлигида қазилма ишларини бошлаб юбордилар. Кейинчалик Пойкентда олиб борилган археологик изланишлар бўйича йиллик ҳисоботлар ҳар йили алоҳида китоб тарзида эълон қилинадиган бўлди.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг археология фани юксак даражада ривож топди, айниқса Бухоро археологиясида. Археологлар томонидан Бухоро шаҳрининг 2500 йиллик юбилеи илмий асосланди. Воҳада маҳаллий археологлардан ташқари, жаҳоннинг ривожланган

мамлакатларининг археолог мутахасислари билан ҳамкорликда кўшма археологик экспедициялар амалга оширилмоқда. Шундай ҳамкорлик шартномалари асосида Италия, Франция, АҚШ, Россия археолог олимлари маҳаллий археологлар билан биргаликда Бухоро воҳасининг турли археологик ёдгорликларини тадқиқ қилдилар. ЎзФА Археология илмий тадқиқот институти ходими Ж.Мирзаахмедов раҳбарлигида 2019 йилда Бухоронинг Арк ва Эски шаҳар қисмида, Вардонзе, Пойкент ҳудудларида бир қанча археологик ишлар амалга оширилди ва Бухоро тарихи бўйича бир қанча илмий далилларни берди.

**Хулоса.** Хулоса қилиб айтиладиган бўлсаки, Бухоро воҳасидаги археологик изланишлар бошланганига 120 йил бўлганига карамай воҳа тарихи бўйича улкан маълумотларни бизга тақдим қилди. Тадқиқотлар воҳада тош давридан сўнгги ўрта асрларгача бўлган даврдаги тарихий-маданий тараққиётнинг узлуксиз давом этганлигини исботлади. Бу ердаги тараққиёт доимий равишда кўшни ҳудудларда яшаган, деҳқончилик ва чорвачилик қилиб кун кўрадиган аҳоли билан алоқалари натижасида вужудга келган юксак маданият соҳиблари бўлганликлари тўғрисидаги маълумотларни беради. Юқорида кўриб чиқилган тадқиқотлар натижасида Бухоро воҳаси тарихининг айрим жиҳатлари аниқ ва равшан ёритилди. Шундай бўлсада воҳа археологияси муаммолардан тўлиқ ҳоли деб айтиб бўлмайди.

### АДАБИЁТЛАР:

1. *Explorations in Turkestan. Expedition of 1903, under the Direction of R. Pumpell, Washington, 1905.*
2. *Адылов Ш.Т. Западные окраины Бухарского оазиса на ранних стадиях обживания (VII в. до н.э., III в.н.э.). ИМКУ-33. Ташкент, 2002;*
3. *Адылов Ш.Т. К вопросу происхождения названия «Варахша» и некоторых топонимов и гидронимов Западного Согда. ИМКУ-32. Ташкент, 2001.*
4. *Адылов Ш.Т. О коропластике Бухарского Согда. ИМКУ-18, Ташкент, 1983;*
5. *Адылов Ш.Т. Оросительно-дренажная система г.Бухары в древности и средневековье. ИМКУ-30, Ташкент, 1999;*
6. *Адылов Ш.Т., Мирзаахмедов Д.К. Из истории древнего города Вардана и владения Обавия. ИМКУ-32, Ташкент, 2001.*
7. *Адылов Ш.Т., Мирзаахмедов Дж.К. Новые материалы к изучению рустака Файй. ИМКУ-27, Самарканд, 1996;*
8. *Гулямов Я.Г. Археологические работы к северу от Бухарского Оазиса // ТИИА Уз ССР. Вып. 8. 1956.*
9. *Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура в низовьях Зарафшана. Ташкент, 1966.*
10. *Зимин Л.А. Развалины старого Пайкенда в их современном состоянии. ПТКЛА. Год 18. Вып. 2. Ташкент, 1914.*
11. *Зимин Л.А. Отчет о весенних раскопках в развалинах старого Пайкенда. ПТКЛА. Год 19. Вып. 2. Ташкент, 1915.*
12. *Зимин Л.А. Развалины Старого Пайкента//Протокол заседания и сообщения членов Туркестанского кружка любителей археологии год восемнадцатый (11 декабр 1912г.—11 декабр 1913 г.) Протокол №4, 30 апрел 1913 г. Ташкент, 1913а.*
13. *Мирзаахмедов Дж.К. Глазурованная керамика Бухары второй половины XVII – начала XX вв. как исторический источник. Авт. дисс. канд. ист. наук. Самарканд, 1987.*
14. *Мухамедов Х. Ўзбекистоннинг қадимги мудофаа иншоотлари тарихидан. Тошкент, 1961.*
15. *Мухаммеджанов А.Р., Сулейманов Р.Х., Ураков Б. Культура древнебухарского оазиса III-VI вв. н.э. Ташкент, 1983.*
16. *Муҳаммаджонов А. Яхё Фуломовни хотирлаб.-Тошкент, 2008.*
17. *Муҳаммаджонов А.Р. Қуйи Зарафшон водийсининг сугориши тарихи. -Тошкент, 1972.*
18. *Муҳаммаджонов А.Р., Адилов Ш.Т., Мирзаахмедов Дж.К., Семенов Г.Л. Городище Пайкенд. К проблеме изучения средневекового города Средней Азии. Ташкент, 1988.*
19. *Нильсен В.А. Мечеть Деггаран в селенни Хазара (Архитектурно-археологический очерк). «Труды ИИА АН УзССР». Вып. 7.-Ташкент, 1955.*
20. *Очилов А.Т. Пойкентда олиб борилган археологик тадқиқодлар тарихидан//Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача).-Бухоро, 2019.*

## HISTORY

---

21. Семенов Г.Л. Согдийский город V-XI вв. Формирование плана (по материалам Пайкенда в Бухарском оазисе и Ак-Бешима в Семиречье). Диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора исторических наук. Санкт-Петербург, 2002.
22. Ситняковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зерафшана, Известия Туркестанского отдела русского географического общества, т. I, вып. 2, Ташкент, 1900.
23. Ставиский Б. Я. Сергей Николаевич Юрнев. Бухара, 1996.
24. Туребеков М. Оборонительные сооружения древних поселений и городов Согда. Нукус, 1990.
25. Фан ва турмуш. №3-4; 1992.
26. Шишкин В.А. Археологические работ. 1937 года в западной части Бухарского оазиса. Ташкент, 1940.
27. Шишкин В.А. Археологические работы 1947 г. на городище Варахша.—«И АН УзССР», Ташкент, 1948. №5.
28. Шишкин В.А. Варахша. М., 1963.
29. Шишкин В.А. Некоторые итоги археологических работ на городище Варахша (1947-1953 гг.) Труды Института истории и археологии Ташкент, Изд-во АН УзССР. 1956.
30. Шишкин. В.А. Раскопки в мечети Магаки-аттари в Бухаре. «Труды ИИА АН УзССР». Выпуск 7. Ташкент, 1955.
31. Якубовский А.Ю. Краткий полевой отчет о работах Зерафшанской археологической экспедиции Эрмитажа. ИИМК в 1939 г – ТОВЭ. Т.П.Л.: 1940

### BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI TARIXIGA OID ARXIV HUJJATLARI

*Murodova Dilrabo Shomurodovna,*

*Buxoro davlat universiteti*

*Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi,*

*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoro viloyat davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti hujjatlari asosidagi oliygoh tarixiga oid ma'lumotlar tahlili berilgan. XX asrning ikkinchi yarmida Buxoro viloyatida sanoatning energetika, kimyo, konchilik, neft-gaz sohalariga asos solinib, Buxoro-Kogon, Navoiy-Qiziltepa, G'ijduvon-Qiziltepa, Qorako'l-Olot sanoat tumanlarini tashkil etish muhandis mutaxassislar tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltirganligi bois yangi institutga asos solinganligi arxiv hujjatlarida aks etgan. Maqolada viloyat arxivining 1362 hamda 1404-fondlarida saqlanayotgan institut faoliyati aks etgan hukumat qarorlari, bo'lim va kafedralarning yig'ilish hisobotlari, ilmiy kengash bayonnomalari, yillik buxgalteriya hisobotlari, talabalar qabuli va o'qishni ko'chirish to'g'risidagi buyruqlardan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** Arxiv, fond, hujjatlar, hisobotlar, institut, muhandis, yengil sanoat, to'qimachilik, texnologiya, mutaxassis.

### АРХИВНЫЕ ДОКУМЕНТЫ ПО ИСТОРИИ БУХАРСКОГО ИНЖЕНЕРНО- ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

**Аннотация.** В данной статье представлен анализ сведений по истории Бухарского инженерно-технологического института на основе документов высшего учебного заведения, хранящихся в фондах Бухарского областного государственного архива. В архивных документах отражено то, что во второй половине XX века происходит создание энергетической, химической, горнодобывающей, нефтегазовой промышленности в Бухарской области и образование промышленных районов Бухара-Когон, Навои-Кызылтепинский, Гиждувон-Кызылтепинский, Каракольский-Олот вызвал необходимость подготовки инженеров. В статье использованы постановления правительства, протоколы заседаний кафедр, отчеты ученых советов, годовые бухгалтерские отчеты, приказы о приеме студентов и зачислении на обучение, хранящиеся в фондах 1362 и 1404 областного архива.

**Ключевые слова:** Архив, фонд, документы, отчеты, институт, инженер, легкая промышленность, текстиль, технология, специалист.

### ARCHIVAL DOCUMENTS ON THE HISTORY OF BUKHARA INSTITUTE OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY

**Abstract.** This article analyses the information on the history of Bukhara Institute of Engineering and Technology on the basis of the documents of the higher educational institution stored in the fonds of Bukhara Regional State Archive. The archival documents reflect the fact that in the second half of the XX century the creation of energy, chemical, mining, oil and gas industries in Bukhara region and the formation of industrial districts Bukhara-Kogon, Navoi-Kyziltepinsk, Gijduvon-Kyziltepinsk, Karakol-Olot caused the need for training engineers. The article uses government resolutions, minutes of department meetings, reports of scientific councils, annual accounting reports, orders on admission of students and enrolment in the fonds 1362 and 1404 of the regional archive.

**Keywords:** Archive, fund, documents, reports, institute, engineer, light industry, textile, technology, specialist.

**Kirish.** XX asrning ikkinchi yarmida Buxoro viloyatida sanoatning energetika, kimyo, konchilik, neft-gaz sohalariga asos solinib, yengil sanoat, mashinasozlik, sanoat materiallarini qayta ishlash va tayyorlash, uy-joy hamda ip-yigiruv kombinati va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari ham rivojlana boshladi. Shuningdek, hududning iqtisodiy taraqqiyot rejasiga Navoiy, Gazli, Zarafshon shaharlari hamda Buxoro-Ural gaz quvuri, Navoiy kimyo kombinati, Amu-Buxoro kanalining bunyod etilishi, Gazli-Qorovulbozor massivlarida gaz va

neft qazib olishni ko'paytirish, Buxoro-Kogon, Navoiy-Qiziltepa sanoat tumanlaridan tashqari G'ijduvon-Qiziltepa, Qorako'l-Olot sanoat tumanlarini tashkil etish muhandis mutaxassislar tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltirdi.

**Metodlari.** Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning tarixiylik tamoyili, obyektivlik va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalari.** 1958-yilda Buxoro viloyati ijroiya qo'mitasining Buxoroda Toshkent politexnika institutining kechki umumtexnika fakultetini ochish to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Dastlab 1959-yil 14-dekabrda fakultetning o'quv-maslahat kursi tashkil etilib, unga 50 talaba qabul qilindi. Kurs mudiri etib Buxoro davlat pedagogika institutida matematika kafedrasida katta o'qituvchisi bo'lib ishlagan tashkilotchi pedagog Latif Sharipovich Sharipov tayinlandi. Buxoroda Toshkent Politexnika instituti maslahat bo'limining tashkil qilinishi texnika oliy o'quv yurtini tashkil qilishda birinchi qadam bo'ldi [1; B. 7].

Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining buyrug'iga ko'ra Umumtexnika fakulteti tayyorlov kursi bitiruvchilari hamda "Buxoroneftgaz", "Gazlineftqidiruv", "Buxoroshahargaz", "O'zbekneftgazqidiruv", "Santexgazmontaj", "163-Qurilishtrest" yosh xodimlari yangi tashkil etilgan "Sanoat va fuqaro qurilishi" hamda "Neft va gaz quvurlarini qazish texnologiyasi majmuasi" ixtisosliklari bo'yicha o'qishga qabul qilingan. Jami 50 nafar talaba qabul qilinib, ulardan 3 nafarini qizlar tashkil etgan. Mazkur talabalar 1-3 kursni Buxoroda, 4-6 kurslarni esa Toshkent Politexnika institutining sirtqi, kechki va kunduzgi bo'limlarida davom ettirishgan.

Dastlabki davrda talabalarga 15 nafar professor-o'qituvchilar dars bergan. Ulardan 8 nafari o'zbek, 3 ta rus, 2 ta tatar, ukrain va yahudiy millatiga mansub bo'lgan. Pedagoglarning 1 nafari – 20 yil, 5 nafari - 10 yil, 9 nafari – 5 yillik mehnat tajribasiga ega bo'lganligi fakultetning birinchi dekani L.Sharipovning hisobotlarida qayd etilgan [2; B. 3]. Arxiv manbalarida qayd etilishicha, 1960-yil noyabrda fakultet qoshida tashkil qilingan tayyorlov kurslariga "Buxoroneftgaz", "Gazlineftqidiruv", "G'arbiy O'zbekiston geofizika ekspeditsiyasi", "O'zbekneftgazqidiruv", "163-Qurilishtrest" korxonalarining Buxoro shahrida 150 nafar, Qorovulbozorda esa 32 ishchi va xizmatchilari o'quv guruhlariga jalb qilingan [10; C. 34-38].

1963-1964-o'quv yilidan boshlab yangi "Issiqlik gaz ventilyasiyasi", "Suv quvurlari va suvoqava", "Avtomobil transporti", "Avtomobil yo'l qurilishi", "Elektr tarmoqlari tizimi", "Tikuv buyumlari texnologiyasi", "Tolali materiallarga dastlabki ishlov berish" ixtisosliklari bo'yicha talabalar qabul qilingan. 1967-1968-o'quv yili boshida talabalarining umumiy soni 836 nafarni tashkil qilib, I kursda 312 ta, II kursda 296 ta, III kursda esa 228 nafar talaba ta'lim olgan. O'quv yili davomida 149 talaba o'qishga qabul qilingan bo'lib, shundan, I kursda 43, II kursda 68 ta, III kursda esa 48 nafar yoshlar tahsil olgan. Umumiy o'zlashtirish ko'rsatgichi 73,2 foizni tashkil qilgan. O'quv jarayoniga talabalarni ommaviy paxta yig'im-terimida jalb etilishi salbiy ta'sir etgan. Shuningdek, 10-yil davomida fakultet talabalari uchun o'quv bino ajratish masalasi hal etilmay kelgan. Kechki o'quv mashg'ulotlari Buxoro tog'-kon texnikumi bilan almashgan holda maktab binosida olib borilgan. 1968-1969-o'quv yilida fakultet o'z mashg'ulotlarini 11 ta ixtisoslik, 1232 talaba va 84 nafar xodim bilan boshlagan edi. Fakultetda sanoat fuqaro qurilishi, suv quvurlari va suvoqava, avtomobil transporti, avtomobil yo'l qurilishi, neft quvurlarini ta'mirlash, issiqlik gaz ventilyasiyasi, tolali materiallarga dastlabki ishlov berish, elektr tarmoqlari tizimi, tikuv ishlab chiqarish konstruksiyalari ixtisosliklari bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etilgan. Buxoro shahar ijroiya qo'mitasining 1968-yil 29-maydagi qaroriga ko'ra umumiy sig'imi 2 mln. 499 ming 800 rubllik qiymatga ega o'quv binosini qurish ishlari boshlangan [5; B. 17].

1970-1971-o'quv yilida fakultetda 60 ta asosiy shtatdagi pedagog faoliyat yuritgan bo'lib, ularning 7 nafari fan nomzodi, dotsent, 10 ta fan nomzodi, katta o'qituvchi, 13 ta katta o'qituvchi, 25 ta assistent va o'qituvchilardan iborat edi. Fakultetda marksizm-leninizm, rus tili va chet tillar, oliy matematika, fizika va kimyo, umumiy texnika fanlari, chizma geometriya, mexanika kabi 7 ta kafedra faoliyat yuritgan [4; B. 13]. Ushbu yilda Umumtexnika fakultetining 56,0 kub metr hajmdagi 3735,0 ming rubl qiymatga ega o'quv-laboratoriya binosi qurilishi boshlangan. Shu yilning o'zida Buxoro shahridagi bir nechta ta'lim muassasalari uchun o'quv va yotoqxonalar binolarini qurib bergan Navoiy qurilish boshqarmasiga qarashli yettinchi qurilish montaj jamoasi quruvchilari tomonidan Buxoro shahrida filial binosi qurilish ishlari boshlab yuboriladi. Muassasa binosi jami 2,5 gektar maydonni egallagan bo'lib, umumiy miqdori 3 mln. rublni tashkil etgan [8; B. 78-80].

1972-yil 28-iyuldagi SSSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 30-son qarori va O'zbekiston SSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 1972-yil 6- oktabrdagi 493-son hamda Toshkent politexnika instituti rektorining 1972-yil 17- oktabrdagi 175-son buyrug'iga ko'ra Toshkent Politexnika institutining Buxorodagi kechki filiali tashkil etilgan. Filialning direktori etib taniqli olim, professor Raxmatov Muxtor Ne'matovich tayinlandi. Arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga ko'ra filial tarkibida 2 ta fakultet faoliyat yuritgan. Qurilish fakulteti dekani lavozimiga texnika fanlari nomzodi, dotsent A. B. Kuzanov va Umumtexnika fakulteti dekani

## HISTORY

qilib texnika fanlari nomzodi O. X. Xamidov tayinlangan. O'zbekiston SSR Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 1972-yil 10-maydagi 262-son buyrug'ida Buxoro viloyatida xalq xo'jaligi tarmoqlarining jadal suratda o'sishi munosabati bilan muhandislarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi natijasida Navoiy, Zarafshon va Uchquduqda o'quv-maslahat bo'limlari tashkil qilinadi. Mintaqada soha mutaxassislariga bo'lgan talabning o'sishi tufayli qurilish, mexanika, energetika, kimyo-texnologiya fakultetlari va to'qimachilik hamda tog'-metallurgiya bo'limlari faoliyatini yo'lga qo'yish borasida ko'rsatmalar berilgan. 1972-yil 1-fevral holatiga fakultet talabalarining umumiy soni 2244 nafarni tashkil etgan bo'lib, tayyorlov bo'limida 350 nafar yoshlar tahsil olgan [9; B. 250-256].

Filial direktori professor M.Rahmatovning 1973-yil 8-maydagi hisobotida viloyatda paxta tozalash, ipakchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarining tez suratda o'sishi va Buxoro shahrida yirik sanoat korxonasi hisoblangan paxta zavodining qurilishi munosabati bilan kerakli kadrlarni tayyorlash maqsadida 1974-1975-o'quv yilidan tolali matolarni birlamchi qayta ishlash mutaxassisligi 3-bosqich talabalarining bir qismiga o'qishni Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutiga ko'chirishga ruxsat beriladi. 1973-yil o'quv jarayonining to'rtinchi choragida muassasada jami 2074 nafar, shundan qurilish fakultetida 5 ta mutaxassislik bo'yicha 1221 ta, umumtexnika fakultetida esa 8 ta yo'nalish bo'yicha 853 talaba ta'lim olganligi institut hujjatlarida berilgan. Muassasada avtomobil transporti, elektr tarmoqlari va tizimlari, qishloq xo'jalik mashinalari, neft va gaz konlarini qidirish kabi mutaxassisliklar bo'yicha 850 dan ortiq talaba ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qishni davom ettirgan. Uchinchi kursni tugatib, o'z mutaxassisliklari bo'yicha o'qishni Toshkent politexnika instituti, Toshkent avtomobil yo'llar instituti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida davom ettirganlar [6; B. 57].

1974-yilda Buxoro viloyatida rivojlanib borayotgan ishlab chiqarish korxonlari talablariga ko'ra 1990-yilgacha filialda 25 mingdan ortiq muhandis mutaxassislar tayyorlash rejasi qabul qilingan. Jumladan, 8000 dan ortiq quruvchi, 5000 dan ortiq mexanik va energetik, 4000 dan ortiq kimyo-texnolog, 3000 ga yaqin oziq-ovqat mahsulotlari texnologlarini tayyorlash belgilangan. Ko'rsatilgan davrda mintaqadagi Buxoro-Kogon va Navoiy-Qiziltepa sanoat hududlaridagi ishlab-chiqarishning keskin o'sishi va yangi tashkil qilinayotgan G'ijduvon-Qiziltepa, Qorako'l-Olot sanoat markazlari, Navoiy elektrokombinati va Buxoro paxta zavodining qurilishi tugallanishi belgilangan. Mutaxassislariga bo'lgan talabning oshishi munosabati bilan filial qoshida Buxoro, Qashqaryo, Surxondaryo, Xorazm, Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasidan jalb etilgan 300 kishilik kunduzgi tayyorlov bo'limlari tashkil qilinib, ularga qat'iy talablar asosida qabul qilingan.

1975-yilda esa 674 o'rinlik 31,4 ming kub metr hajmdagi 1805,0 ming rublga talabalar yotoqxonasi, 1976-yilda esa 12,5 kub metr hajmdagi 1363,9 ming rubllik qiymatdagi o'quv binosi va pedagoglar uchun 432 ming rublga turar joylar qurilishi boshlanganligi arxiv hujjatlarida qayd etib o'tilgan [3; B. 2]. 1974-1975-o'quv yilida 361 nafar, 1975-1976-yilda esa 255 nafar talaba turli sabablarga ko'ra talabalar safidan chiqarilgan. Bu umumiy kontingentning 11 foizini tashkil qilgan. Arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga ko'ra 1976-1977-o'quv yilidan ilk bor filialning 1205-SXS, 1219-qurilish, 0577-Mashinasozlik ixtisosliklari kunduzgi ta'lim tizimiga o'tkazilgan. Bu davrda muassasada 3 ta fakultet va kechki hamda kunduzgi tayyorlov guruhlari faoliyat yuritgan bo'lib, umumiy kontingent 3016 kishini tashkil qilgan. Shundan kechki qurilish fakultetida 1444, umumiy texnika fakultetida 922, kunduzgi fakultetda 200, 1205-SXS bo'limida 100, 1219-muhandis-quruvchilar tayyorlovchi bo'limda 50, 0577-muhandis mashinasozlik bo'limida 50 ta, kunduzgi tayyorlov guruhida 300 ta va kechki tayyorlov guruhida esa 150 talaba ta'lim olgan. Kechki fakultetlarda jami 668 nafar qizlar ta'lim olgan va ularning 75,5 foizi mahalliy aholi vakillari tashkil qilgan. Ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra talabalarining 54 foizi ishchi, 22 foizi kolxozchi, 26 foizini xizmatchi oilasining farzandlari tashkil qilgan. Muassasada 20 dan ortiq millat vakillari ta'lim olib, ularning 5 nafari bolgar quruvchilari bo'lganligi hujjatlarda qayd etilgan.

Filial faoliyati o'tgan 10 yil ichida sezilarli darajada kengayib borganligini viloyat arxivi hujjatlarida batafsil ko'rish mumkin. Agar 1968-yilda 40 kishilik tarkibga ega 1 ta kafedra mavjud bo'lgan bo'lsa, 1976-1977-o'quv yiliga kelib muassasada tashkil qilingan kafedralarning soni 12 taga yetgan. Professor-o'qituvchilar soni esa 129 nafarni tashkil qilgan. Ulardan 1 nafari professor, 10 tasi dotsent, 20 nafari fan nomzodi, 44 tasi katta o'qituvchi, 46 tasi assistent, 28 tasi o'qituvchilar bo'lganligi hisobotlarda ask etgan. Shuningdek, filialda 89 xodim faoliyat yuritgan. Kafedralar qoshida 450 ming qiymatdagi zamonaviy jihozlarga ega 86 ta o'quv-laboratoriyalari faoliyat ko'rsatgan. 1977-yilda Toshkent politexnika instituti tomonidan Buxoro filialiga 10 nafar bitiruvchilar ishga taqsimlangan.

1977-yilning avgustida SSSR Ministrlar Soveti tomonidan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent politexnika institutining Buxoro shahridagi filiali negizida oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutini tashkil qilish to'g'risidagi qaror qabul qilingan. Qaror asosida shu yilning 31-avgustida Toshkent politexnika institutining Buxorodagi kechki filiali negizida viloyatda oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti

## HISTORY

tashkil qilinadi. Institut tarkibida 19 ta kafedra, “Umumtexnika”, “Qurilish”, “Muhandis-pedagog” fakultetlari hamda kunduzgi tayyorlov kursi faoliyat yuritdi [2; B. 3].

1977-yil 1-sentabrigacha filialning o‘quv-laboratoriya binosi, xodimlar uchun 100 ta turar joylarning qurilishini tugatish masalasi ko‘rib chiqildi. 1977-yil 25-martdagi filial faoliyati to‘g‘risidagi O‘zbekiston SSR oliy ta‘lim Kollegiyasiga berilgan hisobotda muassasadagi o‘quv-tarbiyaviy jarayonda jami 119 nafar pedagog faoliyat olib borayotganligi, shundan 34 nafari ilmiy darajaga ega ekanligini arxiv hujjatlarida ko‘rish mumkin. 1977-yil 1 yanvar holatida filialda 2191 ta talaba tahsil olib, 200 nafari kunduzgi ta‘limga jalb qilingan.

1978-yilning birinchi sentabridan boshlab institut o‘z faoliyatini boshladi. Oliyog‘ning rektori etib O‘zSSR FA akademigi Nusrat A‘zamovich Parpiyev tayinlanadi. Uning bevosita rahbarligida institut o‘qituvchilari orasidan o‘nlab fan nomzodlari va doktorlar yetishib chiqdi.

1979-yildan boshlab institutda o‘qitishning uch shakli: kunduzgi, kechki, sirtqi o‘qitish tartiblari joriy etilgan. Institutning Oziq-ovqat sanoati texnologiyasi, Yengil sanoat texnologiyasi fakultetlari bilan bir qatorda o‘quv bo‘limi ham tashkil etilib, o‘quv jarayoni takomillashib bordi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishda faqat uni ishlab chiqarish talablariga javob beribgina qolmay, balki fundamental fanlar taraqqiyotini ta‘min etishga ham e‘tibor qaratildi.

XX asrning 80-yillarida ham mamlakatning sanoat taraqqiyoti yo‘lida zarur kadrlarni tayyorlash masalasi hukumatning kun tartibidagi asosiy yo‘nalish bo‘lib qolgan edi. Oliyog‘ bu davrda ham respublika sanoati uchun oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tayyorlab berishda yetakchilik qilgan. Oliyog‘ qabul komissiyasi tomonidan 1984-yil 13-mayda Olot tumanidagi Pushkin hamda Qorako‘l tumanidagi Kirov nomli maktablarda matematika, fizika, kimyo, ona tili, rus tili fanlaridan og‘zaki va yozma turda sinov imtihonlari tashkil etilgan. Institutga qabul haqidagi e‘lonlar shu yilning iyunida o‘zbek va rus tillarida “Buxoro haqiqati”, “Советская Бухара”, “Джизакская правда”, “Советская каракалпакия” kabi davriy matbuot sahifalarida berilgan. Arxiv hujjatlarida, 1984-yil 1-sentabr holatida barcha ta‘lim yo‘nalishlarida 4916 ta, shundan kunduzgi jarayonda esa 2372 nafar talaba tahsil olgan. 1985-yil 1-sentabridan 1987-yilning 1-yanvarigacha institut professor-o‘qituvchilari boshqa respublikalardagi 27 ta oliyog‘da ilmiy stajirovkalarda bo‘lib, ko‘p tomonlama faol aloqalar olib borganliklari institut hujjatlarida aks etgan. 1986-yilda esa jami 328 nafar tarkibga ega bo‘lib, katta o‘qituvchilar 112 ta, 145 nafar assistent-o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatgan.

Buxoro viloyat davlat arxivining institut faoliyati aks etgan hujjatlarida muassasadagi mavjud kafedralar faoliyati ham aks etgan bo‘lib, asosan hisobotlarda ular haqida to‘liq ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Kafedra qoshida 12 ta o‘quv-ishlab chiqarish laboratoriyasi faoliyat olib borganligi hujjatlarda o‘z ifodasini topgan. Buxoro to‘qimachilik kombinati, Buxoro poyabzal fabrikasi, BPSHO, Qorako‘l zavodi, Buxoro zardo‘zlik fabrikalari bilan hamkorlikda mamlakat sanoat korxonalarini uchun kerakli kadrlar tayyorlangan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida institut faoliyati mohiyatan o‘zgarman. 1996-yilda institut respublikada birinchilardan bo‘lib Davlat attestatsiyasidan o‘tkazilgan. Institutda 8 ta yo‘nalish bo‘yicha 235 ta bakalavr va 2001-yilda 12 ta yo‘nalish bo‘yicha magistrlar tayyorlangan. Oliyog‘ tarkibida 6 ta fakultet, 31 ta kafedra, maxsus sirtqi, magistratura va aspirantura bo‘limlari faoliyat yuritgan. 2000-yilda institutni 15 ta ixtisoslik bo‘yicha 477 nafar mutaxassis tugatgan. 2001-yilga qadar oliyog‘ni jami 12 mingdan ortiq talaba tamomlab, o‘z sohasida faoliyat boshlagan. Institut hujjatlarida qayd etilishicha, bu davrda turli yo‘nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar hisobiga ilmiy salohiyat foizi ko‘tarilib, muassasadagi 282 nafar professor-o‘qituvchining 20 nafarini fan doktori, professorlar, 178 nafari fan nomzodi, dotsentlar tashkil qilganligi hisobotlarda qayd etilgan. Bundan tashqari oliyog‘da aspirantura, magistratura, 198 mingdan ortiq asarga ega kutubxona hamda institut tarixi muzeyi faoliyat ko‘rsatgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2011-yil 20-maydagi PQ-1533-son qarorini bajarish yuzasidan, bozor iqtisodiyotining zamonaviy talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yanada takomillashtirish, shuningdek, respublika ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlarining yuqori texnologiyalar sohasidagi kadrlar resurs bazasini mustahkamlash maqsadida institut faoliyatida yangi islohotlar amalga oshiriladi.

2011-yil 25-iyulda Vazirlar mahkamasining Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya institutini “Buxoro yuqori texnologiyalar muhandislik-texnika institutiga aylantirish” to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim Vazirligining 2011-yil 29-iyuldagi 320-sonli buyrug‘iga asosan oliyog‘ “Buxoro yuqori texnologiyalar muhandislik-texnika instituti”ga aylantirildi. Hukumat qarori asosida institut oldiga neft-gaz, to‘qimachilik va yengil sanoat tarmoqlari uchun texnologik mashina va asbob-uskunalar, neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi, tyexnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarish, radioelektron

## HISTORY

asbob-uskunalar va tizimlar yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, zamonaviy ilmiy-tadqiqot bazasini shakllantirish kabi asosiy vazifalar qo‘yilad

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 15-apreldagi PP-1954-son “Buxoro muhandislik-texnologiya institutini tashkil etish to‘g‘risidagi” Qarori asosida Buxoro yuqori texnologiyalar muhandislik instituti bazasida Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tashkil qilingan [7; B. 420]. 2014-2015-o‘quv yilida bakalavriat bosqichida 5097 nafar, magistratura bosqichida esa 150 nafar talaba tahsil olgan.

**Xulosa.** Bugungi kunda Buxoro viloyat davlat arxivining 1362 hamda 1404-fondlarida institut tarixi va faoliyati aks etgan hukumat qarorlari, bo‘lim va kafedralarning yig‘ilish hisobotlari, ilmiy kengash bayonnomalari, asosiy faoliyat bo‘yicha buyruqlar, shtatlar jadvali, yillik buxgalteriya hisobotlari, talabalar qabuli va o‘qishni ko‘chirish to‘g‘risidagi buyruqlar, shaxsiy anketa kabi hujjatlar saqlanmoqda. Ushbu hujjatlardan Buxoroda oliy ma‘lumotli muhandis kadrlarni tayyorlashdagi muammo va yechimlar, oliygohda faoliyat yuritgan professor-o‘qituvchilar, o‘quv jarayonini tashkil etish yo‘lida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar olish mumkin.

### ADABIYOTLAR:

1. Хожиев М. Мастонов К. Бухоро озиқ-овқат ва энгил саноат технологияси институтининг ўтмиши, бугуни, эртаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 7.
2. Buxoro viloyat davlat arxivi (Keyingi o‘rinlarda BVDA) 1362-fond, 1-ro‘yxat, 2-yig‘majild, 3-varaq.
3. BVDA, 1362-fond, 1-ro‘yxat, 1-yig‘majild, 9-varaq.
4. BVDA, 1362-fond, 1-ro‘yxat, 9-yig‘majild, 2-varaq.
5. BVDA, 1362-fond, 1-ro‘yxat, 13-yig‘majild.
6. Buxoro muhandislik texnologiya instituti joriy arxivi. – Buxoro, 1970. – B.17.
7. BVDA, 1362-fond, 1-ro‘yxat, 41-yig‘majild, 57-varaq.
8. Ражабов Қ. Иноятов С. Бухоро тарихи. – Тошкент: Тафаккур, 2016. - Б. 420.
9. Murodova D. Ta‘lim muassasalari faoliyatiga doir Buxoro viloyati davlat arxivi fondlariga tavsif. //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 6. – №. 2.
10. Murodova D. Buxoro viloyati davlat arxivi fondlarida lotinlashtirish masalalari //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
11. Shomurodovna M. D. History of Educational Institutions Relocated to Bukhara During the Second World War //Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2021. – Т. 2. – №. 8. – С. 34-38.

### AMIR TEMUR TASHQI SIYOSATIDA XALQARO SAVDO ALOQALARI OMILI

*Qurbonov O'ktam Rajabovich,*

*Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti katta o'qituvchisi*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada buyuk o'zbek davlatchiligida muhim iz qoldirgan, bobakalonimiz davlat arbobi va sarkarda Amir Temurning g'arb mamlakatlari bilan olib borgan siyosati va diplomatiyasining nozik usullari mahalliy va xorijiy Temurshunoslarning fundamental asarlari asosida ichib berilgan.

*Kalit so'zlar:* Amir Temur, geosiyosat, diplomatiya, savdo-sotiq, g'arb davlatlari, elchilik.

### ФАКТОР МЕЖДУНАРОДНЫХ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ АМИРА ТЕМУРА

*Аннотация.* В данной статье на основе фундаментальных трудов местных деятелей представлены тонкие методы политики и дипломатии нашего деда, государственного деятеля и генерала Амира Темура, оставившего важный след в великой узбекской государственности, с западными странами. и зарубежные учёные Темура.

*Ключевые слова:* Амир Темура, геополитика, дипломатия, торговля, западные страны, посольство.

### THE FACTOR OF INTERNATIONAL TRADE RELATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF AMIR TEMUR

*Annotation.* In this article, the subtle methods of the politics and diplomacy of our grandfather, the statesman and general Amir Temur, who left an important mark on the great Uzbek statehood, with the western countries, are presented on the basis of the fundamental works of local and foreign Temur scholars.

*Key words:* Amir Temur, geopolitics, diplomacy, trade, western countries, embassy.

**Kirish.** Diplomatiya va diplomatiya so'zlari grekcha «Diploma» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, davlatlar tashqi siyosatini konkret shart-sharoitga va masala xarakteriga mos ravishda amaliy noxarbiy tadbirlar, metod va usullar yordamida olib borishni anglatadi. Diplomatiya tushunchasi tashqi muzokoralar olib borish san'ati bo'lib, xalqaro konfliktlarning oldini olish, ularni yo'lga solish, kelishuvchanlik va o'zaro muvofiqlashtirish yo'llarini qidirish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish bilan bog'liqdir.

Davlatlarning tashqi siyosati yo'nalishlarini belgilashda geosiyosiy omillar sezilarli ta'sir kuchiga ega. Har bir mamlakat geosiyosiy omillarga tayanib o'zining uzoq va yaqin kelajakda amalga oshirilishi zarur bo'lgan asosiy maqsad va vazifalarni belgilaydi. Xalqaro maydonda davlatlar geostrategiyasini belgilovchi geosiyosiy omillar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

-Geografik (hududiy joylashuv, dengizga yaqinligi, iqlimi, tabiat resurslari, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish uchun zarur shart-sharoit, transport kommunikatsiyalari va hokazo);

-Siyosiy (siyosiy tuzumi, davlat chegaralari, siyosiy kuchlar joylashuvi, asosiy erkinliklarning mavjudligi, siyosiy barqarorlik, adolatli tashqi siyosat va hokazo);

-Iqtisodiy(ishlab chiqaruvchi kuchlarning tarkibi, aholining turmush darajasi, strategik zahiralari) qudrati;

-Harbiy( qudratli qurolli kuchlarning mavjudligi, harbiy tayyorgarligi, harbiy kadrlarning tayyorgarlik holati);

-Demografik( Aholi soni, o'sish sur'ati, zichligi va tarkibi);

-Madaniy-marifiy ( konfessiyalar, millat va elatlar, mehnat an'analari, ilm fan, ta'lim, sog'likni saqlashning rivojlanganligi va boshqalar);

-Ekologik.

**Asosiy qism.** Mamlakatlarning geosiyosiy omillari buyuk sarkarda Amir Temur geosiyosatida ham markaziy o'rin egallagan. Sohibqiron Amir Temur o'z davlatining geosiyosiy manfaatlari va maqsadlarini belgilashda mazkur omillarga jiddiy e'tibor qaratgan. U xalqaro savdo aloqalarini yo'lga qo'yishda mamlakatlar hududiy joylashuvi va ko'rsatkichlari va aholining turmush tarzi, xalqlarning urf-odatlarini, davlat hukmdorlarining o'z fuqarolariga munosabatlari, shuningdek, Amir Temurga bo'lgan munosabatlari, siyosiy

## HISTORY

barqarorlik bilan bog'liq ma'lumotlarni sinchiklab o'rgangan. Xorijiy davlatlar to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni u ming kishilik yengil bo'linmalar vositasida to'plagan. Agar bu ma'lumotlar ham yetarli bo'lmasa u davlatlarga elchilarni yuborib, ular orqali oziga zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plagan. To'plangan ma'lumotlar mamlakat xavsizlik tizimini yaratishda va uning geosiyosiy yuksalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan. "Temur tuzuklari"da bu haqida quyidagilarni o'qiyamiz: "Har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinlanadiki, qayerga borishmasin, Xitoy, Xo'tan, Chinumochin, Hindiston, arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rum, Jazoir, Farangiston, u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfaridan keltirishsin. O'sha mamlakatlarda yashovchi kishilarning hol-ahvoli, turish-turmushlari haqida menga xabar olib kelsinlar. Har bir mamlakat hukmdorining o'z raiyatiga qanday muomilayu munosabatda ekanligini aniqlasinlar"[1,67]. U savdo-sotiqning rivoji raiyatning faravonligi va mamlakatning obodligiga xizmat qilishini takidlardi hammavaqt. Shuning uchun ham uning geosiyosatida savdo karvoni yo'llari ustidan nazorat o'rnatish va savdogarlar hech qanday to'siqlarsiz harakat qiladigan yangi yo'llarni ochish eng asosiy maqsad qilib belgilangan

Buyuk sarkarda Amir Temur geostrategiyasida davlatlar aro aloqalar ayniqsa, savdo aloqalarini rivojlantirish orqali mintaqa xalqlarining mushtarak manfaatlariga xizmat qiladigan yagona iqtisodiy makon yaratish, xalqaro iqtisodiy tartibotni adolatli shakllantirish muhim o'rin egallagan deb aytish mumkin. Buyuk jahongir Xitoy va Hindistondan O'rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yo'nalgan asosiy xalqro savdo yo'li -"Buyuk Ipak yo'li"ni nazorat qilib, Sharq va G'arb o'rtasida savdo sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g'oyat katta e'tibor beradi.

Amir Temur davrida mamlakat G'arb va Sharq mintaqalarida o'zining geosiyosiy manfaatlarini taminlashga qodir bo'lgan davlatga aylangan yoki xalqaro geosiyosiy kuchlarning yirik markaziga aylangan. Sohibqiron tomonidan 27 mamlakatni o'z nazorati ostiga olganligi xalqaro savdo aloqalarini har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratdi.

Bizning fikrimizcha, Amir Temurning harbiy yurishlari bilan bo'g'liq faoliyati teranroq talqin etilib, unga baho beriladigan bo'lsa, shuni aytish mumkinki, u o'rta asrlar sharoitida xalqlarning irqi, millati, dini va kelib chiqishidan qat'iy nazar bir butun hududda ya'ni "yagona iqtisodiy makon"da yashashlari mumkinligi to'g'risidagi g'oyani ilk tashabbuskori bo'lgan. U mamlakatning taraqqiy etishi uchun savdoning foydali ekanligini yaxshi anglagan. Shu bois ham savdo-sotiqqa, ayniqsa xorijiy mamlakatlar bilan olib boriladigan savdo-sotiqqa mamlakat geosiyosatining asosiy yo'nalishi sifatida qaragan.

Sohibqiron tomonidan olib borilgan harbiy yurishlar savdoning keng quloqch yoyishiga, uning umumsayyoraviy miqyosda shakllanib borishiga qulay shart-sharoit yaratish maqsadini ko'zlagan desak xato qilmaymiz. Chunki harbiy yurishlar olib borilgan mamlakatlarda ro'y bergan o'zaro urushlar, feodal tarqoqlik, bosh-boshdoqlik Amir Temur davlati geosiyosiy manfaatlariga g'ov bo'layotgan, shuningdek, savdo aloqalarining rivojlanishiga, uzoq va yaqin sharq xalqlari mamlakatlarining bir birlari bilan yaqinlashishiga to'sqinlik qilayotgan edi.

Amir Temur geostrategik maqsadlarga savdo karvon yo'llarining xafvsizligini ta'minlamasdan turib erishish mumkin emasligini yaxshi tushunardi. Shu sababli bu masalaga jiddiy e'tibor qaratgan. Bu haqda Sohibqiron bilan qizg'in suxbatlari ta'sirida qimmatli memuar xotiralar yozib qoldirgan Sultoniyanning nasroniy yepiskobi shunday deb yozadi: "Saltanati poyonsiz: tasarrufidagi hududning bir uchidan ikkinchi uchiga borish uchun sayyoh bir yil yurishi lozim bo'ladi. Mana shu masofalarda xafvsizlik to'liq ta'minlangan. Oddiy yo'lovchilardan tortib savdo karvonlarigacha shu yo'llar bo'ylab erkin harkat qilishadi. Mobodo biror-bir hududda qaroqchilar bosqini yoki talonchilik sodir bo'lsa, Amir Temur birinchi galda o'sha hududning mahalliy hokimlarini qatl ettiradi. Chunki Temurbekning fikricha, toki mahalliy hukmdor qaroqchilar bilan til biriktirmasa, vazifasini vijdonan, halol ado etsa- hech qanday to'da katta yo'llarda qaroqchilik qilishga jur'at etmaydi.[2,15]

Amir Temur geosiyosatida Yevropa omili juda muhim ahamiyat kasb etgan. Maskur yo'nalishda Yevropa mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli va ikki tomon uchun foydali savdo aloqalari maqsadini ko'zlab, Yevropa va Osiyoni bog'lashga xizmat qiladigan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Dastlab, shu yo'nalishdagi geostrategik maqsadni ko'zlab Oltin O'rdaga zarba berib, 1395-yilda uni tor-mor qildi va poytaxti Saroy Berka orqali o'tadigan karvon yo'lini Movarounnahr shaharlari: O'tror, Toshkent, Samarqand, va Buxoro orqali Balx, Hirot va Sultoniya tomon burib yuboradi.

Amir Temurning Yevropa davlatlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari va elchilik qatnovi uning g'arbgaga - Turkiya ustiga yurish munosabati bilan boshlanib, ulardan asosan Boyazidga qarshi birgalikda kurashish rejalari ko'zda tutiladi. Shuningdek, uning geosiyosatida Boyazid ustidan g'alaba qozonish unga Usmonli davlati qo'lida bo'lgan Egey v Qora dengizlarni tutashtiruvchi bo'g'ozlar orqali Yevropa davlatlari bilan savdo munosabatlarini rivojlantirish uchun ham muhim edi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Amir

## HISTORY

Temurning Boyazid Yeldirim ustidan qozonilgan g'alabasiga guvoh bo'lgan xorijlik diplomatlar orasida Kastiliya va Lion qiroli Enrike III tomonidan Amir Temur huzuriga yuborilgan elchilar Payo de Sato Mayor va Ernán Sanches de Palasuelos ham bor bo'lgan. Jangdan so'ng Amir Temur elchilarni qabul qiladi, ulardan Kastiliya va Lion qirolining ahvoli haqida surishtiradi. Elchilar Enrike III ning mol-mulki va kuch qudratini ko'klarga ko'tarishgan va uning Amir Temur bilan do'stona aloqalar o'rnatish niyyatida ekanligini ma'lum qilishgan. Elchilarning vataniga qaytish payti kelganda esa, Sohibqiron ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida ular bilan birga o'zining qobiliyatli beklaridan bo'lgan Muhammad Keshiyini ham maktub va sovg'alar bilan Kastiliyaga elchi qilib jo'natadi[3,14]. Maktubda u dinidan, e'tiqodidan qat'iy nazar Kastilia qiroli bilan do'stona munosabatlar tarafdori ekanligini bildirgan. Keshiy u yerga eson-omon yetib borib, maktub va sovg'alarni qirol Enrike III ga topshiradi. U qirol huzurida katta hurmat bilan kutib olinadi. Musulmon diplomatlar orasida faqat Muhammad Keshiygina Yevropaga borishga muayassar bo'lgan. Bu ham uning Yevropa tillaridan birini bilganidan dalolat beradi.

Enrike III Amir Temur davlati bilan savdo aloqalarini har tomonlama rivojlantirish uchun Samarqandga Rui Gonsales de Klavixoni elchi lavozimiga tayinlaydi. Klavixo 1404-yilda Samarqandga yetib keladi va u Amir Temur tomonidan iliq qabul qilinganligi tarixdan ma'lum.

Rui Gonsales de Klavixoni kundaliklarini taxlil etish shuni ko'rsatadiki u bu yerga faqat elchilik vazifasini bajarishgina emas, balki Kastilia bilan Amir Temur davlati o'rtasida sado aloqalarini kengaytirish maqsadida, Samarqanddagi mollar narxi, keyinchalik Kastiliadan keltirishi mumkin bo'lgan va mahalliy savdogarlarni qiziqtirgan maxsulot turlarini aniqlashni ham maqsad qilib olgan edi.

Turk qo'shinlari ustidan qozonilgan g'alabalardan so'ng Amir Temurning G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan elchilik, o'zaro savdo-sotiq aloqalari hamda do'stona munosabatlari yanada mustahkamlana bordi. G'arbiy Yevropada Amir Temur haqidagi dastlabki ma'lumotlar Qora dengiz badargohlarida faoliyat ko'rsatgan venetsiyalik va genuyalik savdogarlar orqali yetib borgan. Uning saltanati shuhrati bu mamlakatlarga yetib borishi bilan Frantsiya, Angliya, Genuya, Vizantiya, Ispaniya kabi davlatlarning qirollari Amir Temur bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarni o'rnatishga intilganlar. Amir Temur davlatining tabiiy, iqtisodiy, harbiy, va madaniy salohiyati uni G'arb va Sharqni o'zaro bog'lab turgan makon sifatidagi imkoniyatlari geosiyosiy jihatdan ular uchun ham manfaatli edi.

Sohibqiron Kastiliya qirolligidan tashqari Frantsiya qiroli Karl IV, Angliya qiroli Genrix IV saroylariga o'z elchilarini yuboradi va ispaniyalik, frantsiyalik, angliyalik, rusiyalik va boshqa mamlakatlar elchilarini o'z saltanatida qabul qiladi.

Fransiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish masalasiga u mamlakat geosiyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaragan. U o'z qo'li bilan yozgan estaliklarida quyidagilarni yozadi: "Sultoniya katolikosi xuzurimga borib, agar faranglar mamlakati bilan savdo aloqalarini yo'lga qoysam, juda katta manfaat ko'rishim mumkinligi haqida maslaxat solgan edi. Shuningdek, u faranglar mamlakatida ko'pgina yaxshi narsalar ishlab chiqarilishini, xususan mo'yna va chinni buyumlari Xitoynikidan a'lo ekanini so'zlab bergan edi." [2,528] Estaliklarida u shuningdek, farang tilini biladigan odamlar bo'lgani bois, unig nomidan faranglar mamlakati qiroliga noma yozib berishlarini so'raganini va maktubni Sultoniya katolikosi (Jan)ga berib, shaxsan qirolning o'ziga topshirishini tayinlaganini ta'kidlaydi. Yepiskob Jan qirol Karl VI huzurida o'zini Amir Temurning elchisi sifatida tanishtiradi va uning maktubini qirolga topshiradi.

Buyuk ajdodimizning Frantsiya qiroli Karl IV ga e'zgan xatidagi quyidagi fikri diqqatga sazovordir: "Siz o'z savdogarlaringizni mening mening saltanatimga yuboring. Biz ularni iliq qarshi olib izzat-ikrom ko'rsatamiz. Biz ham o'z savdogarlarimizni sizning yurtigingizga yo'llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko'rsating. Ularga ortiqcha tazyiqlar o'tkazilishiga yo'l qo'ymang. Sizga bundan bo'lak talabimiz yo'q. Zero, dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak." [4,53]. Shu bilan bir qatorda Jan Karl VI va Fransiyaning beshta- Berri, Burgundiya, Orlean, Burbon va Bretaniya gersoglari hamda ko'plab boshqa yuqori mansabli shaxslar huzurida nutq so'zlab, uning elchiligini nasroniy davlatga ikki qulay imkoniyat yaratishini ta'kidlaydi: birinchidan, bu elchilik ikkala din vakillariga ham o'zaro erkin savdo qilish imkoniyatini bersa; ikkinchidan, agar qirol va gersoglar rozi bo'lishsa bu qulayliklarni shartnoma yoki axdlashuv shaklida rasmiylashtirish mumkin bo'ladi. [5,14] Ko'rinib turibdiki, Buyuk sarkarda jahondagi barcha mamlakatlar bir-birlari bilan o'zaro manfaatli barqaror iqtisodiy munosabatlarga huquqiy tus berish orqali yashashgina rivojlanishning yuqori darajasiga erishishini anglab yetgan edi

Oradan bir necha kun o'tgach, Karl VI Sultoniya yepiskobining qo'liga Amir Temur uchun mo'ljallangan javob maktubini topshiradi. Ushbu maktubda qirol irqiy va diniy farqlar mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiqni yo'lga qo'yishga to'siq bo'lmasligini bildirib uning o'zi Fransiya keladigan tijoratchilarni o'z panohiga olishini hamda Amir Temurdan sharqqa tijorat ishlari bilan boradigan o'z fuqarolariga nisbatan xuddi shunday yo'l tutishini iltimos qilgan edi. [6,214]

## HISTORY

Fransiya qiroli Karl VI nomiga yozilgan shunday mazmundagi maktub Sohibqiron tomonidan Anglia qiroli Genrix IV nomiga ham yo'llanadi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan Amir Temur davlatining olib borgan diplomatik va savdo aloqalari asosan Mironshoh tasarrufidagi o'lkalar orqali amalga oshgan. Bu o'lkalarning G'arbiy chegaralari O'rta yer dengizi mamlakatlari bilan tutashgan edi. Amir Temur va uning o'g'li Mironshoxning Angliya qiroli Genrix IV bilan savdo iqtisodiy aloqalarini yo'lga qo'yish bilan bog'liq yozishmalari hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Qirol Genrix IV yuborgan ikkita xat bizgacha yetib kelgan. Ulardan biri Mironshohga va ikkinchisi Amir Temur nomiga yuborilgan. Bu maktublarning ikkalasi ham Angliya arxivida saqlanmoqda.

Mironshohga yuborilgan maktubda qirol ikki davlat o'rtasida savdo aloqalarini xar tomonlama kengaytirish lozimligini aloxida ta'kidlab o'tadi. Manbaalarda aytilishicha Genrix IV nig Amir Temurga yuborgan maktubi ham Jan (Ioann) orqali yetkazilgan. Maktubda Angliya qiroli Amir Temurni turk sultoni Boyazid Yildirim ustidan qozonilgan buyuk g'alaba bilan tabriklab, ikki davlat o'rtasida savdo aloqalarini yo'lga qoyishdan manfaatdor ekanligini ta'kidlab o'tgan: "Sizning ijozatingiz va marhamatingiz ila bundan keyin bizning savdogarlarimiz hududingizga mollarni olib borishlari va aksincha sizning savdogarlaringiz bizning hududda bizning marhamatimiz ila erkin savdo qilishlari mumkin." [7,19]. Ingliz qirolining Amir Temurga yuborgan maktubi Fransuz qiroli Karl VI ning maktubiga mazmunan bir-biriga o'xshash. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki ikala maktubning ham muallifi Jon (Ioann) bo'lgan.

Bu davrda Mironshoh Yevropa davlatlari bilan o'zaro savdo aloqalarini yuksaltirish maqsadida xristian ruhoniylariga xayroxohlik bildirib, savdogarlarning xavfsizligini ta'minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shu sababli g'arbda Mironshoh tez orada "Katolik dinining homiysi" sifatida shuhrat qozonadi. Ulug' Sohibqiron bir tomondan, - Xitoy, Hindiston, yana bir tomondan Frantsiya, Angliya, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatgan hamda shu munosabatlarni mustahkamlashga uringan.

Samarqand Temur davrida butun Osiyo savdosining mol ombori vazifasini o'tay boshladi. Bu yerga Hindistondan juda ko'p attorlik va bo'yoq mollari karvonlari, Xitoydan esa ipak gazlamalar, chinni kosalar, qadahlar, qimmatbaho toshlar kelib turardi. Mamlakatning shimol tomonidan noyyob po'stinlar kelar edi. Ushbu turli iqlimning mollari Samarqand bozorlarida Osiëning katta shaharlariga toy-toy boylanib va Buyuk ipak yo'li orqali Yevropaga jo'natilar edi. Savdogarlar bir yo'l bilan Xorazm, Astrobod, Nijniy-Novgorod, Moskva orqali Genza ko'liga borar edi. Ikkinchi Hirot - Qazvin - Tabriz - Trabzun yo'li bilan genuyaliklarning, venetsiyaliklarning, pizalikalarning savdo kemalariga tushib, Yevropaga yetardi. [8, 55]. Shu tariqa Amir Temur Yevropa va Osiëni bog'lagan hamda bu ikki qit'ani yagona geosiyosiy hududga aylantirish uchun ko'plab ishlarni amalga oshirgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur o'rta asr sharoitida mamlakatlar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, turli xalqlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, o'z saltanati istiqbolini ta'minlashning muhim garovi ekanligini teran anglagan edi. Uning geosiyosatida Yevropa mamlakatlari bilan xalqaro elchilik munosabatlari hududiy ekspansiyani ko'zlab emas balki, savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish hamda rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan. Uning tomonidan barpo etilgan mamlakat geosiyosatining asosiy yo'nalishlari o'zida mamlakat milliy manfaatlari aks etganligi bilan, shuningdek, unda geostrategik maqsadlar o'z ifodasini topganligi bilan ahamiyatlidir. Sohibqiron geosiyosatida savdo karvon yo'llarini rivojlantirish, uning xavfsizligini ta'minlash, Yevropa va Osiyo davlatlarining umumiy manfaatlariga xizmat qiladigan integratsiyalashuv jarayonlarini yanada kuchaytirish orqali Yevrosiyosiy geoiqtisodiy makonini yaratish g'oyalari asos bo'lib xizmat qilgan. Aynan Amir Temur davrida ikki qit'a xalqlari ilk bor o'zlarini bitta geosiyosiy maydonda yashayotganliklarini his etishgan.

### ADABIYOTLAR:

1. "Temur tuzuklari". -T.: Faqur Fulom nomiдаги наириёт-манбаа бирлашмаси. 1991. -Б-67.
2. Marsel Brion- "Menkim sohibqiron -jahongir Temur". T.: Sano-standart. 2018. -B.15-16.
3. Saidov A. "Amir Temur va Yevropa" // Milliy tiklanish. 2010. -№14. aprel.
4. Каримов И. Амир Темур ҳақида сўз. - Т.: O'zbekiston, 1996. - Б. 110
5. Эрматов Б. Амир Темур Фарбий Европа адиблари нигоҳида. Т.: Наврўз. 2019. -Б-14.
6. Люсен Керен. Амир Темур салтанати. Т.: Ўзбекистон. 2018. -Б-214.
7. Назаров Б, Тошмуродова С. Темурийлар даврида Англия билан ўзаро алоқалар // Современные научные решение актуальных проблем. Россия, Ростов на Дону. 2020/ октябрь. -С.19.
8. Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовороуннахр тарихи. -Т.: Г'афур Г'улом номидаги Адабиёт ва са'ат наириёти, 1990. -Б.92

**BUXORO VILOYATI MUZEYLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA  
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR****Boltayev Bobir Baxtiyorovich,***Buxoro davlat universiteti**Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi t.f.f.d (PhD)*

**Annotatsiya.** *Bu maqolada mustaqillik yillarida yurtimizda muzeyshunoslik tadqiqotlari borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar, bugungi kundagi yutuq va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari ochib berilgan. Erishilgan ko'pgina yutuqlar ortida hukumatimiz amalga oshirgan sa'y-harakatlarning ahamiyati, ayniqsa muzey xodimlari uchun Buxoro viloyati muzeylarida saqlanayotgan moddiy va madaniy merosimizni keng jahon ommasiga ko'rgazmalar orqali namoyish etish hamda turizm sohasini yanada rivojlantirish konsepsiyasi bo'yicha bir qator hukumat qarorlarining tahlili ham keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *muzey, muzeyshunoslik, kolleksiya, eksponat, investitsiya, konsepsiya, kompleks, memorial, tadqiqot.*

**СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УЛУЧШЕНИЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЕЕВ  
БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ**

**Аннотация.** *В данной статье раскрываются научные исследования, проводимые в нашей стране в годы независимости, достижения и пути преодоления недостатков. Значимость усилий нашего правительства лежит в основе многих достижений, особенно для музейных работников, ряда правительственных решений по концепции представления нашего материального и культурного наследия, хранящегося в музеях Бухарской области, мировой общественности посредством выставок и дальнейшего развития. также приводится анализ развития туристического сектора.*

**Ключевые слова:** *музей, музееведение, коллекция, экспонат, инвестиции, концепция, комплекс, мемориал, исследования.*

**MODERN APPROACHES TO IMPROVING THE ACTIVITY OF MUSEUMS OF  
BUKHARA REGION**

**Abstract.** *This article reveals scientific research conducted in our country during the years of independence, achievements and ways to overcome shortcomings. The significance of the efforts of our government underlies many achievements, especially for museum workers, a number of government decisions on the concept of presenting our material and cultural heritage stored in the museums of the Bukhara region to the world community through exhibitions and further development. An analysis of the development of the tourism sector is also provided.*

**Keywords:** *museum, museology, collection, exhibit, investment, concept, complex, memorial, research.*

**Kirish.** Yurtimizning uzoq uch ming yillik tarixi shundan dalolat beradiki, har doim ham o'zbek yurti o'zining betakror iqtisodiy salohiyati bilan tabiiy ravishda ko'plarni o'ziga jalb qilib kelgan. Keyingi bir yarim asr mobaynida xalqimiz o'zining behisob iqtisodiy-moddiy, madaniy-ma'rifiy boyliklaridan judo bo'lgan edi. Biroq mazkur tazyiqlarga, yo'qotishlarga qaramasdan, o'zbek xalqi asl o'zligini saqlab qola bilganligiga ham tarix guvohlik beradi[1]. Istiqloq sharofati bilan o'zbek xalqining asrlar davomida butun sivilizatsiya rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasi muzey eksponatlari namoyishida o'zining aksini topdi[2]. Darhaqiqat, zamon taqozosi bilan muzey va muzeyshunoslik sohasi rivojlanish taraqqiyotining yangi pag'onasiga ko'tarilganligini davrning o'zi isbotlab turibdi. Demak, muzeyshunoslik-jamiyatning ta'sir doirasidagi ma'rifat, ta'lim, tarbiya hamda madaniyatning umumlashgan rivojlanish bosqichini o'tovchi sohasidir. Muzeylarni davr talabidan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish, ularning qiyofasini, ekspozitsiyasini xalqaro standartlarga moslashtirish, fondlarini boyitish, ashyolarini ilmiy o'rganish, asrab-avaylash, Zamonaviy muzey ishini takomillashtirishning eng asosiy omillaridan biri bu-kadrlar tayyorlash, muzey xodimlarining zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi hamda maxsus, dastur yaratilishi yoki sotib olinishidan iboratdir[3]. Muzeylar nufuzini oshirish, ularni zamonaviy talablar darajasida jihozlash, tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun yangi usullarni tashkil etish, ilgari namoyish etish imkoni bo'lmagan

muzeý fondlaridagi eksponatlarni namoyish etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur bo‘lib kelmoqda [4]. Yuqori texnologiyalarni, ekspozitsiyalarni namoyish etishdan tashqari, fond faoliyatiga ham joriy etish masalalari ishlab chiqilmoqda. Muzeý ijtimoiy vazifasiga ko‘ra ilmiy tadqiqot-ma‘rifat (muzeýlarning ko‘pchiligi asosan shu vazifani o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi, ularni ommaviy muzeýlar deb ham yuritishadi); tadqiqot (ilmiy-tadqiqot institutlari qoshida o‘ziga xos laboratoriya vazifasini o‘taydi) va o‘quv muzeýlariga, yo‘nalishi va kolleksiyalariga qarab tarmoq, o‘lkashunoslik (kompleks) va memorial muzeýlarga bo‘linadi. Tarmoq muzeý ishlab chiqarish, fan, san‘atning biror tarmog‘iga tegishli bo‘ladi (masalan, tarix muzeýlari, zoologiya muzeýlari). O‘lkashunoslik muzeýlari muayyan ma‘muriy hududning tarixi, tabiati, xo‘jaligi, san‘ati, etnografiyasi va boshqa sohaslarini kompleks aks ettiradi[5].

**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.** 2017-yil 31-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san‘at sohasini yanada takomillashtirish bo‘yicha muhim qarori qabul qilinganligi, ayniqsa, muzeý xodimlari uchun Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli “2017-2027-yillarda davlat muzeýlari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori katta ahamiyatga egaligini ta‘kidlab o‘tish joizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi PQ- 3022-son «Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Qarorini ijro etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi Qaroriga asosan:

1. 2018-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan davlat muzeýlari, ularning filial va bo‘limlari ro‘yxati shakllantirildi.

2. 2017-2027-yillarda davlat muzeýlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari dasturini bajarilishini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi tuzildi [6].

Davlat muzeýlarining ishlab chiqiladigan yangi konsepsiyalari, muzeý ashyolarini ishonchli saqlash, tashrif buyuruvchilar, xususan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, arxitektura-rejalashtirish, interyer, dizayn va landshaft yechimlariga e‘tibor qaratgan holda har bir muzeý binosining eskiz loyihasini muzeýning yo‘nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda tasdiqlandi [7].

Bunday muzeýlar faoliyatini takomillashtirish ichki va tashqi turizmning rivojlanishiga olib kelishini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagi nutqi orqali: “Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri, bu – turizmdir[8]. O‘zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanib, yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati Yunesko ro‘yxatiga kiritilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo‘lgan “kichik haj” dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to‘liq ishga solish lozim”, ta‘kidlab o‘tgan edi[9].

Respublikamizda muzeý va muzeýshunoslik sohasining rivojlanishida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bu qaror 2017-2027-yillarda davlat muzeýlari faoliyatini takomillashtirishga, muzeýlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, muzeýlar faoliyatini keng ommaga yoyishga zamin yaratdi. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash uchun quyidagi bir qator vazifalar belgilab berilganligini ko‘rish mumkin.Jumladan,

- “Virtual muzeý” ma‘lumotlar bazasini O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, viloyatlarning axborot-kutubxona markazlari, yirik sayyohlik kompaniyalarining Internet sahifalariga joylashtirishni amalga oshirish.

- Muzeý ashyolarini o‘z holicha saqlash, ular joylashgan xonada harorat, namlik va yorug‘lik ta‘sirini muntazam nazorat qilib boradigan jihozlarni bilan ta‘minlash.

- Muzeýlarda xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida videokuzatuv moslamalari, signalizatsiya tizimlarini yangilash va o‘rnatish, muzeýlarni bosqichma-bosqich hududiy jihatdan markaziy qo‘riqlash tizimiga ulash.

- Yangi quriladigan, rekonstruksiya yoki mukammal ta‘mirlanadigan davlat muzeýlari binolarini yangi konsepsiyalarini ishlab chiqish, tashrif buyuruvchilar, xususan, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, muzeýning yo‘nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda interyer, dizayn va landshaft yechimlariga e‘tibor qaratish.

Shu bilan bir qatorda ushbu qaror Buxoro muzeýlari faoliyatiga ham samarali ta‘sirini ko‘rsatdi. Buxoroda mavjud muzeýlarning faoliyati takomillashtirildi hamda «Buxoro davlat muzeý-qo‘riqxonasi» filiali sifatida Mutal Burxonov uy-muzeýini tashkil etish rejalashtirildi, Sadridin Ayniy hujra-muzeýi va Abdurauf Fitrat hujra-muzeýi Buxoro adabiyoti tarixi muzeýiga, Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeýi esa Boy savdogar xonadoni uy muzeýiga aylantirildi[10]. Fayzulla Xo‘jayev nomi bilan ochilgan uy-muzeýining nomini “Boy savdogar xonadoni” nomiga aylantirish xato ish edi. Shu sababli juda ko‘plab olimlar (S.I.Inoyatov,

H.H.To'rayev, Sh.A.Hayitov) bu boradagi e'tiroz va takliflarini rahbariyatga bayon qildilar. Oxir oqibat bu masala Prezident darajasida hal etildi va mazkur muzey 2022-yilda qayta Fayzulla Xo'jayev uy muzeyi deb nomlandi.

**Muhokama va natijalar.** Hukumatimiz rahbari 2018-yil 16-fevraldagi Buxoroga qilgan tashrifida viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirish konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishib chiqib, Buxoro o'zining betakror tarixiy obidalari, osori-atiqalari, asrlar osha davom etib kelayotgan milliy hunarmandchilik an'analari bilan yurtimiz turistik jozibadorligini oshirishda ulkan salohiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tdi. 2018-yilda viloyatda turizmni yanada rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq 61 loyihani hayotga tatbiq etish ko'zda tutilgan edi. Jumladan, 32 mehmonxona, 12 motel, 10 istirohat bog'i barpo etilib, "Buxoro Palas", "Varaxsha" va "Zarafshon" mehmonxonalari rekonstruksiya qilindi. Bundan tashqari, turizm bo'yicha xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi transport vositalari xarid qilish, madaniy meros obyektlarini tadbirkorlarga ijaraga berish, havo sharida sayohatni tashkil qilish, G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent va Jondor tumanlarida qishloq turizmini yo'lga qo'yish rejalashtirib o'tilgan edi. Shavkat Mirziyoyev eski shahar qismining turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari bilan tanishar ekan, ushbu hudud tom ma'noda Buxoroning yuragi bo'lishi kerakligini ta'kidladi va o'zining kerakli maslahatlarini berib o'tgan edilar[11].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovasion rivojlantirish to'g'risida»gi, 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, imkoniyati cheklangan shaxslar, maktab yoshidagi bolalar, keksa tashrif buyuruvchilar va ularga hamrohlik qiladigan shaxslarning muzeylarga tashrif buyurishlari uchun inklyuziv shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi muzeylarining inklyuzivligi dasturini tasdiqlash to'g'risida" hamda "2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risida" qarorlari qabul qilindi. Qaror ijrosini ta'minlash borasida qilingan ishlar natijasi sifatida muzeylar va ularga tutash hududlar infratuzilmasi takomillashtirildi, inklyuziv xizmat ko'rsatish amaliyoti joriy qilindi, inklyuzivlikni hisobga olgan holda muzey xodimlarini tayyorlash tizimi takomillashtirildi, inklyuzivlik hisobga olingan holda muzeylarning texnik aktivlari yangilandi hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish uchun muzeylarning ma'muriy tuzilmasini takomillashtirish, kolleksiyalarni boshqarish, eksponatlarni saqlash va konservasiya qilish tizimi takomillashtirildi. Qolaversa, ushbu qarorlar muzeylar huzurida akademik tadqiqotlarni rivojlantirish uchun muhim asos bo'ldi[12].

Ta'kidlab o'tish kerakki, qabul qilingan qonun, qaror va huquqiy hujjatlar jamiyat hayotida, xalqni fan va madaniyat bilan yaqindan tanishuvida, ilm-fan, madaniyat rivojida, shuningdek, maktab faoliyatida muzeylarning o'rni tabora ortishiga xizmat qildi. Buxorodagi mavjud muzeylar faoliyatida samaradorlikka erishish va innovasiyalarni joriy qilish, marketing xizmatini yaxshi yo'lga qo'yish, ijtimoiy tarmoqlarda muzey haqida, uning eksponatlari haqida doimiy ma'lumotlar berib turish juda muhim hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022-yil 27-may sanasidagi PQ-261-sonli "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'tiborga molik. Ushbu qaror mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga innovasion texnologiyalarni samarali qo'llash, shuningdek, o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid zamonaviy, yangi ekspozitsiyalarni yaratish, boy tarixiy va madaniy merosimizni keng targ'ib qilishga xizmat qildi.

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak, bular albatta o'z samarasini bera boshladi. Muzeyshunoslikka berilgan yuksak e'tiborning samarasi o'laroq, mazkur sohada quyidagi misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi: muzeyshunoslik sohasini rivojlantirish, takomillashtirishga doir qator qonun hujjatlari qabul qilindi hamda muzeylar faoliyatining tashkiliy huquqiy asoslari yaratildi. Muzey ishini samarali yo'lga qo'yish hamda muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida jamg'arma tashkil etildi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston muzeylarida saqlanayotgan moddiy va madaniy merosimizni keng jahon ommasiga namoyish etish bo'yicha qator ko'rgazmalar jahon muzeylarida tashkil etildi. Biz maqolamizda sanab o'tilgan soha rivojidagi muvaffaqiyatlar O'zbekistonda muzeyshunoslik sohasini taraqqiy etishga mustahkam zamin yaratgan omillardir[13]. Tashkil etilgan va etilayotgan ko'plab muzeylar yosh avlodni tariximiz, moddiy va madaniy merosimizni naqadar chuqur ildizga ega ekanligini singdirib kelmoqda. Yuqorida keltirib o'tilgan qonun, farmon, qarorlar asosida mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida muzeylar ishi va uni tashkil etishning chora tadbirlari belgilab berildi. Sobiq SSSR davrida qabul qilingan nizom va qarorlar o'tgan asrning 60-70-yillari uchun xos bo'lib, ular bugun shiddat bilan rivojlanayotgan zamon talablariga javob bera olmas edi. Shuningdek, muzeylar faoliyati sinfiylik nuqtai-nazaridan tashkil etilgan edi. Mustaqillik yillarida eng

## HISTORY

avvalo komil insonni tarbiyalash, vatanparvarlik, yoshlarni milliy istiqloq ruhida kamol toptirish, vatanga muhabbat, boy tarixdan faxrlanish, ajdodlarga munosib farzand bo'lib yetishish kabi g'oyalarni targ'ib etishning huquqiy asoslari yaratib berildi. Hozirgi kunda ayni ana shu ishlarning uzviy davomi sifatida "Boqiy Buxoro" tarixiy – etnografik parkining qurilishi bunga yorqin misol bo'la oladi. Buxoro shahrining jami 32,6 gektar maydonida "Boqiy Buxoro" tarixiy-etnografik parki bunyod etilishi ishlari boshlab yuborilgan. Bizning maqsadimiz bugungi kunda xorijiy sayyohning qolish davrini 5-7 kunga cho'zish yo'llarini o'ylayapmiz deb ta'kidlamogda Buxoro shahar hokimi Jamol Shuxratovich Nosirov[14]. Bu uchun infrastruktura juda ham kerak. Sayyohlarga zamonaviy mehmonxona, ovqatlanish shoxobchalari va boshqa zaruriy muassasalar juda ham kerak. Qurilishi rejalashtirilgan turistik markaz biz o'ylagan rejalarni amalga oshirish imkonini beradi. Bugungi kunda mutaxassislar, ekspertlar, turizm sohasi vakillari bilan birgalikda turizm markazida qurilishi rejalashtirilgan obyektlarning konsepsiyasi chuqur o'rganishlar natijasida ishlab chiqildi. Buxoro viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig'i Shohabbos Sharofiddinovning aytishicha, qurilish ishlari YUNESKO talablariga amal qilgan holda bajariladi. Etnografik park barpo etilishida xalqaro ekspertlar guruhi va mahalliy mutaxassislar jalb etilgan. Bu hududdagi barcha ishlar YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan 1972-yil 16-noyabrda qabul qilingan Umumjahon madaniy va tabiiy meros muhofazasi bo'yicha konvensiya talablari asosida amalga oshirilishi bo'lib o'tgan matbuot anjumanida aytib o'tildi. Xulosa qilib shuni aytish lozimki yaqin kelajakda Buxoroyi sharif yana o'zining ochiq osmon ostidagi jozibador muzeylari ya'ni me'moriy obidalari, milliy liboslaru-yu taomlari orqali xorijlik sayyohlarni o'ziga jalb qilib maftun eta oladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Bekturodova M.B., Rashidova M.X. *Muzeyshunoslik. Toshkent, 2005-yil.*
2. Ismoilova J. *Zamonaviy muzeyshunoslik asoslari. – Toshkent, 2016. – B.4.*
3. Habibullayev N. *Muзей va fan-ta'lim / O'zbekiston muzeylari istiqbollari. – Toshkent, 2013. – B.7.*
4. Альмеев Р. *Музей жамгармаларини оптималлаштириши, сақлаши ва кўргазмаллаштириши // Мозийдан садо. 2 (38)-Ташкент: 2008. Б-2-3.*
5. [https://lex.uz/pages/getpdfview.aspx?lact\\_id=3451889](https://lex.uz/pages/getpdfview.aspx?lact_id=3451889). *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 975-qarori 2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida 11-dekabr 2017 y*
6. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 265-sonli Qarori tahririda - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.04.2019y., 09/19/265/2858-son)*
7. *Sh.M.Mirziyoyevning Buxoroga tashrifidagi nutqlaridan. //www.google.com*
8. *Muзей va turizm rivojining yangi bosqichlari //www.muzeu.uz 5.*
9. *Bobir Boltayev, Новый этап развития музеев и музейного дела в Узбекистан, Центр Научных Публикаций (Buxdu.Uz) 5 (5)*
10. *Мардонов Р., Болтаев Б. Ўзбекистон археологиясининг ривожланиши //Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 68-71.*
11. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 августдаги ПҚ-3920-сон “Ўзбекистон Республикасида маданият ва санъат соҳасини инновацион ривожлантириши чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. Қаранг: <http://lex.uz/docs/3882752>.*
12. *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 ноябрдаги 945-сон “2020-2021 йилларда Ўзбекистон Республикаси музейларининг инклюзивлиги дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. Қаранг: <https://lex.uz/docs/4603332>.*
13. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 майдаги ПҚ-261-сон “Музейларда хизматлар соҳасини ривожлантириши чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. Қаранг: <https://lex.uz/docs/6040013>.*
14. *“Boqiy Buxoro” tarixiy-etnografik parki: “snos”lar, kompensatsiya va daraxtlar taqdiri — Daryo Yangiliklari.*

**BUXORO VOHASIDAGI ROMITAN QO‘RG‘ONINING ANTIK VA ILK O‘RTA ASRLAR DAVRI TARIXI**

*Bafoyeva Sarvinoz Umidjon qizi,*

*Buxoro davlat universiteti tarix va yuridik fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Buxoro vohasidagi Romitan qo‘rg‘onining antik va ilk o‘rta asrlar davri shaharning kelib chiqishi tarixi va unda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ilmiy tahlilga tortilgan. Romitaning eng qadimgi manbalarda keltirilishi, uning dastlabki hukmdorlari va shaharsozligining boshlanishi kabi masalalar tarixiy adabiyotlar va manbalar orqali ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Romitan, Laqlaqa, Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshaxiy, Alp Er To‘nga, qo‘rg‘on, L.Soldadze, arxeologik qazuv, V.Shishkin, R.Ravshanov.*

**ДРЕВНЯЯ И РАННЕСРЕДНЕВЕКОВАЯ ИСТОРИЯ КРЕПОСТИ РОМИТАН В БУХАРСКОМ ОАЗИСЕ**

**Аннотация:** *В данной статье научно анализируются история возникновения римской крепости в Бухарском оазисе, древний и раннесредневековый период города, а также проводимые в ней археологические исследования. Такие вопросы, как упоминание Ромитана в самых ранних источниках, его первых правителей и зарождение урбанизма, раскрываются через историческую литературу и источники.*

**Ключевые слова:** *Ромитан, Лаклака, Абу Бакр Мухаммад ибн Джафар Наршахи, Алп Эр Тонга, крепость, Л. Солдадзе, археологические раскопки, В. Шишкин, Р. Равшанов.*

**HISTORY OF THE ANCIENT AND EARLY MEDIEVAL PERIOD OF THE ROMITAN FORTRESS IN THE BUKHARA OASIS**

**Abstract:** *In this article, the history of the origin of the Roman fortress in the Bukhara oasis, the ancient and early medieval period of the city, and the archaeological research conducted in it are scientifically analyzed. Issues such as the mention of Romitan in the earliest sources, its early rulers and the beginnings of urbanism are revealed through historical literature and sources.*

**Key words:** *Romitan, Laqlaqa, Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshahi, Alp Er Tonga, fortress, L. Soldadze, archaeological excavation, V. Shishkin, R. Ravshanov.*

Har bir millat uchun bosib o‘tilgan yo‘l buyuk tarixdir. O‘zbekiston xalqlari tarixi Markaziy Osiyo hududida qadim zamonlardanoq yashay boshlagan insonlarning dastlabki manzilgohlaridan boshlanadi. Shular qatorida Romitan qo‘rg‘onini ham kiritish mumkin. Tarixiy manbalarda Romitaning Buxorodan ham qadimiyroq ekanligi haqida ma‘lumotlar beriladi. Xa, haqiqatdan ham Romitan mamlakatimiz va viloyatimizdagi qadimiy shaharlardan biridir. O‘tmishda uzoq moziydan xabar berib turuvchi tepaliklar, tarixiy obidalar, avliyolar, o‘rganilgan va hali o‘rganilmagan shu kabi juda ko‘plab joylar buning yaqqol dalilidir. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti ta‘kidlaganidek: “Bugun yangi o‘zbek davlatini barpo etar ekanmiz, biz tarixdan, ajdodlarimiz, ularning ruhi pokidan, Turkiston xalqlarining qadriyatlaridan, ma‘naviy merosidan, san‘atidan bahramad bo‘lishimiz tabiiydir[10]. Romitan tarixi moziyning teran va ko‘hna ildizlariga borib taqaladi. Ammo, qo‘rg‘on haqidagi ma‘lumotlarni yozma manbalarda kam uchratamiz. Biroq, topilgan bir arxeologik topilma orqali shaharning to‘liq tarixi haqida bilib olishimiz mumkin. Lekin Romitan tarixi hozirgi kungacha yetarli darajada o‘rganilgan emas.

Romitan qadimiy tarixga ega diyordir. Buxoro vohasining eng qadimgi shaharlaridan biri bo‘lgan Romitan to‘g‘risida Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshaxiy, Tabariy, Mahmud ibn Vali asarlaridan ma‘lumotlar olishimiz mumkin. “Avesto” asarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu asarda Romitan nomi zardushtiylik dinining ilohlaridan biri Rom nomidan olingan[1].

Romitan atamasi turkiy mitan urug‘i nomidan kelib chiqqan degan taxminlar ham mavjud. Pomitan O‘zbekiston va Sharqning eng qadimgi shaharlaridan biri hisoblanadi[2].

Romitan atamasini tarixchi olim Narshaxiy “Romtin”, Muhammad Solih “Razmitin” shaklida o‘z asarlarida keltirishgan. Asrimizning 20-yillarigacha bu aholi manzili Laqlaqa deb ham yuritilganligini aholi

ma'lumotlaridan bilishimiz mumkin. Ba'zi tarixiy manbalarda Romi so'zi harakatdagi otliq askar, nayzador ma'nosiga egaligi keltiriladi[9]. Shunga asosan, "askarlar turadigan joy", "harbiy manzil yoki qo'rg'on" ma'nosi ham bo'lishi mumkin. Ya'ni, "Roh" –yo'l, "miton" – qal'a, qo'rg'on, "yo'l bo'yidagi qo'rg'on" ma'nosida bo'lishini ehtimoli ham yo'q emas. Chunki, bu qishloq buyuk ipak yo'li bo'yidagi manzillardan biri bo'lgan.

Romitan shahrining barpo etilishi Turon davlatining asoschisi, turkiy xalqlarni yagona davlatga birlashtirgan shaxs Alp Er To'nga nomi bilan bog'liqdir. Alp Er To'nga milloddan avvalgi VIII asrda Buxoro yaqinida Romitan shahriga asos solgan ekan. Ayrim ma'lumotlardan bilishimiz mumkinki, Buxoro histori ya'ni shaharning qadimgi qismini ham u barpo etgan ekan[3].

Narshaxiyning 943-944 yillarda yozilgan, 36 bobdan iborat "Buxoro tarixi" asaridagi ma'lumotlardan ham yuqoridagi jummalarni tasdiqlashimiz mumkin. Asarda quyidagicha fikr bildirilgan: "Romtin katta ko'handizga ega bo'lgan mustahkam qishloq. Bu qishloq Buxorodan qadimiyroqdir. Bu qishloqda qadim vaqtlarda podshohlarning turar joylari bo'lgan, keyinchalik Buxoro shahri qurilgandan so'ng podshohlar faqat qish faslidagina turadigan bo'ldilar... Bu viloyatga Afrosiyob har vaqt kelganida shu qishloqdan boshqa joyda turmagan[4]."

Qo'rg'on va shahriston qadimgi davrda baland qal'a devori bilan o'rab olingan. Devorning bo'laklari shahristonning tashqi tuproq devorlarida saqlangan. Rabot hududi shahristonni g'arbdan, janubdan, janubi-sharqdan 50-100 metr masofada yarim aylana shaklda o'rab turgan. Qo'rg'on hududi 150 metr bo'lgan kvadrat shaklida bo'lib, undan janub va janubi-sharqda yarim aylana shaklda shahriston hududi joylashgan.

O.G. Bolshakovning ma'lumot berishicha, Romitan shahristoning maydoni 5 gektar, shaharning umumiy maydoni esa 56 gektar bo'lgan. "Dastlab, - Buxoro vohasining poytaxti Romitan shahri bo'lgan" – deydi O.G. Bolshakov[11].

"Turkistonning sug'orilish tarixi" asarida Romitaning qadimgi davri haqida quyidagi ma'lumotlarni uchratamiz: Eronliklarning qadimdan Zarafshon bo'ylarida qarorgohlari, hattoki shaharlari bo'lgan. Iskandar zamonida Zarafshonning quyi oqimida Maroqanda shahridan tashqari yana bir shahar bo'lgan. Bu hozirgi Buxoromi yoki boshqa shaharmi hali savol bo'lib turibdi. Hijriyning birinchi yillarida qator manzilgohlar o'zlarini Buxorodan qadim deb elon qildilar. Mana shunday qarorgohlardan biri Romitan qishlog'idir. Bu qishloq Riyomitan, Romisan, Aryamisan deb atalgan[5].

Qo'rg'onlarning shaharlarning tashkil topishida, albatta, suv resursi birinchi o'rinda turadi[6]. Relyefi va magistral suv ta'minoti bo'yicha Buxoroning qadimgi sug'orilgan yerlari ikkiga: shimoliy va janubiy qismlarga bo'linadi. Uning shimoliy qismi Romitan tumaning shimoliy chegarasiga tutashgan va antik davr yodgorliklari I, II, III Qizilqir, Setalak, Nortepa hamda ilk o'rta asr shahar xarobalari Xo'japorson, Xo'jaqul kabi bir qancha tepalar joylashgan hududlarni o'z ichiga oladi. Janubiy qismida esa Romitan va Varaxsha xarobalarini to'rt tomondan o'rab olgan keng dashtlik tashkil etgan. 1957-1959-yillarda Qizilqir II tepaligida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida ushbu manzilgohdan odamlar yashagan bir qancha uylarning qoldiqlarini ochishga muvofiq bo'lishdi. Yuqoridagi arxeologik qazishmalarni tadqiq qilsak, Romitan hududida neolit davridan boshlab odamlarning dastlabki manzilgohlari paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Uylar yog'och va somondan qurilgan, tashqi tomoni loy bilan gipslangan. Uylardan kul qoldiqlarining chiqqanligi o'choq mavjud bo'lganligini anglatadi. O'choqda olov doim yonib turgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, bu yerda yashagan odamlar dastlab olovga sig'inuvchilar bo'lgan.

Narshaxiyning asarlarida Romitanga yaqin qishloqlar to'g'risida ham ma'lumotlar olishimiz mumkin. Masalan, ulug' hakim Ibn Sino o'z tarjimai holidan shunday yozadi: "Harmaysan qishlog'i yaqinida Afshona nomi bilan qishloq bor. Shu yerda tug'ilganman". Afshona qishlog'ini ayrimlar qo'shni Laqlaqa qishlog'i bilan bitta deb adashadi. L.Soldadze "Ibn Sino" asarida yozishicha, xitoyliklar miloddan avvalgi V asrda Buxoroni Yumi deb ataganlar. Buxoro vohasidagi birinchi kanal – Shopurkon kanali bo'lgan. Rivoyatlarga qaraganda, shundan keyin Afrosiyob Romitan kanalini qurdirgan. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Shopurkon kanalidagi Vardona Romitandan qadimiyroq ekan[7].

O'rta asrlarda Romitanda fan va madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat g'oyatda rivoj topganligini alohida ta'kidlash zarur. Haqiqatdan ham Romitanda o'rta asrlarning buyuk kishilari yashab o'tganlar. Ammo sho'ro tuzumi – mustabid tuzum sharoitida Romitan va unga yondosh bo'lgan hududlardan yetishib chiqqan ulug' olimlar haqida biz – bugungi avlod juda kam ma'lumot olganmiz.

Romitaning yoshini aniqlash haligacha bahslarga sabab bo'lmoqda[3]. Romitan qo'rg'onini arxeologik manbalar orqali o'rganishimiz mumkin. Mashhur arxeologlar ekspeditsiyalar olib borishgan. Masalan, 1937-yilda V.Shishkin tomonidan arxeologik tekshirishlar olib borilgan va dastlabki umumiy arxeologik-topografik tavsianoma berilgan. 1972-yilda Zarafshon arxeologik otryadi azosi R.Ravshanov boshchiligidan Romitan tepaligida o'lchov va qazish ishlari amalga oshirildi. Qazuv natijalariga ko'ra, shahar murakkab shaklga ega

## HISTORY

bo'lganligi, relyefida bir-biridan ajralib turuvchi 4 ta baland tepalik borligi, balandlik sathi shimoldan janubga qarab pasayib borganligini ko'rishimiz mumkin. Qazish ishlari davrida rabot hududidan VI-IX asrlarga oid sopol buyumlar, mis chaqalar va sirlangan yaltiroq buyumlar topilgan[8]. Romitan qo'rg'onining hali kashf etilmagan qirralari ko'p, ammo, bugungi kunda bu arxeologik va tarixiy hudud qarovsiz qolgan va arxeologik jihatdan hali to'liq ochilmagandir.

Xulosa qilib aytganda Romitaning eng qadimgi davrlarini yoritishda arxeologik kuzatish va tadqiqotlar, yozma manbalar birinchi o'rinda turadi. Keyingi yillarda arxeologik kuzatish va tadqiqotlar o'tkazish orqali Romitaning eng qadimgi davrlarini o'rganishga muvofiq bo'lamiz deb o'ylaymiz. Hozirgi kunga kelib Romitanda 35 ta magistiral kanal orqali sug'orilishi qadimdan qolgan izlari mavjud. Shu daryolar bo'yida qadimdan saqlanib kelgan turli arxeologik yodgorliklar mavjud. Ular Xo'ja Ubbon, Urganchko'l kabilar bo'lib ular Buxorodan 50 km shimolda joylashgan.

XIX asrning 30-yillarida Buxoroga tashrif buyurgan Bern tomonidan miloddan avvalgi III-I asrlarga tegishli bo'lgan bir qancha kumush tangalar va Yunon-Baqtriya podsholigi davriga oid ashyolar topilgan. Bular, asosan, odamlar, hayvonlar suratlari va so'g'd yozuvlari, qimmatbaho toshlar tushirilgan sopol idishlardan iborat edi. Romitan hududidagi qabristonlarning birida ayol skeleti topilgan. Uning bo'ynida, oyoq va qo'llarida tilla taqinchoqlar bo'lib, jasaki bunday zebu-ziyatlar bilan ko'milganligi e'tiborlidir. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu hududlar mil.avv.IV-III asrlarda ovchilarning mavsumiy ov joylari bo'lgan hamda mil.avv. 2-mingyillikda kelib esa chorvadorlar uchun manzilgoh bo'lgan. Romitan hududida arxeologik ishlar juda ko'p amalga oshirildi. Xususan Yahyo G'ulomov boshchiliklarida ham ekspeditsiyalar bo'lgan. Bularning barchasi bir xulosa berdi. Romitan ko'hna va qadimiy shahar hisoblanadi. Uning tarixi boy o'timishi esa ibratlidir.

Hozirda esa arxeologik raskopka ishlari Romitaning qadimiy Qo'rg'on xarobalarida davom etmoqda. Bulardan ko'zlangan maqsad esa ming yillik tariximizni o'rganishdir. Arxeologik dala tadqiqotlari natijasida chorvador aholining turli xil bezaklar bilan bezatilgan kamarlari chiqqan. Hozirda bular turli muzeylarda eksponatlar ro'yxatiga kiritilgan.

Keyinchalik Zarafshon daryosiga yaqin hududlarda eramizdan avvalgi davrda odamlar ko'chib kela boshlashgan. Aholi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, sopol yasash va zargarlik bilan shug'ullanib kelishgan va bulardan dalolat beruvchi namunalari juda ko'plab topilgan.

Buxoroning janubi-g'arbida, Buxoro Gazli trassasiga yaqin, shahardan 40 km da, cho'lining o'rtasida joylashgan qadamjoy bu Romitandagi Xo'ja Ubbon ziyoratgohidir. Xo'ja Ubbon shaxsiyati haqida juda ko'p rivoyatlar mavjud. Ma'lum birlari uni xalifa Usmonning sevimli o'g'li, boshqalari bo'yicha esa u islomdan avvalgi Xorazmning kemachilar piri Sulton Xubbi deb talqin qiladilar. Qadimdan boshlab bu ziyoratgohga teri kasalliklari, asosan, pes kasalligiga chalinganlar kelganlar. Hozirgi davrda yil bo'yi kamida 80-150 kishi shu yerda istiqomat qilib davolanadilar. U yerda bo'lgan chashmaning suvi, loyini surtib, quyoshga turadilar. Davolanish maqsadida Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston va o'zimizning diyorumizdan yuzlab kishilar kelib davolanib ketmoqdalar. Natijalari ham ma'lum, ya'ni 1987-yil O'zbekiston dermatologiya instituti bir qator olimlari shu yerda bir oy kuzatuv ishlarini olib borganlar. 113 kishining davolanish natijalarini kuzatganlar, bundan 6-7% butunlay shifo topgan, 19-20% yaxshi o'zgarishlar, 50%da ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan ekan. Hozirgi Xo'ja Ubbon ziyoratgohida qadimda ibtidoiy odamlar yashagan va keyinchalik bu hudud ziyoratgohga aylandi. Bu yerda kasalliklarga davo bo'luvchi shifobaxsh suv bo'lgan shu uchun bu yer ziyoratgoh bo'lib qoldi. Xo'ja Ubbon atrofidagi obidalarining birortasida va uning atrofidagi adirlarda, jumladan, Xo'ja Ubbonning o'zida ham arxeologik qazishmalar olib borilgani yo'q va bu tepaliklar hamon tarixning sirli xazinasi bo'lib qolayotganligiga shubha yo'q.

Butun Zarafshon daryosining o'zlashtirilgan qismi bunga Romitan hududi ham kiradi va bular barchasi bronza davriga oiddir. Bu hududlardan bronza buyumlar, toshtumor, munchoqlar topilgan. Bularning barchasi Romitaning qadimiy tarixini bayon qiladi.

### ADABIYOTLAR:

1. Абу Бакр ибн жафар Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А. Расулов таржимаси. – Т.: Фан, 1966. –Б.23.
2. Ражабов Қ, Мухаммаджонова Л. Ромитан тумани тарихи. “Tafakkur”-Тошкент. 2015.–Б-12.
3. Halim To'rayev. Buxoro tarixi. Buxoro. “Durdona”. 2020.
4. Qobilov I.H., Latipov J.L., Kenjayev S.N. Ko'hna Romitan tarix zarvaraqlarida. “Kamolot”. Buxoro. 2023.
5. Мухаммаджонов А. Қадимги Бухоро. -Тошкент., 1991. –Б.38.

## HISTORY

---

6. Очилов Алишер Тулис угли, and Зулфизар Халим кизи Салимова. “Бухоро вохасининг тарихий географияси шаклланишида зарафшон дарёсининг урни.” *Scientific progress* 3.10. 2022.
7. Мухаммад Наршахий. *Бухоро тарихи / Форс тилидан А.Расуев таржимаси. Масъул мухаррир А.Уринбоев. – Тошкент. “Шарк баёзи”. 1993.*
8. Мухаммаджонов А. *Кадимги Бухоро (Археологик лавхалар ва тарих). - Тошкент. “Фан”. 1991. –Б.25.*
9. Halim To‘rayev. *Buxoro tarixi yozma manbalari. Buxoro. “Durdona”. 2023.*
10. Halim To‘rayev. *Joy nomlari ta’nosi. Buxoro. 2002. –Б-4ю*
11. Беленицкий А.М., Болюков О.Г. и другие. “Средневековые города Средней Азии”, Ленинград. 1973.
12. Asqarov A. *Eng qadimgi shahar. Toshkent. 2006-у.*
13. Asqarov A. *O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. 2007-у.*
14. Asqar Mahkam. “Avesto” *tarixiy adabiy yodgorlik. 2001-у.*
14. Бартолд В.В. *К истории орошения Туркистана. 1965 г.*
15. Eshov B. *Qadimgi O‘rta Osiyo shaharlari tarixi. Toshkent. 2006-у.*

**HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH  
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

*Meylikov Fazliddin Abduhalim o'g'li,  
Toshkent kimyo-texnologiya instituti  
Shahrisabz filiali stajyor o'qituvchisi  
[meylikovf@mail.ru](mailto:meylikovf@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati faoliyatining turli yo'nalishlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar ifodalangan va asoslangandir. Maqolada tahlil qilinayotgan asosiy parametrlar ko'proq hudud faoliyatining barqarorligi va mustaqilligining ijobiy va salbiy tomonlarini aks ettiradi. Qashqadaryo viloyatida hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning dasturlari, hozirgi holati va erishilgan natijalar tahlili bilan tanishiladi. Ayniqsa, yalpi ichki mahsulotning o'sishi bilan birgalikda hududdagi umumiy vaziyat ham tahlil qilingan, hamda statistik ma'lumotlar jadvallar asosida ifodalangan. Shuningdek, hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning sanoat korxonalarining rivojlanishi, oilaviy va kichik biznesni rivojlantirish orqali hududlar iqtisodiyotini ko'tarish hamda ishlab chiqarish hajmining o'sishida tutgan o'rnini aniqlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, barqaror rivojlantirish, investitsiya, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, sanoat korxonalari, yalpi hududy mahsulot, xizmat ko'rsatish.

**ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНОВ НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ  
ОБЛАСТИ**

**Аннотация.** Данной статье выражена и основана на показателях, отражающих различные направления деятельности Кашкадарьинской области. Основные параметры, проанализированные в статье, в большей степени отражают положительные и отрицательные стороны стабильности и самостоятельности региона. Представлены программы экономического развития регионов Кашкадарьинской области, нынешнее положение и анализ достигнутых результатов. В частности, наряду с ростом валового внутреннего продукта была проанализирована общая ситуация в регионе и представлены статистические данные на основе таблиц. Также в статье разработаны предложения и рекомендации по экономическому развитию регионов, развитию промышленных предприятий, развитию семейного и малого бизнеса, развитию экономики регионов, а также определению роли производства.

**Ключевые слова:** социально-экономическое развитие, устойчивое развитие, инвестиции, семейный бизнес, малый бизнес, промышленные предприятия, валовой региональный продукт, услуга.

**ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS IN THE EXAMPLE OF KASHKADARYA  
REGION**

**Abstract.** This article is based on indicators showing different spheres in Kashkadarya region. The main parameters that are analyzed in this article mostly reflect the positive and negative aspects of stability and independence of the region. In Kashkadarya region, programs of economic development of regions, current situation and analysis of achieved results are introduced. In particular, together with the growth of the gross domestic product and the general situation in the region are also analyzed. Statistical data are presented on the basis of tables. Also, it consists of developing proposals and recommendations on the economic development of regions, the development of industrial enterprises, the development of family and small businesses, and the development of the economy of regions, as well as determining the role of production.

**Keywords:** socio-economic development, sustainable development, investment, family business, small business, industrial enterprises, gross regional product, service.

**Kirish.** Albatta, erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug' bo'lgan diyor – Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi dastlabki natijalardir. Biz bunyodkor xalqimiz bilan birga bunday ezgu ishlarni davom ettiramiz va oldimizga qo'ygan katta-katta marralarga albatta erishamiz. [1]

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi kunda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan yirik obyektlar foydalanishga topshirilmoqda.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini taminlash, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan hududlarni iqtisodiy rivojlantirish modernizatsiyalash sharoitida sohalarda ko'tariladigan muammolar va barcha sohani barqaror rivojlantirish bo'yicha asoslangan taklif va hulosalar ishlab chiqish bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Bugungi iqtisodiy jarayonlar sharoitida mamlakatda hududlarni iqtisodiyot rivojlantirishning iqtisodiy mohiyati va asosiy yo'nalishlarini, hududlarni «iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari hamda hisoblash tartibini tahlil qilish, Qashqadaryo viloyatida hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning dasturlari, hozirgi holati va erishilgan natijalar tahlili bilan tanishishdir. Shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hududlarni iqtisodiy rivojlantirishda investitsiyalarni jalb etilishining aholi turmush sifatini oshirishga ta'siri va hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning sanoat korxonalarining rivojlanishi hamda ishlab chiqarish hajmining o'sishida tutgan o'rnini aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Keng ko'lamlil va samarali islohotlarimiz natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiyotimizga shu yilning o'zida 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetdi". [2]

I.O.Yakubov, A.A.Islomov, M.N.Sunnatovlarning takidlashlaricha "Hududni ijtimoiy-iqtisodiy va ekalogik jihatdan taraqqiy etishi pirovard natijada milliy iqtisodiyotning jivojlanish darajasini belgilab beradi. Ma'lumki hududlarning tabiiy-resurs salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, demografik sharoiti va ekalogik vaziyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biridan farq qiladi. Ayni shu holat ularda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va ulardan oqilona foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O'ziga xos bo'lgan xususiyatga ega bo'lgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan unumli foydalanish ham barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib xizoblanadi" deb ta'kidlashgan. [3; 4-b]

B.O.Tursunov va J.Sh.Tuxtabayevlarning fikricha "O'zbekistonda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli dasturlari o'z oldiga hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, barqarorlik va iqtisodiy o'sish barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini, investitsion va eksport salohiyatini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mehnat bozorida keskinlik darajasini pasaytirish, aholi daromadlari o'sishi va kam ta'minlanganlikni qisqartirish nazarda tutiladi" deb ta'kidlangan. [4; 25-b]

Hududlarni iqtisodiy rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ma'qul:

- Hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning iqtisodiy mohiyati va asosiy yo'nalishlarining nazariy va ilmiy asoslarini o'rganish;
- Hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari hamda hisoblash tartibi to'g'risida tushuncha uning iqtisodiy mohiyatini aniqlash;
- Qashqadaryo viloyatida hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning dasturlari, hozirgi holati va erishilgan natijalar tahlili bilan tanishish;
- Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hududlarni iqtisodiy rivojlantirishda investitsiyalarni jalb etilishining aholi turmush sifatini oshirishga ta'sirini o'rganish;
- Hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning sanoat korxonalarining rivojlanishi hamda ishlab chiqarish hajmining o'sishida tutgan o'rnini kursatib berish.

Qashqadaryo viloyatida hududiy rivojlanishning eng yuqori ko'rsatkichlariga erishish mumkin. Natijada hududda aholining turmush sifatini oshirishga va mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga imkoniyat yaratiladi.

## ECONOMY

Shu yil 7-mart kuni davlat rahbari huzurida o'tgan yig'ilishda mahallalardagi imkoniyatlarni ishga solib, oilalarga daromad manbai yaratish tizimi muhokama qilingan edi. Bunda eng qulay va hammabop imkoniyat tomorqadan foydalanish ekani ta'kidlandi.

Prezidentimiz har doim mamlakat miqyosidagi dasturlarni, xayrli ishlarni eng og'ir tumanlardan boshlash kerakligini aytadi. Bundan maqsad, avvalo, o'sha yerdagi sharoitni yaxshilab, odamlarning og'irini yengil qilish hamda, shuning barobarida, bunday tumanlarda nimalar qilish mumkinligini amalda ko'rsatishdir.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ham muhim yo'nalish hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, ular faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, soliq tizimini isloh qilinishining, ruhsat berish tartib-tamoillarining soddalashtirilishi, tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshirishlarining bekor qilinishi kabilar shular jumlasidandir. Bundan tashqari oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan aniq maqsadli "Har bir oila-tadbirkor" dasturi ham qabul qilingan.

### Qashqadaryo viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari [5]

	O'lchov birligi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Yalpi hududiy mahsulot	milliard so'm	35 605,3	42 560,2	49 692,3	58 404,5
	o'sish sur'ati, % da	102,7	106,8	106,7	105,0
Sanoat mahsuloti	milliard so'm	14 612,3	18 771,9	22 624,4	28 259,6
	o'sish sur'ati, % da	102,9	115,4	110,1	107,1
Iste'mol tovarlari	milliard so'm	4 947,4	4 660,9	3 003,5	4 800,5
	o'sish sur'ati, % da	110,9	95,7	106,7	102,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	milliard so'm	24 510,3	29 352,8	33 384,6	40 167,9
	o'sish sur'ati, % da	104,0	102,2	103,7	104,3
Asosiy kapitalga investitsiyalar	milliard so'm	20 557,6	17 359,1	16 012,8	21 686,8
	o'sish sur'ati, % da	76,5	77,8	80,0	120,9
Qurilish ishlari	milliard so'm	4 832,6	6 336,6	7 793,8	9 246,2
	o'sish sur'ati, % da	98,6	117,6	105,3	107,0
Chakana savdo tovar aylanmasi	milliard so'm	13 523,9	13 523,9	18 165,9	21 549,4
	o'sish sur'ati, % da	102,0	110,8	111,9	107,7
Xizmatlar, jami	milliard so'm	10 349,5	12 907,4	15 967,7	19 518,4
